

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Bobir Namozov

**SHARQ ALLOMALARINING ILMIY-
MA‘NAVIY MEROSI**

O‘quv qo‘llanma

**“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2022**

UO'K 001(091)(075.8)

83.3(50')

N 23

Namozov, Bobir

Sharq allomalarining ilmiy-ma'naviy merosi [Matn] : o'quv qo'llanma / B.

Namozov .-Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona, 2022.-? b.

KBK 83.3(50')

Ushbu o'quv qo'llanma Sharq allomalarining ilmiy-ma'naviy merosini har tomonlama o'rganish uchun muhim yordamchi adabiyot bo'la oladi. Bunda Sharqning yirik qomusiy allomalari hayoti va faoliyati keng yoritilgan. Shu bilan birga bu buyuk siymolarning kashfiyotlari va dunyo faniga qo'shgan munosib hissalarini tahlil etilgan. Madaniyatimiz tarixida va tafakkur madaniyati tarixining muhim qismi hisoblangan tasavvuf hamda tariqatlar tarixi, ulug' mutasavviflar hayoti va ma'naviy merosi yangi ma'lumotlar asosida talqin etilgan. Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Shuningdek, Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy-ilmiy merosining zamonaviy sivilizatsiya tarixidagi o'rni va rolga baho berish, uning bugungi kunimiz uchun muhim jihatlari o'rganish, milliy g'oya, milliy mafkuramizning tarixiy-falsafiy ildizlari ekanligini asoslashga harakat qilingan.

Tasavvuf va tariqatlarning bunyodkorlik g'oyalari, ezgulikka va halol mehnatga, kasb-hunar egallashga, ayniqsa, o'zlikni-anglashga chorlovchi ezgu niyatlarini, ma'naviy hayotimizning barqarorligini mustahkamlashda muhim omillardan biri ekanligi asoslangan.

Ushbu o'quv qo'llanmani tayyorlashda respublikamizning qator etakchi olimlarining kitob-u risolalaridan keng foydalanildi. Mazkur qo'llanmada to'ldiriladigan, kengaytirish mumkin bo'lgan mavzular yoki dasturdan tashqari mavzular bo'yicha taklif va mulohazalar elektron manzilimizga yuborilisa minnatdor bo'lamiz. Qo'llanma tarix (islom tarixi va manbashunosligi) ta'lim yo'nalishi talablari, shu sohada faoliyat olib borayotgan tadqiqotchilar, magistrlar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Falsafa fanlari doktori, professor Navro'zova G.N

Taqrizchilar:

Falsafa fanlari doktori (DSc) dotsent., A.Z. Sharipov

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Z.I. Narziyev

Falsafa fanlari nomzodi, dotsent., E.X. Zoirov

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 2-avgustdagi 257-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.

Ro'yxatga olish raqami 257-084.

ISBN 978-9943-8762-8-6

Kirish

Ushbu o'quv qo'llanmada allomalarimizning insoniyat sivilizatsiyaga qo'shgan munosib hissasi, ularning Uyg'onish davri ilm-fan, madaniy yuksalishlar davrida qilgan kashfiyotlari, bashariyat uchun qanchalik muhim ekanligi keng yoritilgan. Sharqda islom va ilm muammosi hamda Markaziy Osiyoning yirik ilmiy markazlarda olib borilgan tadqiqotlar xaqidagi yangi ma'lumotlar tahlil etilgan. Uning Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan.

Islom madaniyati va uning o'ziga xos xususiyatlari, Sharq allomalarning islom madaniyatiga qo'shgan hissalar va uning ahamiyati, milliy ma'naviy hayotimizda allomalar merosining tutgan o'rni, barkamol avlodni tarbiyalashda buyuk allomalarimizning merosining roli, O'rta Osiyolik buyuk allomalar merosining umuminsoniy xarakteri, insoniyat yaratgan sivilizatsiyaga qo'shgan hissasi xaqida tushunchalar beriladi.

Su bilan birga, ushbu o'quv uslubiy qo'llanma tasavvufning paydo bo'lishi, shakllanishi va tasavvufga doir masalalar, milliy istiqlol mafkurasi va sufiylik tarixi, islom dini, oqimlar va yo'nalishlar, mazhablar, tasavvuf ilmining yuzaga kelishi va xususiyatlari, sufiylikning islomiy manbalari, tasavvufning tarixiy shakllanish jaryoni, Kubroviya tariqatining O'rta Osiyoga tarqalishi, YAssaviya tariqati, Yassaviya tariqatining O'rta Osiyo ma'naviy hayotida tutgan o'rni. Amir Temur va Yassaviya tariqati, Naqshbandiya tariqati, Baxouddin Naqshband va Naqshbandiylik tariqati, tasavvufning asosiy muammolari kabi masalalarini ham yoritib beradi.

I Bob. Sharq allomalarining ilmiy-ma'naviy merosi

1-Bo'lim: Sharq allomalarining ilmiy merosining zamonaviy sivilizatsiya tarixidagi o'rni va roli

1-Mavzu: Muso al-Xorazmiyning hayoti va faoliyati

Reja:

1. Muso al-Xorazmiyning dunyo ilm-faniga qo'shgan hissasi
2. Muso Xorazmiyning "al-Kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala" risolasi va "Algebra" faniga asos solinishi
3. Muso al-Xorazmiy "Bayt-ul Xikma"dagi faoliyati

Bu dunyoning azaliy va abadiy muammolari, shu bilan birga, har bir davrning dolzarb masalalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topilgan taqdirdagina ma'naviyat olami ma'no-mazmun bilan boyib boradi. Boshqacha aytganda, har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot-bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, ma'naviyatning shaklanishiga o'ziga xos ta'sir o'tkazadi. Bu ma'naviyatning yuksalishi va yangicha dunyoqarashning shakllanishi uchun davrning dolzarb muammolariga asosli, tajribadan o'tgan, har tomonlama puxta ishlangan ilmiy echimlar zarurligini anglatadi.

IX-XII asrlarda insoniyat sivilizatsiyasiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shgan O'rta Osiyolik buyuk mutafakkirlardan biri Muhammad Muso al- Xorazmiy (783-850) dir. Hozirgi zamon yirik fan tarixi tadqiqotchisi D.Sarton o'zining "Fan tarixiga kirish" nomli kitobida al-Xorazmiyning matematika fanlari taraqqiyotidagi hurmatiga baho bera turib, uni "o'z davrning eng buyuk matematigi va agar boshqa sharoitlarni hisobga olinsa, butun davrlarning eng ulug' matematigi deb atagan".¹ Al-Xorazmiy dunyo faniga juda katta hissa qo'shgan vatandoshimiz hisoblanadi. U algebra fanining asoschisidir. "Algebra" so'zi esa, uning "Al-kitob al-muxtasar fil-hisob al-jabr va al-muqobala" (algebra oid) asarining nomidan

¹ Хайруллаев М. ал-Хоразмий-буюк энциклопедик олим.-Тошкент: Ўзбекистон, 1993.- Б.23.

olingan “al-jabr” ning lotincha yozilishidir. Uning arifmetikaga oid risolasi hozir biz foydalanadigan oʻnlik qatorlar tizimi hind raqamlariga asoslangan boʻlib, keyinchalik butun Evropa va dunyoga tarqaldi. Al-Xorazmiyning geografiyaga oid asari keyingi davrlarda bir qancha geografik asarlarning yaratilishiga zamin boʻlgan. Uning “Ziji” (astronomiyaga oid) asari SHarqda ham, Evropada ham astronomik bilimlarining rivojlanishiga yoʻl ochib bergan.

Muso al-Xorazmiyning: 1) “Al jabr va al muqobala hisobi haqida kitob” (algebra oʻid); 2) “Hind hisobi haqida kitob” (arifmetikaga oʻid); 3) “Kitob surat al-arz” (geografiyaga oʻid); 4) “ziji” (astronomiyaga oʻid); 5) “Usturlob bilaan ishlash haqida kitob”, 6) “Usturlob yasash haqida kitob”, 7) “Usturlob yordamida azimutni aniqlash haqida”, 8) “Kitob ar-ruhoma”, 9) “Kitob at-ta’rix”, 10) “YAhudiylarining taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola”. asarlari u yashagan feodal tuzumining amaliy talablariga javob sifatida vujudga kelgan. Rivojlanib kelayotgan feodal tuzumi taqozo qilgan ijtimoiy-iqtisodiy talablar bu davr ilm-fan taraqqiyotining asosiy omillari boʻlib xizmat qilgan. Bu davrdagi qurilish, savdo-sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik va boshqa sohalarini rivojlantirish uchun astronomiya, geodeziya, geometriya va boshqa ilm sohalarini taraqqiy ettirish zarurdir. Oʻz davrining ilgʻor olimi boʻlgan Muso al-Xorazmiy bu bilim sohalarining amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega boʻlgan holda oʻzining arifmetikaga oid asarida shunday yozgan edi:” “Men arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini oʻz ichiga oluvchi “Aljabr va al-muqobala” hisobi haqida qisqacha kitobni taklif qildim, chunki meros taqsimlashda, vasiyatnoma tuzishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda, shuningdek, er oʻlchash, kanallar oʻtkazishda geometriya va boshqa shunga oʻxshash turlicha ishlarda kishilar uchun bu zarurdir”². Olimning “Al-Xorazmiy” nomi lotin tilida “algoritmus” deb atalib, hozir bu ibora hisoblash sohasida “algoritm” degan holda fanda chuqur oʻrnashib qoldi.

Muso al-Xorazmiyning tabiatshunoslik fanlariga oid 20 dan ortiq asarlari boʻlib, ulardan bizgacha faqat 10 tasi etib kelgan.

² Муҳаммад ибн Мусо ал-Хоразмий. Алжабр вал-муқобала \ҳисоби ҳақида қисқача китоб (алгебра) Танланган асарлар.-Тошкент: Фан, 1983.Б.78.

Uning algebraga oid “Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala” risolasi uch qismdan iborat bo‘lib, 1-qismning oxirida kichik bir bo‘lim savdo muomalasiga oid masalalar; 2-qism-geometrik qism-algebraik usullar qo‘llangan o‘lchashlar haqida, nihoyat, 3-qism – vasiyatlar haqidagi qism. Bu qismni u “Vasiyatlar kitobi” ham deb atagan. Bu asarning boshida al-Xorazmiy o‘z oldiga kompleks sonlarga oid masalalarni echishga doir nazariy fikrlarni bayon qilishni maqsad qilib qo‘yadi. SHu bilan birga, u o‘z davrida kun tartibida turgan ehtiyojlar, islom va shariat talablariga ko‘ra yuzaga keladigan masalalar, me‘morchilik va irrigatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni hal qilishni ham ko‘zda tutganligini bildiradi.

Umuman olganda, al-Xorazmiy algebrasi – bu sonli kvadrat va chiziqli tenglamalarni echish haqidadir. Uning aytishicha, algebra uch xil son bilan ish ko‘radi. Bularning birinchisi: ildiz (jizr) yoki narsa (shay), ikkinchisi: kvadrat (mol), uchinchisi: oddiy son yoki dirham. Al-Xorazmiyning yozishicha, ildiz – o‘zini o‘ziga ko‘paytiriladigan miqdordir, kvadrat esa ildizni o‘ziga ko‘paytirishda hosil bo‘lgan kattalik (son) dir. Uning asarida u ish ko‘radigan tenglamalar mana shu uch miqdor orasidagi munosabatlarga oid amallardir. Al-Xorazmiy o‘z risolasida ish ko‘radigan bu masalalar oltita chiziqli va kvadrat tenglamalarning tasnifi va echimiga oiddir. Al-Xorazmiy asos solgan bu algebraik bilimlarni undan keyin SHarq olimlari davom ettiradi va muvaffaqiyatli rivojlantiradilar.

Al-Xorazmiyning eng yirik asari uning astronomiyaga oid “Ziji” dir. Bu asari 37 bob, 116 ta jadvaldan iborat bo‘lib, uning dastlabki 5 bobi xronologiyaga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda “to‘fon”, “iskandar”, “safar” va xristian eralariga oid yil, asr sanalarini hijriy eraga ko‘chirish qoidalari beriladi. 6-bobda u aylana (doira)ning 12 burji, har bir burj-30 darajaga, har bir daraja 60 daqiqaga, har bir daqiqa-60 soniyaga va hokazo bo‘laklariga bo‘linishi bayon etiladi. 7-22-boblarda Quyosh, oy va 5 ta sayyoralarning harakatlari bayon qilingan. 23-bob esa trigonometriyaga bag‘ishlanib, unda al-Xorazmiy “tekislik” va “akslangan sinus” tushunchalarini kiritadi va ularga oid funksiyalar jadvalarini keltiradi. 25-27- boblar matematik geografiyaga bag‘ishlangan. Bu boblarda muallif geografik joylarning uzunlik va kengliklarini aniqlash qoidalari keltiradi. SHu bilan birga, bu o‘rinda koordinatlarning o‘zgarishi Quyoshning yillik, oylik va sutkalik harakati ekliptik: ekvatorial koordinatlarining o‘zgarishi bilan

bog‘liqligi ko‘rsatiladi. 28-bobda esa al-Xorazmiy yana trigonometrik masalalarni qo‘yib, bunda tangens, kotangens tushunchalarini kiritadi va ularga mos jadvallarni beradi.

29-bobda u yana planetalar harakati va ularning harakat tezligi haqida bayon qiladi. 30-bobda Quyosh va oy ko‘rinmas kulchalarining o‘lchamlari keltiriladi.

31-32 va 36-37-boblarda munajjimlik masalalarining bayoni beriladi. Nihoyat, 33-

35-boblarda Quyosh va Oy tutilish va parallaks (yoritkichning ko‘rinish farqi) masalalari yoritilib berilgan. Al-Xorazmiyning bu asari butun SHarq va Evropa tabiatshunoslik bilimlarining taraqqiyotiga juda katta ta‘sir ko‘rsatadi. Hatto u keyingi davr geografik kashfiyotlarning ochilishida ham muhim rol o‘ynaydi.

Al-Xorazmiyning “Er surati haqida kitob” i geografik asar sifatida juda muhim ahamiyatga ega. Kitobda boshlang‘ich meridian sifatida Arin (hozir Hindistonda Ujayn) shahridan o‘tgan meridian tanlangan. Unda Erdagi shaharlar, tog‘lar, dengizlar, orollar va daryolardagi 2402ta geografik joylarning koordinatlari keltiriladi. Bu shaharlar, daryolar, tog‘lar, orollar va boshqa joylar iqlimlar bo‘yicha taqsimlangan. U o‘z geografiyasini iqlimlar nazariyasiga ko‘ra birinchi marta to‘liq bayon etgan. Al-Xorazmiy Erning insonlar yashaydigan obod qismini etti iqlimga ajratadi. U uzunliklarni Kanar orollaridan boshlab hisoblaydi. Al- Xorazmiy ekvatoridan janubda 8 ta shahar; 1-iqlimda 64 ta shahar, 2-iqlimda 54 shahar, 3-iqlimda 59 ta shahar, 4-iqlimda 146 ta shahar, 5-iqlimda 79 ta shahar, 6- iqlimda 63 ta shahar, 7-iqlimda 25 ta shahar va 7-iqlimdan shimolda 40 ta shaharning koordinatlarini keltiradi. Asarning 2-bobida shu etti iqlimdagi tog‘lar tasvirlanadi. Tog‘larning boshlanishi va oxirining koordinatlari keltiriladi. Al- Xorazmiy bunda YAqin va O‘rta SHarqdagi, ayniqsa, Kavkaz va Markaziy Osiyodagi tog‘larni, bu erlardagi shaharlarni batafsil bayon qiladi. Bunga uning bu yerlarning geografiyasini yaxshi bilganligi, ular bilan shaxsan tanish bo‘lganligi qo‘l keladi.

Xullas, al-Xorazmiyning yuqorida keltirilgan asaridan shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, u fanlarning qator tarmoqlarining asoschisidir.

Uning bu bilimlar sohalariga oid g'oyalari keyinchalik bir necha fanlarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga asos bo'ldi.

Al-Xorazmiy asarlari dunyoning turli kutubxonalarida saqlanmoqda, ular turli SHarq va G'arb tillariga tarjima qilingan. U o'z asarlari bilan nafaqat o'z vatani-Xorazmni, balki butun SHarq, arab dunyosini, Markaziy Osiyoni dunyo xalqlariga mashhur etdi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi vatandoshimiz, buyuk alloma al- Xorazmiy ijodiy faoliyatini, uning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlarini chuqur o'rganishga va kelgusi avlodlarga imkoni boricha to'liq etkazshga sharoit va imkoniyat tug'dirdi. Bugungi kunda professor O.F.Fayzullaev qayd qilganiday, geometriyani Evklid, noevklid geometriyani Lobachevskiy, kimyoviy elementlarning davriy tizimini Mendeleev, nisbiylik nazariyasini Eynshteyn yaratganidek, «tenglamalar nazariyasi sifatida algebrani al-Xorazmiy kashf etganligini butun jahon tan oladi». Fan va texnika sohalarida “amper”, “vatt”, “rengen”, “kyuri” kabi terminlar qatorida “algoritm”, “algol” tushunchalari ham ilmiy muloqotdan mustahkam o'rin oldi.

Muso al-Xorazmiy “Bayt-ul-hikma” da faoliyat yuritgan davrda Xalifa Ma'mun olimlar oldiga osmon va erning to'liq xaritasini tuzishni vazifa qilib belgiladi. Bunga al-Xorazmiy rahbarlik qildi. 840 yillar atrofida nihoyasiga etgan bu ish “Majmui al-Ma'mun”- “Dunyo xaritasi” nomi bilan yuritildi. SHu munosabat bilan Xorazmiy jug'rofiyaga oid “Kitobi surat l-ard” asarini yaratdi. Bu asarning yagona qo'lyozma nusxasi Qohiradan topilgan, ancha varaqlari yo'qolgan. 22 ta xaritadan faqat 4 tasi saqlangan. al-Xorazmiy Er yuzini “Avesto” ta'limotidagidek 7 iqlimga bo'lib, o'rganishni taklif etadi. “Xorazmiyning iqlimlar nazariyasi geografiyaning nazariy va amaliy sohalaridagi tadqiqotlarga katta turtki berdi. Uning nazariyasi tufayli erning odamlar yashaydigan qismini mintaqalar bo'yicha o'rganish osonlashdi va mntaqalardagi noma'lum erlarni aniqlashga hamda qit'alarni o'rganishga intilish kuchaydi. Pirovardida bunday intilish va tadqiqotlar geografik kashfiyotlarga olib keldi. SHu bilan birga, bu intilishlar astronomiya va matematika sohalaridagi qator ixtirolarga sababchi bo'ldi”³. Al-Xorazmiy merosini chuqurroq o'rganish muhimdir.

³ Ахмедов А. Хоразмий ва география фани// Мухаммад ибн Мусо ал-Хоразмий. Танланган асарлар.- Тошкент: Фан, 1983 -Б. 252.

Mavzu bo'yicha qo'shimcha savol va topshiriqlar

1. Muso al-Xorazmiy yashagan davr va uning hayoti haqida nimalarni ayta olasiz?
2. Muso al-Xorazmiyning insoniyat tamadduniga qo'shgan hissasi haqida nimalarni bilasiz?
3. Muso al-Xorazmiyning "Bayt-ul hikmat" "Donishmandlar uyi" dagi faolayati qanday baholaysiz?
4. Muso al-Xorazmiyning qaysi asari XII asrda lotin tiliga tarjima qilingan?

Quyidagi qo'shimcha adabiyotlarni albatta o'qib chiqing

1. Karimov I. YUksak ma'naviyat-engilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, 2008. B.

176.

2. Mirziyoev Sh. YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASI-Toshkent:

"O'zbekiston", 2021.464 bet.

4. Axmedov A. Xorazmiy va geografiya fani. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar.-Toshkent: Fan, 1983 -B. 252.

5. Ma'naviyat yulduzlari.-Toshkent: fan, 1999 yil 354.bet.

2-Mavzu: Abu Abdulloh al-Xorazmiyning hayoti va tarixiy merosi

Reja:

1. Abu Abdullox Xorazmiy hayoti va faoliyati

2. Abu Abdullox Xorazmiy “Mafotix al-Ulum” asari
3. Abu Abdullo Xorazmiy tarixiy merosining ahamiyati

Abu Abdulloh al-Xorazmiy (997 v.y.) IX—XI asrlarda Oʻrta Osiyoning buyuk allomalaridan biridir. U olim haqida saqlanib qolgan maʼlumotlar juda kam. Abu Abdulloh Xorazmiy Xorazmlik buyuk alloma uning toʻliq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn YUsof Xorazmiydir. Uning yoshligi Xorazmning Xiva, Zamaxshar va Qiyot shaharlarida oʻtgan. Bu shaharlarda u voyaga etgan, yashagan, taʼlim olgan. Olim Xurosonda ham yashagan. Uning mashhurligi vazir Abul Hasan al-Utbiy huzurida kotib boʻlib xizmat qilgan davrida choʻqqisiga chiqqan. SHu vazifasi tufayli u “al-kitob al-Xorazmiy” nomi bilan ham tanilgan. Oʻz xizmat vazifalari yuzasidan Buxoroga tez-tez borib turgan va koʻpgina allomalar bilan hamsuhbat boʻlgan. Ayni vaqtda ilmga chanqoq olim xizmat asnosida amirning boy kutubxonasidan foydalanish huquqini qoʻlga kiritgan. Olimning dunyoqarashi oʻsha davrda keng tarqalgan qadimgi yunon falsafasi va madaniyati, SHarq namoyandalari YOqub ibn Ishoq al-Kindiy, Abu Nasr al-Forobiy hamda Abu Bakr ar-Roziy taʼsiri ostida shakllangan. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning bizgacha etib kelgan, koʻpchilik asarlari singari oʻsha davrning ilm tili — arab tilida bitilgan, yagona maʼlum asari — “Mafotih al-ulum” (“Ilmlar kalitlari”)dir. “Mafotih al-ulum” ning qoʻlyozma nusxalari juda koʻp emas. YAqin-yaqingacha uning toʻrt nusxasi bor deb hisoblanib kelinar edi. Ana shu toʻrt nusxadan uchta Buyuk Britaniya muzeyida № 7528, № 23429 va № 2524 raqamlari hamda Berlin kutubxonasida №1051 raqami ostida saqlanadi. Amerikalik olim K. Bosvort asrimizning 60-yillarida ushbu asarning yana olti nusxasini Turkiya kutubxonalarida borligini aniqlagan. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning bu asari Oʻrta asarlardagi fanlar rivojlanishi tarixiga oid kamyob manba sifatida koʻpgina olimlarning diqqat-eʼtiborini oʻziga jalb etdi. Birinchi boʻlib bu manbani oʻrgangan va 1895 yilda nashr qilgan olim — gollandiyalik sharqshunos Van Flotendir. SHuningdek, I. YU. Krachkovskiy, V. V. Bartold, K. Brokelman, E. Videman, G. Sarton, M. M. Xayrullaev, U. I. Karimov, G. P. Matvievskaaya, H. Hasanov, A. SHaripovlar ham asarning turli tomonlarini tadqiq qilganlar. “Mafotih al-ulum” oʻziga xos qomusiy asar boʻlib, oʻsha davrdagi deyarli hamma asosiy

fan sohalarini o‘z ichiga qamrab olgan. Muallif o‘rta asrlardagi har bir ilm mazmunini sharhlash yo‘li orqali tushuntirib bergan. Olim ilmlarni ikkiga bo‘lib, ularga “arab — shar’iy” va “arab bo‘lmagan” larga ajratadi Bu hol olim o‘z davrining namoyandalari singari ilmlar tasnifida ularni ikki qismga bo‘lish an’anasiga sodiq qolganligini ko‘rsatadi.Uning birinchi an’anaviy “arab” ilmlari qismi o‘n bir bobdan iborat fiqh, etti bobdan iborat kalom, o‘n ikki bobdan iborat grammatika (sarf va nahv), sakkiz bobdan iborat ish yurgizish, besh bobdan iborat she’r va aruz hamda to‘qqiz bobdan iborat tarixdan tashkil topgandir. Ikkinchi qismiga esa “arab bo‘lmagan” quyidagi ilmlar kiritilgan: ular — uch bobdan iborat falsafa, to‘qqiz bobdan iborat mantiq, sakkiz bobdan iborat tib, besh bobdan iborat arifmetika, to‘rt bobdan iborat handasa, shuningdek, to‘rt bobdan iborat ilm an-nujum, uch bobdan iborat musiqa, ikki bobdan iborat mexanika va uch bobdan iborat kimyodir.SHunday qilib, asar ikki qismdan iborat bo‘lib, unda o‘n besh ilm to‘qson uch bobda bayon etilgan. Abu Abdulloh al-Xorazmiy ilmlar tasnifining shakli quyidagicha:I.SHarat va u bilan bog‘liq “arab” ilmlari:

1. Fiqh, ya’ni musulmon huquqshunosligi.2. Kalom, ya’ni din asoslari.

3.Grammatika.

4.Ish yurgizish.

5.SHe’riyat va aruz.

6.Tarix.

“Arab bo‘lmagan” ilmlar (yunon va boshqa xalqlar):

1.Nazariy falsafa:a) tabiiy ilmlar — tibbiyot (tib, samoviy hodisalar —

meteorologiya, mineralogiya, alkimiyo, mexanika) — quyi;

b) riyoziyot ilmlari (arifmetika, handasa, ilm an-nujum, musiqa) —

o‘rtanchi;

v) ilohiy, ya'ni metafizika — oliy ilm;g) mantiq.

2. Amaliy falsafa:a) axloq — etika (odamni boshqarish);

b) uyshunoslik (uyini boshqarish);v) siyosat (shaharni, mamlakatni boshqarish).

“Mafoth al-ulum” da ilmlar tasnifi har bir fanning predmetini aniqlash hamda ularning asosiy atamalarini qisqa va aniq bayon etish bilan birgalikda olib boriladi. Abu Abdulloh al-Xorazmiy uz tasnifida o'sha davr an'anasi, ya'ni ilmlarni ikkiga bo'lishni qo'llab-quvvatlab, shar'iy va falsafiy ilmlarga ajratadi. An'anaviy arab ilmlari shu ilmlardan biri, fiqhda muallif islom qonunshunosligining asosi bo'lgan va islom huquqi posbonining doimiy dasturi Qur'on, payg'ambar so'zlari, hikmatli gaplari va hayotlarini aks ettiruvchi Sunnat, Hadis va uning xillari; Ijmo' — islom jamoasining yakdillik bilan tan olgan qarori; shariat qonun-qoidalariga amal qilishni, ya'ni tahorat qilish, namoz o'qish, azon aytish, ro'za tutish, zakot to'lash ustida to'xtab o'tadi. Ikkinchi bo'lim kalomda o'sha davrda YAqin va O'rta SHarkda mavjud bo'lgan ko'pgina mazhablar haqida ma'lumotlar berilgan. Xususan bu mazhablarning ettiga bo'lib bayon etilishi, ayniqsa, mu'taziliylar haqidagi mukammal tafsilotlar muhim ahamiyatga egadir. SHu bilan birga grek-xristian mazhablari, islomgacha bo'lgan davrdagi Eron va YAMandagi diniy e'tiqodlar, Hindistonda tarqalgan ba'zi dualistik mazhablar va oqimlar hamda zardushtiylik bayon etiladi. Bu ma'lumotlar YAqin va O'rta SHarq hamda Markaziy Osiyodagi xalqlarning dinlari tarixini o'rganishda g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Arab adabiy tili grammatikasi, uning qonun-qoidalari grammatika bo'limida bayon etilgan. Ayni paytda muallif arab she'riyati va uning tarkibiy qismlaridan bo'lgan aruz ustida ham mufassal to'xtalib o'tgan.

Ish yurgizish bo'limi davlat devoni, soliq turlari va olinishi, soliq yig'uvchilarning vazifalari, askarlar ro'yxati, ularning kiyim-kechagi va to'lanadigan maoshlari, irrigatsiya shahobchacharida foydalaniladigan atamalar, kanal xillari, suv uskunalari, ikki daryo (Sirdaryo va Amudaryo.— R. B.) oralig'idagi sug'orish tizimlari haqidagi ma'lumotlarni yoritib berishi bilan muhimdir. Asarning tarix

bo'limida afsonaviy podshohlardan boshlab, tartib bilan turli davr va mamlakatlar maliklari, Umaviylar va Abbosiylar xalifaligi, islomgacha bo'lgan davrdagi YAman tarixi, Rum va YUnon tarixi haqida mu.fassal ma'lumotlar keltirilgan. O'rta asrlarda odamlar jamoasini tabaqalarga bo'linishi ham shu bo'lim-da zikr etiladi. An'anaviy arab bo'lmagan ilmlar. Bu ilmlar qatorida birinchi bo'lib falsafa qayd etilib, unda ushbu ilm atamalarining sharhi bilan bir qatorda ilmlar tasnifi masalasi yoritilgan.

Arastuning mantiqqa oid kitoblari sharhi Xorazmiy asarining mantiq bo'limida o'z aksini topali. Unda muallif YAqin va O'rta SHarq hamda Markaziy Osiyodagi ushbu ilm haqidagi ma'lumotlar, oldinga surilgan ajoyib g'oyalardan foydalanib, ularni yanada boyitdi.

Asarning tabiiy ilmlarga oid bo'limlari O'rta asr SHarqida ilmiy yuksalish darajasini o'rganish nuktai nazaridan nihoyatda ma'lumotlarga boydir. Tibga oid bo'limda kasalliklar, sodda va murakab dorilar haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu bo'limda o'sha davr tabobatida ma'lum bo'lgan va keng tarqalgan mijoz hamda qon tomiri urushiga qarab kasallikni aniqlash to'g'risidagi nodir tavsiflar berilgan.

Kimyo bo'limida ham Xorazmiy O'rta asr SHarqidagi kimyoviy bilimlar haqida nihoyatda qimmatli ma'lumotlarni keltiradiki, ular SHarqda tabiiy fanlar rivojini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir.

Riyoziyot bo'limida Urta asr SHarqidagi matematik ilmlar holati bayon etiladi. Al-Xorazmiy matematik tushunchani aqlning ixtiyoriy ijodi emas, balki ob'ektiv olamning ma'lum tomonlari, predmetlar munosabatlarining in'ikosi deb talqin etadi. Masalan, muallif Forobiy g'oyalarini davom ettirib. arifmetikani ikkiga: nazariy va amaliyga ajratadi. U kub sonlar bilan bir qatorda shakliy sonlarni ko'rib chiqish bilan nazariy arifmetikaning ba'zi bir tomonlarini boyitdi. Handasa ham nazariy va amaliy qismlarga bo'linadi, bu esa o'sha davrda uning boshqa riyoziyot ilmlari kabi yuqori darajada rivojlanganligidan dalolat beradi.

Astronomiya bo'limida uning vazifasi bilan birga tarixiga oid masalalar ham ko'rib o'tiladi.

Xorazmiy o'z tasnifida musiqani riyoziyot ilmlariga qo'shadi va unda musiqaviy asboblar, tovushlarning o'zaro mutanosibligi, tartibi, sozi(lad) tavsiflanadi va oxirida ritm haqidagi ta'limot ko'rib chiqiladi.

Mexanika bo‘limida, og‘ir yuklarni va dalalarni sug‘orish maqsadida ishlatiladigan qurilmalar, ya’ni sodda mashinalar, ularning tuzilishi va vazifalari ustida to‘xtab o‘tiladi, Xorazmiy dunyoviy ilmlar ustida to‘xtaganda, ularning amaliy ahamiyatini ochib berishga harakat qiladi.

Umuman, asarda Abu Abdulloh al-Xorazmiy o‘z davri tabiiy va riyoziyot ilmlarini yaxshi bilganligi, ularni nazariy falsafaga kiritish bilan, bir tomondan, ularning ahamiyatini oshirish va ta’kidlash, ikkinchi tomondan, falsafani boyitishga intilganligi o‘z ifodasini topgan. Al-Xorazmiyning “Mafotih al-ulum” asari O‘rta asr madaniyati va ma’naviyatini o‘rganishda muhim ahamiyatga egadir.

Allomaning bu asari o‘z ahamiyati jihatidan va o‘rta asrlardagi ilmlar rivojlanishi tarixiga doir nodir manba sifatida davrimizning ko‘pgina olimlarining diqqat e’tiborini o‘ziga jalb etdi. Birinchi bo‘lib bu manbani o‘rgangan gollandiyalik sharqshunos Van Floten uning 1163 yilda ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxasi asosida aniqlangan matnini 1895 yilda nashr qilgan.

Abu Abdulloh Xorazmiy asarining ikkala qismiga kiritilgan ilmlarning nomlarini zikr etib, asarning o‘zini esa o‘sha davrdagi ko‘pgina ilmlar haqida qisqa va aniq ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan ensiklopediya, deb ta’riflaydi.

Bu asarga birinchilar qatorida e’tiborini qaratgan olimlardan mashhur sharqshunos, matematika tarixi bo‘yicha ko‘plab asarlar muallifi E. Videmanni zikr etish lozim. Uning bahosiga ko‘ra, «Abu Abdulloh Xorazmiy “birinchi musulmon ensiklopediyasini tuzuvchilaridan” biri bo‘lgan”. E. Videman asosan “Mafotih al-ulum” ning ikkinchi qismiga kiruvchi aniq va tabiiy ilmlar: arifmetika, astronomiya, handasa, mexanika, musiqa, og‘irlik va uzunlik o‘lchovlari, kimyoni tadqiq etgan, tarjima qilgan va ular bilan o‘quvchilarni ta-nishtirgan. Fan tarixi bo‘yicha qator ishlari, jumladan, “Fan tarixiga kirish” nomli yirik asari, shuningdek, o‘rta asr SHarqining Evropa ilmiga ta’sirining muallifi G.Sarton ham “Mafotih al-ulum” ni o‘sha davr “musulmon” ilmlari va madaniyatini o‘rganish bo‘yicha asosiy manbalardan biri sifatida ta’riflab, muallifning o‘zini esa X asrning ikkinchi yarmidagi ensiklopedist olimlardan deb e’tirof etadi. 1927 yilda G.Sarton ushbu asarning ingliz tiliga tarjimasi juda zarur ekanligi haqida yozgan. Biroq taniqli olimlar tomonidan bildirilgan bu tarzdagi qimmatli fikrlarga qaramasdan,

ushbu asar hozirgi kunga qadar g'arb tilla-riga to'liq tarjima qilinmagan.

SHarq alkimyosi, tibbiyoti va boshqa tabiiy ilmlar tadqiqotchisi YU.Ruska "Mafotih al-ulum" ni X asr al-kimyosiga oid muhim manba, deb zikr etadi. "Mafotih al-ulum" haqidagi qisqacha ma'lumotlar "Mavzu'at al-ulum" asarining kirish qismida, E.Braunning "Fors adabiyoti tarixi", Karra de Voning besh jildlik "Islom mutafakkirlari", "Islom ensiklopediyasi"da, "Deh xudo" ma'lumotnomasida, "Afg'oniston tarixi" kitoblarida ham mavjud.

Abu Abdulloh Xorazmiyning asari haqida to'liqroq, ammo umumiy tarzdagi ma'lumotni mashhur sharqshunos K.Bosvort keltiradi. "Mafotih al-ulum" to'lig'icha 1969 yilda fors tiliga X. Xadyudjamom tomonidan tarjima qilingan va tarjimonning kirish so'zi va sharhlari bilan nashr etilgan.

O'rta asrlarda faoliyat ko'rsatgan olimlarning jahon ilmiga qo'shgan hissasining yirik tadqiqotchisi F.Sezgin "Mafotih al-ulum"ni ensiklopedik tarzdagi ma'lumotlarga ega bo'lgan hamda o'n besh ilmni o'z ichiga qamrab olgan manba sifatida baholab, ayniqsa tabobat bo'limi, garchi unda jarrohlik va gigiena haqidagi ma'lumotlar bo'lmasa ham, favqulotda yuksak ahamiyatga egaligini alohida ta'kidlaydi. F.Sezgin o'rta asr alkim-yosi haqida so'z yuritganida yana bir bor Abu Abdulloh Xorazmiy asarini zikr etadi.

"Mafotih al-ulum" dagi ba'zi bo'lim va boblar g'arb tillariga, xususan, tib bo'limi E.Zeydal tomonidan nemis tiliga, musiqa bo'limi E.Videman va V.Myuller tomonidan, ayni shu bo'lim ingliz tiliga G.Farmer tomonidan tarjima qilingan.

Birinchi qismdagi oxirgi – tarix bo'limining ol-tinchi va ettinchi boblarining tarjimasini M.Unvala maqolasida berilgan. V.Xins 1955 yilda ushbu asarni X asrdagi o'lchovlar va ularning namunalari haqidagi ta'limotni o'z ichiga olgan manba sifatida tadqiq etgan va mazkur ma'lumotlarni nemis tiliga tarjima qilgan.

Biroq mazkur tadqiqotlarni asarning xususiyati va asl mohiyatini to'liq ochish hamda unga to'g'ri baho berishga etarli deb bo'lmaydi. Ayni shu kamchiliklar-ning aksariyat qismi Abu Abdulloh Xorazmiy ijodi va uning "Mafotih al-ulum" asarini tadqiq etgan keyin-gi davr olimlari tomonidan bartaraf etildi, deb aytish mumkin.

Xususan, akademik I.Krachkovskiy o‘z tadqiqotlarida bu asar 976 va 991 yillar orasida yaratilgani haqidagi taxmini ilgari suradi va Abu Abdulloh Xorazmiy asariga baho berib, uni «ilm va madaniyat tarixi»ga oid ma’lumotlarga ega muhim manbalardan biri, deb ta’riflaydi. Akademik V.Bartold bu asarga somoniy-lar davridagi sug‘orish shahobchalari tartibi, davlat boshqaruvi va ish yurgizish bo‘yicha nodir manba sifa-tida yondashgan.

Abu Abdulloh Xorazmiyning ilmlar tasnifiga yondashuvining ba’zi qirralari O‘zbekistonlik olimlar M.Xayrullaev, U. Karimov va G.Matvievskaaya tomonidan muayyan darajada yoritilgan. Buyuk alloma va uning asari haqidagi ma’lumotlar U. Karimov, H. Hasanov, A. SHaripov tadqiqotlarida ham bayon etilgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng uzoq o‘tmishda samarali faoliyat ko‘rsatgan buyuk allomalarimiz merosini o‘rganishga alohida e’tibor berilib, “Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan nihoyatda muhim vazifa”ga aylangani barcha olimlarni bu borada yanada samarali tadqiqotlar olib borishga undaydi.

Mustaqillik yillarida Abu Abdulloh Xorazmiy merosini chuqurroq o‘rganishga e’tibor kuchaydi va bu yo‘nalishda qator tadqiqotlar olib borildi. Ushbu maqola muallifi tadqiqotlarida Abu Abdulloh Xorazmiy, uning hayoti va ijodi hamda “Mafotih al-ulum” asarining o‘rta asr ilmlarining tarixi, xususan, ilmlar tasnifidagi o‘rni batafsil yoritilgan hamda birinchi bor asarning besh

bo‘limining o‘zbek va rus tillariga tarjimasini amalga oshirildi.

Zikr etilganlardan kelib chiqib, Abu Abdulloh Xorazmiyning asari, birinchidan, SHarqda ilmlar rivojlanishi, ilmlarni muayyan tizimga solish va tasnif qilish bosqichlarini o‘zida aks ettirgani bois madaniyat tarixini o‘rganishda bebaho manba ekanligi, ikkinchidan, xorazmlik alloma o‘zidan oldin o‘tgan o‘tmishdoshlari, xususan, Ellada olimlarining erish-gan muvaffaqiyatlarini nafaqat o‘zlashtirib olgani va bayon qilgani, balki ilmiy tafakkur, jumladan, ilmlar tasnifi rivojlanishiga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shgani, uchinchidan, olimning ilmlar tas-nifida masala qo‘yilishini aniq va to‘liq bayon

etishi, qadimiy SHarq olimlari asos solgan dunyoviy va tabiiy ilmlarni alohida ajratgan holda tadqiq qilishi va to'rtinchidan, uning X asrda ishlab chiqqan ilmlar tasnifi SHarq va G'arbda ilmiy tafakkurning keyingi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatganini alohida ta'kidlash lozim.

Mavzu bo'yicha qo'shimcha savol va topshiriqlar

1. Abu Abdulloh al-Xorazmiy O'rta Osiyo allomalari orasida o'z mavqeiga ega alloma ekanligi nimalar bilan asoslash mumkin ?
2. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning dunyo ilm-faniga qo'shgan munosib hissasini qanday baholaysiz ?
3. Allomaning "Mafotih al-ulum" asari haqida nimalarni bilasiz?

Quyidagi qo'shimcha adabiyotlarni albatta o'qib chiqing

1. Mirziyoev SH. YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASI-
Toshkent:

"O'zbekiston" , 2021.464 bet.

2. Xayrullaev M. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati.-
Toshkent: fan,

1994. yil

3. Ibrohimov A. Ma'mun akademiyasi. Toshkent: 2005. yil

4. Ma'naviyat yulduzlari.-Toshkent: fan, 1999 yil

3-Mavzu: Ahmad al-Farg'oniyning hayoti va ilmiy merosi

Reja:

1. "Alfraganus" nomi bilan mashhur O'rta Osiyolik qomusiy alloma.

2. Al-Fargʻoniyning tabiiy – ilmiy bilimlar va Bogʻdod ilmiy maktabi rivojida

oʻrni .

4. 1998 yilda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan allomaning

1200 yillik tavallud sanasining nishonlanishi.

IX-XII asrlarda yashab ijod etgan Oʻrta Osiyo xalqlari va butun dunyo tabiiy-ilmiy fiqrlarning rivojlanishiga juda katta hissa qoʻshgan buyuk mutafakkirlardan biri Ahmad Ibn Muhammad al-Fargʻoniy (798-865) dir. Ahmad Fargʻoniy Oʻrta asrlarda yashagan Oʻrta Osiyolik olimlar orasida buyuk astronom, matematik, geograf sifatida asosiy oʻrinni egallaydi. U asli Fargʻonaning Qubo (hozirgi Quva) shahrida tugʻilib oʻsib, oʻzining datlabki maʼlumotini shu erda oladi. Ahmad oʻtkir zehni va qobiliyatli bola boʻladi, u matematika, geografiya, mantiq, ilohiyot, falsafa, tilshunoslik sohalarini puxta egallaydi, husnixat sohasida suls va nash xatlarini chiroyli yozadigan boʻladi. Ahmad oʻz davridagi arab, fors, turk va yunon tillarini oʻrganadi. U oʻzi oʻrgangan barcha ilmlar ichida, ayniqsa, astronomiya (ilmi nujum) ga katta mehr bilan qaraydi. Soʻng oʻz bilimlarini oshirish, oʻqish va oʻrganish uchun oʻsha davrning ilmiy markazlaridan boʻlgan Bagʻdodga kelib, u erda “Baytul-hikmat” (Donishmandlar uyi) da ustozlardan saboq olib, oʻzi ham ilmiy tadqiqotlar olib boradi. U bu erdagi olimlar bilan birlikda va hamkorlikda hind, fors va yunon tillaridan arab tiliga tarjimalar qiladi.

Ahmad Fargʻoniy Bagʻdodda “Baytul-hikma” ning etakchi olimlaridan biri sifatida tanilib, shu erda yashab, ijod etadi.

Hozirgi kunda Ahmad al-Fargʻoniyning 8 ta asari bizga maʼlum boʻlib, ularning hammasi astronomiyaga oiddir. Ular quyidagilar:

1. Astronomiya asoslari haqida kitob (arabcha: “Kitob fi usul imi annujum”-yaʼni

“Astronomiya ilmining usullari” haqidagi kitob).

2. “Usturlob bilan amal qilish haqida kitob” (birgina qo‘lyozma holda Rampur

(Hindiston)da saqlanmoqda).

3. “Oyning er ostida va ustida bo‘lish vaqtlarini aniqlash haqida risola”.

4. “Etti iqlimni hisoblash haqida” (qo‘lyozmalari Gotada va Qohirada saqlanmoqda).

5. “Quyosh soatini yasash haqida kitob” (qo‘lyozmalari Halab va Qohirada saqlanmoqda).

6. “Al-Horazmiy “Zij” ining nazariy qarashlarini asoslash” asari (qo‘lyozmasi

topilmagan).

7. “Al-Farg‘oniy jadvallari” (qo‘lyozmasi Patna (Hindiston)da saqlanadi).

8. “Samoviy harakatlar va umumiy ilminujum kitobi” (arabcha: “Kitob al-harakat as-samoviya va javomi’ ilmi annujum”). Bu asari XII asrdayoq Evropada lotin tiliga tarjima qilinib, uning muallifi lotincha turilgan holda “Alfraganus” nomi bilan XIII asrda boshqa Evropa tillariga ham tarjima qilinadi va Evropa universitetlarida astronomiyadan asosiy darslik vazifasini o‘taydi.

Al-Farg‘oniyning bu yuqorida keltirilgan asarlaridan birinchi va sakkizinchilaridan boshqalari shu paytgacha hali hech kim tomonidan o‘rganilmagan va hozirgi zamon tillariga tarjima ham qilinmagan. O‘zbekiston mustaqillikka erishuvi va al-Farg‘oniy vatandoshimizning 1200 yillik yubileyini o‘tkazish munosabati bilan bizning olimlarimiz uning bu asarlarini o‘rganish, o‘zbek tiliga tarjima qilish ishlarini boshlab yubordilar. Umid qilamizki, ular o‘rganilib, tahlil qilinishi bilan al-Farg‘oniy vatandoshimiz ijodining yangi qirralari, uning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlarining yangi-yangi tomonlari ochilib, bizning mustaqilligimiz taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Al-Fargʻoniyning “Astronomiya asoslari haqida kitob” asari astronomiyadan eng sodda darslik boʻlib, u astronomiyadan boshlangʻich maʼlumotlarni oʻzlashtirishda ancha qulay boʻlgan. Uning 9-bobi-geografiya boʻlimi “Erdagi maʼlum mamlakatlar va shaharlarning nomlari va har bir iqlimdagi narsalar haqida” deb atalib, unda erdagi etti iqlimning hammasi, ulardagi mamlakatlar, viloyatlar va shaharlari bilan birga tasvirlanadi va tavsiflanadi. Al-Fargʻoniy bunda oʻz tavsifini Afrikaning Atlantika okeani qirgʻoqiga yaqin joylashgan fazolardan boshlab Osiyo qitʼasining eng SHarqiy chekkasigacha, yaʼni Tinch okeanidagi YAponiya orollarigacha davom ettiradi. Uning tasnifi va tavsifi kengliklar yoʻnalishida ekvatorial erlardan to shimoliy qutb erlarigacha davom ettiriladi. Al-Fargʻoniyning tavsiflash usuli Al-Xorazmiyning tavsiflash usulidan farq qilib, u hindlarning anʼanasiga asoslanadi. Uning iqlimlar tavsifida 3-,4-,5-,6- va 7- iqlimlarning tavsifi diqqatga sazovordir. Bularda Markaziy Osiyo va unga tutash erlarning shahar va viloyatlari batafsilroq va toʻlaroq tavsiflanadi. Masalan, quyida biz bu tavsiflardan misol keltirganimizda, bunga oʻzingiz ham guvoh boʻlasiz:

«Uchinchi iqlim SHarqdan boshlanib, Xitoy mamlakatning shimolidan, soʻng Hind mamlakatidan va soʻngra Qobul va Kermon viloyatlaridan oʻtadi.

Toʻrtinchi iqlim SHarqdan boshlanadi va Tibetdan, soʻngra Xurosondan oʻtadiki, bunda Xoʻjand, Ustrushona, Fargʻona, Samarqand, Balx, Buxoro, Xirot, Amuya, Marvarud, Marv, Saraxs, Tus, Nishopur shaharlari bor. Undan soʻng Jurjon, Qumis, Tabariston, Demovand, Qazvin, Daylam, Ray, Isfaxondan oʻtadi.

Beshinchi iqlim SHarqda YAjuj mamlakatidan boshlanadi, soʻng Xurosonning shimolidan oʻtadi, unda Toroz shahri-savdogarlar shahri bor. Navokat (Navkat), Xorazm, Isfijob (Sayram), Turarband (Oʻtror-hozirgi Aris) va Ozayborjon, Armiya (Armaniston) viloyati, Bardaʼa (Barda), Nashava (Naxchivan) shaharlari bor.

Oltinchi iqlim SHarqdan boshlanadi va YAjuj mamlakatidan oʻtadi, soʻng Xazar mamlakatidan (SHimoliy Kavkaz va Quyi Volga boʻyin), Jurjon (Kaspiy) dengizining oʻrtasidan kesib oʻtadi va Rum (Vizantiya) mamlakatigacha boradi.

Ettinchi iqlim SHarqda YAjuj mamlakatning shimolidan boshlanadi, soʻng turkiy mamlakatlardan (Markaziy Osiyo) oʻtadi,

so'ng Jurjon dengizining shimolidan o'tadi, so'ng Rum (Qora dengizi) dengizini kesib o'tadi va saqlablar (slavyanlar) mamlakatlaridan o'tadi va G'arb dengizi (Atlantika)da tugaydi. Bu yuqorida keltirilgan parchadan ko'rish mumkinki, Al-Farg'oniy katta kengliklardagi o'lkalarni tasvirlar ekan, o'zining ona vatani Markaziy Osiyoni batafsilroq tavsiflaydi. Uning YAjuj mamlakati degan kenglik bu mo'g'ilstonning

SHarqi va Xitoyning shimoliy-SHarqiga oid geografik hududlardir.

Al-Farg'oniy Olam manzarasini fikran o'ziga xos idrok qilgan. U vaqtlarda Olam sakkiz qavat osmondan, ya'ni Quyosh, Oy va beshta sayyora-Merkuriy (Utorud), Venera (Zuhra), Mirrix (Mars), YUjupiter (Atorud), Saturn (Zuhal) va 102 ta yulduzlar sferalaridan tashkil topgan, deb tasavvur qilingan Al-Farg'oniy osmon sferasi o'zida bor narsalarning hammasi bilan birlikda aylanib turadi. Er o'zidagi barcha qit'alar va okeanlar bilan birgaliqda gumbazga o'xshash. Quyosh va Oy chiqqan vaqtda yoki botayotganda ularni erning turli o'rinlaridagi kishilar babbaravar ko'rmaydilar. Erning SHarqiy bo'lagidagi kishilar Quyosh va Oyni chiqishini oldin ko'rishmaydi. Kishi agar Erning shimoliga borsa, ilgari shimoldan chiqadigan yoritqichlar doimo ko'rinadigan bo'lib qoladi. Ilgari janubdan chiqadiganlari esa umuman ko'rinmay qoladi. Bu aytilganlar Erning yuzasi yumaloq ekanligini va Erning gumbazga o'xshashligini bildiradi, deydi.

Bulardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, Al-Farg'oniy Erni Ptolemeyga nisbatan boshqacha tushunadi. Al-Farg'oniyni astronomiyaga qo'shgan hissasi- bu osmon sferalari yoritqichlari, xususan, Erning ham radiuslarini birincha marta o'lchab, aniqlab borishi edi. Bu olam tuzilishini ilmiy tasavvur etishning muhim vositasi bo'ladi.

Al-Farg'oniyni yozishicha, osmon manzarasini gavlantirib beradigan ikkita (belbog') bor, ular: osmon ekvatori va Quyosh ekliptikasi. Osmon ekvatori Er ekvatorining davomi, ular bir tekislikda yotadi. Quyosh ekliptikasi esa Quyoshning Er atrofida (aslida erning quyosh atrofida, tevaragida!) harakati natijasida hosil bo'lgan traektoriyadir. Osmon ekvatori bilan Quyosh ekliptikasi tekisliklari o'zaro doimiy burchakni hosil qiladi. Bu burchak 23 daraja 1035 minut. Bu o'lchov (Ptolemeyda - 23 0 51I edi) ancha aniq edi. Al-

Fargʻoniy Er radiusi yoyining 10 ining uzunligini topib, uni 360 ga koʻpaytirib, 40800 km ni tashkil qilishini aniqlaydi. Bu Er meridianining uzunligi edi. Er va meridianining hozirgi zamon ilmiy asboblari va usulari bilan oʻlchangan uzunligi, yaʼni “Yer belbogʻi” 40 ming 8 kmni tashkil qiladi. SHundan kelib chiqsak, Al-

Fargʻoniy oʻlchovi oʻz davri uchun juda katta aniqlik edi.

Al-Fargʻoniy dunyo xalqlarining yil hisoblari – kalendari muammosi bilan ham shugʻullanadi; u hind, yunon, eron, suriya, kopt, Markaziy Osiyo xalqlari yaratgan barcha kalendlarni taqqoslab oʻrganib chiqadi. Al-Fargʻoniy yilning 4 fasldan iboratligi, ular orasidagi munosabatlar geografik kenglikka bogʻliqligini aytib, bu muammoni echishga ham oʻz ulushini qoʻshaydi.

Al-Fargʻoniy Quyosh, Oy, sayyoralar va yulduzlarning harakati va munosabatlarini oʻrganishda, osmonning kelajak manzarasini bilish uchun geometrik-kinematik usul qabul qilib olinishida usturlub (astrolyabiya) asbobining ahamiyati haqida, uning nazariyasini yaratadi. Bu stereografik proeksiyalar nazariyasi edi. Al-Fargʻoniyning bu kashfiyoti keyingi davr astronomik-matematik nazariyalarning barchasiga asos boʻlib xizmat qiladi.

Al-Fargʻoniy Er ekvatorida Quyosh ikki marta bahorgi va kuzgi teng kunliklarida zenitda boʻlishini, osmon qutblari gorizont tekisligida yotishini, qutblarda kecha qishga, kunduz yozga 6 oydan teng boʻlishlarini ham koʻrsatib bergan. U Qohira yaqinidagi Rauza orolida oʻzining oʻlchov ishlarini olib borgan, u Nil daryosi gidrometeorologik tabiatini aniqlab beruvchi kilometrni ham quradi, bu kilometr bugungi kungacha ishlab kelmoqda.

Al-Fargʻoniy birinchi boʻlib, Quyosh va Oy tutilishlarini ham ilmiy tushuntirib bera olgan mutafakkirdir. SHunday qilib, Al-Fargʻoniy Oʻrta asrlarda astronomiyaga oid asar yozgan mutafakkirlardan birinchi boʻlib SHarqda va Evropada shuhrat qozondi hamda butun dunyo ilmiy jamoatchiligi orasida barqaror mangu oʻrin oldi. Al-Fargʻoniy oʻz davrida ilm-fan rivojlanmasa, mamlakat obod, yurt farovon boʻlmaydi, deb tushunar edi. Uning fikri-zikrida xalq, uning osoyishtaligi, toʻq va farovon turmush kechirishi yotadi. Bu esa faqat ilm-fan, maʼrifat va maʼnaviyatni rivojlantirish orqali amalga oshadi, deb ishonib yashardi. Al-

Farg‘oniyning bu g‘oyalari bugunchi kunda biz uchun ham juda qimmatlidir.

1998 yilda Mustaqil O‘zbekiston ahli va butun jahon jamoatchiligi

Ahmad al-

Farg‘oniyning 1200 yilligini keng nishonladi.

Mavzu bo‘yicha qo‘shimcha savol va topshiriqlar

1. Ahmad al-Farg‘oniy hayoti va merosi haqida nimalarni bilasiz?
2. Ahmad al-Farg‘oniyning qanday kashfiyotlarini bilasiz?
3. Ahmad al-Farg‘oniyning olam manzarasi haqidagi qarashlarini bayon qila olasizmi?
4. Ahmad al-Farg‘oniy O‘rta asr ilm-faniga qo‘shgan hissasini qanday baholaysiz?
5. Mustaqillik yillarida allomaning yubileylari qachon va qaerda o‘tkazilgan?

Quyidagi qo‘shimcha adabiyotlarni albatta o‘qib chiqing

1. Karimov I. YUksak ma’naviyat-engilmas kuch.-Toshkent: Ma’naviyat, 2008. B.

176.

2. Mirziyoev SH. YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI-Toshkent:

“O‘zbekiston” , 2021.464 bet.

xalqaro konferensiyada so‘zlagan nutqi. “Xalq so‘zi”, 2014 15-16 may.

3.Xayrullaev M. O‘rta Osiyoda ilk uyg‘onish davri madaniyati.-
Toshkent: fan,

1994. yil.

4.Ibrohimov A. Ma‘mun akademiyasi. Toshkent: 2005. yil.

5. Ma‘naviyat yulduzlari.-Toshkent: fan, 1999 yil.

6. Qayumov A. Ahmad Farg‘oniy.-Toshkent: 1998yil.

4-Mavzu: Axmad al-Marvaziyning hayoti va faoliyati

Reja:

1. Axmad al-Marvaziyning hayoti va ijodi

2.Al-Marvaziy xalifa al-Ma‘mun davrida olib borilgan tajriba va ilmiy tadqiqotlarning faol ishtirokchisi.

3. Al-Marvaziyning fan tarixidagi o‘rni va roli

Ma‘lumki, O‘rta asrda Bag‘dodda vujudga kelgan ilmiy maktab — “Donishmandlar uyi” (“Bayt ul-hikma”) SHarq xalqlari fani tarixida alohida ahamiyat kasb etdi. Bu markazda faoliyat ko‘rsatgan allomalar o‘sha davr ilmlari, xususan, aniq fanlarning rivojiga salmoqli hissa qo‘shib, qadimgi yunon, hind va boshqa xalqlar ilmiy merosini o‘qib o‘rgandilar, ularni tahlil qilib, yangi g‘oyalar bilan boyitdilar. Natijada, ularning qalamiga mansub bo‘lgan qator asarlar paydo bo‘ldiki, bu asarlar O‘rta asr ilmining noyob durdonalariga aylandi.IX—XI asrlarda butun musulmon SHarqi fani va madaniyati taraqqiyotida Markaziy Osiyo donishmandlari etakchi mavqeni

egallagan bo'lsa-da, musulmon madaniyatining "oltin davri" deb e'tirof etilgan ushbu davrda yashagan bu allomalarning hayoti va faoliyati hozirga qadar to'liq aniqlanmagan. Markaziy osiyolik olimlarning ma'lum qismi xalifa al-Ma'mun tarafidan tanlab olinib, poytaxt Bag'dodga olib ketilgan. Ular orasida xorazmlik buyuk alloma Muhammad al-Xorazmiy, farg'onalik mashhur astronom Ahmad al-Farg'oniy, o'sha davrdagi Forob (hozirgi Gavhartepa) mintaqasidan chiqqan yirik astronom va matematik al-Abbos al-Javhariy, Bag'dod va Damashq shaharlaridagi astronomik tadqiqot va kuzatishlarning tashkilotchisi marvlik YAhyo ibn Abu Mansur va boshqalar bo'lgan.

Bag'dod ilmiy maktabida faoliyat ko'rsatgan yirik astronom va matematiklardan yana biri Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy bo'lib, u "Habash al-Hosib" ("Habash hisobchi") laqabi bilan tanilgan. Uning ismidagi al-Marvaziy rutbasi esa muallifni hozirgi Turkmanistonning Bayram Ali shahri yaqinidagi Marvdan ekanligini ko'rsatadi. Olimning ismi va ba'zi asarlari o'rta asr mualliflaridan Ibn an-Nadim (X asr), Ibn al-Qiftiy (1173—1248) va Hoji Xalifalar (1609—1657) tomonidan zikr etiladi. Jumladan, Ibn an-Nadim uni yuz yiddan ortiq yashagan, deb ma'lumot berib, Marvaziyning ettita kitobining nomini sanab o'tadi. Ibn al-Qiftiy esa uning asli marvlik bo'lib, xalifa al-Ma'mun va al-Mu'tasim zamonida Bag'dodda faoliyat ko'rsatganligini aytadi. Olimning yashagan umrini Ibn al-Qiftiy yuz yillar atrofida, deb xabar beradi. qeltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Ahmad al-Marvaziy uzoq umr ko'rgan. Fan tarixiga oid bibliografik kitoblardan bu olimni 770—870 yillar mobaynida yashab o'tgan deb taxmin qilinadi. Ahmad al-Marvaziy "Zij" ("Astronomik jadvallari") deb ataladigan "Damashq ziji" ("az-Zij al-ma'ruf bi-d-Dimashqiy"), "Zij" (bu zij Bag'dod shahri uchun tuzilgan) va "al-Ma'munning tekshirilgan ziji" ("az-Zij al-Ma'muniy al-mumtahan") asrlarining muallifidir. Ibn al-Qiftiy al-Marvaziy "SHoh uchun zij" ("az-Zij al-SHahiy") nomli yana bir kichik hajmdagi risolaning ham muallifi, deb ko'rsatadi. Lekin bu risola yuqoridagi zikr etilgan "zij" larning birortasi bo'lishi mumkin. "Damashq ziji" hozirda Istambulda saklanmokda. Al-Marvaziy o'zining bu asarini o'sha davrda "Sindhind" nomi bilan mashhur bo'lgan hind astronomik jadvallarini qayta ishlash asosida yozgan. Undagi ba'zi masalalar Ibrohim al-Fazariy, Muhammad al-Xorazmiyning "zij" laridan

farqlanadi. Olimning Bag‘dod shahri uchun yozilgan ikkinchi “Zij” i Berlinda saqlanmoqda. Beruniyning “qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” va “Geodeziya” asarlaridagi ma’lumotlarga qaraganda, bu kitob keyingi davr astronomlari tarafidan hurmat bilan tilga olingan. Uchinchi “al- Ma’munning tekshirilgan “ziji” ham o‘z vaktida katta shuhrat qozongan bo‘lib, xalifa al-Ma’mun bir guruh olimlarga qadimgi yunon astronomlarining kitoblarida keltirilgan ma’lumotlarni tajribalar asosida qaytadan tekshirib chiqish vazifasini yuklagan va tajriba natijalari o‘laroq, ushbu asar dunyoga kelgan. Bu asarda o‘sha davr astronomiyasining barcha yutuqlari mujassam etilgan va O‘rta asr manbalarida, ba‘zan YAhyo ibn Mansur va Ahmad al-Marvaziy, ba‘zan esa o‘sha davrning boshqa astronomlari tarafidan bitilgan, deb keltiriladi. Bunday asarning yaratilishida ko‘pchilik ishtirok etgan bo‘lishi kerak, degan xulosa kelib chiqadi. SHunga qaramasdan, mutaxassislar al-Ma’mun «ziji»ni YAhyo ibn Mansur boshlab, Ahmad al-Marvaziy yakunlagan bo‘lishi kerak, degan taxmini qiladilar. Umuman esa, al-Marvaziy al-Ma’mun davrida olib borilgan tajriba va ilmiy tadqiqotlarda eng faol ishtirok etgan olimlardan bo‘lib, 832—833 yillarda Sinjar sahrosida er meridianining bir darajasini o‘lchash ishlarida ham qatnashgan. Al-Marvaziyning yigirmaga yaqin nomdagi asarlari ro‘yxatida biz astronomik jihozlar — astrolyabiyalar, quyosh soati va zat al-halaklarga bag‘ishlangan risolalarni uchratishimiz mumkin. Afsuski, ularning katta qismi bizgacha etib kelmagan. Olimning astronomiyadagi yutuqlariga qaramasdan, uning asosiy xizmatlari trigonometriyada deb topilgan. Bu fikrimizning mag‘zini al-Marvaziyning fanga birinchi bo‘lib olib kirgan tangens va kotangens tushunchalari va ularning funksiyaviy jadvallari tashkil etadi. Olimning asarlarida bayon qilingan tangens, kotangens va kosekans tushunchalari trigonometriya rivojiga qo‘shilgan ulkan hissa bo‘ldi.

Ibn an-Nadim o‘zining “al-Fixrist” kitobida al-Marvaziyga oid yana ikki muhim ma’lumotni keltiradi. Ulardan biri al-Marvaziyning Abu Ja‘far ibn Ahmad ibn Abdulloh ibn Habash ismli o‘g‘li bo‘lib, u ham astronomiya bilan shug‘ullangan va “YAssi astrolyabiya” (“Kitab al-asturlab al-musattah”) nomli kitobning muallifi ekanligidir. Ikkinchisi esa, IX asrdagi mashhur astrolog va astronomlardan biri Muhammad ibn Bazyar biz hikoya qilayotgan al-Marvaziyning o‘quvchilaridan deb e’tirof etilishidir. Bu esa Ahmad

al-Marvaziyni nafaqat mashhur olim, balki etuk shogirdlar tayyorlagan mohir ustoz bo'lganidan ham dalolat beradi.

Mavzu bo'yicha qo'shimcha savol va topshiriqlar

1. Axmad al-Marvaziyning hayoti va faoliyati haqida nimalarni bilasiz ?
2. Ahmad al-Marvaziyning dunyo ilm-faniga qo'shgan hissasini bayon qiling?
3. Ahmad al-Marvaziyning qanday yirik asarlarini bilasiz?

Mavzuni chuqurroq o'rganish bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar

1.Karimov I. YUksak ma'naviyat-engilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, 2008. B.

176.

2. Mirziyoev SH. YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASI-Toshkent: "O'zbekiston" , 2021.464 bet. 3.Xayrullaev M. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati.-Toshkent: fan, 1994. yil.

4.Ibrohimov A. Ma'mun akademiyasi. Toshkent: 2005. yil.

5. Ma'naviyat yulduzlari.-Toshkent: fan, 1999 yil.

6. Abdurahmonov Abdulhay .Saodatga eltuvchi bilim.I-II kitob.-Toshkent: Movarounnahr, 2003yil.

5-Mavzu: XIX-XX asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyotiga hissa qo'shgan

mutafakkirlar

Reja

1. Ahmad Donishning tabiiy va ijtimoiy fanlar rivojiga qo‘shgan hisyasi
2. Abdurauf Fitratning hayoti va merosi
3. YAhyo G‘ulomovning ilmiy merosi
4. Ibrohim Mo‘minov hayoti va o‘zbek ilm-fani va falsafasiga qo‘shgan hisyasi

XIX asr ikkinchi yarmida O‘rta Osiyo tarix falsafasini salmoqli rivojlantirgan, tarixnavislik sohasida o‘ziga xos ilmiy maktab yaratgan qomusiy olimlardan biri Ahmad ibn Nosir ibn YUsof al-Hanafiy as-Siddiqiy al-Buxoriy Ahmad Donishdir. Ahmad Donish 1827 yil 21 sentyabrda Buxoro shahrining Ko‘chai Sangin guzarida tavallud topdi⁴. Ahmad Donishning bobosi Pirmast tumanining Sug‘d (hozirgi SHofirkon tumani Do‘rmon MFYga qarashli Sug‘ut) qishlog‘idan bo‘lgan. U boshlang‘ich ta’limni onasi Sakina Abdurahmon qizidan oladi. So‘ng Buxorodagi madrasalarning birida o‘qishni davom ettiradi. Madrasada beriladigan bilimlardan qoniqmay, Ahmad Donish o‘z ustida mustaqil ishlashga kirishadi. Madrasani tugatganidan so‘ng, Arkka mirzolikka taklif etiladi. SHundan so‘ng uning hayoti ijtimoiy-siyosiy munosabatlar bilan bog‘lanadi. Saroydagi izchil faoliyat bilan bir qatorda badiiy ijod bilan mukammal shug‘ullangan. Ahmad Donish zamonasining eng ilg‘or kishilaridan biri sifatida umrining oxirigacha fanning turli sohalarida samarali mehnat qildi va o‘zidan boy ilmiy-ma’naviy meros qoldirgan. Buyuk mutafakkir ma’naviy merosida siyosat, davlat va ijtimoiy tenglik, huquq masalasi alohida o‘rin tutadi.

⁴ Жумаев Р.Ф. Аҳмад Донишнинг ижтимоий – сиёсий қарашлари. // Тарихий хотира-маънавият асоси. – Бухоро, 2014, -Б. 191-193.

Ahmad Donish o‘z davrining etuk mutafakkir jamiyatshunosi, faylasufi va tarixchisi, diplomati sifatida Buxoro amirligida tabiiy va aniq fanlardagi yuksak salohiyati favqulotda iste’dod va qobiliyat egasi Ahmad Donish Amir Nasrulloxonning e’tiboriga tushib, 1850 yillarda “Muhandis⁵” (binokorlik muhandisi) sifatida saroyga taklif etiladi va mirzolik qildi⁶. Buxoro amiri saroyida xattot, bosh me’mor lavozimlarida ishladi. 1865 yilda⁷ ilmu adab olamida “Donish⁸” taxallusi bilan shuhrat qozongan, “Maxdum⁹” va “O‘roq¹⁰” martabalariga ko‘tarilgan. SHuningdek, u “Haft qalam”¹¹ nomiga ega bo‘lgan Buxoro xattotlik maktabi vakillaridan biridir. To‘qqiz yoshligidayoq, Qur‘onning to‘rtidan bir qismini, “CHor kitob”ning bir kitobini o‘qib tugatdi. Madrasada o‘qidi. SHu davrda, Farobiy, Ibn Sino, Jamoliddin Rumi, Umar Hayyom, Fuzuliy, Nosiriddin Tusiy, Imom G‘azzoliyning falsafiy merosini, Hofiz, Sa‘diy, Jomiy, Navoiy devonlarini o‘qib, o‘rgandi. Ahmad Donish hamisha o‘zidan oldin yashagan, tarixda o‘lmas iz qoldirgan ma’naviy ustozlaridan o‘rnak olishga harakat qilgan. SHuning oqibatida o‘z davrining madaniyat arboblari, ma’rifatparvarlarga bosh bo‘lgan, o‘z shogirdlari hamda safdoshlarini ochiq fikr bildirishga chorlagan. U uzoq o‘tmishdagi shoir va davlat arboblarning mehnatsevarlik bilan xizmat qilish namunasini o‘zida shakllantirgan.

Ahmad Donish tomonidan Fuzuliyning ozarbayjon–turk tilida yozilgan she’rlaridan olgan parchalari juda qiziqarlidir. Bu esa Donishning Fuzuliy g‘oyalari, uning asronomiya haqidagi fikrlari

⁵ Муҳандис – ҳандаса (геометрия)ни яхши билувчи бинокор мутахассис.

⁶ Қосимов Ф.Х. Тарихшунослик. Маърузалар матни. Бухоро.: “Зиё-Ризограф”, 2004. – Б 37.

⁷ Ходизода Р. Аҳмади Дониш. Д.: Маориф. 1967, 58-б.

⁸ Дониш – Аҳмад ибн Носирнинг адабий тахаллуси, “билимдон” маъносини англатади.

⁹ Махдум – Пир ва устозларга бериладиган унвон, давлат ходими.

¹⁰ Ўроқ – Бухоро амирлигида XIX-XX асрларда илоҳиёт илмида эришган ютуқлари учун бериладиган учта

(ўроқ, судур, садр) унвоннинг энг юқориси ҳисобланган. **Муҳтасиб** унвонига яқин бўлиб, шариат қонунлари бажарилиши устидан амир хизматкорлари ва **Саидлар** устидан назорат қилувчи. Бундай унвон шариат қонунларини эгаллаган юқори даражадаги кишиларга айр томонидан берилган бўлиб, шу унвонга эришган шахснинг исмига қўшиб айтиш одат бўлган.

¹¹ **Ҳафт қалам** – етти хил асосий ёзув турини мукамал ўзлаштирган хаттот.

bilan qiziqqanligidan dalolat beradi¹². Ahmad Donishning “Mang‘it amirlari sulolasi tarixi” asarining muqaddimasida shunday satrlarni ko‘rish mumkinki, muallif ushbu asarni yozishda ideal hukmdor to‘g‘risidagi fikrlarga ega bo‘lgan Amir Temurning “Tuzuki Temuriy”sidan

foydalanganligini qayd etadi¹³. Qolaversa, uning dunyoqarashining shakllanishida SHarqning buyuk faylasuf shoiri Mirzo Bedilning asarlari ijobiy ta‘sir o‘tkazdi. Ahmad Donish o‘zining butun qo‘lyozmalarida, ayniqsa “Kitobi pand va maslaki odamiyat”, “Kitobi nukot”, “Kitobi chor unsur”, “Navodir ul vaqoe” singari kitoblarida Bedilni yirik mutafakkir (Abul Maoni) sifatida yuksak baholaydi¹⁴. Ahmad Donish Bedilning ilg‘or ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarini o‘rgangan, ulardan ijtimoiy hayotdagi kamchiliklarga qarshi olib borgan kurashida foydalangan, ilg‘or g‘oyalarni ommalashtirishni o‘z burchi deb bilgan. U ayniqsa, tarix, falsafa, falakkiyot, tibbiyot, riyoziyot, adabiyot, xandasa (geometriya), ilmlarini chuqur o‘rganishga harakat qiladi. Ahmad Donish astronomiya asoslarini o‘rganishga ko‘p e‘tibor berdi. O‘zining aytishiga qaraganda, astronomiyani Mirzo Abdulfattoh munajjimdan o‘rgangan. Ulardan olingan saboq Ahmad Donishning kamolotiga yordam beradi. Haqli ravishda aytish mumkinki, Ahmad Donish XIX asrda amirlikning ensklopedist olimi edi.

Olimning zamondoshi Sadri Ziyoy o‘zining “Navodiri Ziyoiya” (“Sadri Ziyoning nodir manbalari”) asarida Donishni musavvirlikda Behzodu Moniyga, falakkiyot ilmida Ulug‘bek Ko‘ragoniyga, xattotlikda Mir Aliga, musiqada Zuhrai falakka, jadvalkashlikda Mir SHafe‘ro Soniyga, tabobatda Ibn Sinoga, sahovatda Hotam Toyga, shoirlikda Sa‘diy SHeroziyga, nasrda Husayn Koshifiyga o‘xshatadi¹⁵. Ahmad Donish o‘zining sermahsul ijodi davomida 20

¹² Мўминов И. Ўзбекистон ижтимоий-фалсафий тафаккури тарихидан Танланган асарлар, Биринчи том. Тошкент, 1969 йил, 118-бет.

¹³ Наджафова И.А. Предисловие к переводу на русском языке трактата Ахмада Дониши “История мангытской династии”, Душанбе, 1967, стр. 6.

¹⁴ Мўминов И. Ўзбекистон ижтимоий-фалсафий тафаккури тарихидан. – Самарканд, 1954, 68-бет. Ахмад

Дониш. “Китоби нукот” (қўлёзма), инв №373, 1881 йил, “Китоби панд ва маслаки одамият” (қўлёзма), инв №2279, 1889 йил, Ўз ФА Шарқшунослик институти.

¹⁵ Садри Зиё. Наводири Зиёия. “Адиб”, Душанбе, 1991. 47-бет.

dan ortiq ilmiy- badiiy asarlar yaratgan va ularning aksariyati o‘z tadqiqini kutmoqda.

Davlat xodimi, ya’ni Maxdum nomi bilan shuhrat kozongan Ahmad Donish

1857 yili amir Nasrulloh, 1869 va 1874 yillarda amir Muzaffar hukmronligi davrida amirlik tomonidan uyushtirilgan elchilik hay’ati tarkibida chor Rossiyasining Moskva va Peterburg shaharlariga safar qildi. Safar chog‘ida Donish chor Rossiyasining ijtimoiy-siyosiy hayotini o‘rganib, Buxoro amirligidagi jarayonlarga solishtirdi. Vatanidagi ahvolning ayanchli ekanligiga ishonch hosil qilgach, o‘zining ijtimoiy-siyosiy qarashlarini asarlariga singdirdi. Saroy doirasidagi xodimlar bilan bo‘lgan suhbatlarda amirlikda kechayotgan siyosiy jarayonlar mezoniga yangi hisoblangan ba’zi qarashlarini o‘rtaga tashladi. Jumladan, davlat tizimi va boshqarish tartibida Evropaning ba’zi peshqadam davlatlari hamda Rossiyaning davlatchilik tizimidagi ba’zi tamoyillar va tuzilmalar shaklini joriy etishni taklif qildi. U asosiy e’tiborni davlat boshqaruvi tartibiga qaratdi. Donish parlament tizimini maqsadga muvofiq deb biladi.

1875 yillarda Ahmad Donish bir muncha vaqt G‘uzor va Narpay tumanlariga qozilik¹⁶, keyinchalik Ja’farxo‘ja madrasasida kutubxona mudiri lavozimlarida ishlaydi¹⁷. 1870 yillarning oxirida adolatli davlat haqidagi tasavvurlarga mos kelmaydigan saroy xizmatini ixtiyoriy ravishda tark etdi.

Mang‘it amirlari davrining buyuk muarrixlaridan biri Ahmad Donish SHarq tarix falsafasida alohida mavqega ega. U yirik siyosiy arbob sifatida ham jamiyatni boshqarish, mamlakatni modernizatsiya qilish hamda fuqarolik jamiyatini qaror toptirish, amirlikning iqtisodiyoti, madaniyati, ichki va tashqi siyosati, qolaversa ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalarida munosib hissa qo‘shish borasida etarli tajribaga ega bo‘lgan. CHunonchi, O‘rta Osiyo tarixi, shia va sunniylarning o‘zaro kurashlari hamda uning sabablari, shuningdek, o‘zbek urug‘larining hayoti va tarixiga oid ma’lumotlar, sayyorralar harakati to‘g‘risida to‘plagan axborotlarini tarixiy-falsafiy

¹⁶ Қосимов Ф.Х. Тарихшунослик. (Маърузалар матни). –Бухоро, “Зиё ризограф”, 2004. – Б. 37.

¹⁷ Аҳмади Дониш. Парчоҳо аз “Наводир – ул вақоеъ”. – Сталинобод, 1957. – Б.199.

tahlil etdi. Ahmad Donish insoniyat tarixi, uning shakllanish omillari va bosqichlari, inson va jamiyat, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq etish borasida o'zining noyob qobiliyatini namoyon etgan va bu borada qator ilmiy-nazariy yutuqlarni ham qo'lga kiritgan. Ahmad Donish tarixga o'zining ma'naviy-ruhiy kechinmalari asosida munosabat bildiradi, ya'ni, uning tarixiy qarashlari tarix falsafasining idealistik oqimi sifatida namoyon bo'ladi. Buxoro amirligidagi ma'rifatparvarlik harakatining asoschisi hamda jadidchilikning ma'naviy rahnamolaridan biri Ahmad Donishning siyosiy qarashlarida ham parlamentarizm masalalari ko'tarilgan. Mutafakkir o'zining "Navodirul vaqoe" asarida, mamlakat ahamiyatiga molik har bir ishlarni "Dorul–mashvara" ("Majlislar uyi") yohud Mashvaratxona, hozirgi kundagidek Parlament orqali amalga oshirish g'oyasini birinchilardan bo'lib ilgari surdi. Ahmad Donishning davlat boshqaruv tizimini tubdan o'zgartirish haqidagi mulohazalarida mang'it amirlari hamda davlat amaldorlari hatti-harakatlarini qattiq tanqidga oladi. Ahmad Donish davlat mexanizmini tartibga solish, xalq farovonligini ta'minlash, davlat boshqaruvini adolatli, xalqparvar tarzda tashkil qilishning asoslangan samarali chora-tadbirlarini nazariy jihatdan ishlab chiqdi. Ahmad Donish taklif etgan "Dorul–mashvara" amir saroyidan tashqarida ochilishi kerakligini ta'kidlagan. Agarda u podshoh huzurida tashkil etilsa, a'zolikka saylangan shaxslarning o'z fikrlarini erkin bildira olish imkoniyatlari cheklanadi. Ba'zilar saltanat dahshatlari bosganidan haqso'zni ochiq aytishga tortinadilar yoki sultonning rayiga qarab bu ish to'g'ri yoki noto'g'ri deb ayta olmaydilar. Balki sultonning rayi xato bo'lsa ham uni to'g'ri deb aytishga majbur bo'ladilar. Eng yaxshisi bunday vaqtda podshoh o'z deganiga qaramay, ko'pchilikning maslahati to'g'ri bo'lsa, o'shalarga qo'shilsin. Allomaning zikr qilishicha, podshoh har qanday og'irva qo'rqinchli ahvolga tushsa-da, engillik va shoshqaloklik qilmasin. Balki og'irlik va sabrlilik ko'rsatib kengash bilan ish olib borsin¹⁸. "Dorul– mashvara" a'zolari mamlakat xalqining turli tabaqa vakillari orasidan eng aqlli, ko'pni ko'rgan, tajribali va ilmli kishilar saylanib, ularga maosh to'lanishini tavsiya etadi. Kengash paytida a'zolar xalq hamda davlat

¹⁸ Дониш Аҳмад. Наводирул вақое. (Нодир воқое). – Т.: Фан, 1964. – Б. 69.

manfaatlarini ko‘zlab, fikr yuritib, ular qaysi qarorga kelsalar, u ishlarni amalga oshirsin. Qabul qilingan qarorlar sultonga taqdim etilsin, u ham shu qarorga qo‘shilsa, ijrosi ta‘minlasin, deb e‘tirof etadi¹⁹.

Ahmad Donish mashvaratning davlat va jamiyat hayotida tutgan o‘rniga alohida e‘tibor berar ekan, bu to‘g‘rida shunday deydi: “...Mamlakat uchun foydali bir ish podshoh xotiriga kelar ekan, uni amalga oshirishga darhol kirishmasin. Avval o‘zi shu ish ustida fikr yurgizib, so‘ngra uni mashvaratga qo‘ysin. Agarda uni mashvarat ham to‘g‘ri topar ekan, bismillo deb bu ishni boshlasin”²⁰.

Mutafakkirning zikr qilishicha, mashvaratxona a‘zoligiga mamlakat xalqining turli tabaqa vakillari orasidan eng aqlli, ko‘pni ko‘rgan, tajribali va ilimli kishilar saylanib, ularga maosh to‘lanishini tavsiya etadi. Kengash paytida a‘zolar xalq hamda davlat manfaatlarini ko‘zlab, fikr yuritib, ular qaysi qarorga kelsalar, u ishlarni amalga oshirsin. Mamlakat obodligi va xalqning manfaati ustida bir ishga ular ittifoq qilgan bo‘lsalar, qabul qilingan qarorlar sultonga taqdim etilsin, u ham shu qarorga qo‘shilsa, ijrosi ta‘minlasin, deb e‘tirof etadi.

Ahmad Donish o‘z davri hukmdorlarning davlat boshqarishdagi kamchiliklarini ko‘rib va bu illatlarni keskin tanqid qilar ekan: “Ko‘p aqllar bir erga yig‘ilsalar, ko‘p vaqtda xato chiqmaydi”²¹, deydi.

Mutafakkir nafaqat parlament xususida, balki, uning vakolatlarini ham ma‘lum darajada aniq ko‘rsatib beradi. Davlat boshlig‘ining zarur bo‘lgan vazifalaridan biri, - deb yozadi Ahmad Donish, - ko‘pchilik xalq rizoligi va davlat ulug‘larining maslahatlari bilan o‘ziga ... vaziri dono saylab olsin.

SHuningdek, mutafakkir “davlat rahbari o‘z kengashlariga hasadchi, chaqimchi va ig‘vogap kishilarni yo‘latmasin. Bunday odamlar podshoh kengashlariga yul topib qolar ekanlar, ko‘p fitna va fasodlarga sabab bo‘ladilar”, - deb alohida ta‘kidlaydi. “...SHunday

¹⁹ Жумаев Р. Шарқ мутафаккирларининг сиёсий-ҳуқуқий қарашларида парламентаризм масалалари. // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. 2013. – № 2. – Б. 138-141.

²⁰ Дониш Аҳмад. Наводирул вақое. (Нодир воқое) – Т.: Фан, 1964. – Б. 59.

²¹ Дониш Аҳмад. Наводирул вақое. (Нодир воқое) – Т.: Фан, 1964. – Б. 60.

ekan, sultonga o‘zso‘zini ayta olmay, unga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsata olmay o‘ltirish eng ortiq darajada himmatsizlik, nihoyatda ahmoqlik va nodonlikdir. O‘zini va butun xalqni ko‘ra-bila halokat chuquriga tashlamoq dili ko‘rlarning ishidir”, -deb fikrini davom ettiradi Ahmad Donish. U ilgari surgan davlat boshqaruvini adolatli, xalqparvar tarzda tashkil qilishning asoslangan samarali chora-tadbirlarini nazariy jihatdan ishlab chiqish, davlat mexanizmini tartibga solish, xalq farovonligini ta‘minlashga qaratilgan ijtimoiy- siyosiy g‘oyalari hozirga kunda ham umuminsoniy qadriyat sifatida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

YUqoridagi fikrlardan kelib chiqib, Ahmad Donish shunday xulosaga keladi:

- *birinchidan*, davlat ahamiyatiga molik har bir masalani parlament orqali amalga oshirish lozim;
- *ikkinchidan*, mashvaratxona a‘zoliciga aholining turli qatlamlaridan

(ijtimoiy-siyosiy tenglik masalasi) saylash tartibini joriy qilish kerak;

- *uchinchidan*, poraxo‘rlik va mansab vakolatlarini suiiste‘mol qilishni oldini olish maqsadida ularga maosh tayinlash lozim;
- *to‘rtinchidan*, Parlament binosi hukmdor saroyidan tashqarida bo‘lishi

kerak;

- *beshinchidan*, mashvarat a‘zolari har qanday holatda vazminlik va sabrlilik bilan to‘g‘ri qaror chiqarishi lozim;

Hozirgi kunda Ahmad Donish kabi buyuk ajdodlarimiz qoldirgan boy ilmiy, ma‘naviy merosi taraqqiyotimizning qudratli tayanchi va etakchi omillaridan biri hisoblanadi. U eski rasmiy tarixshunoslik odatlaridan voz kechib, yangi siyosiy qarashlar bilan qo‘rqmasdan chiqqan edi va o‘z davri ijtimoiy fikrida ilg‘or yo‘nalishga asos yaratgan shaxsiyatdir. Ahmad Donish mutaassiblikka qarshi ravishda ma‘rifatlilik g‘oyasini ilgari surdi. Mutafakkir falsafasida jamiyatni boshqarishda siyosiy elita va etakchilar, milliy professional mutaxassis rahbar kadrlarni tayyorlash va tanlash tizimini takomillashtirish, boshqaruv muammolari

masalasini ancha chuqur tadqiq etadi. Mutafakkir siyosiy elita va etakchilarni to‘g‘ri tanlanganligi bu mamlakatning iqtisodiy yuksalishiga olib keladi hamda jamiyatning istiqbolini belgilaydi, - degan xulosaga keladi. Ahmad Donish “Navodirul vaqoe” asarida “amaldorlar va hokimlar insoflik bo‘lishlari lozim. Agarda bular zolim bo‘lsalar, rahbarlari odil bo‘lsa ham, yurt xarob bo‘lib, qishloq xalqi jondan to‘yib vayronagarchilikka uchraydi. Rahbar bularni bila turib sukut qilgan bo‘lsa, u haqda o‘zi ham zolimlarga qo‘shilgan bo‘ladi,”²²- deb yozadi.

Ahmad Donish amirlikning mashhur fan arboblari, adabiyot va ilm namoyondalarini to‘plab majlislar, suhbatlar uyushtirishni yoqtirar edi. Bu suhbat va majlislar o‘z navbatida ilm–fan vakillarini ilhomlantirib yangi asarlarning dunyoga kelishiga, voqelikning haqiqiy ahvolini ongli ravishda aks ettirilishiga sabab bo‘lar edi. Ahmad Donish Amir Muzaffarning olimlar va shoirlar, adiblarga hurmat bilan qaraganligi, uning o‘zi ham iste‘dodli, g‘oyatda ma‘rifatparvar, adabiyotga qiziqqanligini, uning davrida ilm–fan taraqqiyoti yo‘lida bir qancha xayrli ishlar amalga oshirilganligini ta’kidlab, o‘zining «Navodirul-vaqoe» asarini uning nomiga bag‘ishlaydi.

Ahmad Donish olimlar va shoirlar, adiblarga hurmat bilan qaraganligi, uning o‘zi ham iste‘dodli, g‘oyatda ma‘rifatparvar, fan va adabiyotga qiziqqanligini, uning davrida ilm–fan taraqqiyoti yo‘lida bir qancha xayrli ishlar amalga oshirilganligining guvohi bo‘lamiz.

SHamsiddin SHohin (1859-1894), Muhammad Siddiq Hayrat (1878-1902) kabi ko‘plab zamondoshlar va shogirdlar Ahmad Donishning ma‘rifatparvarlik g‘oyalarini davom ettirdi va rivojlantirdi. Vatandoshimiz Ahmad Donish yuqorida zikr etilgan davlat arboblari, hukmdorlar, siyosat sub’ektlari bilan o‘zaro individual yoki guruhliy manfaatlar yuzasidan munosabatda bo‘ldi va ular boshqargan siyosiy muhitda yashab ijod qildi.

Ahmad Donish yashagan davr olimlar fan yutuqlarini ta’lim jarayonlarini ishlab chiqarish jarayonlari bilan birgalikda olib borishga intildilar. Biroq ruhoniylarning yanglikka nisbatan qarshiliklari fan yutuqlarini joriy etishga to‘sqinlik qilardi. Bu asrda ko‘plab shoirlar,

²² Аҳмад Дониш. Наводир ул-вақое. Тошкент: “Фан”, 1964, 47-бет.

adiblar etishib chiqdiki, ular haqli tarzda xalqimizning mentalitetini shakllantirishga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi. Ahmad Donish ana shu kabi ko‘plab ma’naviy faoliyat namoyondalari bilan zamondosh bo‘ldi, ular bilan muloqot qilib fikr almashdi. Ular Ahmad Donishning buyuk allomalardan bo‘lib etishmog‘i uchun o‘zlarining suhbatlari yoki asarlari, yoxud qoldirgan ilmiy meroslari bilan munosib hissa qo‘shdilar, o‘z navbatida u shogirdlari uchun ham xuddi shunday maktab vazifasini o‘tadi.

YUqorida ta’kidlaganimizdek, Ahmad Donish davrida Buxoro amirligining inqirozga qarab yuz tutayotganligi, zaiflashayotganligi va siyosiy tarqoq holga kelib qolayotganligi bilan xarakterlanadi. Jamiyatdagi mazkur siyosiy jarayonlar bevosita va bilvosita Ahmad Donishda siyosatning ma’no-mazmuni, ko‘rinishlari, ularni keltirib chiqaradigan sabablar to‘g‘risida muayyan siyosiy malaka paydo qilishi shubhasiz. Avvallari o‘zaro xonliklar va qo‘shni davlatlar o‘rtasida kelishmovchiliklar va ziddiyatlar bo‘lar edi. Bu davrga kelib chor Rossiyasi ham siyosat sahnasiga chiqdi. Xonliklar va qo‘shni davlatlar bilan bo‘lgan jangu- jadallarda zaiflashib qolgan, ichki kelishmovchiliklardan jar yoqasida turgan paytda katta kuchga ega bo‘lgan bosqinchi chor Rossiyasining paydo bo‘lishi shubhasiz Buxoro amirligi saltanatini inqirozga yuz tutishiga sabab bo‘ldi.

Ahmad Donish ilmiy salohiyatini shakllantirgan omil allomaning bir davlatdan boshqa davlatga, amirlik beklklariga sayohati va ko‘chib yurishi, turli etnik guruhga mansub xalqlar bilan muloqotlari natijasida to‘plangan katta hayotiy va amaliy tajribasidan iboratdir.

Tadqiqotlar natijasi ko‘rsatadiki, Ahmad Donish ijtimoiy-siyosiy qarashlarning shakllanishi ana shunday omillar ta’siri ostida kechdi. SHuni ham ta’kidlash lozimki, ushbu qarashlar davrning ikki o‘zaro qarama-qarshi muhiti kurashi ostida shakllangan, ya’ni Ahmad Donishga Buxorodagi diniy-mafkuraviy an’analar hamda chor Rossiyasining kirib kelishi munosabati bilan ijtimoiy hayotda o‘rin topayotgan madaniyat unsurlari o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Qolaversa, Donishning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’rifiy qarashlari bugungi davrda ham o‘z ahamiyatini yuqotmagan va dolzarb bo‘lib qolmokda. O‘zbekiston Respublikasida huquqiy-demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishda hamda muvaffaqiyatli amalga oshirishda ma’rifat, mustaqillik uchun kurashgan ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan meros va tarixiy tajribalarni chuqur o‘rganish,

tegishli xulosalar ishlab chiqishni talab etadi. CHuqur o‘rganilishi muhim bo‘lgan masalalardan biri Ahmad Donish ijtimoiy-siyosiy qarashlarining shakllanishi jarayonidir.

Ahmad Donish o‘z mamlakatining siyosiy ishlariga faol aralashuvchi tarixchi sifatida namoyon bo‘ladi²³. U o‘zining asarida Buxoroning mang‘it amirlari boshqaruvi tarixiga keskin va shavfqatsiz hajv beradi. Ahmad Donishni boshqa tarixchilardan, o‘zining zamondoshlaridan, umuman alohida o‘ringa chiqarib qo‘yadigan holat uning “Risola”sida qilgan xulosasidir. Bu asarda mavjud bir qator muhim ma‘lumotlar ko‘pgina tarixiy voqealarni yangitdan ochib beradi. SHuningdek, Ahmad Donish ham o‘zining tarixiy asarining tarbiyaviy mohiyatiga katta e‘tibor beradi.

Ahmad Donishning tarix falsafasi, milliy tafakkur tarzi jamiyatdagi ijtimoiy qatlam o‘rtasidagi o‘zaro tafovutlar, saroy va oddiy xalqning o‘zaro munosabatlari hamda mutafakkirning ma‘naviy-axloqiy mezonlari natijasida vujudga kelgan. SHuningdek, mutafakkirning tarixnavislikka qiziqishi bevosita yoshligidan vujudga kelgan va uni quyidagi fikrlaridan ham anglab etishimiz shubhasizdir. “... qaerda tarixchilarning majlisi bo‘lsa, o‘sha erga kirib, o‘tmishdagi payg‘ambarlarning ahvollari, podshohlarning voqealarini eshitib o‘ltirar edim. Bu so‘zlardan lazzatlanib, ularni qancha eshitsam, yana eshitgim kelar edi,²⁴” – deb yozadi Ahmad Donish. Uning asarlarida tarixiy haqiqat, jarayonlar tahlili, voqea va hodisalarning falsafiy-mantiqiy jabhalari bilan ajralib turadi. I.Mo‘minov xulosalariga ko‘ra, Ahmad Donish o‘zining o‘sha vaqt tarixiy sharoitida ilg‘or siyosiy qarashlari nazariy, falsafiy fikr-qoidalar orqali asoslashga harakat qildi²⁵.

Atoqli siyosatshunos va jamiyatshunos olim Narzulla Jo‘raev o‘zining “Tarix falsafasining nazariy asoslari” kitobida “SHarq tarix falsafasining o‘ziga xosligi shundaki, unda turli davrlarda hukm surgan podsholiklar va ularning sulolalari tarixiy davr sifatida qabul qilinadi va ana shu davrda yuz bergan barcha voqealar, ma‘naviy-axloqiy mezonlar, madaniy va ijtimoiy taraqqiyot bevosita

²³ Дониш Ахмад. История Мангитской династии. (Перевод, предисловие и примечания Н.А.Наджафовой). – Д.: Дониш, 1967. С. 19.

²⁴ Ахмад Дониш. Наводирул вақое. (Нодир воқеалар). И.М.Мўминов таҳрири остида. Т.: Фан, 1964 . Б. 337.

²⁵ А.Дониш. “Наводир-ул-вақоеъ”. Тошкент. “Фан”, 1964 . 8-бет.

ana shu podsholiklar va ularning sulolalari yurgizgan siyosat asosida o‘rganiladi”, deb yozadi²⁶. Ahmad Donishning tarixiy tafakkuriga sharq tarix falsafasining odatlari ta’sir ko‘rsatgan. U o‘zining “Tarjimai ahvoli amironi Buxoroyi sharif az amir Doniyol to asri amir Abdulahad” (“Buxoroyi sharif amirlarining tarjimai ahvoli amir Doniyoldan to amir Abdulahadgacha”) deb nomlangan asarida Buxoroda hukm surgan mang‘it hukmdorlarining hokimiyatga kelishi davridan to o‘zi yashagan davri tarixini yaratdi. Mazkur asarda amirlikning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy va siyosiy tarixi haqida ma’lumot beradi. SHuningdek, asarda kam tilga olinadigan mang‘it hukmdorlaridan hisoblangan amir Husayn hamda amir Umarning boshqaruv davrida ro‘y bergan voqealar haqida ma’lumot keltiradi²⁷. Ahmad Donish umrining oxirlarida «Tarix risolasi» kitobini yozib, Amir Temur, Husayn Boyqaro, Abdullaxon, Subhonqulixon, SHohmurod va Amir Muzaffar saltanati misolida har bir davlatning taraqqiy hamda tanazzuli sabablarini tahlil qilib, ilmiy asoslashga harakat qiladi.

I.A.Nadjafova xulosalariga ko‘ra, Buxoro xonligi tarixi bo‘yicha O‘rta Osiyoni Rossiyaga qo‘shib olinganligini o‘z ichiga olgan quyidagi asarlar ma’lum: “Buxoro mang‘it amirlarining qisqacha tarixi” (Ahmad Donish), Mirzo Abdulazim Somiy “Mang‘it hukmdorlari tarixi”, Mirzo Salimbekning “Tarixi Salimiy” va boshqalar. Sanab o‘tilgan asarlar orasida Ahmad Donishning “Buxoro amirlari xonadoni tarixi” shak-shubhasiz eng mashhuri va eng kattasi hisoblanadi. “Bu asar Buxoro amirlari oxirgi sulolasining boshqaruvi tarixiga oid o‘tkir hajviy asar edi”. Qaysiki bu asarda muallif ushbu sulolaning tanazzuli muqarrar ekanligi haqidagi xulosaga kelgan. Asarda amir Muzaffar (1860-1885) hukmronligi davridagi va amir Abdulahad (1885-1910) hukmronligi boshidagi voqealarga ya’ni, asar muallifi ko‘z o‘ngida sodir bo‘lgan va uning o‘zi guvoh bo‘lgan voqealarga asosiy e’tibor berilgan. CHorizmning O‘rta Ociyoga harbiy bosqini, Jizzax va Samarqandning zabt etilishiga

²⁶ Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. – Т.: “Маънавият”, 2008, 70-бет.

²⁷ Дониш Ахмад. История Мангитской династии. (Перевод, предисловие и примечания Н.А.Наджафовой). –Д.: Дониш, 1967. С. 37-38 // Дониш Ахмади Махдум. Рисола ё мухтасаре аз таърихи салтанати хонадони мангития. Таҳия Далер. —Душанбе: Сарват, 1992. 17-18 - бетлар.

katta o‘rin ajratilgan²⁸. Boshqa mahalliy tarixchilarda bu haqida odatda kam yozilgan. Risola XIX asr oxiridagi qimmatbaho va qiziqarli tarixiy asar hisoblangan holda o‘z mazmuni bo‘yicha bebahodir. SHartli ravishda biz uni hajm bo‘yicha ham, mohiyati bo‘yicha ham har xil bo‘lgan ikki qismga bo‘lishimiz mumkin. Hajman kichikroq bo‘lgan birinchi qismda muallif yozma manbalar asosida eshitgan va bilgan voqealari haqida aytib beradi. Unda amir Doniyol hukmronligining oxirgi yillari va uch amir – SHoxmurod, Haydar, Nasrullo hukmronligi haqida aytib o‘tiladi²⁹. Asarning ikkinchi qismida mutafakkir guvoh tarixchi, tanqidchi, faol kurashchi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zi guvohi bo‘lgan voqealarni keng yoritishi, ijtimoiy munosabatdagi masalalarga, o‘sha davrning hayoti va madaniyati masalalariga katta qiziqish bo‘lganligi bilan ajralib turadi. Uning hikoyalari o‘zining haqiqatga yaqinligi va xulosa chiqarishga, tafakkur qilishga undashi bilan kitobxonlarni o‘ziga jalb qiladi. Mang‘it amirlari sulolasi hukmronligining yuz yillik tarixi tadqiq va tahlil qilingan.

Tarixchi sifatida Ahmad Donish nafaqat o‘zidan oldingi tarixchilardan balki zamondoshlaridan ham ancha oldinda o‘tib ketgan. O‘sha davrning asosiy tarixiy asarlari odatda rasmiy tarixshunoslik talablari asosida yozilgan. Ularda voqealar davlatdagi iqtisodiy-siyosiy ahvolni tahlil qilmasdan saroy tarixnavislariga xos maqto‘v va maqbul ko‘rinishda voqealarni tasvirlaganlar. Ba’zida hukmdorlarning zo‘rovonlik, o‘zaro dushmanlik, kichik noroziliklarni ham qonli bostirganliklari haqidagi ma’lumotlar ilmoqli so‘zlar hamda ehtiyotkorlik bilan yozilgan. Xolisona va ochiq tanqid haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas edi. Deyarli barcha yuqoridagi tarixiy asarlar saroy doirasidan chiqqan. Bu xabarlar xonlarning to‘g‘ridan- to‘g‘ri ko‘rsatmasi bilan yoki tortiq uchun yoki xon marhamati va in’omini qozonish uchun qilinardi. SHuning uchun tabiiyki, xonlarga bag‘ishlangan bu asarlarda hukmdorlar qahramon, mehribon, bag‘ri keng, marhamatli qilib tasvirlanar edi. Diqqat markazida saroy hayoti, urush, boshqa xon, amir va shohlarga bo‘lgan munosabat turgan. Ba’zan esa zulmdan aziyat chekkan xalq ommasining qo‘zg‘alonlari «yo‘lto‘sar va qaroqchilar»ning harakati sifatida tilga

²⁸ Дониш Ахмад. История Мангитской династии. (Перевод, предисловие и примечания Н.А.Наджафовой). – Д.: Дониш, 1967. С. 3-4.

²⁹ Ўша манба. 6-бет.

olingan. Bu haqda atoqli olim Ibrohim Haqqul quyidagi fikrga keladi: “Donish umrida ta’ma ilinjida birovni maqtab, birovning oldida egilib-bukilmagan, shaxsiy foydanigina ko‘zlab haqgo‘ylik, tanqidbozlik ham qilmagan. U har bir so‘z va har bir ishdan haqiqat axtarib yashagan. Uning so‘z va fikrlari doimo asosli, teran, qilichdek keskir bo‘lgan”³⁰. Biz buni mutafakkirning quyidagi misralaridan ham anglab etishimiz mumkin:

*Kimki aylar podshohlar madhini, Bil, aniq ustoz shaytondir ani.
Etmayin mansabparastlik o‘rganur,*

*Maqsadiga etsa ul – shayton bulur*³¹.

Ahmad Donishning tarix falsafasini, ilmiy merosini jadid namoyandalari mahorat bilan o‘zlashtirishdi va ularni yangi davr sivilizatsiyasi nuqtai nazaridan tartibga solib, yangicha ilmiy-nazariy uslub bilan ifodalab beradilar. Ahmad Donish yaratgan buyuk maktab tufayli Buxoroda jadidchilik harakati vujudga keldi. Buni S.Ayniy “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” asarida quyidagicha izohlaydi: “Buxorodagi dastlabki maorifparvarlik va jadidchilik g‘oyalari Ahmad Donishdan boshlangan”³². Ahmad Donish fuqarolik jamiyati, uning rivojlanish qonuniyatlari, raiyat va hokim muammolari, davlat va boshqaruv masalalari xususida gapirar ekan, u real voqelik va uning istiqboli hamda tanazzuli sabablarini qidiradi.

Aniqroq qilib aytganda, Ahmad Donishning “Navodir ul vaqoe” deb nomlangan asarida bayon etilgan betakror ilmiy g‘oyalar amirlikning inqirozga yuz tutgan holatidan olib chiqishga qaratilgan. Bu asar mazmuni jihatidan tarix falsafasining o‘ziga xos ko‘rinishidir. Unda amirlikni teologik davlat boshqaruvidan yangi bir demokratik siyosiy tizimga olib chiqish va demokratiyaning

³⁰ Иброҳим Ҳаққул. Тақдир ва тафаккур. – Т.: “Шарқ”, 2007, 208-бет.

³¹ Аҳмад Дониш. Наводир ул вақое. (Нодир воқеалар). И.М.Мўминов таҳрири остида. Т.: Фан, 1964. Б. 367.

³² Садриддин Айний. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. – Москва. СССР халқлари Марказий нашриёти. 1926. – Б. 29.

omillari va mohiyati dunyoviy tafakkur orqali tadqiq etiladi va kutilmagan xulosalar ilmiy asoslangan holda o'rtaga tashlanadi. Bu xulosalar hozirga qadar ilmiy yangiligi, dolzarbligi, nazariy asoslanganligi, muhim konseptual ahamiyatga egaligi va ulkan ijtimoiy mohiyat kasb etganligi bilan alohida qadrli.

Ahmad Donish tarix falsafasining o'ziga xosligi shundaki, unda XVIII – XIX asrlarda hukm surgan mang'itlar sulolasi va shu davrda yuz bergan ijtimoiy- siyosiy jarayonlar, ma'naviy-axloqiy mezonlar, madaniy va ijtimoiy taraqqiyot bevosita ana shu sulola vakillari va davlat yuqori vakolatli organlari yurgizgan siyosat asosida o'rganiladi. Ahmad Donish ana shu tartibotdan unumli foydalangan.

Ahmad Donish Buxoro amirligi siyosiy tarixini juda chuqur o'rganish bilan birga, uni turli rivoyat va hikmatli so'zlar bilan boyitib, keng kitobxonlarni o'ziga jalb qila olgan. Tarixni falsafiy tadqiq etish tamoyili shuni taqazo etadiki, u har qanday ilmiy tushunchalar, turli manbalar va tarixiy dalillarni to'g'ridan-to'g'ri qabul qilmaydi. Ularning har biriga tafakkur orqali yondashib, tarix haqiqatini tiklash bilan birga voqea-hodisalarning mantiqiy rivoji orqali tarix mohiyatini, mazmunini va yaxlit falsafasini vujudga keltiradi. Mutafakkir tarixiy manbalar ustida ishlar ekan, u har bir manbaga mutlaq haqiqat sifatida qaramaydi. Ahmad Donish tarixiy jarayon tahliliga kirishar ekan, uni falsafiy mushohada etadi, unda mohiyat izlaydi va natijada mantiqiy xulosalar chiqarishga erishadi.

Tarix haqiqatini tiklash, tarixiy tafakkur va tarix haqidagi ma'lumotlarni egallashda Ahmad Donish tarix falsafasida aniq me'yorlarga ega va bu me'yorlar bevosita har bir voqelikka xolis yondashib, asosli xulosalar chiqarishni talab qiladi. Olimning falsafasiga ko'ra har qanday tarixiy jarayon inson aql-idrokining mahsulidir.

Jumladan, XIX asr o'rtalaridagi Xitoy-qipchoqlarning Qo'qondagi qo'zg'aloni, Rossiya va Evropa davlatlarining, Eronning ijtimoiy-siyosiy tarixi, Buxoro va uning atroflarni suv bilan ta'minlash, Rossiyaga qilingan safar ta'surotlari haqida qiziqarli ma'lumotlar hamda mutafakkir tomonidan taklif qilingan mamlakatni iqtisodiy isloh qilishning kengaytirilgan dasturini keltiradi.

Amir Doniyol hukmronligining oxirgi yillarida davlat ishlaridan chetlashib, boshqaruv hokimiyatini o'g'illariga va viloyatlar

hokimlariga berib qo‘ygan va hech kim shariat qonunlarining bajarilishini nazorat qilmagan. Bu borada Ahmad Donish o‘z qat’iy bahosini beradi. U amir Doniyol o‘g‘illarining buzuqliklarini ochiqdan-ochiq tanqid ostiga oladi. U fuqarolar va mehnatkashlar zimmasiga yuklatilgan tunganmas soliqlar va qiyinchiliklarni atroflicha ko‘rsatib bergan.

Ahmad Doninshning tarixiy tafakkuri endi islohotlar bilan cheklanmaydi, amir va amirlikni hajviy bo‘yoqlarda chizib berib, o‘z kitobxonlariga endi hech qanday islohotlar yordam bermasligini keskin ta’kidlaydi.

Ahmad Donish falsafiy tafakkuri o‘z davri muarrixlaridan farq qiladigan alohida xususiyatlaridan biri unga Buxoro amirligining ko‘p asrlik urf-odatlarini, sharq madaniyati hamda boshqa tomondan Rus madaniyatining ta’sirini ko‘ramiz. SHarq tarixshunosligida hali X asr o‘rtalaridan alohida konsepsiya mavjud. Bu konsepsiya tarixni o‘rganishda axloqiy, tarbiyaviy mohiyatni o‘z ichiga oladi. Bu g‘oya Ibn Miskavayxning asarida yaqqol ko‘rsatilgan. U tarix tajribasi davlat namoyandalari uchun qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi deb hisoblagan. “Siyosatnoma” va boshqa asarlarning mualliflari ham o‘z oldilariga xuddi shunday maqsadni qo‘yishgan. SHuningdek, Ahmad Donish ham o‘zining tarixiy asarining tarbiyaviy mohiyatiga katta e’tibor beradi. “Mang‘itlar xonadoni hukmdorlari tarixidan qisqacha risola”sida so‘z boshida u yozadiki: “Bu amir (amir SHohmurod) davridan taxminan to 1300 yilgacha (ya’ni to 1882-1883 yillar) din va davlat ishlarida bo‘lib o‘tgan ilg‘or va qoloq ishlar haqida qisqacha va lo‘nda aytib beramiz.

YUqoridagi fikrlardan kelib chiqib, Ahmad Donishning tarix falsafasida, *birinchidan*, voqea va hodisalarni shunchaki bayon qilmasdan balki unga nisbatan tarixiy va xolislik asosida o‘zining shaxsiy munosabatini bildiradi va muammoni echishning yo‘llarini izlashga harakat qiladi. Real tarixiy jarayonlar tahliliga e’tibor qaratadi.

Ikkinchidan, o‘sha davr hukmdorlariga va boshqaruv rahbar kadrlarining holati, turmush tarziga tanqidiy baho berib qolmay, ularga ma’naviy axloqiy jihatdan tuzalishini taklif qiladi. Buni o‘zining keskin tanqidiy qarashlari asosida asarlarida ochib berdi.

Uchinchidan, uning tarixiy qarashlari fuqarolik jamiyatini shakllantirishga, insonning siyosiy-huquqiy ongini rivojlantirishga, boshqaruv tizimini yaxshilashga qaratilganligi bilan xarakterlanadi.

Ahmad Donish o'z mamlakatining siyosiy ishlariga faol aralashuvchi tarixchi sifatida namoyon bo'ladi. U o'zining asarida Buxoroning mang'it amirlari boshqaruvi tarixiga keskin va shavfqatsiz hajv beradi. Ahmad Donish eski rasmiy tarixshunoslik odatlarini sindirib yangi siyosiy qarashlar bilan qo'rqmasdan

chiqqan edi va o'z davri ijtimoiy fikrida ya'ni ilg'or yo'nalishga asos soldi.

Ahmad Donishning amirlikning mudofaa tizimi va jangovar salohiyati haqidagi ma'lumotlari va uni isloh qilish bo'yicha tavsiyalari alohida ahamiyatga ega. Mutafakkir o'zining "Nodir voqealar" va "Buxoro (mang'it) amirlarining tarjimai hollari" asarlarida bu muammoga jiddiy e'tibor qaratgan. Xususan, ruslarning Buxoro amirligiga hujumi tavsilotlari, amir Muzaffar davri amirlikning mudofaa tizimining betartibliigi, sarkardalarning uquvsizligi hamda zamonaviy harbiy qurollar va texnikasidan foydalanish bo'yicha malakasining sustligini aniq dalillar orqali bayon etadi.

Amir Muzaffar otasi davridagi amaldorlarning ko'pchiligini qatl qildirdi, ularning mulkini musodara qildi. Qo'shin boshliqlari Amir Muzaffar bilan o'qigan maktabdosh g'ulomlar bo'lib, ular egallayotgan mansabining huquq va majburiyatlari haqida bilmagan. Jangovar vazifani anglab, vaziyatni to'g'ri baholay olmagan, qaror qabul qilishda ikkilanishgan. Qo'shinning doimo qistovda bo'lganligi, lashkarboshilarning bilim saviyasi pastligi, jang maydonini umuman ko'rmaganliklari sabab mamlakat yaxlitligi va xavfsizligini ta'minlab bilmadilar. Askarlar o'zlariga bosh qilib qo'yilgan g'ulomlarga harbiy xizmatni o'tashni or deb bilib, gohida jangga kirishmagan yoki qochishgan. Harbiy vatanparvarlik tamoyillari shakllanmagan edi.

Toshkent rus qo'shinlari tomonidan qamal qilingan vaqtda amir Muzaffar Qo'qonga yurish qilmoqchi edi. Ba'zi maslahatchilar bu yurishdan voz kechib, Toshkentga yordam berishni maslahat bergan edilar. Biroq O'zgangacha bo'lgan erlar zabt etildi. SHu vaqtda amir saroyida majlis bo'lib, unda harbiy boshliqlar Toshkentga qo'shin

tortish zarur deb hisoblaganlar. Amir bunga rozi bo‘lmadi va bunday deyishni joiz deb bildi. “Toshkent ostonalarida ruslar g‘alaba qozondi, ularga qarshi chiqish men uchun uyat. Agarda men egarda o‘tiradigan bo‘lsam,

unda to‘g‘ri Moskvagacha boraman³³”. Bu fikrlardan ko‘rinib turibdiki, u ruslar qo‘shinini xuddi Movarounnahr hukmdorlarining ustidan g‘alaba qilgani kabi ularning ham ustidan zafar qozonishiga ishongan.

Umuman ruslarning Toshkent ostonasidagi g‘alabasi va bosqinidan keyin barcha tushinib etdiki, Buxoro chegaralarini yopadigan va Samarqand darvozasi hisoblanadigan Jizzaxni himoya qilish juda muhim edi. 100 000 tanga topib, Jizzax atrofida qal’a devorlari qurishdi va u erda harbiy garnizonlar tashkil etildi. Amirning g‘ulomlaridan biri bo‘lgan YOqub Qo‘shbegini bosh qo‘mondon qilib tayinlashdi³⁴. U esa hayotida biror marotaba o‘q ovozi eshitmagan va hatto biror marta jang maydonini ko‘rmagan. U o‘z qo‘l ostidagi qo‘shinni va dushman imkoniyatlarini to‘g‘ri baxolay olmagan hamda harbiy intizomni ta’minlamagan. Askarlar ham bunday boshliq bilan jang qilishdan uyalganlar.

Davlat rahbari, Ahmad Donish tafakkuricha, - askar boshlig‘ini tanlashda:

Birinchidan, uning jismonan kuchli va shijoatli, jang maydonida alohida

o‘rnak ko‘rsatgan, diplomat va strateg bo‘lishligini;

Ikkinchidan, to‘g‘ri fahmlik va har ishga tez tushunadigan bo‘lishini;

Uchinchidan, boshidan issiq–sovuq ishlar o‘tgan, tajriba ko‘rgan

bo‘lishini; ***To‘rtinchi***dan, botirlik qilgan chog‘ida qilich va miltiqdan, o‘t va suvdan

parvo qilmasligini;

³³ Дониш Ахмад. История Мангитской династии. Перевод, предисловие и примечания Н.А.Наджафовой. –Душанбе: Дониш, 1967. –с. 43.

³⁴ Дониш Ахмад. История Мангитской династии. Перевод, предисловие и примечания Н.А.Наджафовой. –Душанбе: Дониш, 1967. –с. 45.

Beshinchidan, ziyraklik va donishmandlik bilan og‘ir kunlarda har ishning mohiyatiga tezda tushunadigan bo‘lishini;

Oltinchidan, ish ko‘rgan, maraka va maydonga tushgan, bir necha bahodirlar bilan to‘qnashgan bo‘lishligini uqtiradi.

Agar shunday sifatlarga ega bo‘lgan kishi askar boshlig‘i bo‘lar ekan, - deb ta’kidlaydi u, - shundagina askarni saqlab, ziyon va zahmatga qoldirmay, dushmanni engib shon va sharafga erishadi³⁵.

Bundan ko‘rinib turibdiki, amir harbiy rahbar-kadrlarni tanlashda ham xatolikka yo‘l qo‘ygan, bosh qo‘mondon YOqub Qo‘shbegining hatti-harakatlari esa yuqorida zikr etilgan fazilatlarining birortasiga mos kelmaydi.

Amir qo‘shinida 36 ta to‘p va bir necha tuyaga yuklangan harbiy aslahalar bor edi³⁶. Biroq dushman bilan to‘qnashuv yuz berganda, porox va to‘pning o‘qlari Buxoroda qolganligi va barcha anjomlar yaroqsiz ekanligi ma’lum bo‘ldi. Poroxning yonib, portlashi uchun esa bir tog‘ora olov kerak bo‘lgan. Hukmdor, - deb yozadi Ahmad Donish, safar asbob-anjomlari butunlay tayyor bo‘lmaguncha yo‘lga chiqmasin³⁷. Buxorodan qo‘shin ketganidan keyin barcha shahar aholisini “muqaddas urushga” chaqirishdi. Har bir fuqaro qurol sifatida 3 gaz (1,5 metr) keladigan tayoq bilan qurollangan... Ahmad Donishning harbiy sohadagi siyosiy qarashlari ko‘proq mudofaa tizimiga qaratilgan. U mudofaani jiddiy isloh qilish va o‘zgartirish, ya’ni evolyusion yo‘l bilan rivojlantirish tarafdori edi. Jang maydonini ko‘rmagan oddiy xalqning urushga safarbar etilishiga qarshi chiqdi. Chunki u har bir kishi o‘ziga yuklatilgan vazifani, zakotchi–ushur va xirojlarni yig‘ib olishi hamda butun moliya xizmatlarini, yo‘llar noziri–mamlakatdagi butun yo‘llarni nazorat qilib, o‘g‘ri, qaroqchilardan tozalash, bozor oqsoqoli– xalq bozoridagi tarozi va boshqa xil o‘lchovlar hamda bozordagi narx-navoning har xil bo‘lmasligini nazorat qilishi, mirshab boshlig‘i–xalqning uy-joyi, mol dunyosini kecha va kunduz himoya qilishi, mirob boshi–dehqonlar, chorvadorlarning erlarini suvdan qoldirmasligini

³⁵ Ахмад Дониш. Наводир ул-вақое. Тошкент: “Фан”, 1964, 55-бет.

³⁶ Дониш Ахмад. История Мангитской династии. Перевод, предисловие и примечания Н.А.Наджафовой. –Душанбе: Дониш, 1967. –с. 45.

³⁷ Ахмад Дониш. Наводир ул-вақое. Тошкент: “Фан”, 1964, 55-бет.

ta'kidlaydi. Askar esa mudofaa ishlari, mamlakat osoyishtaligi va fuqarolarning tinchligini ta'minlashi zarur, - deb ko'rsatadi³⁸.

Amir ikki farsaxga (16 km) cho'zilgan katta to'dani ko'rib, "urushda g'alaba qozonaman va imperator poytaxti Peterburgni egallayman³⁹" degan fikrni bildiradi. Chunki u uzun va keng yoyilgan qo'shinni ko'rgan edi. Lekin bilmas ediki, tarqoq qo'shin ishga yaramaydi. Ahmad Donish ta'biri bilan aytganda, "YUz ming (o'rgatilmagan) odamdan ko'ra ikki yuzta mard harbiy yaxshiroqdir". Ruslar amirning haqiqiy holatini bilishmagan, qo'rqib kelishuv qilishga

uringan. Ularning qo'shini bir yarim ming yoki ikki ming kishidan iborat edi. Allomaning uqtirishicha, agar mumkin bo'lar ekan, hukmdor dushman bilan kelishish yo'lini tutsin. Har holatda sharoitga qarab sulhga rozilik bildirsin. Zinhor urushni boshlovchi bo'lmasin. Askarining ko'pligi, mol va yaroq jabduqning mo'lligiga ishonmasin⁴⁰.

Amirning qarorgohi jang maydonidan 1 farsax (8 km) narida bo'lib, o'zi shaxmat o'yini bilan mashg'ul edi. Ba'zida u artileriya boshlig'i Salimboy va sarkarda SHerali oldiga o'z xizmatkorini yuborgan. U xizmatkori orqali ruslar xazinasini talon-taroj qilishlaridan saqlashni va ruslarni ko'p o'ldirmasdan, asirga tushirib, keyinchalik ulardan sarboz sifatida foydalanishni buyurgan edi. Ahmad Donish, hukmdor askarlarning ahvolidan bir nafas bo'lsa ham xabarsiz qolmasligi, hushyorlik bilan tekshirib turishi hamda urushlarda hukmdor o'z rohatini istamay, ko'pchilik qatorida yurishi lozimligini tushuntiradi⁴¹.

Qo'shinning old qimida esa oxund mansabiga ega bo'lgan YAhyo Xoja turkman urushning afzalliklari haqida gapirar edi. Biroq kutilmaganda ruslarning hujumi oqibatida to'plar egallandi va amir qo'shinlari o'q ovozidan qo'rqib qochishga kirishgan. Harbiy boshliqlar askarlarga ruhiy madad berish o'rniga otlariga o'tirib orqasiga qaramay Buxoroga etib kelguncha birinchi navbatda jang

³⁸ Ахмад Дониш. Наводир ул-вақое. Тошкент: "Фан", 1964, 49-бет.

³⁹ Дониш Ахмад. История Мангитской династии. Перевод, предисловие и примечания Н.А.Наджафовой. –Душанбе: Дониш, 1967. –с. 45.

⁴⁰ Ахмад Дониш. Наводир ул-вақое. Тошкент: "Фан", 1964, 57-бет.

⁴¹ Ахмад Дониш. Наводир ул-вақое. Тошкент: "Фан", 1964, 55-бет.

maydonini tark etgan. Amirga ushbu xabar etkazilganda u qo‘rqqanidan hattoki egarlanmagan otga minib qochib ketdi. Amir kechga yaqin Xavos qishlog‘iga etib kelgan, Samarqandga kelganida unga qariyb 500 kishi kelib qo‘shilgan.

Davlat boshlig‘i, deb yozadi Ahmad Donish, -oraul boshliq (avangard boshlig‘i) mansabiga ko‘pni ko‘rib tajriba o‘tkazgan, so‘zi o‘tkir, bahodirligi aniq, xalqqa yoqimli kishidan qo‘ysin. Urush tajribasini olmagan bu yo‘lda mehnat va mashaqqatlar tortmagan telba-tentaklardan mutlaqo oraul boshliq tayinlanmasin. Chunki ular ozgina qiyqiriq-urushni ko‘rsalar orqaga qaytib, askarni qoldirib, dushmandan qochadilar⁴²” – degan purma’no fikrlari ayni haqiqatdir. Amirning taxminan 200000 ga yaqin qo‘shini tarqalib ketgan edi. Buning

sababi shunda ediki, barcha harbiy boshliqlar amir bilan birga o‘qigan g‘ulomlar edi. Harbiy bo‘linmalar boshliqlari ularga xizmat qilishni or deb bilishgan. Askarlarga beriladigan maosh tartibga solinmagan edi. Ularga har oyda bir necha kun kechiktirilib, 20 tanga berilgan. Agarda qo‘shinga haqiqiy jangchi qo‘mondon bo‘lganda, har bir harbiyga 60 dirxam berilganda urushga g‘alaba qozonishga xoxish–istak paydo bo‘larmidi... Ahmad Donish aytganidek, **“Kiyimsiz va nonsiz urushga faqat shaxmatdagi qo‘shin boradi⁴³”**.

Umuman olganda Ahmad Donish mag‘lubiyatning sababi quyidagi omillarga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi:

Birinchidan, askarga beriladigan maosh kam bo‘lgan. Ularning zaruriy (qurol-yarog‘, em-xashak va h.k.) sarf-xarajatlari hisobga olinmagan. Bir askarga beriladigan maosh to‘rt askarga, bir harbiy boshliqqa beriladigan maosh ikkitasiga berilgan.

Ikkinchidan, qo‘shinga mudofaa sohasiga oid bilimlarni egallamagan, jismoniy va harbiy taktik tayyorgarlikdan bexabar kishilar boshchilik qilgan. Ular harbiy intizom va nizomlar asosidagi tartibni ta’minlab bilmagan.

Uchinchidan, jang maydonida vafot etganlarning oilasiga hech qanday ijtimoiy himoya ko‘rsatilmagan. Bu esa ularning

⁴² Ахмад Дониш. Наводир ул-вақое. Тошкент: “Фан”, 1964, 57-бет.

⁴³ Дониш Ахмад. История Мангитской династии. Перевод, предисловие и примечания Н.А.Наджафовой. –Душанбе: Дониш, 1967. –с. 49.

farzandalarida keyinchalik harbiy vatanparvarlik tamoyilining bo'lmashligiga olib kelgan.

To'rtinchidan, amir sarbozlari o'z bo'linmasi va dushman imkoniyatlarini etarli darajada baxolay olmagan. O'zaro xamkorlik tashkil qilinmagan.

Jang maydonida qo'shin engilmas bo'lishi uchun sultonning o'zi dovyurak bo'lishi, qo'shin qo'mondoni va harbiy boshliqlari esa ziyraklik, qat'iylilik va mardlik ko'rsatishlari kerak.

Jang maydonida mardlik ko'rsatgan dovyurak navkarlarga o'sha erning o'zida oltin yoki yuqori mansab lavozimi bilan qilgan xizmatiga yarasha taqdirlanishini mutafakir Ahmad Donish ta'kidlaydi. Agarda dushmanni kamondan o'ldirsa bir turdagi, asirga olganligi uchun boshqacha mukofot, agar boshini keltirsa yana boshqacha mukofot bilan amalda jang maydonida taqdirlanishi lozimligini aytadi.

Birinchi to'qnashuvdayoq amirlik mudofaa holatini bilgan ruslar shu ondayoq Jizzaxga yurish qilishdi. Jizzax himoyasi uchun Samarqanddan 12000 askar va bir necha harbiy boshliqlar yo'lga chiqishgan edi. Lekin sarkardalar bir- birlari bilan kelishmas, biri dam olish uchun to'xtasa, ikkinchisi yo'lga otlana, birining oti loyga botsa, ikkinchisi unga yordam qilmas edi. Ularning orasida muntazam qo'shini mavjud bo'lgan afg'onlar ham bor edi. Afg'on sarbozlari jang qonun-qoidalarini egallagan va ko'plab janglarda ishtirok etgan edilar. Jizzaxda to'plangan afg'on qo'shinlari shahardan chiqib, harakat qilishdi. Qolganlar esa qal'a darvozalarini tuproq bilan ko'mib, o'zlarining qamalda qolib, halok bo'lishlariga olib keldi. Amir qo'shinlari o'zaro hamkorlikni tashkil qila bilmaganliklari sabab, rus askarlari qal'a devorlarini buzib, duch kelgan tirik jonning barchasini o'qqa tutgan.

Jizzax ruslar ixtiyoriga o'tgach, amir Samarqandda qolishga jur'at qila olmay Buxoro tomon yo'l oldi. Olim va ulamolar yana qaytadan barchani jixodga chaqirishdi. Amir tomonidan Samarqandga hokim qilib qoldirilgan SHerali inoq bu ko'ngillarni o'ldirishga buyruq qildi. Buning oqibatida Samarqandda siyosiy tartibsizliklar kelib chiqib, mahalliy aholi va harbiylar o'rtasida to'qnashuvga sababchi bo'ldi. Buxorlik harbiy boshliqlarning aralashuvi bilan ushbu muammo bartaraf etildi.

Oxir-oqibat ruslarning Samarqandga yurushi sodir bo'ldi. Ruslar Samarqand daryosi (Zarafshon) bo'yiga kelganlarida amirlikning zambaraklari Cho'pon ota tepaligida olib chiqilgan edi. Ikki–uch bor o'q uzganlaridan keyin, to'p o'qlari yaroqsizligidan alanga olmagan. Ruslar ham to'plardan foydalanib, Ko'ktoshni egallaganlar.

SHundan keyin ruslar bilan sulh tuzishga majbur bo'ldilar. Unga ko'ra asirda bo'lgan rus harbiy sarkardasi tekinga ozod qilindi. U amirlikning Jizzax mudofasini tashkil etish chog'ida asirga olingan edi. Ruslarga 170000 dinor oltin kontributsiya berildi. Buxoro va Samarqand viloyatlari o'rtasida chegara chizig'i

tortildi.

SHunday qilib, harbiy sohadagi inqiroz oqibatida o'zbek davlatchiligi timsoli bo'lgan Buxoro amirligi ruslarning yarim mustamlakasiga aylanib qoldi. Amir Muzaffarning “Oq otda Rossiya poytaxti Peterburgga kirib borishi” bilan bog'liq xayoliy, sarobga aylangan orzu umidlari mudofaa tizimi va salohiyati zaifligi sabab amalga oshmadi. Bizning fikrimizcha, mutafakkir tafakkur etgan mudofaa tizimini isloh qilish, mamlakat yaxlitligi va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan g'oyalari bugungi kun uchun ham yuksak ahamiyatga ega.

Eng buyuk jasorat – bu ma'naviy jasoratdir. Hayot doimiy sinov maydoni sifatida ham ta'riflanadi. Uning asl ma'nosi esa ana shu maydondagi tinimsiz kurash, qiyinchiliklarni engib, insonga xos ulug'vorlik, poklikni asrab o'ta olishdan iborat. Oddiy o't-o'lan hayot uchun kurashib, tosh qotgan er bag'rini yorib chiqadi, har bir jonzot o'z naslini saqlash uchun kurashadi. Jasorat namunalarini ko'rsatadi. Inson hayoti ham ana shunday tinimsiz kurashdan iborat. Ammo insonga boshqa jonzotlardan farqli o'laroq buyuk ne'mat – aql ato etilgan ruhiyat berilgan. U nafaqat jismi, balki ko'proq ruhiyati talablari bilan yashaydi, ongli hayot kechirish uchun ichki dunyosi, ma'naviy olamiga suyanadi. Ayni ma'naviy tamoyillar asosida odamzod qadim-qadimdan dunyoni dialektik idrok etib, ikki kuch – yorug'lik va zulmat, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi doimiy kurash sifatida talqin etib kelgan, ezgulikka intilib yashagan. Dunyodagi ko'p xalqlarning ertagu rivoyatlarida qahramonlar ayri-chorraha yo'lga ro'baro' keladilar va dunyo ne'matlarini, nafi talab etgan

narsalarni va'da qilgan yo'lni emas, faqat "borsa-kelmas" yo'lini tanlaydilar. Bunga adolat va ezgulik ramzi singdirilib, shu yo'lga kirgan insonning ma'naviy qudratini, o'zidan, huzur- halovatidan kecha olishini anglatadi. Jahon sivilizatsiyasi, ana shu ma'naviy jasorat, azmu shijoat, ma'naviy jasorat sohiblarini ulug'lab, sharaflab kelganlar. YOzuvchi E.SHvars ta'biri bilan aytganda, hammasi tugashini bila turib, sevishga jazm etganlarga umrining o'tkinchiligini bilan turib, ezgulik uchun kurashganlarga shon-sharaflar o'qiganlar. Har kuni, har soatda fidoyi bo'lish, o'zini tomchi va tomchi, zarramazra buyuk maqsadlar sari charchamay, toliqmay tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirish – haqiqiy qahramonlik aslida man shu. YAqinlar uchun, o'zgalar uchun, insoniyat uchun, butun borliq uchun jon kuydirish yoki aziz jonini fido qilish uchun inson metin irodali, buyuk qalb egasi bo'lishi kerak. YUnon afsonalaridagi Ikar kabi halok bo'lishini bila turib, quyoshga, yorug'likka, buyuk orzu tomon parvoz qilish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Ammo insoniyat taraqqiyotini har doim ayni ana shunday odamlar yo'lga qo'yganlar, shular tarix g'ildiragini olg'a siljitganlar. Ularning ma'naviy jasorati odamlarni ibrat maktabi bo'lgan. Insoniyat tariqqiyot yo'llarini belgilagan buyuk kashfiyotlar, odamlarni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga da'vat etgan fan, madaniyat, san'at va adabiyot va boshqa bunyodkorlik durdonalari ana shunday ma'naviy jasorat mevalaridir. Suqrot yaratgan ilm, uning inson va jamiyatga doir falsafasi mana qariyb 2,5 ming yil mobaynida SHarq G'arb allomalarini ruhlantirib kelmoqda. Uning hayoti va o'limi tarixi inson ruhiy quvvatining chinakam ramziga aylangan. Odob va ahloqni falsafiy teran tadqiq qilgan Suqrot hokimiyat tomonidan ayblanib o'lim jazosiga hukm etiladi. SHogirdlari unga qamoqdan qochib jonini saqlab qolishni taklif etishganda, bundan voz kechadi. Suqrot uchun qamoqdan qochish o'zi targ'ib qilgan va o'zi butun umr rioya etgan qoidalarga, umr ishiga va o'lmak, Vatanga xiyonat bo'lar edi. Zero uning qat'iy fikricha, har qanday, xatto eng yuksak va adolatli maqsad ham, unga erishmoq yo'lidagi past va jinoiy vositalarni oqlamaydi. SHarq G'arb ilmining rivojiga kuchli ta'sir o'tkazgan, SHarq ilm-fanida "ustodi avval" (birinchi muallim) degan sharaflil nom olgan Platon nafaqat ilm-fan, balki ma'naviy jasorat bobida ham Suqrotning munosib shogirdi bo'ldi. Zero, jahon ilm- fani binosining tamal toshlarini qo'ygan o'sha

davr buyuk allomalarining maskaniga aylangan akademiya qanchadan-qancha qiyinchiliklar, sarson- sargardonliklar, ya'ni Platonning ma'naviy jasorati tufayli barpo etildi. Insoinyatning bugungi taraqqiyot darajasini Nikolay Kopernik, Jordano Bruno, Galileo Galiley, Kampanella kabi olimlarning kashfiyotlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Vaholangki, masalan, cherkov ta'yiqlariga uchragan J.Bruno jonini saqlab qolish uchun o'z kashfiyotidan voz kechsa, tavba qilsa bas edi. Ammo u bunday qilmadi va o'tda kuydirildi. Xuddi shunday, o'nlab Evropa allomalari jaholat qurbonlari bo'lishdi. Markaziy Osiyoda ham yuzlab ana shunday buyuk jasorat sohiblarini sanab o'tish mumkin. Xususan, Xorazm Ma'mun akademiyasida faoliyat ko'rsatgan Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Xo'jandiy, Ahmad ibn Muhammad Xorazmiy, Ahmad ibn Hamid Naysaburiy kabi allomalarning fidoyiligi tufayli SHarq ziyo maskaniga aylandi. Ularning ilmiy kashfiyotlari, mashaqqatli mehnat ortida yaratgan asarlari jahon ilm-fanining rivojiga beqiyos hissa bo'lib qo'shildi. El-yurt mustaqilligi yo'lida o'z jonini fido qilgan Najmiddin Kubro yoki Jaloliddin Manguberdilarning jasoratisiz, mamlakatni rivojlantirish, davlatni mustahkamlashga umrini baxshida etgan Amir Temursiz, xalq farovonligi, jamiyat barqarorligi haqida qayg'urgan Alisher Navoiysiz, Vatan ishq bilan buyuk saltanatni yaratgan Zahiriddin Muhammad Bobursiz o'zbek xalqining tarixini va buyuk kelajagini tasavvur etish mumkin emas. XX asrning ko'p xalqlar uchun qayg'uli tarixida ham bunday ulug' siymolar ko'p. Masalan, Hindistonda milliy ozodlik kurashi rahbarlaridan biri, atoqli mutafakkir, faylasuf "Mahatma" ("Buyuk qalb") taxallusi bilan mashhur bo'lgan Gandi nomi bilan bog'liq. Gandi muammolarni hal etish vositasi sifatida har qanday urushlarni inkor etdi. SHuning uchun Gandi nomi bugungi kunda nafaqat Hindistonda, balki butun dunyoda tinchlik, ijtimoiy hamkorlik dinlararo bag'rikenglik g'oyalarining ramziga aylangan. O'lka tarixiga qaytilsa, O'zbekiston mustaqilligining ilk tamal toshalirni qo'ygan istiqlol fidoyilari – jadidlarning ma'naviy jasorati ibrat maktabi bo'ldi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Ishoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid CHO'lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma'rifatparvarlar Turkiston o'lkasini CHor mustamlakachiligidan halos etish, yurtni taraqqiy toptirish yo'lida o'z

huzur- halovatidan voz kechdilar, kerak bo'lsa aziz jonlarini qurbon qildilar. Tarixdan ma'lumki CHor hukumatining mustamlaka o'lkalardan siyosatini sho'rolar davom ettirdi. Bu siyosatning asl mohiyati xalqlarni, xususan o'zbek xalqini tarixdan ayirish, o'zligini yo'qotish, o'lkani xom ashyo bazasiga aylantirishdan ibrot edi.

SHuning uuchun xalqning milliy tarixi, oriyati, madaniyatini himoya qilishga harakat qilgan har qanday insonga "xalq dushmani", "vatan xoini" kabi tamg'alar bosilib, qatag'on qilindi. SHunday tahlikali davrda ham o'zbek ziyolilari xalqning oriyati himoyasiga o'tlanib, fidoyilik ko'rsatishdi, bu yo'ldagi qiyinchilik va ta'qiblardan ruhan bukilmay dadil tura olishdi. SHunday shaxslar qatorida Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor, Maqsud SHayxzoda, Said Ahmad, SHukrullo singari shoir va yozuvchilar, YAhyo G'ulomov, Ibrohim Muminov kabi o'nlab, yuzlab olimlarning nomlarini keltirish mumkin. Masalan, arxeolog olim YAhyo G'ulomov sobiq ittifoq davrida O'zbekistonni yaxlit paxta dalasiga aylantirish siyosati tufayli qa'rida tarixiy obida va yodgorliklar yashiringan tepaliklar tekislanishiga qarshi chiqadi. SHu tufayli taz'yiqa uchraganda ham olim o'z hayotiy va ilmiy qarashlaridan voz kechmadi. Tarix va kelajak oldida mas'uliyatni his etib tizimga, uning bema'ni siyosatiga mardona qarshilik ko'rsatgan shunday insonlar tufayli o'zbek xalqining boy tarixiy merosi kelajak avlodlar uchun saqlanib qolindi. Inson hayotida shunday damlar bo'ladiki, shaxsiy dard-alamlar yuki uni ezib tashlaydi, ruhiy yoki jismoniy darddan dunyo qorong'u bo'lib ketadi. Bunday paytlarda faqat katta yurak, bukilmas iroda egalarigina o'zini unutishga qodir bo'ladi (Islom Karimovning "YUksak ma'naviyat – engilmas kuch" asaridan).



YAhyo G‘ulomovich G‘ulomov O‘zbekiston FA akad. (1966), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1958), tarix fanlari doktori (1950), prof. (1955). Toshkentdagi O‘zbekiston erlar bilim yurti (inpros)ni (1926), Samarqanddagi O‘zbekiston Pedagogika akademiyasini (1930) tugatgan. Toshkent pedagogika texnikumida o‘qituvchi (1931 — 32). Ilmiy faoliyati 1933 yildan boshlangan. O‘zbekistonning qadimiy va san‘at yodgorliklarini muhofaza qilish komiteti (Uzkomstaris)da ilmiy xodim, ilmiy kotib (1933— 40). SSSR FA O‘zbekiston filiali, Tarix, til va adabiyot institutiti arxeologiya bo‘limi mudiri

(1940—43).

1943 y. dan O‘zbekiston FA Tarix va arxeologiya instituti qadimiy va o‘rta asrlar tarixi bo‘limi mudiri, ayni vaqtda institut direktori vazifasini bajaruvchi (1956— 59). SHuningdek, u Toshkent pedagogika institutida “O‘zbekiston tarixi va arxeologiyasi” dan maxsus ma‘ruzalar o‘qigan, 1936 y.dan bir necha arxeologik ekspeditsiyalar (Toshkent, Buxoro, Samarqand, Farg‘ona va b.) ga rahbarlik qilgan. 1938 — 50 y.larda Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiya boshlig‘ining o‘rinbosari sifatida qatnashib, Xorazmning sug‘orilish, dehqonchilik va shahar madaniyatining shakllanishi hamda rivojlanish tarixi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan. YAhyo G‘ulomov O‘zbekistonda tarix va arxeologiya sohalari bo‘yicha o‘ziga xos xalqaro miqyosdagi ilmiy maktab yaratgan. Uning Zarafshon va Farg‘ona vodiylarida, shuningdek, Toshkent vohasida olib borgan ilmiy tadqiqotlari O‘zbekistonda, tosh, eneolit va jez davri, uning moddiy- madaniyat yodgorliklarini o‘rganishga katta hissa bo‘ldi. U, ayniqsa, Toshkent tarixi va uning yodgorliklarini tadqiqetishga alohida ahamiyat bergan. Toshkent kanali bo‘ylab, To‘ytepada maxsus arxeologik tadqiqotlar o‘tkazgan. 1966 y.dagi Toshkent zilzilasi oqibatlarini tugatish bo‘yicha shaharda boshlangan ulkan qurilishlar munosabati bilan Toshkentning arxeologik obidalarini qayd etish va o‘rganish maqsadida maxsus Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasht tashkil etgan. “Xiva shahrining yodgorliklari” (rus tilida, 1941 y.), “Quy i Zarafshon vodiysida ibtidoiy madaniyat va sug‘orma

dehqonchilikning paydo bo'lishi" (rus tili-da) kabi asarlar yozgan. "O'zbekiston tarixi" (4 j.li), "Samarqand tarixi" (2 j.li), "Buxoro tarixi"ning asosiy mualliflaridan. Vafotidan so'ng "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan (2002). Respublikada YAhyo G'ulomovich G'ulomov xotirasiga bag'ishlangan "Akademik YA. G'ulomov o'qishlari"ni o'tkazish ilmiy an'anaga aylangan. Toshkentdagi ko'chalardan biri hamda O'zbekiston FA Arxeologiya institutiga YAhyo G'ulomov nomi qo'yilgan.

I.Mo'minov (1908-1974) akademik, falsafa fanlari doktori, professor.

I.Mo'minov tomonidan 1956 yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar" jurnaliga asos solinishi ilmiy tadqiqot ishlari tarkibi va mavzulari doirasining nisbatan kengaytirilishi, ijodiy erkinlikka yo'l ochdi. 1957 yilda I.Mo'minov tashabbusi bilan O'zFa huzurida "Falsafa va huquq instituti" tashkil qilingan. (O'zbek ensiklopediyasining birinchi mas'ul muharriri bo'lgan.)

I.M. Mo'minov o'zbek faylasuflaridan birinchi bo'lib, totalitar tuzumning millatni ma'naviy qadriyatlardan mahrum etish, milliy ongni buzish va o'z-o'zini anglashga yo'l qo'ymaslikka intilib, kommunistik mafkurani shakllantirishga jon-jahdi bilan harakat qilayotgan bir paytda, tarixiy va ma'naviy merosni, o'zbek xalqi va Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari yaratgan boy ma'naviy qadriyatlarni har tomonlama o'rgandi.

I.M Mo'minovning Abu Rayxon Beruniy tavalludining 1000 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro konferensiyada "Beruniy – ensiklopedist olim" mavzusidagi ma'ruzasi va "Xorazmlik buyuk ensiklopedist" monografiyasining o'zbek, rus, ingliz va fransuz tillarida nashr qilinishi olamshumul voqea bo'ldi. Xususan u "Biz buyuk xorazmlik olim Beruniyga vatanparvarligi, insonparvarligi uchun, olimning quvonchi va baxtini umuminsoniylik va milliylik, umumiylik va xususiylik birligida ko'ra olgani uchun buyuk hurmat bilan qaraymiz. Beruniyda vatanparvarlik izchil insonparvarlik bilan uzviy bog'lanib ketadi"⁴⁴, deb e'tirof etadi. O'sha davrda

⁴⁴ Қаранг.Шермухамедов С. Халқ маънавияти ва маърифатига бахшида этилган умр. - Т.: Фан, 2004. –Б. 4.

o‘tmish mutafakkirlari va olimlarining insonparvarlik salohiyati, qarashlari va ta’limotlaridagi nodir milliy va umuminsoniy qadriyatlar haqida hech narsa deyilmagan yoki ular inkor qilingan bir vaziyatdagi bu sa’y harakat milliy falsafa rivojidadagi dastlabki uchqun bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Olim turli manba va ilmiy adabiyotlardan foydalangan va ularni sharhlagan holda Amir Temurning shaxsi va faoliyatini ob’ektiv tahlil qilishga va baholashga harakat qildi. I.Mo‘minov o‘sha davrdagi ilm ahlini Amir Temurning milliy davlatchilikni shakllantirishdagi roliga to‘g‘ri baho berishga chaqirdi va 1969 yilda

YUNESKO homiyligida Samarqand shahrining 2500 yilligi, Temur va Temuriylar davridagi O‘rta Osiyo san’atini o‘rganishga bag‘ishlangan konferensiyada “Amir Temurning O‘rta Osiyoda tutgan o‘rni va roli” mavzusida ma’ruza qildi, jiddiy muhokamalardan so‘ng ma’ruza o‘zbek va rus tillarida nashr qilindi. U ”Bunday shaxsning yuzaga kelishi davrning, zamonning taqozosi, CHig‘atoy ulusining zulmi, mayda feodal beklarni vahshiyona ezishi, mo‘g‘ul xonlari, Oltin O‘rda beklarining Movaraunnahrdagi to‘xtovsiz bosqinchilik yurishlari, azoblangan, xonavayron bo‘lgan, 150 yil davomida chet el hukmronligidan tinkasi qurigan mamlakatning, xalqning mustaqillikka erishish talabi edi. Bu tarixiy zaruriyat Temurda, uning lashkarboshilarida ravshan ko‘rindi. Temur davlat arbobi sifatida ma’lum darajada bu ehtiyojni, talabni, zaruriyatni o‘zida aks ettirdi, ya’ni Movanaunnahrda mustaqil markaziy birlashgan davlat tuzdi, mamlakat ehtiyojlariga javob berdi. Mulkdor sinflar, savdogarlar, karvonsaroy egalari hamda ma’lum ma’noda aholi talablariga peshvoz chiqib, mamlakatning ko‘p joylarida qurilishlar qildirdi, kamida yuz yigirma yil davomida nisbatan osoyishtalik o‘rnatdi. Bu shubhasiz, mamkalakatda iqtisod, madaniyat, fan, adabiyot va san’atning o‘shida muhim omil bo‘ldi. Temurning O‘rta Osiyo tarixidagi xizmati, bizningcha ana shulardan iboratdir”⁴⁵ deb ta’kidladi.

SHuningdek, I.Mo‘minov “Amir Temur O‘rta Osiyoni birlashtiribgina qolmasdan, balki Rusga va boshqa Evropa xalqlariga, shuningdek SHimoliy Afrika xalqlariga, birinchi navbatda Misr xalqiga yordam ko‘rsatdi”⁴⁶ deb ta’kidladi. Bu asari bilan

⁴⁵ Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. 2 нашр. -Т.: Фан, 1993. –Б.54-55.

⁴⁶ Ўша асар. –Б.52-53.

I.Mo‘minov ba’zi tarixchilarning “Amir Temur o‘zidan vayrona va kuldanda boshqa hech narsa qoldirmadi”, “Temur va CHingizxon bir tarzda ish ko‘rdi” degan uydirma da’volarning asossiz ekanligini isbotladi. Bu totalitar mafkura hukmronlik qilgan davrdagi buyuk jasorat namunasi edi. SHu bois, I.Mo‘minov ma’muriy –buyruqbozlik tizimi mafkurasining keskin tanqidi va adolatsiz tazyiqiga uchradi. CHunki marksistik mafkura uchun millatning o‘z – o‘zini angalashga asos bo‘ladigan ilmiy tarixiy dalillar emas, balki millatlar va xalqlarni tarixiy ildizlaridan va qadriyatlaridan uzib qo‘yadigan kommunistik ongni shakllantirish muhimroq edi. SHunday bo‘lsada, 1976-1977 yillarda uning 4 jildlik “Tanlangan asarlari” nashr qilindi. Ushbu kitoblarga I.Mo‘minovning nafaqat O‘rta Osiyo mutafakkirlari, (Mirzo Bedil, A.Beruniy, YU.Qoshg‘ariy, A.Navoiy, A.Jomiy), balki g‘arb falsafasi namoyondalari (Gegel, Kant, YUm, Fixte) ijodiga bag‘ishlangan asarlari jamlangan.

Mustaqillikka erishgach Mo‘minovning ijodi va jamoatchi arbob sifatidagi faoliyatiga munosabat o‘zgardi. U fan, falsafa ravnaqiga qo‘shgan hissasi uchun “Buyuk xizmatlari” ordeni bilan taqdirlandi. “Falsafa va huquq instituti” uning nomi bilan ataldi. I.Mo‘minov yaratgan ilmiy maktabning dastlabki qaldirg‘ochlari o‘z maktablarini yaratishga muyassar bo‘ldilar va ustoz ishini davom ettirdilar. O‘zbekistonda nafaqat falsafa tarixi, balki dialektika va bilish nazariyasi masalalarini o‘rganishga ham e’tibor qaratilgan. I.A.Karimov aytganlaridek, “Falsafani o‘zagini tashkil etadigan dialektika fani bo‘yicha hozir oliy o‘quv yurtlarimizda qanday darsliklar bor? Dunyoni dialektik nuqtai nazardan baholashda, bugungi o‘ta murakkab va shiddatli jarayonlarni anglash, ularga munosabat bildirishda qaysi yo‘nalishlar sizga ma’qul?”⁴⁷. Darhaqiqat, sho‘rolar davrida ilmiy bilim marksizm g‘oyalari bilan sug‘orilgan bo‘lsa-da, ba’zi faylasuflar ijodida bilim o‘zining haqiqiy ma’nosida ifodasini topa oldi.

Mavzuni mustahkamlash va chuqurroq o‘rganish uchun savol va topshiriqlar

⁴⁷ Каримов И.А. Ёшларга ишонч билдириш, уларнинг ташаббус ва салоҳиятини рўёбга чиқариш – бугунги куннинг устувор вазифасидир \\\ Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. –Т.: Ўзбекистон, 2006. –Б. 280.

1. I.Mo‘minov hayoti va faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
2. YAhyo G‘ulomov hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?
3. I.Mo‘minovning Amir Temur haqida qanday asari bor?

Mavzuni chuqurroq o‘rganish uchun quyidagi adabiyotlarni o‘qing

1.Karimov I. YUksak ma’naviyat-engilmas kuch.-Toshkent: Ma’naviyat, 2008. B.

176.

2.Mirziyoev SH. YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI-Toshkent:

“O‘zbekiston” , 2021.464 bet.

3.Xayrullaev M. O‘rta Osiyoda ilk uyg‘onish davri madaniyati.- Toshkent: fan,

1994. yil.

6-Mavzu: Samarqand Ulug‘bek akademiyasi

Reja:

1. Mirzo Ulug‘bekning ilmiy merosi va ahamiyati
2. Samarqandda rasadxona qurilishi
3. Ulug‘bek maktabining shakllanishi va uning vakillari

Dunyo astronomiya fani taraqqiyotida o‘rta asr SHarq astronomiyasi, jumladan, O‘rta Osiyo olimlarining faoliyati alohida o‘rin tutadi. Bu davrda, ayniqsa, Quyosh, Oy va sayyoralarning harakat nazariyasi, amaliy astronomiyaning vaqt va joyning geografik koordinatalarini aniqlashga doir masalalari bo‘yicha O‘rta Osiyo, xususan, o‘zbek allomalari juda boy meros qoldirdilar. Bu davrda musulmon mamlakatlarining yuzlab buyuk mutafakkirlari astronomiya, matematika va falsafa fanlari bo‘yicha tadqiqot ishlari bilan mashg‘ul bo‘ldilar. Ular ichida Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Nasr al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom, Abu Mahmud Hamid al- Xo‘jandiy, Nasiruddin at-Tusiy, Mahmud al-CHag‘miniy, Qozizoda Rumi, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Ulug‘bek kabi mashur siymolar o‘z ijodlari, ilmiy meroslari bilan Markaziy Osiyo xalqlarininggina emas, balki dunyo xalqlarining boyligiga aylanib, bugun jahonning barcha ellari orasida hurmat bilan tilga olinadilar. Dastlab xalifa Ma‘mun zamonasida (IX asr) ishga tushirilgan va Al- Xorazmiy ishlagan Bag‘dod rasadxonasi, so‘ngra Umar Xayyomning Isfahondagi, Nasiruddin at-Tusiyning Marog‘adagi va Abu Mahmud Hamid al- Xo‘jandiyning rasadxonalari va, nihoyat, bular ichida kattaligi, bosh astronomik asbobining aniqlik darajasi yuzasidan hammasidan ustun turadigan Ulug‘bek rasadxonasi va uning maktabining ilmiy merosi o‘rta asrlarda astronomiyaning fan sifatida shakllanishida muhim bir bosqichni boshlaganligini dunyo olimlari tan oladilar. Etti asr davom etgan SHarq astronomiyasining jo‘shqin faoliyati Ulug‘bek va uning akademiyasining boy ilmiy merosi bilan yakunlandi. Mazkur rasadxona ishga tushirilganda uning bosh "teleskop"ining aniqlik darajasi atigi bir necha yoy sekundigacha borib, to optik teleskoplar ixtiro qilingan asrga qadar uning samaralari o‘rta asr astronomlari uchun astronomik kuzatishlarda erishilgan rekord natija bo‘lib xizmat qildi. Bu asbob Quyosh,

Oy va sayyoralarning harakat nazariyalarini yangi bosqichga ko'tarish, tutilish nazariyasi va amaliy astronomiyaning asosiy predmetlaridan bo'lgan vaqtni o'lchash ishlarida yuksak aniqlikka erishish imkonini berdi.

Ulug'bek astronomiya maktabi vakillarining tadqiqotlari natijasi bo'lgan buyuk meros - "Ziji jadidi Ko'ragoniy"dan keyingi yuz yillar mobaynida faqat SHarq emas, balki G'arb mamlakatlari ko'pgina yirik rasadxonalarning olimlari dasturul- amal sifatida keng foydalandilar.

Rasadxona qurilishi tarixi

Odatda, o'rta asrlarda, har bir podshoh saroyida munajjimlar bo'lgan. Munajjimlar astrologik maqsadlarda osmon jismlarini kuzatib, Oy, yulduz va sayyoralarning holatlarini aniq o'rganish, shularga ko'ra, saroy a'yonlari, mamlakat hamda podshohlik taqdiri haqida "bashorat" qilish bilan shug'ullanganlar. Jumladan, Amir Temur saroyida ham Mavlono Ahmad va Mavlono Abdulloh kabi munajjimlar ishlagani tarixiy manbalardan ma'lum. SHulardan saroyda hakimlik ham qilgan Mavlono Ahmad sayyoralarning 200 yillik holatlarini oldindan belgilab, ulardan turli maqsadlarda foydalanish uchun jadvallar tayyorlagan. Binobarin, o'rta asrlarda munajjimlar uchun sayyoralarning oldindan hisoblangan holatlari bilan kuzatishdan olingan natijalarning mos kelishi juda muhim ahamiyat kasb etgan. SHuni e'tiborga olib, IX-XII asrlarda SHarqda ishga tushirilgan rasadxonalarda olib borilgan kuzatishlarning natijalari asosida tuzilgan jadvallarni yangilashga ehtiyoj tug'ildi. Bu esa, o'z navbatida, yangi, aniq samaralar beradigan quvvatli astronomik asboblarning bilan jihozlangan rasadxonalar qurilishini taqozo etardi. Natijada CHingizxonning nevarasi Huloguxon saroyining munajjimi taniqli olim Nasuriddin at-Tusiy XIII asrda Ozarboyjonning hozirgi Tabriz(Eron) yaqinidagi Marog'a shahrida rasadxona qurdirdi. Ko'p yillik kuzatishlar asosida Tusiy yangi astronomik jadvallar tayyorladi va uni Huloguxonga bag'ishlab, "Ziji Elxoniy" deb atadi. Biroq, ko'p o'tmay, ya'ni XIV asrning oxirlariga kelib Nasiriddin tuzgan jadvallarda keltirilgan ma'lumotlar ham kuzatish natijalaridan sezilarli farq qila boshlagani ma'lum bo'ldi. SHu munosabat bilan yanada aniq ma'lumotlar olish imkonini beradigan, oldingilaridan afzalroq va aniqroq astronomik qurilmalarga ega bo'lgan rasadxona bunyod etish ehtiyoji tug'ildi. SHularni

e'tiborga olib, Ulug'bekning otasi SHohrux hukmron bo'lgan mamlakatning Koshon shahrida istiqomat qilayotgan matematik va astronom G'iyosiddin Jamshid "Ziji Xoqoniy" dar takmil "Ziji Elxoniy" ("Xoqon ziji" - "Ziji Elxoniy"ning takomillashtirilgani) degan mashur risolasini bitdi. 1413 yili yozib tugallangan bu asar Ulug'bekning otasi SHohruxga bag'ishlangan edi. "Xoqon Ziji"ning nazariy qismi va astronomik jadvallari "Ziji Elxoniy"ning bunday qismlaridan biroz farq qilib, yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan edi. Biroq mazkur tuzatishlar Quyosh, Oy va sayyoralarning topilgan holatlari aniqligini faqat bir necha yil mobaynidagina ta'minlay olardi, xolos. Quyosh, Oy va sayyoralarning bir necha o'n yillarga doir holatlarini oldindan aniq topish uchun esa, ularning orbita elementlarini (Quyoshning yillik ko'rinma yo'li-ekliptikaga og'maligini, ularning davrlarini, Oy va planetalarning ekliptikani kesib o'tish onlarini, ekliptikaning osmon ekvatoriga og'maligini, kuzatishlar uchun muhim bo'lgan bahorgi tengkunlik nuqtasining o'rni aniq belgilashni va boshqa bir qancha astronomik kattaliklarni) yangidan aniqlash talab etilardi. Bu, o'z navbatida, Quyosh, Oy va planetalarning koordinatalarini, shu asosda erda joyning geografik uzunlama va kenglamalarini, Quyosh va Oy tutilishlarining vaqtlarini, astrologik tole'nomalar tuzish uchun Oy va sayyoralarning o'zaro yaqinlashish va "qo'shilish" paytlarini, yulduz yili va tropik yil uzunliklarini, yil fasllarini aniq belgilash uchun juda muhim hisoblanardi. Aynan shu masalalarni hal qilish uchun kuzatishlar va o'lchashlarga imkon beradigan aniqlik darajasi yuqori astronomik asbobni ishga tushirish, ya'ni yangi rasadxona qurish astronomlar uchun dolzarb muammo edi.

SHohrux mamlakati hududida yangi rasadxona qurish niyati o'sha paytlari matematika va astronomiya sohasida bir necha e'tiborli asar yozib tanilgan koshonlik G'iyosiddin Jamshid Koshiyni anchadan buyon o'rtab kelardi. SHu boisdan Koshiy SHohruxga bo'lgan hurmatini unga bag'ishlab bitgan "Zij"i orqali izhor etish bilan chegaralanmay, unga yangi rasadxona qurish rejasi borligini ham bildirgan deb taxmin qilinadi. Biroq Amir Temur vafoti munosabati bilan uning avlodlari orasida taxt uchun ixtiloflarning boshlanib ketishi, jumladan, 1415 yili Koshon va uning atrof viloyatlarining voliysi Said Vaqqos SHohruxga qarshi ko'targan qo'zg'olon unga bunday xayrli ishlarni boshlashga xalal berdi. Temur farmoni bilan

1399 yili Umarshayx o‘rniga Farg‘onaga hokim etib tayinlangan uning o‘g‘li Iskandar (SHohruxning eng katta jiyani), Said Vaqqosning Ozarboyjon tomon yurishidan foydalanib, Jamshid Koshiyning vatani Koshonga bostirib kirib, uni zabt etadi. Endi Iskandar hukmronlik qilayotgan yurtda qolgan Jamshid Koshiy

1415 yilning qishida rasadxona qurish rejasi bilan Iskandarga murojaat qiladi. Iskandarning roziligini olgach, akademik Bartoldning aniqlashicha, 1416 yilning yanvarida Koshiy rasadxonani jihozlash uchun zarur bo‘lgan astronomik asboblarning bayoni aks etgan "Astronomik asboblarga sharh" ("Risolai dar sharhi olati rasad") risolasini yozib Iskandarga taqdim etadi va bu bilan uning oldiga yangi rasadxona qurish haqidagi taklifni qo‘yadi. Biroq Iskandarning bevaqt vafoti sabab bo‘lib, Koshiyning rejasi bu daf‘a ham amalga oshmay qoladi. Fors tilida bitilgan mazkur asar 1918 yili Petrograd da bosilgan akademik V. Bartoldning "Ulug‘bek va uning davri" asariga ilova qilingan edi. 1940-yillar boshida Koshiyning eslatilgan risolasi sharqshunos, astronom olim G‘. Jalolov tomonidan birinchi marta tarjima qilinganda rasadxona uchun taklif etilayotgan asboblarning beshinchisi X asrda hamyurtimiz - astronom Abu Mahmud Hamid ibn Xidr al-Xo‘jandiy tomonidan ixtiro qilinib, Eronning Ray shahri yaqinidagi Taborak tog‘i etagida qurilgan va "sudsi Faxriy" deb nom olgan katta kuzatish asbobi bo‘lganligi aniqlandi ("Suds"- arabcha oltidan bir, ya‘ni aylana yoyining 1/6 qismi - sekstant degani). O‘sha davrda Xo‘jandiyning rasadxonasi Faxr ud-davla saltanati hududida bo‘lib, uning rahnamoligida qurilganidan asbobga "Sudsi Faxriy" deb nom berilgan.

Mirzo Ulug‘bek maktabining shakllanishi

Astronom G‘. Jalolovning fikricha, Koshiy Iskandar o‘limidan keyin, ya‘ni

1416 yilning yozidayoq Ulug‘bek tomonidan Samarqandga taklif etilgan. SHarqshunos olimlar B. Rozenfeld bilan G. Matvievskaya esa, Koshiy Samarqandga 1417 yili kelgan deb uqtirishadi. Nima bo‘lganda ham, Koshiy Samarqandga kelgach, bu erda rasadxona qurdirish niyati borligini Ulug‘bekka bildirib, unga rasadxona qurilishi uchun mo‘ljallangan va yuqorida eslatilgan "Astronomik asboblarga sharh" risolasini topshiradi. Bunday iltimosning sababini tarixchi

Solih Zakiy shunday bayon qiladi: "Ulug'bek "Ziji Elxoniy"da keltirilgan ma'lumotlar eng so'nggi kuzatishlar natijalari bilan mos kelmasligini G'iyosiddin Jamshiddan ko'p marta eshitganini ta'kidlaydi...".Oqibatda matematika va astronomiyadan katta bilimga ega bo'lgan Ulug'bek rasadxona qurilishiga rozilik beradi. SHu munosabat bilan Ulug'bek ko'p olimlarni to'plab, 1417 yili rasadxonani qurishga bag'ishlangan majlis ham chaqirgan. Rasadxona qurilishi bo'yicha Ulug'bekning zamondoshi tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy bu majlis haqida shunday yozadi: "Majlis bo'lajak rasadxonani shunday qurish kerakki, oqibatda u vaqt o'tishi bilan tebranmasin, siljimasin, uzoq yillar abadiy tursin. Buning(rasadxona qurish) uchun (yig'ilish) Samarqandning SHimoli-SHarqidan ma'qul joy ko'rsatdi. Uni qurish yakunlangunga qadar quyidagilar bajarilsin: rasadxona bo'lajak xodimlarining bilimlari takomillashtirilsin, qo'shimcha jadvallar tuzilsin va zarur (kuzatish) asboblarning uzvlari tayyorlansin...".Baxtga qarshi, Ulug'bek rasadxonasining qurilgan vaqti haqida tarixiy manbalardan aniq, hozirgacha uchraydigan bahslarga nuqta qo'yadigan ma'lumot hali-hanuz topilgani yo'q. V.Bartold "Ulug'bek va uning davri" asarida 1420 yil voqealari haqida tarixchi Abdurazzoq aytganlaridan xulosa qilib, madrasa va observatoriyaning qurilish ishlari 1420 yili yakunlangan degan fikrga keladi. Arxeolog V.SHishkin rasadxona qoldiqlarini qazish paytida uning janub tomonidan topilgan uchta tanga haqida gapirib, ulardan ikkitasining chetida 823 hijriy yil(melod bo'yicha 1420 yil) degan yozuv bo'lganini ma'lum qiladi. Mirxondning "Ravzat us-safo"da yozishicha, rasadxona binosi jadal sur'atlar bilan qurilganini inobatga olinsa, u 1420 yoxud 1421 yili qurilganligi ayon bo'ladi. Solih Zakiyning "Osor al-Boqiya" asarida "Ulug'bek 824 hijriy yili (ya'ni 1420 yili) qurilgan rasadxonaga G'iyosiddin Jamshid va Qozizoda Rumiyni etakchi shaxslar etib tayinladi", - deb yozadi. "Ziji Guragoniy"ning so'zboshisida: "Biz yoritg'ichlarni kuzatish masalasini hal qildik. Ularni Qozizoda Rumiyy va G'iyosiddin Jamshid hamkorligida bajardik... Bunda muhim ish("Zij")ni yozish va rasmiylashtirishning (G'.Jalolov forscha "soxta va pardoxta" so'zlarini shunday tarjima qilib, unga bir necha misollar keltiradi) boshida G'iyosiddin, keyinroq Qozizoda Rumiyy vafot etdi. SHundan so'ng

ishni oxirigacha rasmiylashtirish (Ulug‘bekning) qimmatli o‘g‘ilxoni Ali ibn Muhammad Qushchi bilan birgalikda amalga oshirildi".

"Ziji Ko‘ragoniy" - Ulug‘bek akademiyasidan yodgorlik

Astronom G‘.Jalolov sobiq ittifoq FA Astronomik kengashi qoshidagi astronomiya tarixi bo‘yicha komissiyaning a‘zosi sifatida 1950-yillari SHarq astronomiyasi tarixi, jumladan, Ulug‘bek astronomiya maktabi tarixini o‘rganishda qizg‘in qatnashib, davriy ravishda chop etiladigan "Astronomiya tarixidan tadqiqotlar" kitobining birinchi sonidayoq "Ziji Ko‘ragoniy"ning shu kabi boshqa bir qancha "Zij"lardan farqi va afzalliklarini etarlicha to‘la yoritgan maqolasini e‘lon qilgan edi. Samarqand rasadxonasi tadqiqot ishlarining asosiy mahsuli "Ziji Ko‘ragoniy" so‘zboshi, nazariy qism va zijdan(jadvallardan) iborat bo‘lib, ja‘mi

430 sahifani egallaydi. "Zij"ning jadvallarsiz matnli qismi 60 sahifani, qolgan 370 sahifasi esa, astronomik, trigonometrik, geografik va astrologik jadvallarni tashkil qiladi. So‘zboshi atigi ikki sahifadan iborat. Unda rasadxona va "Zij"ni tayyorlashda ishtirok etgan olimlar haqida gap boradi. Nazariy qism esa to‘rt bo‘limdan(maqoladan) iborat bo‘lib, birinchi bo‘lim o‘sha paytda asosiy taqvimlardan hisoblanmish - hijriy, Ezdigird, Jaloliy(Umar Xayyom loyihasi bo‘yicha XI asrda Malikshoh tomonidan isloh qilingan taqvim), xitoy, uyg‘ur va boshqa bir qancha taqvimlar hamda ularning biridan ikkinchisiga o‘tish haqidagi hisob-kitoblarni o‘z ichiga oladi. Ikkinchi bo‘lim sferik va amaliy astronomiya masalalaridan tarkib topib, yoritgichlarning azimutlarini, Makkaga tomon yo‘nalishni aniqlash hamda erda aholi punktlarining geografik uzunlama va kenglamalarini hisoblash usullarini bayon qiladi. Bu erda mazkur jadvallarning tarkibi, ularning ishlatilishiga doir metodik ko‘rsatma va maslahatlar beriladi. Uchinchi bo‘lim Quyosh, Oy va boshqa sayyoralarning harakat nazariyasiga bag‘ishlangan. Ularning astronomik uzunlama va kenglamalar bo‘yicha o‘rinlarini aniqlash va u bilan bog‘liq hodisalar, xususan, Quyosh va Oy tutilishlari haqida gap boradi.

Nihoyat, to‘rtinchi bo‘lim uncha katta bo‘lmay, "boshqa astronomik ishlar haqida"gi ma‘lumotlarga, jumladan, bir necha sahifasi astrologiyaga oid jadvallarga bag‘ishlangan. Bular ichida Quyoshning yulduzlar fonidagi yillik ko‘rinma harakati nazariyasi

bilan bog‘liq muhim astronomik doimiylik- Quyoshning yillik ko‘rinma yo‘li tekisligining(ekliptikaning) osmon ekvatori tekisligiga (Er ekvatori tekisligiga parallel tekislik) og‘ish burchagining kattaligi bo‘lib, uni aniqlash bilan o‘rta asr astronomlarining juda katta ko‘pchiligi shug‘ullangan. Quyida ularning ayrimlarini tanishtirib, Ulug‘bek rasadxonasi erishgan natija bilan solishtiramiz:Navoiyning zamondoshi astronom Birjandiy "Ziji Ko‘ragoniy»ga sharh"ida: "Faxriy sekstanti yordamida(astronomik kuzatishlarni) yoy sekundlarigacha aniqlikda o‘lchash mumkin. Samarqandlik astronomlar eslatilgan og‘ishni(ekliptikaning osmon ekvatoriga og‘ishini - M.M.) Faxriy sekstanti yordamida o‘lchadilar. Unda Quyoshning zenitdan uzoqligi uning kulminatsiyasi paytida(ya’ni aniq tush paytida) aniqlanadi. Bu yoy masofani o‘lchash asosida vaqt o‘tishi bilan mazkur og‘malikning kattaligi o‘zgarib borishini topdilar", - deb yozadi.Birjandiy yana ekliptika og‘maligi haqida "Asturlobga sharh" risolasida shularni bayon qiladi: "Ekliptikaning og‘maligi turli davrda turlicha kattalikka ega bo‘ladi... Biroq handasa ilmi olimlarining ichida eng bilimdoni G‘iyosiddin Jamshid Samarqand rasadxonasida 23o 30" 17"ga teng qiymatni olishga muvaffaq bo‘ldi. SHuni eslatish joizki, ekliptikaning ekvatorga og‘ish burchagi vaqt o‘tishi bilan o‘zgaruvchi (o‘rta asrlarda kamayuvchi) xarakter kasb etib, Ulug‘bek zamonasi uchun aniqlangan uning qiymati 23o 30’ 49"ga to‘g‘ri keladi. Binobarin, Samarqand olimlarining bu masalada xatosi atigi 32 yoy sekundini tashkil etib, juda yuqori aniqlik hisoblanadi.

Ulug‘bek rasadxonasining bosh "teleskopi" - sekstantning tekisligi aniq meridian tekisligi bo‘yicha o‘rnatilishi, ya’ni azimuti nolga teng bo‘lishi zarur edi. Bu masala o‘rta asrda qay darajada aniq hal etilganini aniqlash uchun 1941 va

1946 yillari zamonaviy asboblar yordamida o‘lchash ishlari olib borildi. Natijada sekstant o‘qining azimuti(ya’ni Olam o‘qi, zenit orqali o‘tuvchi osmon meridiani tekisligiga og‘maligi - M.M.) 7,5 ga teng chiqdi. Garchi bu xatolik yoritg‘ichlarning meridiandagi balandliklarining qiymatiga deyarli ta’sir etmasa- da, biroq tush paytining 30 sekundgacha xatolik bilan aniqlanishiga olib kelardi.Toshkent Astronomik observatoriyasining direktori, akademik V.P.SHcheglov bu xatolik haqida yozib: "Ulug‘bek davrida asbob meridian bo‘ylab aniq o‘rnatilgan bo‘lib, ehtimol, besh asr davomida

asbob tekisligi azimutining o'zgarishi, yuz bergan turli hodisalar(er silkinishlari, asbobning cho'kishi va hokazo - M.M.) oqibatida qurilmaning deformatsiyasi tufayli sodir bo'lgan bo'lishi mumkin. SHuni alohida qayd etish lozimki, Ulug'bek rasadxonasi sekstanti uchun meridian yo'nalishi o'sha davr uchun eng yuqori darajada aniqlik bilan topilgan Erdagi yagona va qadimiy qurilmadir".Ulug'bek maktabi olimlari rasadxonaning geografik kenglamasini 39o 37' 28"ga teng deb topishdi. Biroq V.P.SHcheglov tomonidan bu kattalikning qiymatini qayta aniqlash maqsadida

1940-yillari aniq optik qurilmalar yordamida kuzatish o'tkazilganda, u 39o 40'

40"ga teng chiqdi. Boshqacha aytganda, o'rta asrlarda Samarqand rasadxonasining kenglamasini o'lchashda atigi 3,2' xatolikka yo'l qo'yilgan ekan, xolos.Arab va fors SHarqi mamlakatlari chegarasida joylashgan ko'plab aholi punktlarining geografik koordinatalari astronomik kuzatishlar asosida topilib, "Zij"da keltirilgan xalifalikdan tashqaridagi joylarning koordinatalari esa, aftidan, oldingi "Zij"larda keltirilgan ma'lumotlar asosida berilgan. "Ziji Ko'ragoniy"ning Quyosh, Oy va sayyoralarning holatlariga tegishli jadvallari, mingdan ortiq bevosita ko'rinadigan yulduzlarning jadvali, aksariyat hollarda, Samarqand rasadxonasi olimlarining bevosita kuzatishlari natijalari bo'lib, o'rta asr astronomiyasining eng aniq jadvallaridan hisoblanardi. SHu boisdan "Ziji Ko'ragoniy" qo'lyozmasi o'rta asrda turli joylarda katta tezlik bilan ko'chirilib ko'paytirila boshlandi.Bobur "Ulug'bek ziji" haqida gapirib, asar XVI asrda dunyoda eng keng tarqalgan astronomik jadvallardan bo'lganligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, keyingi asrlarda "Ulug'bek ziji"ga tegishli yulduzlar katalogi aniqligi bilan ko'p G'arb astronomlarida katta qiziqish uyg'otdi.

Eramizdan oldingi II asrda 1000dan ortiq yulduzning koordinatalari va ravshanliklarini aks ettirgan yulduzlar jadvali yunon astronomi Gipparx tomonidan tuzilgan edi. Bu katalog keyinchalik mashur misrlik astronom Ptolemey(eramizning II asri) tomonidan muayyan darajada aniqlashtirilib, yulduzlar soni 1028 taga etkazildi.

Rayda yashab, ijod etgan Abu Husayn ibn Umar as-So'fiy(903-998) birinchilardan bo'lib Ptolemeyning "Al-Majistiy" kitobida keltirilgan 1017 yulduzning koordinatalarini aniqlashtirib,

ravshanliklarini belgilab, yulduz turkumlarining o‘zaro joylashishlarining allegorik tasviri orqali yulduzlar atlasini tuzdi.

"Ziji Ko‘ragoniy"ning yulduzlar katalogida 1018 yulduz o‘rin olgan bo‘lib, yulduz turkumlari bo‘yicha Beruniyning yulduzlar katalogidagi kabi joylashtirilgan edi. Mazkur jadval o‘zbek astronomi G‘.Jalolov tomonidan yaxshi o‘rganilgan. Olimning ma‘lum qilishicha, mazkur "Zij"da yulduzlarning ravshanliklarini xarakterlovchi kattaliklarini aniqlashda As-So‘fiy katalogidan keng foydalanilgan. Astronom G‘.Jalolov "Zij"dan yana shu so‘zlarni keltiradi: "Biz o‘z katalogimizda keltirgan yulduzlarning o‘rinlarini hijriy 841 yilning boshiga (ya‘ni 1-muharramiga, u melodiy hisobda 1437 yilning 4 iyuliga to‘g‘ri keladi - G‘.J.) nisbatan aniqladik. Biroq ularning to‘g‘ri chiqishlari (ularning bahorgi tengkunlikning o‘rni bilan bog‘liq koordinatasi) 70 Quyosh yilida 1 daraja (to‘g‘ri chiqish deyiluvchi koordinata bo‘yicha - M.M.) oldinga ketganligini e‘tiborga olib, istalgan vaqt uchun ularning har birining o‘rnini aniq topish mumkin". SHunga ko‘ra, yulduzlar to‘g‘ri chiqishining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan va astronomiyada pretsessiya nomi bilan tanilgan bu hodisani (pretsessiya, bu - Er o‘qining ekliptika o‘qi atrofida 26 mingyillik davr bilan bir to‘la aylanishi tufayli ro‘y beradigan va kichikligi tufayli 5-10 yilda ham ilg‘ash juda qiyin bo‘lgan nozik hodisa) Samarqand astronomlari yaxshi bilibgina qolmay, juda katta aniqlik bilan topganliklarini ham alohida ta‘kidlash lozim. Ular aniqlagan pretsessiya kattaligini topish uchun 70 yilda topilgan 1o ga teng siljishni 70

Quyosh yiliga bo‘lish zarur bo‘ladi, ya‘ni $1o : 70 = 3600'' : 70 = 51'',4$ bo‘ladi. Aslida, pretsessiya kattaligi $50'',2$ tengligini e‘tiborga olsak, Ulug‘bek maktabi olimlarining bu masalada yo‘l qo‘ygan xatosi atigi $1,2''$ ekanligi oydin bo‘ladi. Bu

- o‘rta asr astronomiyasi uchun juda katta aniqlik edi. "Ulug‘bek ziji" yulduzlarining jadvalini amerikalik sharqshunos olim E.Nobl har tomonlama o‘rganilib, Samarqand rasadxonasida astronomik uzunlamasi bo‘yicha 900, kenglamasi bo‘yicha esa 878 yulduz o‘rganilganligini, qolgan yulduzlarning koordinatalari esa, As-So‘fiy yulduzlar katalogidan uzunlamasi bo‘yicha tuzatish kiritib, aniqlanganini ma‘lum qiladi. 430 sahifali "Ziji Ko‘ragoniy"ning atigi

5 foizi yulduzlar jadvalini tashkil etadi. SHuni aytish joizki, Samarqand rasadxonasi astronomlarining o'z oldilariga qo'ygan asosiy vazifalari, ko'pchilik o'ylaganidek, yulduzlar katalogini tuzish bo'lmay, balki Quyosh, Oy hamda sayyoralarni(jumladan, Utorud, Zuhro, Mirrix, Mushtariy va Zuhalni) sistemali kuzatish asosida, astronomiya-dagi asosiy doimiy kattaliklarni - ekliptikaning ekvatorga og'maligini, yillik protsessiyani, yulduz yilining uzunligi va shu kabi bir qancha boshqa astronomik kattaliklarning aniq qiymatlarini topish bo'lgan.

"Ziji Ko'ragoniy" jadvallarining qariyb 80 foizi Quyosh, Oy va beshta sayyoraga bag'ishlangan. Bu jadval ma'lumotlari asosida "Ulug'bek ziji"ning so'ngida astrologiya ehtiyoji uchun zarur bo'lgan bir necha jadvallar keltirilgan. SHu munosabat bilan Navoiyning zamondoshi astronom Abd al-Ali Birjandiy o'zining "Ziji Ko'ragoniy»ga sharh"ida: "Astronomlar oldida eslatilgan etti yoritg'ichning harakatini o'rganish, ularga tegishli asosiy doimiy kattaliklarni aniqlash vazifasi turadi. Natijaviy maqsad esa, bu kattaliklarga tayangan holda, ularning kelajakdagi o'rinlarini aniqlash va Erda ularning osmondagi o'rinlariga bog'liq ravishda ro'y beradigan hodisalarni oldindan aytishdir", - deb yozadi. Turli astronomik hodisalar, ayniqsa, Quyosh va Oy tutilishlari vaqtini oldindan aniqlash maqsadida mazkur tutilishlar kuzatiladigan shaharlar, aholi punktlarining uzunlama va kenglamalarini aniqlash zaruriyati tug'iladi. "Ziji Ko'ragoniy"- 247 shahar va aholi punktlarining koordinatalari keltirilgan. Rasadxona olimlari tomonidan qancha shaharning geografik koordinatalari bevosita aniqlanganini aytish qiyin. CHunki "Zij"da keltirilgan shaharlarning muayyan qismi Nasiriddin at-Tusiyning "Ziji Elxoniy"sida ham keltirilgan. Samarqand akademiyasi olimlari "Ziji Ko'ragoniy" jadvallarini tuzishda aniq kalendar sifatida oy-hijriy kalendarini tanlaganlar. Oy, Quyosh va sayyoralarning istalgan paytdagi o'rinlarini topish uchun hisob boshi qilib(bu xildagi jadvallar uchun tanlangan bunday kunni astronomlar tengkunlik deb yuritishadi) hijriy 841 yil muharram oyining boshini, boshqacha aytganda, o'sha yilning boshlanish - yangi yil kirish kunini olishgan edi. Bu kun milodiy hisobda 1437 yilning 4 iyul(payshanba) kuniga to'g'ri keladi. Bu davrni yulduzlar katalogining tengkunligi sifatida olinishi, birinchidan, bu kun Samarqand rasadxonasida astronomik kuzatishlar o'tkazilgan

davrning(1420-1450 yillar), taxminan, o'rtalariga to'g'ri kelishidan bo'lsa; ikkinchidan, mazkur tengkunlik, hijriy yil hisobining kabisa yillarini belgilash uchun qabul qilingan navbatdagi 30 yillik ssiklning(tartibga ko'ra, 29-ssiklning) boshlanishiga to'g'ri kelardi. "Zij" jadvallarida Quyosh, Oy holatlarining o'zgarishi va boshqa ayrim ma'lumotlar 841-871 yillar(ya'ni to'la 30 yillik ssikl yillari) uchun berilgan bo'lib, bunday hol mazkur jadvallardan foydalanishda sezilarli qulayligi bilan muhim edi.Bundan salkam olti asr muqaddam azim shahar - Samarqand etagida Ulug'bek va uning safdoshlari tomonidan ishga tushirilgan rasadxonadan Koinot qa'riga tashlangan nazar faqat SHarqdagina emas, balki jahon fani, madaniyatining "ochilmagan qo'rig'i"ni ochish - Koinotni o'rganishga qo'yilgan buyuk bir qadam bo'ldi. SHu ilk qadam sabab bo'lib Evropada birin-ketin yirik, yaxshi jihozlangan rasadxonalar ishga tusha boshladi. Polshada Olam tuzilishining geliotsentrik nazariyasi (N. Kopernik tomonidan), Milanda (Italiya) Koinotning cheksizligi va unda Quyosh sistemasi - oddiy bir yulduzning yo'ldoshlari bilan tashkil etgan sistemasi ekanligini g'oyasi (Jordano Bruno tomonidan), Germaniyada osmon jismlarining harakat qonunlarini ifodalovchi osmon mexanikasi (I. Kepler tomonidan), Angliyada osmon jismlarining massalarini hisoblash usuli(I. Niyuton tomonidan) kabi muhim kashfiyotlar daryosining vujudga kelishida Samarqand astronomlari "ko'zini ochgan buloq" dastlabki irmoq bo'lib Quyosh, Oy va sayyoralarning harakatlarini o'rganish bo'yicha Ulug'bek maktabi qo'ygan poydevor - nazariy astronomiya deyiluvchi maxsus fanning shakllanishida o'zining ulkan hissasini qo'shdi.Olamni o'rganish, uning sir-asrorlaridan voqif bo'lish - insonning Er yuziga kelishdan maqsadini **aniqlab berishdek dunyoqarash vazifasini bajarishi bilan muhim** hisoblanadi. U insonni cheksiz Koinotning bir zarrasi va milliardlab yillar davom etgan uning evolyusiyasining mahsuli ekanligini, u yashagan umr Koinotning yoshi oldida atigi bir daqiqa ekanligini, har bir insonning "bir zumlik" hayotga kelishi mo'jizaviy bir holligini va bu "bir zumlik" umrni pala-partish emas, balki buyuk maqsadlarga qaratib yashash zarurligini, bu ulug' nomga dog' tushirmay yashash lozimligini sezdirishi bilan beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Bu esa, o'z navbatida, insonni o'z hayotini, boshqalar taqdiri va shaxsini qadrlashga, tabiatning nodir in'omi - hayotga engil-elpi

qaramaslikka, buyuk ezgu maqsadlarni ko‘zlab ish tutishga, o‘z ijobiy faoliyati bilan uning mazmunini boyitishga, sermazmun qilishga undaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

- 1.Samarqand Ulug‘bek akademiyasi haqida nimalarni bilasiz?
2. Mirzo Ulug‘bek haqida nimalarni bilasiz?
3. Ulug‘bek Rasadxonasi to‘g‘risida qanday ma’lumotlarni bilasiz?
- 4.Ulug‘bek akademiyasi vakillaridan kimlarni bilasiz?

Mavzuni chuqurroq o‘rganish uchun quyidagi adabiyotlarni o‘qing

1.Karimov I. YUksak ma’naviyat-engilmas kuch.-Toshkent: Ma’naviyat, 2008. B.

176.

2. Karimov I. “O‘rta asr SHarq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli” mavzuidagi xalqaro konferensiyada so‘zlagan nutqi. “Xalq so‘zi”, 2014 15-16 may.

3.Xayrullaev M. O‘rta Osiyoda ilk uyg‘onish davri madaniyati.- Toshkent: fan,

1994. yil.

2-B o‘li m Hadisshunoslik va ilohiyot ilmlari namoyandalari

7-Mavzu: Imom al-Buxoriy O'rta Osiyolik yirik muhaddis

Reja:

1. "Hadis ilmida Amir al-Mo'miniyn" degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan

Imom al-Buxoriy hayoti va faoliyati

2. Imom al-Buxoriyning "Al-Jome' as-sahih", "Al-Adab al-mufrad" asrlari

3. O'zbekistonda hadisshunos olimning 1225 yillik tavallud kunining nishonlanishi. Imom al-Buxoriy maqbarasining qayta tiklanishi

Imom al-Buxoriyning ismi Muhammad, kunyasi Abu Abdulloh, laqabi ba'zan imom al-muhaddisiyn (muhaddislarning imomi, peshvosi), ba'zan amir ul-mu'miniyn fil-hadis (hadis ilmining amiri, sultoni) va nasabi Muhammad ibn Ibrohiym ibn al-Mug'iyra ibn Bardazbah ibn Bardazbehdır. So'nggi ikki ismi ibn Bardazbeh ibn Bazazbeh) dan ko'rinib turibdiki, imom al-Buxoriyning asl nasabi ajamlarga borib taqaladi. Bu fikr talay adabiyotlarda qayd qilingan bo'lib, ko'pchilik muhaddislarning ta'kidlashlaricha, "Bardazbeh" so'zi arabcha "Zori" (ziroat, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi kishi) ma'nosini bildiradi. Mashhur olim imom as-Subkiy o'zining "Tabaqot ash-shofi'iyya al-kubro" ("SHofe'iy ulug' tabaqalar") nomli yirik asarida Bardazbehning otasini Bazazbeh deb ko'rsatgan. Imom al-Buxoriy haqida yozgan ko'pchilik olimlar esa uning nasabini faqat Bardazbehga bog'lab tugatganlar. Afsuski tarixchilar Bardazbeh, uning otasi Bazazbeh haqlarida deyarli hech qanaqa ma'lumot keltirmaganlar. Ba'zi olimlarning xabarlariga

ko'ra ular ikkovlarining kelib chiqishi ajamdan bo'lib, ularning dinlariga e'tiqod qilganlar. Imom al-Buxoriy otasining bobosi al-Mug'iyra Buxoro hokimi Yaman al-Juafiydan islom dinini qabul qilgan bo'lib, Buxoroni vatan tutib yashab qolgan. O'sha paytdagi taomulga ko'ra, agar biron kishi islom dinini kimdan qabul qilsa, o'sha kishining qabilasiga mansub hisoblangan. Bu odat qabul qilingan dinga sodiqlikning belgisi bo'lib, arabcha nisbat ul-vilo' fil-islom (islom diniga sodiqlik nisbati) deb atalishi odat tusiga kirgan edi. Albatta al-Mug'iyra ham o'sha davrda ommaviy tus olgan ushbu urfdan holi bo'lmaganligidan uning o'zi ham, undan keyingi tug'ilgan avlodlari ham, shu jumladan imom al-Buxoriy ham Ju'afiy deb atala boshladilar. Imom al-Buxoriyning nasli-nasabi haqida tarixchilar keltirgan ma'lumotlardan yana shuni qayd qilish kerakki, uning bobosi Bardazbehning ismini ba'zilar aslida al-Ahnaf deb keltirganlar. Ahnaf deb odatda eng aqlli, dono kishilarganisbat berilgan, go'yoki saxiy, qo'li ochiq kishilar "Hotamttoy" deb aytilgani singari. Bundan ko'rinib turibdiki, imom al-Buxoriyning bobosining haqiqiy ismi Bardazbeh bo'lsa-da, u oqil, zukko inson bo'lganligidan al-Ahnaf laqabi bilan ham atalgan. Imom al-Buxoriyning otasi Ismoil, uning kunyasi Abul-Hasan bo'lib, o'z davrining etuk muhaddislaridan sanalib, imom Molikning shogird va ashoblaridan biri bo'lib, tijorat ishlari bilan ham shug'ullangan. Afsuski hozircha uning qalamiga mansub biror asar haqida aniq ma'lumotga ega emasmiz. Biroq uni Hamad ibn Zayd, imom Molik, Abu Muoviya kabi o'z davrining yirik muhaddislaridan hadislar rivoyat qilgani, Abdulloh ibn al-Muborakning suhbatida bo'lib, undan ta'lim olgani haqidagi xabarlar manbalarda keltiriladi. Uning shogirdlaridan iroqlik bir qancha olimlar Ahmad ibn Hafs, Nasr ibn Husayn va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Imom al-Buxoriy "at-Ta'rix al-Kabir" ("Katta ta'rix") asarida otasining tarjimai holi haqida talay ma'lumotlar keltiradi. Tarixchi al-Hofiz ibn Hibbon o'zining "Kitob as-Siqqot" ("Buyuk insonlar haqida kitob") nomli asarida Ismoil ibn Ibrohim ya'ni al-Buxoriyning otasi, Hamad ibn Zayd va Molikdan hadislar rivoyat qilgan, undan esa iroqlik olimar hadislar rivoyat qilganlar",-deb ta'kidlaydi. Manbalarda zikr qilinishicha, alloma Ismoil o'ta taqvodor, xudojo'y, halol bir inson bo'lgan. Tarixchi Ahiyd ibn Hafasning yozganlari bu fikrimizga yorqin dalildir. "Abu Abdulloh (imom al-Buxoriyning otasi) bandalikni bajo

keltirayotgan chog'ida uni ziyorat qilganimda menga u: "bor moludunyomdan na harom yo'l bilan, na shubhali, nopok yo'l bilan topilgan bir dirhamni ham bilmayman, deb iltijo qilganida mening nafasim bo'g'ilib, butun vujudim uning ulug'vorligidan hech narsaday tuyuldi",- deb yozadi. SHuningdek imom al-Buxoriyning otasiga xos bo'lgan yana birqancha asl insoniy fazilatlar va uning alohida xususiyatlari zikr etilib, bunday fazilatlar o'sha davrdagi kamdan-kam kishilarda uchragani haqida ham qayd qilinadi. Imom al-Buxoriyning onasi ham taqvodor, diyonatli va har xil karomatlar sohibasi bo'lgan oqila ayol bo'lgan. U el orasida Alloh taologa iltijo etib, doimo duolar o'qib yuradigan pokiza ayol sifatida tanilgan edi. Ma'lumki, imom al-Buxoriy yoshligida ko'zi jarohatlanib ko'rish qobiliyati susaygan bo'lib, har qancha urinmasin ham tabiblaruni davolay olmagandilar. Kunlardan bir kuni al-Buxoriyning onasi tushida Ibrohim alayhissalomni ko'rganda u zoti sharif bu mushfiqa onaga qarab: "Ey volida! Sening duolaringning ko'pligidan Alloh-taolo o'g'lingga to'liq ko'rish qobiliyatini qaytardi", - deb xitob qilganlar. Keyin u "Uyqumdan uyg'onsam o'g'lim Muhammadning ko'z nuri to'liq qaytib tuzalib ketibdi",-degan rivoyat mavjuddir. Afsuski, imom al-Buxoriy yoshligida ko'zi ojiz bo'lib qolganligi, uning sabablari, so'ngra ungato'lig'icha ko'z quvvatining qaytganligini-chunonchi u "at-Tarix al- Kabir" nomli asarini oyning yorug'ida yozgan- tafsilotlari haqida manbalarda aniq ma'lumotlar uchratmadik. Abu Ali al-G'assoniy degan olim "Muhammad ibn Ismoilning yoshligida ko'zi ojiz bo'lib qolgan. Uning onasi taqvodor ayol bo'lib tushida Ibrohim Xalilullohni ko'rganda u: Ko'p duolar qilib yig'laganingdan Alloh taborako va taolo o'g'lingni ko'zini qaytardi",-degan. Ona: "Ertalab uyg'onsam, Alloh o'g'limga ko'rish qobiliyatini qaytarganini ko'rdim",-degan. U ham yuqoridagi fikrni aynan qaytaradi. Imom al-Buxoriy azaldan ilm fan va madaniyat ravnaqida mashhur bo'lgan Buxoro shahrida tavallud topgan. Ko'plab muarrihlarning guvohlik berishlaricha, Buxoro azaldan Movarounnahrning eng qadimiy va go'zal shaharlaridan biri bo'lgan. Manbalarda zikr qilinishicha, shaharning o'rab turgan devorlari o'ttiz olti millga cho'zilgan. SHaharning obod va ko'rkamligi, uning benazir go'zalligixususida Manbalarda zikr qilinishicha, shaharning o'rab turgan devorlari o'ttiz olti millga cho'zilgan. SHaharning obod va ko'rkamligi, uning benazir go'zalligi

xususida ko‘plab shoirlar va fozillar o‘zlarining nasriy va nazmiy asarlarida alohida ehtiros bilan tarannum etganlar. Mana shu muhtasham shahar- Buxoroi sharifda 194 hijriy sana shavvol oyining 13 kuni salotul jum‘adan keyin (810 melodiy sana 21 iyul) jamiy’ muhaddislarning imomi, hadis ilmining sultoni (amirul mo‘m’iniyn fil hadis), sayyidul fuqaho kabi ulug‘ laqablarga muyassar bo‘lib, Payg‘ambar alayhissalomning muborak hadislariga durdonasimon sayqal berib, ularni abadul-abad barhayot qilgan ulug‘ zot imom al-Buxoriy dunyoga kelgan. Buyuk shoir va mutafakkir Abdurrahmon Jomiy buyuk muhaddisning ilmiy salohiyatiga yuksak baho berib: Batxa (Makka) va YAsrib (Madina)da yasalgan tanganing Buxoroda sayqali kamoliga etdi"-deb yozgan edi. O‘rta asrlarda tug‘ilgan olimlar tavallud etgan oylar, kunlar tugul manbalarda xatto ko‘pincha yillarida ham aniq bir sana bo‘lmay, xilma-xil yillar ko‘rsatilgan hollari ko‘p uchraydi. Imom al-Buxoriyning tug‘ilgan vaqti (kuni, oyi, yili)ning aniq keltirilishining boisi shundaki, uning o‘zini yozishicha, u tug‘ilgan vaqt haqida otasi qo‘li bilan yozib qo‘ygan varaq, unga zamondosh olimlarga etib kelgan. Imom al-Buxoriy yoshligidayoq otasi vafot etib, uning tarbiyasi faqat validasi kafolatida bo‘lgan. Birmuncha ulg‘ayib aqli raso bo‘lgach, uning qalbida islomiy ilmlarga, ayniqsa, Payg‘ambar alayhissalomning muborak hadislarini o‘rganishga va yodlashga moyillik tobora kuchaya borib, u dastavval Ibn al-Muborak va Vakiy’ning hadislarga oid asarlarini yod oladi. Imom al-Buxoriyning kotibi, uning asosiy tasnifi "Sahih" asari roviylaridan biri Abu Ja’far Muhammad ibn Abu Hotam al-Varroq shunday deb yozadi: "Al- Buxoriyning: "Hadislarni yod olish ilhomi menga boshlang‘ich maktabda o‘qiyotganimda kelgan edi"-deb aytganini eshitganimda: "O‘shanda necha yoshda edingiz"?-deb so‘radim: u "O‘n yoshda balkim undan ham kichik edim", - deb javob bergandi. Bu misoldan ko‘rinib turibdiki, imom al-Buxoriy juda yoshligidan boshlab hadislarni yod olib, bu ilmga alohida zavq-shavq va qiziqish bilan qaragan. Imom al-Buxoriyning ustozlari haqida gapiradigan bo‘lsak, u eng avvalo o‘sha paytda Buxoroning taniqli muhaddislaridan sanalgan olim ad-Doxiliydan hadis ilmidan saboq olgan. Hadislarni o‘rganish bo‘yicha ushbu olim tashkil etgan to‘garak (halqa)ning shuhrati keng tarqalgan bo‘lib, uning faoliyati yoyilib ulkan samaralarga erishgan. Kunlardan bir kuni ad-Doxiliy o‘z odaticha hadis ilmidan dars berar edi, al-

Buxoriy ham boshqalar qatori dars tinglab o‘tirgan edi. SHunda Ad-Doxiliy bir hadis isnodi haqida gapirib: Sufyon Abu Zubayrdan, u Ibrohimdan", deb qildi. Bunga al-Buxoriy: "Abu Zubayr hech vaqt Ibrohimdan rivoyat qilmagan",- dedi va bu bilan u ad-Doxiliyning bu sanad xususidagi xatodan ogoh qilmoqni istagandi. O‘z shogirdining ovozini eshitgan ad-Doxiliy esa hayratga tushib dag‘allik bilan uni so‘zini bo‘ldi. SHunda al-Buxoriy o‘ta xotirjamlik bilan: -"Ustoz, agar ishonmasangiz asil manbaga qarang",- dedi. Ad-Doxiliy manbaga qarab al-Buxoriy aytgan gapning to‘g‘riligini e‘tirof qilib tan oldi-yu, lekin o‘sha hadis sanadini tuzatishni paysalga soldi. Insof yuzasidan yoki uni sinab ko‘rish uchunmi xullas, sanadni tuzatish masalasini al-Buxoriyning o‘ziga tashladi. Tashqariga chiqishgach, al-Buxoriydan:-"E, bola, bu yog‘i endi qanday bo‘ladi"?-deb so‘radi. Al-Buxoriy esa o‘ylamasdan shunday javob qildi:

-"Zubayr ibn Adiy Ibrohimdan rivoyat qilgan". SHundan keyin u (ad-Doxiliy) qalam olib yozganini tuzatdi va sen haqsan, - dedi. Al-Buxoriyning aytishicha, bu vaqtda u atigi o‘n bir yoshda bo‘lgan". Manbalarda keltirilishicha, al-Buxoriyga o‘n yoshidan boshlab hadislarni yod olish ilhomi nasib etib, yoshi ulg‘aygan sari bu rag‘bati tobora kuchayib ziyoda bo‘lib borgan, u nafaqat hadislarni shunchaki yod olish, balki unda yoshligidan boshlab hadislarni sahih (to‘g‘ri, ishonchli) va g‘ayri sahihlarga (xato, noto‘g‘ri) ajratish, ularning illatlarini aniqlash, hadis roviylarini o‘rganib tahqiq qilish, ular rivoyatining adolatligi, to‘g‘riligi, ishonchli yoki ishonchsizligi, roviylarning maishiy hayotlari, yashash joylari, tug‘ilgan va vafot etgan sanalari, bir-birlari bilan o‘zaro qilgan muloqotlari(, turli roviylar keltirgan hadislarni bir-biriga solishtirib muqoyasa qilish, ularning bir- birlari bilan o‘zaro bog‘liqligi va bir-biriga bog‘liq bo‘lmay uzilishlar bor holatlari, hadis ilmining xilma-xil va eng yuqori nuqtalariga etishish, uning turli masalalarini chuqur tahqiq etish, ularni ja‘mlash va Qur’oni karim oyatlari bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganish kabi masalalar bilan qiziqdi. Agar muxtasar holda xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bu masalalar bilan imom al-Buxoriy yoshligidan boshlab alohida ishtiyoq va mehr bilan astoydil shug‘ullanib, bu oliy janob ishlar uning butun fikri-zikrini batamom chulg‘ab, uning dilida kundan-kun kuchayib tobora mustahkamlanib boradi. Hadisshunoslikda yana bir muhim fan bo‘lgan illatli hadislarni

aniqlash g'oyatda mas'uliyatli va murakkab ishlardan hisoblanadi. Hadis ilmiga oid barcha tartibot va uslublarni mukammal bilish bilan bir qatorda roviylarning tug'ilgan va vafot etgan vaqtlari, ushbu hadisni kimdan eshitib, kimdan rivoyat qilayotgani, eshitgan ibora va alfozlarining aniqligini to'la-to'kis egallagan bo'lishligi kerak. SHu boisdan ham muhaddislarning ko'pchiligi: "bu masalalarni to'la-to'kis egallash hadis ilmida eng yirik muammo va ayni vaqtda o'ta sharaflı mas'uliyat deb hisoblaydilar. Hadisni yodlab ularni mukammal idrok qilgan va ulkan tajribaga ega bo'lganlargina, hadislar xususida uzil-kesil gapirishga haqlari bo'lganlardan faqat Ali ibn al-Madiyniy, YAqub ibn SHayba, Ahmad ibn Hanbal, al-Buxoriy, Abu Hotam, Abu Zur'a, Ad-Doraqutniy va ularga ergashgan bir necha muhaddislar ushbu yuksak maqomga sazovor degan fikrni olg'a suradilar. Bu o'rında Ali ibn al- Madiyniyning quyidagi so'zlarini keltirish illatli hadislarni qanchalik qiyin va murakkab ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz. "Mening o'zim bilgan bir hadisning illatini aniqlashdan ko'ra yangi, men bilmagan yigirmata hadis yozib olishim men uchun osondir". Darhaqiqat, hadislarda garchand zohiran o'zaro bog'liqlik bo'lsa-da, isnodi jihatidan dastlabki roviyga bekamu-ko'st etkazish yoki uzilish bilan etkazish, yoki bir hadis iboralarini ikkinchi bir hadis so'zlari bilan aralashtirib yuborish yoki bo'lmasa roviylardan birining nuqsonini aniqlash juda qiyin va mashaqqatli vazifadir. Mana shu zayldagi to'liq imkoniyatga va har tomonlama mukammal axborotga ega bo'lmaganlar, tabiiyki, hadis ilmida biror yutuqqa erishishi amri mahol edi. Komil ishonch bilan aytish mumkinki, imom al- Buxoriy mukammal egallagan buyuk san'atlardan biri bu illatli hadislarni aniqlash san'ati bo'lgan. Imom al-Buxoriyning zamondoshi bo'lgan olim al-Hofiz Ahmad ibn Hamdun bunday degan: "Usmon ibn Abu Sa'iyd ibn Marvonning janozasi paytida Muhammad ibn YAh'ya az-Zuhliy al-Buxoriydan roviylar ismlari va illatli hadislar haqida savol so'raganida al-Buxoriy go'yoki u "qul huva ollohu ahad"ni yoddan o'qiyotgandek-merganning bexato o'qi misoli to'g'ri javob qilganini ko'rgandim". Mavrıdi kelganda shuni aytish kerakki, mana shu davrda-ya'ni IX asrda Nishopurda ilm-fan, ayniqsa; hadis ilmi nihoyatda taraqqiy qilib, unda imom al-Buxoriy, imom Muslim ibn al-Hajjoj, imom at-Termiziy va boshqa birqancha buyuk muhaddislar yig'ilgan bo'lib, ular shaharda faoliyat ko'rsatadigan madrasalarda hadis ilmidan dars berardilar. Bu

buyuk muhaddislar oralarida ilmiy munozaralar va bahslar juda ko'p bo'lgan. Imom al-Buxoriy hadis sohasidagi o'z ilmi va salohiyati, ayniqsa, illatli hadislarni aniqlash mahorati bilan barchani qoyil qoldirgan, muhaddislarning hammasi unga bir ovozdan tan bergan. Imom al-Buxoriy masjidlarda, ommaviy ilmiy yig'inlarda ham ishtirok etgan. Uning chuqur bilimiga tan berib, o'z davrining mashhur muhaddislaridan biri sanalgan Muslim ibn al-Hajjoj imom al-Buxoriyga o'z samimiy munosabatlarini bildirib: "Sizni faqat hasadgo'ylargina ko'ra olmaydi. Mening iymonim komilki, sizdek buyuk olim jumlai- jahonda yo'q.- deb hitob qilgan. Imom al-Buxoriyning illatli hadislarni bilishdagi benazir mahorati, mukammal ilmi va qobiliyati haqida uning zamondoshlari ko'p qimmatli fikrlarni bildirganlar. Illatli hadislarga atab maxsus asar yozgan imom at-Termiziy o'z asari "Kitob al-Ilal"da: "Hadislar, roviylar, ular tarixlaridagi illatlar xususidagi fikrlarim imom al-Buxoriyning "Kitob at-Ta'rix" asaridan foydalanganlarim, ulardan yana ko'prog'ini Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy bilan qilgan ilmiy munozaralarim paytida olganman, shuningdek Abdulloh ibn Abdurrahmon, Abu Zur'adan ham foydalandimu, lekin baribir ko'prog'i Muhammad al-Buxoriydan, kamrog'i esa Abdulloh bilan Abu Zur'adandir",-deb ta'kidlagan. Yana imom at-Termiziy, "illatli hadislarni va isnodlarni aniq bilishda Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydan ko'ra ustun bo'lgan birorta olimni ko'rmadim",-deb qayd qilgan. Imom al-Buxoriy ishtirok etgan ilmiy majlislarning birida o'z zamonasining etuk olimlaridan sanalgan al-Faryobiy sanadi quyidagicha bo'lgan bir hadis haqida gapirib: "Sufyon Abu Urvadan u Abul Xattobdan, u Abu Hamzadan",-dedi. Majlisda hozir bo'lganlarning birortasi ham Sufyondan boshqalarining kim bo'lganligini aniq bilmadi, chunki bu o'rinda ularning faqat kunyalari (Abdul Xattob, Abu Hamza) aytilgan edi. SHunda Muhammad al-Buxoriy vazminlik bilan: "Abu Urva-bu Muammar ibn Roshid, Abul Xattob esa Qatoda ibn Daoma, Abu Hamza bo'lsa Anas ibn Molikdir. Buyuklarning ishlari inqilobiy tusda ulug'vor bo'lganligi uchun ham ular faqat kunyalari bilan aytilganlar",-dedi. Hadis rivoyatidagi noqislik va ularning to'g'riligiga ishonch hosil qilish masalalari sahobalar davridan boshlanib, o'sha paytdanoq hadislarni yozib olishda unga alohida e'tibor berilgan. CHunonchi, sahobalarning o'zlari rivoyat qilgan hadislarda ham illatli hadislar

uchragan hollari aniqlangan edi. Payg‘ambar vafotlaridan keyin vaqt jihatidan muddat kam o‘tganligi, hadislarini naql qilishda vositalarning ozligi tufayli boshda unga ehtiyoj unchalik katta bo‘lmagandi. Rivoyatda ishtirokchilar soni ko‘payib, vaqt o‘taborgan sari roviylarning illatini aniqlash masalasiga yanada zarurat kuchaydi. Hadis ilmida ham, muhaddislar orasida ham bu masala muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Hadis roviylariga nisbatan alohida diqqat-e‘tibor, chuqur munosabat bilan qaralib, har xil uslubu qoidalar yaratildi, masalan: qaysi holatlarda zamondoshlarning illati qabul qilinmaydi, qaysi bir holatlarda qabul qilinadi kabi aniq yo‘l-yo‘riqlar ishlab chiqildi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, hadislarida illat masalasi muhim ahamiyat kasb etib, u bilan shug‘ullanadiganlardan o‘ta diyonatli va taqvodorlik, qobiliyat talab qilinadi. Imom al-Buxoriy bu sohada o‘ziga asosiy dasturul-amal qilib olgan ehtiyotkorlik maslagi, u diyonat, iymon-ixlos va xudojo‘ylikda yuksak darajaga erishganligini ko‘rsatadi. Illatli hadislar haqidagi imom al-Buxoriyning mulohazalari juda mutavoze’ va odob-ahloq yuzasidan bo‘lib, "uni shunday qoldirganlar (tarakahu) "u tashlab ketilgan" (matruk), "tushirib qoldirilgan"(soqit), "bu haqda o‘zgacha bir fikr- mulohaza ham bor", "bu xususda avval o‘tganlar hech narsa demaganlar" va shunga o‘xshash beozor, oddiy va samimiy iboralardan tashkil topgan. Juda kamdan-kam hollarda imom al-Buxoriy biron odamga nisbatan: "u ichidan o‘ylab chiqqan yoki "kazzob" demasdi, illatli hadislar masalasida al-Buxoriy ishlatgan eng qattiq ayblov "hadisning inkor qiluvchi" ("munkir al-hadis") degan ibora bo‘lardir. Hadis ilmida shu qoida odat tusiga kirdiki, agar imom al-Buxoriy biron roviy haqida "u munkir al-hadis" desa, undan hech vaqt hadis rivoyat qilinmasdi. Bu xususda Ibn al-Qatton imom al-Buxoriyning ushbu so‘zlarini keltiradi: u (al-Buxoriy) unga "Har qanday kishi haqida "u munkir al-hadis" degan bo‘lsa tamom, undan hech vaqt hadis rivoyat qilinmaydi",- degan. Imom al-Buxoriy ustozlarining soni ko‘p bo‘lib, ulardan birining ismi "Musaddid" (lug‘aviy ma‘nosi "to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi") edi. Al-Buxoriy unga qattiq ishonib: "Musaddid-o‘z ismiga monand to‘g‘ri yo‘lga boshlovchidir. Kitoblarim o‘zimdagi bo‘ladimi yoki unda bo‘ladimi-menga farqi yo‘q",-deb doimo takrorlar edi. Ushbu ta’kiddan ayon bo‘layotirki, imom al-Buxoriy o‘z kitoblarini muhofazasiga alohida ahamiyat bergan. U bu masalaga

bamisoli hadis rivoyatiga e'tibor bergandek alohida e'tibor bilan qaragan. SHuningdek, ular qanday odamlarning qo'lida saqlanishiga ham jiddiy qaragan. O'z kitoblarini har qanday kimsaning qo'lga tushib qolishiga befarq qaramagan. Imom al-Buxoriy o'zining butun faoliyati davomida ham ilmiy, imkoni bo'lsa moddiy jihatidan odamlarga, ya'ni Ollohning bandalariga biror navf etkazishni o'zining asosiy maqsadi qilib qo'ygan edi. U doimo ilm ahllari-yu, ilm toliblariga, hatto ustozlar (ash-shuyuh) va muhaddislarga ham moddiy yordam ko'rsatardi. Tijorat qilganda har safar o'zi ko'rayotgan oylik daromadidan, ya'ni foydasidan besh yuz dirhamni faqiru miskinlarga, ilm toliblariga sarflardi. Tolibi ilmlarga ma'lum mablag'lar (maoshlar) ajratib, ularni alohida qiziqishi, zavq-shavq bilan Payg'ambar alayhissalom ilmlarini (hadisi shariflarini) o'rganishga rag'batlantirardi, ahli ilmga nisbatan g'oyatda ko'p ehson ko'rsatardi. Ayni vaqtda imom al-Buxoriy o'z shaxsiy hayotida, eyish-ichishda va kiyinishda sira ham ortiqcha dabdaba va behuda sarfu-xarajatlarga yo'l qo'ymasdi, sabr- toqat va qanoat, chidamlilik uning uchun odat tusidagi tabiiy bir hol edi. Imom al-Buxoriy g'oyatda beg'ubor, halol-pokiza, diyonatli inson bo'lib, g'iybatu-nohaqliklardan uzoq bir kishi edi. U doimo "G'iybat qilishlik harom ekanini bilganimdan boshlab, hech qachon biror kishi haqidag'iybat gapirmaganman",-deb ta'kidlardi. Imom al-Buxoriyning eng ulug' fazilatlaridan yana biri u taassub (mutaassiblik)ning har qanday ko'rinishlaridan uzoq bo'lgan alloma edi. Uning shoh asari "Sahih al-Buxoriy" bilan chuqurroq tanishilsa, al-Buxoriyning o'z kitobidagi ma'lumotlarga nihoyatda katta sinchkovlik va ehtiyotkorlik bilan yondoshganini ko'ramiz. Qanchadan-qancha mashaqqatlar bilan to'plangan hadislarining sahihligiga to'la ishonch hosil qilib, obdon tekshirgandan keyingina o'z asariga kiritganligi ushbu fikrimizni yana bir bor tasdiqlaydi. Imom al-Buxoriyning "Sahih" asari haqida gapirar ekanmiz, shuni ham qayd qilish kerakki, ushbu kitobning sahih isnodlarida ahli sunnaga mansub bo'lmagan roviylar ham uchraydi. Imom al-Buxoriy muhaddislarda hadislarga bo'lgan katta mehr va intilish hamda unga qat'iy amal qilish har qanday tahsinga sazovor, deb hisoblardi. Bu masala g'oyatda muhim bo'lib, bu xususda ba'zi muhaddislarning o'zlari ham fikr-mulohazalarini bildirganlar. Jumladan, imom Ahmad ibn Xanbal "o'zim amal qilmagan bitta ham

hadisni kitobga olmaganman" deb ta'kidlagan bo'lsa, o'z davrining yirik muhaddislaridan biri sanalgan Vakiy' ibn al-Jarroh: "Agar biror hadisni yodlashni istasang, eng avvalo unga amal qil",-degan. Yana bir muhaddis Ibrohim ibn Ismoil esa:"Hadislarni yodlashda eng avvalo unga amal qilish yo'lidan foydalanardik", -deb ta'kidlagan, alloma as-Suyutiy o'zining "At-Tadriyb" nomli asarida bu jarayonni quyidagicha ifodalaydi: "Ibodatlar, odob-ahloq, fazilatlar, solih a'mollar xususida eshitgan hadislardan samarali foydalanish lozim. Bu birinchidan ushbu hadisning zakoti, ikkinchidan esa-uni yodlash uchun yaxshi omildir".

Imom al-Buxoriy yashagan davrda Xolid ibn Ahmad az-Zuhliy Tohiriylar tomonidan bo'lib, Buxoroning amiri sifatida saltanat yuritardi. Xorijiy yurtlarga qilgan uzoq yillar davom etgan safaridan qaytib, imom al-Buxoriy o'z ona yurti Buxoroda o'rtnashgach, uning shonu-shuhrati turli tomonlariga tarqab, ko'plab hadis toliblari to'da-to'da bo'lishib, imom al-Buxoriy huzuriga kela boshlagach, Xolid ibn Ahmad az-Zuhliy-ular bilan garchand mazhabiy masalalarda bir qadar muxolafatda bo'lsa-da, ularning rivoyatlarini tashlab ketmasdan kitobiga kiritgan. Bu tusdagi tasomuh (sabr-toqatlilik, boshqa mazhablarga nisbatan e'tirom bilan qarash) qanday holatda bo'lmasin chegaralangan yoki chegaralanmagan ko'rinishda bo'lsa-da, buning dastidan hadis rivoyatiga shak-shubha bo'lmasligi uchun muhaddislar o'rtasida udum bo'lgan qoidaga ko'ra ular ahl ul-havoga (shiy'alar, xorijiyalar, mu'taziliylar va hakazo) ham mansub rivoyatlarini qabul qilganlar, faqat shu shart bilanki, ular bid'atga da'vat qilmaydigan, yolg'on-yoshiq rivoyatlarni tarqatmaydigan, har qanday holatda ham soxta (yolg'on) aralashishini hatto xayoliga ham keltirmaydigan kishilar bo'lishi talab qilingan. SHu boisdan ham imom al-Buxoriyning roviylariga nazar solsak, ulardan ba'zilari shiy'a tamg'asi bilan ko'rsatilgan bo'lib, imom al-Buxoriy ularning rivoyatini "Sahih" kitobiga kiritgan. Ba'zan esa-asosi bo'lgan hollarda ba'zi- bir boshqalarini shiy'alarga yoki rofiziylarga mansubligidan ular rivoyatlarini o'z kitobiga kiritmagan.

Hadislardagi noqis (illat)liklarga alohida e'tibor bergani kabi imom al-Buxoriy roviylarning ibratli, go'zal fazilatlarini alohida ko'rsatishga ham katta ahamiyat bergan. Agar keltirgan rivoyatlari to'g'ri bo'lsa roviylarning haqiqiy tavsiflari-yu, adolatli ishlarini hech bir kamsitmasdan batafsil zikr qilgan.Payg'ambar alayhissalomning

hadislariga nisbatan qiziqishi bo'lgan Buxoroning amiri Xolid ibn Ahmad az-Zuhliy imom al-Buxoriyni o'z saroyiga kelib, unga va uning o'g'illariga "Sahih al-Buxoriy" va "at-Ta'rix" kabi asarlaridan saboq berishini talab qiladi. SHunda alloma amirdan kelgan xabarchiga: "Men ilmni xor qilib, uning hukmdorlar eshigiga olib bormayman",-degan javobni berdi. SHundan keyin amir agar imom al-Buxoriy amir saroyiga kelishni xohlamasa, bolalari uchun alohida, maxsus vaqt ajratib dars berishini, unda boshqa talabalar ishtirok qilmasligini ta'kidlab, yana vakilini yubordi. Lekin imom al-Buxoriy amirning bu talabiga ham rad javobini berdi, chunonchi ilm olmoqlik Payg'ambarimiz alayhissalom meroslaridan bo'lib, bunda har bir inson-xosu-avom teng huquqqa ega, dedi va agar amirda undan dars olish ehtiyoji bo'lsa, uyiga yoki bo'lmasa masjidga kelishligini so'rab "Agar bu taklifim sizga ma'qul bo'lmasa, siz hokimsiz mening saboqlarimdan (ilmiy yig'inlarimdan) ma'n qiling (to'xtating), bu menga odamlardan o'z ilmimni bekitmayotganim uchun qiyomat kunida olloh huzurida bir uzr bo'ladi",-dedi. Mana shu dadil javobdan keyin Buxoro amiri qattiq g'azablanadi va allomani shahardan chiqarib yuborish yo'llarini izlaydi. Lekin imom al-Buxoriy millionlab musulmonlarning qalbini o'ziga rom qilib, ularning cheksiz hurmati-yu muhabbatiga sazovar bo'lganligidan amir o'z hokimiyati-yu, saltanati kuchi bilan uni shahardan chiqarib yuborishga muvaffaq bo'la olmadi. SHundan keyin beandisha bir guruh nopok kimsalarni topib imom al-Buxoriyga nisbatan xaloyiqni g'azabini qo'zg'aydigan yolg'on-yashiq tuhmat va bo'htonlardan iborat aybnomalar izladi. Natijada ular imom al-Buxoriyga qarshi xilma-xil bo'lmag'ur safsatalar va tuhmatlar tarqatadilar, shular sababli amir allomadan shaharni tark qilib chiqib ketishini talab qildi.Imom al-Buxoriy Buxorodan chiqib ketgach,Poykandga keldi. G'animlar Buxoroda allomaga qarshi to'qigan ig'vogarona to'hmatlarni chor atrofga tarqatishga zo'r berib, jiddu jahd ko'rsatib, ushbu tuhmatni xalq orasida oshkora qilib, yoygan edilar. SHu boisdan ham bu bo'hton xabar imom al-Buxoriydan oldin Poykandga kelib etgan bo'lib, Poykand ahli shu masala xususida ikki toifaga bo'lingan edilar. Ularning bir qismi imom al-Buxoriyni ushbu to'hmatdan himoya qilib uning tarafini olsa, ikkinchi qismi esa fisqu fasodchilarni qo'llab-quvvatlagandilar. Qachonki imom al-Buxoriy Poykand ahli o'rtasidagi ushbu ixtilofdan voqif bo'lgach, bu shaharda

yashamaslikni o'ziga munosib ko'rmadi. Ayni vaqtda Samarqand ahli al-Buxoriy Poykandiga kelganini bilgach, ular uni Samarqandga taklif qilib, unda muq'im istiqomat etib, mudarrislik qilishlarini so'radilar. Bunga rozilik bildirgan imom al-Buxoriy Poykanddan chiqib, ularga tomon ravona bo'ldi va Samarqand yaqinidagi Xartang deb ataladigan qishloqda bir qarindoshinikida to'xtaydi. Lekin imom al-Buxoriy Buxoroda ko'tarilgan fitna Samarqandga ham etib kelganidan xabar topib uning ahli Poykanddagi kabi ikki guruhga bo'linganini-ularidan bir guruhi uni qo'llab-quvvatlashini, ikkinchi guruh esa unga muxoliflik bildirib, qarshilik izhor etganini bilgach: "Allohim qanchalik keng bo'lgani bilan dunyo menga torlik qilib qoldi, endi meni o'z rahmatingga qabul et",-deb duo qildi. SHu orada u qattiq betob bo'lib qoldi va 256 hijriy yilning Ramazon haetida (Iyd al-fitr) kechasida (870 yil 31 avgust) vafot etdi.

Imom al-Buxoriy haqida yozgan muarrixlar va solnomachilar uning husni-xulqlari zikr qilganlarida, albatta, uning quvvai-hofizasi va xotirasining kuchliligini alohida ta'kidlab ko'rsatadilar.

CHunonchi, imom al-Buxoriyning xotirasi kuchli bo'lganligi xususida ko'pdan-ko'p afsonaviy tarzda rivoyatlar qilinadi. Uning ustozlari Muhammad al-Buxoriyning yoshligidan Alloh-taolo ato qilgan noyob iqtidori va quvvai-hofizasini sezib, unga bir ovozdan tan berganlar. YOshligidayoq uning haqida "g'oyatda fozil inson bo'ladi", "dovrug'i el orasida doston zot bo'lib chiqadi", deb aytgan bashoratlari tarix kitoblarida bitilgan.

Buyuk muhaddis Abu Iso at-Termiziy: "Imom al-Buxoriy el orasida tanila boshlagach, Abdulloh ibn Munir: "E, Abu Abdulloh Alloh seni bu ummatning ziynati qilib yaratgan!" degan fikrini keltiradi. At-Termiziy yana: "Alloh-taolo uning barcha xohishini mustajob qilib yaratgan edi"-deb ta'kidlaydi. Tarixchi SHamsuddin az-Zahabiy quyidagicha hikoya qiladi: "Xolid ibn Ismoil shunday degan edi: Basra mashoyixlari xususida imom al-Buxoriy bilan bizning fikrimizda ko'pincha ixtilof bo'lardi. SHu paytda u o'spirin bola bo'lib, hadislarni sira yozmasdi. SHu zaylda o'n olti kun o'tgach u bizga: Juda ko'p hadis eshitib yozib oldinglar, qani menga ko'rsatinglarchi, qancha hadis yozib olibsizlar, dedi. Hisoblab ko'rsak o'n besh mingdan ziyod hadis yozgan ekanmiz. Al-Buxoriy ularning hammasini yoddan aytib berdi, hatto yozgan hadislarimizning ko'plaridagi xatolarni uning yoddan aytganlariga

qarab tuzatib ham oldik". Olim Muhammad ibn al-Azhar as-Sijistoniyy "Biz alloma Sulaymon ibn Xarabdan hadis ilmidan saboq olardik. Al-Buxoriy ham biz bilan birga hadis eshitardi-yu, lekin sira yozmasdi. Nega u yozmayotir?- deb so'raganlar: "O'z yurti Buxoroga qaytgach, yodidan yozadi",- deb javob olgandilar. Ushbu Sulaymon ibn Harab-o'z zamonining mashhur allomalari va hadis hofizlaridan hisoblanib, Makkai- mukarramada qozi ham bo'lgan. Uning xotirasi g'oyatda kuchli bo'lib, hech bir kitob daftarga boqmay o'n minglab hadisni yoddan rivoyat qilgan. Abu Hotam shunday hikoya qiladi: Men Bag'dodda Sulaymon ibn Harabning darslaridan saboq olganman. Uning sabog'ini olganlarning soni qirq mingdan ham oshib ketgan bo'lib, u hijriy 224 yilda vafot etgan. Imom al-Buxoriy ham uning shogirdlaridan hisoblanardi. Fazlu kamolining shunchalik buyuk bo'lishiga qaramasdan u al-Buxoriydan "Sen bizga SHu'abaning xatosini tushuntirib ber",- deb iltimos qilardi. Hifzu zakovat, idroku tafakkurdan rabboniy (ilohiy) bir noyob qobiliyat va iste'dod Imom al-Buxoriyga a'to etilgandiki, hatto unga ustozlari tomonidan ham g'oyat darajada izzat-ikrom va hurmat ko'rsatilib, ko'p muhaddislar uning huzurida dars o'tishdan ham hijolat bo'lib, hayiqib turganlar. SHu xususda Fath ibn Nuh an-Naysoburiyning: "Ali ibn al-Madiyniyning darsida hozir bo'lganimda Muhammad al-Buxoriyning uning o'ng tomonida o'tirganini ko'rdim. Ustoz har bir hadisni zikr qilganida hurmat bajo keltirib, al-Buxoriy tomoniga ohista burilib qo'yar edi",-deb yozishi ustozlarining imom al-Buxoriyga hurmat e'tibori alohida bo'lganligidan dalolatdir. Ko'pgina manbalar va tarix kitoblarida imom al-Buxoriyning aql-zakovati va quvvai-hofizasini sinash maqsadida qilingan imtihon (sinov) xususida aniq ma'lumotlar zikr qilingan. Darhaqiqat, bunday jiddiy bir imtihon Bag'dodda Dor ul-xilofat (Xalifalik uyi)da Bag'dod ulamolari tomonidan uyushtirilgan. Bag'dodlik olim Abu Bakr al-Kaluzoniyy (vafoti 249 hijriy yil) "Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyga o'xshash hech bir olimni ko'rmadim. Biror ilmga oid har qanday kitobni olib sinchiklab mutolaa qilardida, unda keltirilgan barcha hadislarni bir martaning o'zidayoq yodlab olardi",-deb yozgan. Qachonki imom al-Buxoriy hadis ilmi bo'yicha mukammal ilmga ega bo'lib ilmiy majlislar uyushtirib, saboq bera boshlagach va uning bu tarzdagi majlislarining dovrug'i har tarafga tarqab, el orasida yoyilgach, ilm toliblari-yu, ahli

donish uning saboqlariga shunchalik ko‘p yog‘ilib kela boshladiki, hatto majlislariga odamlar sig‘may ketardi. Bu tartibdagi ilmiy majlislar bir qancha-Basra, Bag‘dod, Hijoz, Balx kabi shaharlarda uyushtirilib, alloma umrining oxirlarida o‘z vatani Buxoroda ham hadislardan dars bergan.

Mavzuni mustahkamlash uchun qo‘shimcha savol va topshiriqlar

1. Imom al-Buxoriy haqida nimalarni bilasiz?
2. Imom al-Buxoriy hadis ilmining sultoni ekanligi haqida aytib bering?
3. Imom al-Buxoriyning qanday hadis to‘plamlarini bilasiz?
4. Muhaddisning hayoti va faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
5. al-Jome‘ al-sahih asari haqida nimalarni ayta olasiz?
6. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda Buxoriyga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishi va Imom Buxoriy majmuasining tiklanishi

Mavzuni chuqurroq o‘rganish uchun quyidagi adabiyotlarni o‘qing

1. Karimov I. YUksak ma‘naviyat-engilmas kuch.-Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. B.

176.

2. Mirziyoev SH. YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI-Toshkent:

“O‘zbekiston” , 2021.464 bet.

3.Moziydan taralgan ziyo Imom al-Buxoriy.-Toshkent: 1998. yil.

4. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy.Hadis 1-4 jild.-Toshkent:

1997.

5.Imom al-Buxoriy va uning dunyo madaniyatida tutgan o‘rni. Mavzuidagi xalqaro ilmiy konferensiya materiallari.-Samarqand 1998.

6.Xayrullaev M. O‘rta Osiyoda ilk uyg‘onish davri madaniyati.- Toshkent: fan,

1994. yil.

8- Mavzu: Abu Iso Muhammad at-Termiziyning hayoti va ilmiy merosi

Reja:

1.Abu Iso Muhammad at-Termiziyning hayoti va faoliyati

2. Muhaddisning ilmiy merosi, ustoz va shogirdlari,

3.O‘zbekistonda At-Termiziyga munosabat va Termiziy ziyoratgohining tiklanishi

Uning to‘liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn al-Hasan ibn Bashir al-Hakim at-Termiziy bo‘lib, tarjimai holiga oid

ma'lumotlar o'rta asr arab mualliflaridan Tojuddin as-Subkiy, al-Xatib al-Bag'dodiy, Ibn Hajar al-Asqaloniy, as-Sullamiy va boshqalar asarlarida, shuningdek, uning o'zining qalamiga mansub "Bad'u sha'ni Abu Abdulloh" ("Abu Abdulloh ishining boshlanishi") nomli avtobiografik risolasida keltirilgan. Uning mazkur shakldagi to'liq ismi alloma tomonidan yozilgan "Navodir ul-usul fi ma'rifat axbor ar-rasul" ("Rasululloh xabarlarini haqidagi nodir usullar"), "Ilm ul-avliyo" ("Valiylar (yoki avliyolar) ilmi"), "Xatm ul-avliyo" ("Avliyolarning oxirigisi") va "Nazoir ul-Qur'on" ("Qur'on ibratlari") kabi asarlarning nomlari yoki muqaddima qismlarida ham aynan shu tarzda keltirilgan. Al-Hakim at-Termiziy tavallud topgan sana xususida ham yozilgan manbalar va adabiyotlarda turli yillar keltirilgan. Odatda, o'rta asrlarga oid yozma manbalarda aksar hollarda muallifning faqat vafot etgan yili ko'rsatilib, tavallud etgan sanasi keltirilmaydi. Jumladan, taniqli olim Hoji Xalifa o'zining "Kashf uz-zunun" nomli mashhur asarining bir necha o'rinlarida al-Hakim at-Termiziy vafotini hijriy 255 (melodiy 869) yil deb ko'rsatgan. Shuningdek, allomaning Termiz shahri yaqinida joylashgan maqbarasi ustida o'rnatilgan qabrtoshdagi bitiklarda ham uning hayoti haqida ba'zi ma'lumotlar keltirilib, vafot etgan sanasi hijriy 255 (melodiy 869) deb yozilgan. Boshqa ba'zi manbalarda ham uning mazkur sanada vafot etganligi qayd etiladi. Al-Hakim at-Termiziyning uzoq — 116 yoki 120 yil umr ko'rganligini e'tiborga olsak, alloma sakkizinchi asrning o'rtalarida (taxminan 750—760 yillar oralig'ida) tavallud topganligi ayon bo'ladi. Ayni vaqtda ba'zi zamonaviy tadqiqotchilar uning tavalludi va vafoti haqida batamom boshqa sanalarni ko'rsatganlar. Jumladan, al-Hakim at-Termiziyning hayoti va uning ta'limotini chuqur o'rgangan misrlik taniqli olim Abdulfattoh Abdulloh Baraka al-Hakim at-Termiziyning hijriy 205 (melodiy 820) yilda Termiz shahrida tavallud topib, uzoq umr ko'rib, hijriy 320 (melodiy 932) yilda 112 yoshida vafot etganligi haqida yozadi. Uning maqbarasi Termiz shahrining yaqinida Amudaryo bo'yida joylashgan.

Termiz shahri haqidagi qimmatli ma'lumotlarni arab geograflari al-Muqaddasiy (Ahsan ut-taqosim fi ma'rifat al-aqoliym), al-Istaxriy (al-Masolik val-mamolik), al-Balazuriy-Futuh ul-buldon va boshqa qator mualliflarning asarlarida uchratamiz. Mazkur manbalarda ta'kidlanishicha, al-Hakim at-Termiziy tug'ilgan Termiz shahri ham

IX asrda Movarounnahrning eng yirik va obod shaharlaridan biri sifatida mashhur bo'lgan. SHaharda islomiy ilm va madaniyat yuksak darajada taraqqiy etgan. Ilm-fanning turli sohalari, jumladan, islomiy ilmlar bo'yicha Termiz shahridan etishib chiqqan ko'plab allomalar at-Termiziy nisbasi bilan butun dunyoda mashhur bo'lganlar. Jahoniy ehtiromga sazovor bo'lgan termizlik buyuk siymolardan biri al-Hakim at-Termiziydir. Afsuski, al-Hakim at-Termiziyning bolalik va yoshlik yillari haqida manbalarda aniq ma'lumotlar uchratmadik. Uning ota-onasi haqidagi ba'zi xabarlardan ma'lum bo'lishicha, uning otasi Ali ibn al-Hasan o'z davrida hadis ilmining ko'zga ko'ringan olimlaridan biri sifatida mashhur bo'lgan. Arab tarixchisi al-Xatib al-Bag'dodiy o'zining mashhur "Tarixi Bag'dod" ("Bag'dod tarixi") nomli asarida yozishicha, u musulmon olamining eng yirik markazlaridan sanalgan Bag'dod shahrida bo'lib, o'sha davrning mashhur olimu ulamolari bilan hadis ilmining turli masalalari bo'yicha qizg'in bahs va munozaralarda ishtirok etgan. Al-Hakim at-Termiziy o'zining avtobiografik risolasi "Bad'u sha'ni Abu Abdulloh" va "Ar-Radd a'lol- muattila" kabi asarlarida yozishicha, uning onasi va bobosi ham o'z davrida hadis ilmining etuk bilimdonlaridan bo'lgan. Bu ma'lumotlardan shunday xulosa qilish mumkinki, al-Hakim at-Termiziy ilm-ma'rifat yuksak qadrlanadigan, ziyoli bir xonadonda dunyoga kelib, mana shu ilmiy-ma'naviy muhitda o'sib ulg'aygan. Oxir oqibatda mazkur omillar ta'sirida uning ma'naviy dunyosi va ilmiy tafakkuri shakllanib, kamolga etgan. Ayni vaqtda shuni alohida ta'kidlash kerakki, al-Hakim at-Termiziyning ilmiy kamolotida uning otasi Ali ibn al-Hasanning xizmatlari benihoya katta. CHunonchi, u o'z farzandi uchun nafaqat mehribon va g'amxo'r ota, balki unga nisbatan talabchan murabbiy va ma'rifatli ustoz maqomida ham bo'lgan. Bu xususda al-Hakim at-Termiziy o'z kitoblaridan birida shunday hikoya qiladi:

— Oллоh taolo meni ustozim — validimdan judo qilganda men sakkiz yoshda edim. Uning sa'y-harakatlari bois men ilm olishga shunday berilib ketgandimki, kitob mutolaa qilish men uchun asosiy mashg'ulot bo'lib qolgan edi. Vaholanki, mening tengqurlarim o'yin-kulgi va vaqti xushlik bilan band bo'lardilar. Validimning ijti hodlari tufaylik men shu yoshimda "Ilm al-osor" (Qadimiy rivoyatlar

(hadislar) haqidagi ilm)va “Ilm ar-ray” (“E’tiqod haqidagi ilm”) bilimlarini to‘liq egallab olgan edim.

Otasi vafotidan keyin al-Hakim at-Termiziy o‘z shahridagi etuk olimlardan asosan tafsir, hadis va fiqh ilmlaridan saboq oladi. Uning termizlik muhaddislar Abu Muhammad Solih ibn Muhammad ibn Nasr at-Termiziy, Solih ibn Abdulloh at-Termiziydan hadis ilmini o‘rganganligi haqida manba’larda aniq ma’lumotlar keltirilgan. SHundan so‘ngra alloma Fariduddin al-Attorning yozishicha, yoshi yigirma ettiga etganda al-Hakim at-Termiziy ikki o‘rtog‘i bilan o‘sha paytda butun SHarqda ilmu ma’rifatning eng yirik markazlaridan biri sanalgan Bag‘dodga borib ilm olishni niyat qilganda birdan onasi betob bo‘lib qoladi va unga: “Ey o‘g‘lim, men bir mushtipar, zaifa ayol bo‘lsam, menga sendan bo‘lak boshpanoh bo‘lib yordam beradigan biror kimsa bo‘lmasa, mening butun borlig‘im faqat sen bilan bog‘liq bo‘lsa. Sen meni kimga tashlab ketmoqchisan?” — deb unga iltijo qiladi. Volidasining bu so‘zlari al-Hakim at-Termiziyga qattiq ta’sir qilib, u ilm talabidagi ushbu safaridan voz kechadi. Uning ikki o‘rtog‘i esa o‘z safarlariga otlanib yo‘lga tushadilar. So‘ngra, ushbu voqeadan keyin talay vaqt o‘tgach, al-Hakim at-Termiziy Bag‘dodga borolmaganligi uchun g‘oyatda afsuslanib, maqbaralardan birining yonida yig‘lab xafa bo‘lib turganida uning yonida yuzidan nur yog‘ilib turgan bir shayx paydo bo‘lib, undan yig‘lashining sababini so‘raydi. Al-Hakim unga yuz bergan voqeani birma-bir aytib beradi. SHunda shayx: Istasang, men senga har kuni turli ilmlardan saboq berib, seni o‘qitaman, deydi. Al-Hakim uning bu so‘ziga darhol rozi bo‘ladi. Bu hol bir necha yil davom etadi. So‘ngra u bilsa bu kishi Xizr alayhissalom ekanlar. Uning bu saodatli marhamatga erishishi volidai mushfiqasining duosi barokotidan bo‘lgan edi. Ayni shu voqea boshqa manbalarda biroz boshqacharoq tarzda hikoya qilinadi...

Al-Hakim at-Termiziyning asarlari

Al-Hakim at-Termiziy qalamiga mansub asarlar haqida yozgan mualliflar uning asarlarining soni haqida turli raqamlarni keltirganlar. Ba’zilarining fikriga ko‘ra uning asarlarining soni to‘rt yuztaga yaqin bo‘lsa, yana boshqalar al-Hakim at-Termiziy saksonta yoiniki qirqta asar yaratganligi haqida yozganlar. Jumladan, misrlik olim shayx Abdulfattoh Abdulloh Barakaning yozishicha, al-Hakim at-Termiziy to‘rt yuzdan ortiq asarlar yaratgan bo‘lib, ulardan oltmishga

yaqini bizgacha etib kelgan. Eng muhimi, al-Hakim at-Termiziyning bizgacha etib kelgan asarlari uning ilmiy merosining muhim qismini tashkil qiladi. Mana shu asarlardan eng avvalo payg‘ambar alayhissalomning hadislariga bag‘ishlangan “Navodir al- usul fi ma’rifat axbor Rasul” (“Rasululloh xabarlarini bilishda nodir usullar”) nomli asarini aytish kerak. Bu asar shuningdek “Salvat al-orifiyn va bo‘ston al- muvahhadiyn” (“Oriflar ovunchog‘i va Olohning yagonaligiga ishonuvchilar bo‘stoni”) nomi bilan ham ataladi. Bu asar hijriy 1294 (melodiy 1876) yilda Qustantiyniyada chop etilib, o‘zi tanlab olgan 291 hadisdan iborat ushbu kitobda al-Hakim at-Termiziy o‘z mazhabiy qarashlarini mufassal holda sharhlagan. Mazkur asarning bir qo‘lyozma nusxasi O‘zbekiston musulmonlar idorasining kutubxonasida saqlanadi. Yana bir qo‘lyozmasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi SHarqshunoslik institutida saqlanadi (№ 10842). Allomaning keyingi yillarda nashr etilgan asarlaridan tasavvufga oid ikki asarini ko‘rsatish mumkin. Ulardan biri “Kitob haqiqat al-odamiyya” (“Insoniyat haqiqati to‘g‘risida kitob”) va ikkinchisi “Adab un-nafs” (“Nafs odobi”) nomli asaridir. Al-Hakim at-Termiziy asarlarining aksar qismi qo‘lyozma holda jahonning yirik shaharlaridagi qo‘lyozmalar xazinalarida saqlanadi. Ularni bir qadar shartli ravishda besh guruhga (majmuaga) bo‘lish mumkin. Allomaning asarlari Parij, Qohira, Damashq, Iskandariya, Stambul va London kabi shaharlardagi qo‘lyozmalar jamg‘armalarida saqlanadi.

Parij Milliy kutubxonasida (arab bo‘limi, 5018 raqamida) al-Hakim at-Termiziyning quyidagi o‘n ikkita asarining qo‘lyozmalari saqlanadi:

1. “Kitob us-salot va maqosiduhu” (“Namoz va uning maqsadlari”).
2. “Kitob ul-hajj va asrorihi” (“Haj va uning sirlari”).
3. “Kitob ul-ihtiyotot” (“Ehtiyotkorlik yo‘llari”).
4. “Kitob ul-jumal al-lozim ma’rifatiho” (“Bilish lozim bo‘lgan jumlar”).
5. «Kitob ul-furuq va man’ ut-taroduf» («Farqlar va taroduf (ketma-ketlik)ni ma’n

qilish»).

6. “Kitob Haqiqat ul-odamiyya” (“Insoniyat haqiqati to‘g‘risida kitob”).

7. “Kitob Urs ul-muvahaddiyn” (“YAkka xudoga e‘tiqod qilganlarning zavqi”).

8. “Kitob ul-a‘zo van nafs va yusammo kazolika g‘avr ul-umur” (“A‘zolar va jon yoki ishlarning mohiyati haqida kitob”).

9. “Kitob Manozil al-ibod min al-ibodati” (“Bandalarning bandachilikdagi manzillari yoxud Olloxga intiluvchilarning manzillari haqida kitob”).

10. “Kitob ul-aql val-havo” (“Aql va havoyilik haqida kitob”).

11. “Kitob ul-Amsol min al-Kitob vas sunnat” (“Qur‘on va sunnatdagi masallar kitobi”).

12. “Kitob al-manohiy” (“Raddiyalar haqida kitob”).

Damashq (Az-Zohiriya kutubxonasi, Tasavvuf 104 raqamida) majmuasi ikki kitob va beshta risoladan iborat. Ulardan biri Kitob ar-Riyazat yoinki “Kitob Haqiqat ul-Odamiyya” (“Riyazat yoki Insoniyat haqiqati to‘g‘risidagi kitob”). Uning qo‘lyozmasi, yuqorida zikr qilganimizdek, Parij majmuasida ham, shuningdek, Stambul majmuasida ham mavjud. Ammo ikkinchi qo‘lyozma “Kitob ul-Akyos val-mug‘tariyn” (“Ziyraklar va aldanganlar haqida kitob”) nomli bo‘lib ushbu asarning yagona qo‘lyozmasi hisoblanadi. Bu asar al-Hakim at-Termiziyning e‘tiqodiy qarashlarini anglashda muhim ahamiyatga egadir. Ammo ushbu majmuaga kiradigan risolalardan quyidagi uchta risolani ko‘rsatish mumkin:

1. “Javob Kitob Usmon bin Sa‘yid min ar-Ray” (“Raylik Usmon bin Sa‘iydning

maktubiga javob”).

2. “Bayon ul-Kasb” (“Kasb-hunarning bayoni”).

3. “Masoil suila anho” (“Savol berilib so‘ralgan masalalar”).

Misr Arab Respublikasining yirik shaharlaridan biri Iskandariyya (Maktabat al- Baladiyya, 3585 j) majmuasida al-Hakim at-Termiziyning uchta risolasi saqlanadi:

1. Al-Masoil al-maknuna (“YAshirilgan masalalar”).
2. Tahsiyl nazoir al-Qur’on (“Qur’on ibratlarini o‘rganish”).
3. Kitob Radd a’lol-Muattila (“Al-Muattilylarga raddiya kitobi”).

Al-Iskandariyya majmuasida mavjud ushbu risolalarga yana allomaning “Kitob ul- Furuq” (“Farqlar haqidagi kitobi”) ni (Maktabat al-Baladiyya, 3585 j) ham qo‘shish mumkin. Mazkur asarning bir nusxasi, avvalroq zikr qilganimizdek, Parij majmuasi tarkibida saqlanadi.

Al-Hakim at-Termiziyning London majmuasiga kirgan asarlari quyidagilardan iborat bo‘lib, ular asosan alloma SHestarbity tasarrufidagi asarlardir:

1. “Kitob ur-riyozati” (“Riyozat haqidagi kitob”). Ushbu asarning boshqa nusxalari

Parij, Damashq va Stambul majmualarida ham saqlanadi.

2. “Muxtarot min kitob as-Safo” (“Kitob us-Safo asaridan tanlab olingan qismlar”).

3. Bir risola (nomi ko‘rsatilmagan).

4. “Adab un-nafs” (“Insonning odobi”).

5. “Masalat ul-iymon va islom val ihson” (“Iymon, islom va ehson masalalari”). Qohiradagi “Dor ul-kutub al-ilmiyya” da saqlanadigan qo‘lyozma al-Hakim at-Termiziyning “Ilal al-Ubudiyya” yoinki “Ilal ash-shariy’a” (“SHariy’at dalillari”) nomli asarining nusxasi bo‘lib, aslida bu risola allomaning “Kitob us-Salot” (“Namoz haqidagi kitob”) asarining qisqartirilgan shaklidir.

Leypsig majmuasida saqlanadigan atigi yagona kitob al-Hakim at-Termiziyning “Ad-Dur al-maknun” (“Bekitilgan marvarid”) asari

bo‘lib, u hayotda yuz bergan va yuz berishi ehtimoli bo‘lgan voqealarga bog‘liq hadislar majmuasidan iborat. Stambul shahridagi Ayo-so‘fiyo kutubxonasida mavjud qo‘lyozma nusxa allomaning “Kitob al-Furuq” asarining qo‘lyozmasi bo‘lib, bu asarning boshqa nusxalari Parij va al-Iskandariyya shaharlaridagi majmualarda saqlanishi haqida avvalroq aytib o‘tildi.

Alloma al-Hakim at-Termiziyning bizgacha etib kelgan asarlaridan biri “Xatm ul-avliyo” (bu asar ba’zi manbalarda, xususan, al-Hujvuriyning “Kashf ul-mahjub” nomli asarida “Xatm ul-valoyat” shaklida keltirilgan) bo‘lib, unda tasavvuf tarixida birinchi marotaba “valoyat-valiylik” nazariyasiga va buning asosida «al-hakimiya» maktabiga asos solingan. Ushbu asarda keltirilgan fikr-mulohazalar Termiz ahlining ba’zi kislari o‘rtasida keskin e’tirozga ham sabab bo‘lib, natijada al-Hakim at-Termiziy ona shahri Termizdan badarg‘a qilinib, bir qancha muddat Balxda ham yashagan. Uzoq yillar davomida yo‘qolgan kitoblardan hisoblangan «Xatm ul-avliyo» 1965 yili Livanning poytaxti Bayrutda Parij ilmiy tadqiqotlar markazi islomiy madaniyat bo‘limining a’zosi Usmon Ismoil YAhyo tomonidan nashr etildi. Valiylikning haqqoniyligi, shuningdek, uning nubuvvat va risolat bilan bog‘liq bo‘lgan jihatlari “Xatm ul-avliyo” kitobining bosh mavzusi hisoblanadi. Muqaddima va 29 faslda murid va shayx o‘rtasida bo‘lib o‘tgan savol-javob tarzida ta’lif etilgan.

Bu kitob valoyat masalasini birinchi marotaba mukammal bir nazariya va ajoyib maqolalar turkumi shaklida tasavvufga taqdim etishi bilan alohida ahamiyatga molik. U, aytish mumkinki, tasavvuf tarixida «hakimiy»lar deb atalmish bir guruh mashhur so‘fiylar, xususan, Termiz va Balx atrofida shakllangan tasavvuf ahli uchun ma’naviy vasiyatnoma yoxud ta’lim dasturi sifatida xizmat qilgan. Bu asarning ovozasi o‘sha davr islom olamiga, Misru Tunisdan, Eronu Movarounnahr-gacha, Halabu SHomdan Kichik Osiyogacha etgan edi.

YUqorida zikr etilgan asarlar al-Hakim at-Termiziyning bizgacha etib kelgan asarlarining mavjud qo‘lyozmalari hisoblanadi. Lekin allomaning nomlari tarixiy, yoinki bibliografik tarzda saqlanib qolgan, lekin bizgacha etib kelmagan asarlari ham borki, ular haqida ba’zi ma’lumotlarni keltirish maqsadga muvofiqdir. Al-Hakim at-Termiziyning hozirgi davrimizgacha etib kelmagan deb hisoblangan muhim asarlaridan biri “Xatm ul-avliyo” asari haqida yuqorida zikr

qildik. Bu asar islom olamining taniqli fay-lasufi va mutasavvufi, alloma Muhyiddin ibn al- Arabiy (1165—1240) davrigacha etib kelgan bo‘lib, ushbu asar haqida to‘liq tasavvur beradi. CHunonchi, Ibn al-Arabiyning qalamiga mansub “Al-Futuhot al- Mak-kiyya” (“Makka fathlari”) nomli kitobidagi bir yuzu ellik besh savolga al-Hakim at-Termiziyning maz-kur asariga tayangan holda javoblar berilgan. SHuningdek, Ibn al-Arabiyy “SHarh ul-masoil ar-ruhoniyya allatiy suila a’nhu al- Hakim at-Termiziy” (“Al-Hakim at-Termiziydan so‘ralgan ruhiy masalalarning sharhi”) nomli maxsus asar ham yaratgan.

SHuningdek, Ibn al-Arabiyy bir yuzu ellik uch savolga javobni o‘zida mujassam qilgan boshqa bir asar ham yaratgan. Mazkur asarning nusxasi Misr Arab Respublikasining al-Iskandariyya shahridagi “Maktabat al-baladiyya” kutubxonasida (3467 j raqami ostida) saqlanadi. Bu xabarlardan ma‘lum bo‘layotirki, buyuk alloma Ibn al-Arabiyy termizlik donishmand al-Hakim at- Termiziyning asarlari va ta‘limotiga alohida e‘tibor bilan qaragan va uning o‘ziga xos boy ilmiy-ma‘naviy merosining keyingi avlodlarga etib kelishida beqiyos ishlarni amalga oshirgan. Ayni vaqtda al-Hakim at-Termiziyning bizgacha etib kelmagan boshqa ayrim asarlariga o‘sha davrda yozilgan ba‘zi sharhlarning mavjudligi haqidagi ma‘lumotlar allomaning hayoti va ilmiy-ma‘naviy merosini o‘rganuvchilar uchun g‘oyatda muhimligi shubhasizdir.

Al-Hakim at-Termiziyning bizgacha etib kelmay yo‘qolib ketgan asarlaridan biri uning “Kitob ul-o‘lum” (“Ilmlar haqidagi kitob”) bo‘lishi kerak. Al-Hakim at- Termiziyning e‘tiqodiy fikr-mulohazalari ayniqsa uning bilish (“al-ma‘rifa”) nazariyasiga oid qarashlarini anglashimizda alloma asarining ahamiyati beqiyos bo‘lishi kerak edi. CHunonchi, bu haqda al-Hakim at-Termiziy o‘zining “Kitob ul- akyos val-mug‘tariyn” nomli asarida zikr qilgan. Ayni shu “Kitob ul-akyos val- mug‘tariyn” nomli asarida al-Hakim at-Termiziy bizgacha etib kelmagan boshqa bir asari — “Kitob ud-du‘ot va sidqihum va ahvolihum” (“Islomga da‘vat qiluvchilar, ular sidqidilligi va ahvollari haqida kitob”) haqida ham ba‘zi ma‘lumotlarni keltirgan. SHuningdek, o‘zining “al-Masoil al-maknuna” nomli asarida bizgacha etib kelmagan tasniflaridan “Kitob ul-Irodad” (“Marg‘ub ishlar haqida kitob”), “Adab un-nafs” nomli mashhur asarida “Sifat al-qulub va

ahvoliho” (“Qalblar xususiyati va ular holatlari”) nomli asari haqida zikr qilib o‘tgan.

XI asrda yashab o‘tgan tasavvuf ilmining yirik namoyandalaridan biri Abul Hasan al-Hujviriyy (u 1072 yoki 1076 yilda vafot etgan)ning fikricha, al-Hakim at-Termiziyyning yana quyidagi asarlari bizgacha etib kelmagan:

1. “Odob ul-muriydiyn” (“Muridlar odobi”).
2. “Kitob ut-Tavhiyd” (“Ollohning yagonaligi haqidagi kitob”).
3. “Azob ul-qabr” (“Kabr azobi”).
4. “At-Tafsir” (“Qur’on tafsiri”).
5. “Kitob ul-Nahj” (“Yo‘l-yo‘riqlar kitobi”).
6. “Kitob ul-mashoyix av at-tabaqot as-sufiyya” (“Mashoyixlar yoiniki sufiylar tabaqalari haqidagi kitob”).

Al-Hakim at-Termiziyyning o‘zi ham “Javob kitob Usmon ibn Sa’iyd min ar-Ray” nomli asarida “Kitob ul-mashoyix” risolasi haqida “Kitob siyar al-avliyo” (“Avliyolar siyratlari haqida kitob”) nomi bilan eslatib o‘tgan. Mazkur asarlar al-Hakim at-Termiziyyning bizga ma’lum bo‘lgan ilmiy-ma’naviy merosini tashkil qiladi.

Al-Hakim at-Termiziyy asarlaridan alloma umrining oxirlarida yozilgan tasniflari jumlasiga “Kitob ul-akyos val-mug‘tariyn” va “Kitob ul-furuq” kabilarni ham kiritish mumkin. CHunonchi, ushbu asarlarda muallifning boshqa bir qancha asarlari haqida ma’lumotlar keltiriladi. Al-Hakim at-Termiziyy asarlarining mazmun-mohiyatiga binoan ularni quyidagi guruhlariga bo‘lish mumkin. Bir turkum asarlari alloma tomonidan ilm toliblariga o‘qilgan ma’ruzalar, matnlar shaklida bo‘lsa, boshqa bir turkum risolalarni alloma turli-tuman munosabatlarga bag‘ishlab, yoiniki undan savol tarzida so‘ralgan masalalarga javob, o‘ziga bildirilgan e’tirozlarga raddiya, yohud biron murakkab, chigal masalaning bayoni yoiniki do‘stu-birodarlariga yo‘llangan maktublar tashkil qilgan. SHu boisdan ham bu turkumga kirgan risolalar al-Hakim at-Termiziyyning butun umri davomidagi ilmiy-ijodiy faoliyatining o‘sishi bilan tadrijiy ravishda, bosqichma-bosqich takomillashib borgan deyish mumkin.

Uning asarlari mazmuni va xususiyatlariga qarab ularni alloma yashagan davrdagi ilm-fanning biror sohasiga mansub etish ham qiyin. Binobarin, uning asarlarini to'lig'icha na tasavvufiy asarlar jumlasiga, yoki na hadis ilmlari jumlasiga, na falsafiy asarlar jumlasiga yoki bo'lmasa kalom yoki fiqh ilmlari jumlasiga mansub etib bo'lmaydi. Mana shu o'rinda alloma al-Hakim at-Termiziy ilmiy faoliyatini baholashda o'ta bir nozik qirra ochilayotganga o'xshaydi. Gap shundaki, allomaning ilmiy-ijodiy faoliyatini o'rgangan qator tadqiqotchilar ham ta'kidlaganlaridek, al-Hakim at-Termiziy asarlar ta'lif va tasnif etishda o'z davrida mavjud bo'lgan yo'ldan yurmadi, balki u o'z diniy qarashlari va tasavvurlaridan kelib chiqib, o'ziga xos bo'lgan alohida yo'lni tanladi. Al-Hakim at-Termiziy tanlagan bu yo'l (ba'zi arab olimlari bu yo'lni hatto "mazhab" deb ham yozganlar) o'sha davrda bepoyon o'lkalargacha borib tarqalgan. Bu davrda, afsuski, dinning asl mohiyatini buzuvchi toifalar ko'paydi, shu bois islom dinining haqiqiy, asl mohiyatini to'g'ri talqin qilish jamiyat uchun g'oyatda muhim edi. Al-Hakim at-Termiziy tanlagan bu yo'lning uchta yo'nalishi bo'lib, ular qanday e'tiqodga mansub bo'lishidan qati nazar faqat jamiyat manfaatlariga, insonning ma'naviy kamolotiga xizmat qilishi bilan umumbashariy ahamiyat kasb etgan edi. Al-Hakim at-Termiziy ta'limoti quyidagi uch yo'nalishdan iborat:

1. Ibodat yoki marosim (arabcha at-tuqus) yoki shariy'at yo'nalishi.
2. Tasavvuf yo'nalishi.
3. E'tiqod yo'nalishi.

Mana shu yo'nalishlar haqida o'z fikrini biddirganda al-Hakim at-Termiziy ishlatgan iboralar va istilohlar aynan shunday atalmasada, lekin shularga yaqin atamalarni qo'llagan. Masalan, muallif "Kitob ul-akyos val-mug'tariyn" nomli asarida, jumladan, shunday deb yozadi: "Alloh taoloning dini uchta arkonga asoslangan bo'lib, ular al-Haqq (Haqiqat), al-Adl (Adolat) va as-Sidq (Halollik)" dir. CHunonchi, Haqiqat inson jismi a'zolari, Adolat yurak, Halollik akl-idrok bilan bog'liqdir. Mana shu uchta yo'nalishni al-Hakim at-Termiziy mukammal holda tasavvur qilib va shularga tayanib o'z ta'limotini shakllantirdi va aynan shu tamoyillar asosida o'z asarlarini

yaratdi. SHu bilan bir qatorda, uning asarlarining xarakterli tomoni shunda ediki, zarurat tufayli turli toifalarga bag'ishlab yozilgan asarlarida aynan shu toifalarga xos siyg'alar to'liq ravishda o'z ifodasini topardi. U o'z asarlaridagi g'oyalarni turli ijtimoiy guruhlarga mansub musulmonlar, ular oddiy xalq vakillarimi yoinki hadis olimlariyu ulamolaridanmi, bundan qat'i nazar, o'z ta'limotlarining barcha mo'min-musulmonlar orasida keng ko'lamda tarqalishiga alohida e'tibor berardi. Binobarin, jamiyat muayyan ehtiyojlaridan kelib chiqib uning asarlari xilma-xil uslub va yo'nalishda yaratilganligini ko'ramiz. Ayni vaqtda u o'z ta'limotining (mazhabining) yangiligini ham bilardi va shu bois o'sha davr ilmiy doiralari miqyosida o'ziga xos o'rinni egallab, shu paytdagi bilish (al-ma'rifa) nazariyalari o'rtasida o'z maqomiga ega bo'lishga alohida e'tibor bilan qaradi. SHunga ko'ra o'z qalamiga mansub asarlarning aksar qismiga yozgan muqaddimasida bilish nazariyasi va turli ilmlar haqida jiddiy tarzda g'oyalarni ilgari surgan. Mana shu tarzda aksar muqaddimalarni muallif umrining oxirlarida

o'z ta'limotini himoya qilib yozgan risolalarda uchramiz.

Al-Hakim at-Termiziy ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish jarayonida alohida bir xususiyat zohir bo'ladiki, bu ham bo'lsa uning asarlaridagi ma'lumotlarning xilma-xilligi va boyligi, muallif madaniy-ma'rifiy salohiyatining keng ko'lamligidir. Al-Hakim at-Termiziyga xos bo'lgan bu ajoyib xususiyatlar unga zamondosh olimlardan birortasida ham bo'lmay, o'sha davr ilm-fani va ma'rifati taraqqiyotining barcha jihatlarini o'zida mujassam qilgan edi.

Uz davrining ulug' allomalaridan biri darajasiga etishgan al-Hakim at-Termiziy, tabiiyki, ba'zi taniqli olim va ulamolarning xato va kamchiliklariga nisbatan tanqidiy fikr-mulohazalarini bildiradi. Jumladan, u Qur'oni karim va hadisi sharifning asl mohiyatidan kelib chiqib chuqur mazmunli yangicha talqinlarni ilgari suradi. Odatda, har qanday yangicha fikr aksar hollarda dastlab tanqidga uchramay qolmagani kabi al-Hakim at-Termiziy ham bundan mustasno bo'lmaydi. Bu fikrimizga ba'zi misollar keltiraylik. YUqorida ko'rib o'tganimizdek, al-Hakim at-Termiziy hadislariga tayanib ba'zi asarlar ham yaratgandi. Albatta, o'sha davrda yashab (ayniqsa IX asrda) faoliyat ko'rsatgan ko'plab buyuk muhaddislar kabi

al-Hakim at-Termiziy payg'ambar alayhissalom hadislarini to'plab ularni muayyan bir mavzuga solib maxsus asarlar yaratmagan. Lekin muallif o'zining ba'zi asarlarida mo'min-musulmonlar uchun g'oyatda foydali bo'lgan e'tiqod, ibodat va muomalotga, shuningdek, odo-axloq va zohidlikka oid turkum hadislar keltirganki, bu qimmatli hikmatlar so'ngra qator muhaddislarning asarlaridan ham o'rin olgan. Ayni vaqtda al-Hakim at-Termiziy hadis rivoyat qiluvchi roviylarga nisbatan qo'shimcha talablar ham qo'yganligini aytish lozim. Agar buyuk muhaddis imom al-Buxoriy hazratlari roviylarga rostgo'ylik, taqvo va omonat (ishonchlik) kabi shartlarni qo'ygan bo'lsa, al-Hakim at-Termiziy roviylar albatta ma'no va ta'vilni ham mukammal bilishlari shart deb hisoblaydi.

Fiqh (islom qonunshunosligi) ilmini biluvchilarni esa al-Hakim at-Termiziy o'zidan avval o'tgan allomalardan farqli o'laroq ikki toifaga bo'ladi: biri — ahkom masalalarini chuqur egallagan qonunshunos mutaxassis; ikkinchisi esa fiqh ilmini mukammal egallab faqih bo'lmoq, uning fikricha, qalb bilan tushunib etuvchi va idrok etishlik darajasiga etgan kishigina faqih deyiladi. Aksincha, inson haqiqiy faqih darajasiga etmagan hisoblanadi, deydi.

al-Hakim at-Termiziy o'zining ham Qur'oni karim ma'nosini talqin qilish, hadislarini sharhlash va fiqhiy masalalarga amal qilishda tasavvuf yo'lidan borganligini ta'kidlaydi, tasavvuf yo'li kishi vijdoniga — qalbiga orom beradigan yagona yo'l deb izohlaydi. Mana shu tarzda ta'limotlarni yaratgan al-Hakim at-Termiziy hazratlari IX— X asrning buyuk diniy olimlaridan va islom dini ta'limotlarini ilmiy asosga tayangan holda yanada chuqurroq talqin qiluvchi, shariatning benazir arboblardan biri sifatida butun musulmon olamida shuhrat qozondi. Mavridi kelganda shuni ham aytish kerakki, o'zining asosli, murosasizlik bilan dadil fikrlarini aytgani sababli buyuk alloma tazyiq va azoblarga ham duchor bo'ldi. YUqorida qayd etilganidek, bir qancha yillar o'z ona yurtidan badarg'a ham qilingan. Al-Hakim at-Termiziyning tasavvuf ilmining allomasi bo'lib etishishida uning ustozlari Abu Turob an-Naxshabiy, Ahmad ibn Hizravayh, Yahya al-Jalla kabi buyuk shayxlar bilan qilgan ilmiy-ma'rifiy suhbatlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Uning SHom, Bag'dod va Misrning mutasavvuf olimlari bilan muloqotlari ham g'oyatda foydali bo'lib, bular tufayli u O'rta Osiyo tasavvuf ilmini har tomonlama boyitib, uni yanada yuksak pog'onalarga

ko'tardi. Al-Hakim at- Termiziy o'sha paytda SHarq mamlakatlarida mavjud bo'lgan turli tariqatlarning faoliyatidan voqif bo'lgan, albatta. U ayniqsa Nishopurdagi malomatiyya tariqatidan kuchli ta'sirlandi. SHu bois ushbu tariqat yo'li keyingi asrlarda Movarounnahrda etishib chiqqan Abduxoliq al-G'ijduvoni va Bahouddin an- Naqshbandiy kabi mashhur mutasavvuflar faoliyatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Al-Hakim at-Termiziy ta'limotidagi muhim masalalardan biri insonda bilish (al- ma'rifa) haqidagi fikrlardir. Bilish maxsus tuzumga (jihaz xos) ega bo'lib, u to'rtta asosiy qismdan iboratdir, deydi. Ulardan birinchisi idrok etish orqali bo'lib, ular insondan tashqi bo'lgan hissiyotlar — bilim, tajriba va malaka, ularni tushunib idrok etib ulardan o'z faoliyatida foydalana bilish. Bu tizimning faoliyatida ko'z, quloq, til kabi a'zolar bilan bir qatorda tashqi ma'lumotlarni qabul qilish, bunda insonning zehni, fahmu farosati, quvvai hofizasi katta rol o'ynaydi. YAna bir xil vositalar borki, bular hayajonlanish, hissiyot, shuur bilan bog'liq holatlarda (masho'ir) (jigar, taloq, buyrak, shahvat bilan) namoyon bo'ladi. Ikkinchi tizim insonda bor bilim vositasida amalga oshiriladi. Uchinchi tizim axloq masalalari bilan uyg'unlashib amalga oshadi; bu so'nggi ikkalasi mushtarak bo'lsa insonda ziyraklik, latofat, yuksak salohiyat kabi alohida fazilatlar yuzaga keladi. Allomaning o'ziga xos bu fikrlari, shuningdek, insonning bilishida uning ruhiyati, aqli va qalbi qanday rol o'ynashi haqidagi qarashlari tasavvuf ahlining ruhoniyyati va tafakkuriga katta ta'sir ko'rsatdi. Inson erishishi qodir bo'lgan bilim — tasavvufiy ma'rifat yoki hikmat ("gnosis") deb, uni inson qalbida tajalli bo'lgan ilohiy bir nur bilan tenglashtirdi. CHunonchi, shariy'atning turli masalalarini talqin qilib, uni hayotga tatbiq qilishga qodir bo'lgan bilim (ilm)dan farqli o'laroq, ma'rifat (gnosis) o'sha narsalarning yashiringan (sirli) mohiyatini, oxir-oqibatda uning ilohiy mohiyatini anglashga erishadi. Agar ilmga o'qish, o'rganish jarayonlari orqali erishilsa, ma'rifatni esa Olloh taolo o'zi suygan, tanlagan bandalarigagina marhamat qiladi. Ilmni hayotga tatbiq qilish zamoni va maydoni (hududi) bir qadar mahdudiy, chegaralangan bo'lsa, ma'rifatning esa cheki- chegarasi bo'lmaydi. Ma'rifat faqat ruhi har qanday dunyoviy, nafsoniy moyilliklardan pokiza bo'lib, butun niyatiyu, fikri-zikri bilan Ollohga tavajjuh qilgan insonlargagina nasib etadi. Mana shunday insonlar toifasiga al-Hakim at- Termiziy, eng avvalo, sufiy valiylarni mansub

etadi. Uning fikricha, ular (valiylar) mana shu jihatlari — maʼrifatlari bilan boshqa moʻmin-musulmonlardan ajralib turady. Ehtimoldan holi emaski, al-Hakim at-Termiziy birinchilardan boʻlib nazariy jihatdan avliyolar haqidagi tasavvufiy qarashlarni asoslab, amalda huquqiy jihatdan ularni Ollohning elchilari (rasul) va paygʻambarlari (anbiyo) darajasida tenglashtirgan. Allomaning paygʻambarlik va valiylik xususidagi, ayniqsa uning tasavvufda valiylikning muhim oʻrni haqidagi qarashlari keyinchalik islom olamida mashhur boʻlgan buyuk faylasuf Ibn al-Arabiy (1165—1240) tomonidan yanada rivojlantirildi. Hatto ushbu masalaga bagʻishlangan qator asarlarida Ibn al-Arabiy al-Hakim at-Termiziy risolalaridan butun-butun sahifalarni soʻzma-soʻz koʻchirib keltirgan hollari ham uchraydi.

Umuman olganda, al-Hakim at-Termiziyning bilish (maʼrifat) nazariyasiga doir fikrlari muhim ahamiyatga ega. SHu bois allomaning aynan shu masala boʻyicha qarashlariga bagʻishlangan maxsus asarlar, tadqiqotlar ham yaratilgan. Fikrimizga misol tariqasida arab olimi Abdulmuhsin al-Husayniyning “Al-Hakim at-Termiziyda bilish masalasi” (“Al-Maʼrifat iʼnd al-Hakim at-Termiziy”) asarini koʻrsatish kifoya. Baʼzi bir tadqiqotchilarning yozishicha, al-Hakim at-Termiziy buddizm, nasroniylik va manixeizm dinlari taʼlimotlari bilan ham yaxshi tanish boʻlgan. CHunonchi, uning deyarli barcha asarlarida mazkur dinlar taʼsirini kuzatish mumkin. Buyuk alloma al-Hakim at-Termiziy oʻz zamonasining diniy ilmlaridan, dunyoviy ilmlaridan ham har tomonlama chuqur bilimga ega boʻlgan. Uning mukammal ilmi va beqiyos salohiyatiga koʻpchilik allomalar yuksak baho berganlar. Jumladan, buyuk mutafakkirlar Abdurahmon Jomiy “Nafahot ul-uns” asarida, Alisher Navoiy “Nasoim ul-muhabbat” asarida uni eng ulugʻ shayxlar qatorida zikr qilganlar va mutasavvuflarning ikkinchi boʻgʻiniga kiritganlar. Xususan, Alisher Navoiy hazratlari al-Hakim at-Termiziy toʻgʻrisida quyidagi maʼlumotlarni keltirgan: “Muhammad bin Ali Hakimi Termiziy — ikkinchi tabaqadindur. Kuniyati Abu Abdullohdur. Mashoyixi kibordandur va Abu Turob Naxshabiy va Ahmad Hizravayh va Ibni Jalla bila suhbat tutubdur va koʻp hadisi bor va zohir karomati va tasonifi (yozgan asarlari) bor. Ul jumladin “Xatm ul- viloya” kitobi va “Nahaj» kitobi, “Navodir ul-usul” va bundan oʻzga ham kitoblari bor va zohir ulumida ham kutubi bor va bir tafsir

(“Qur’on tafsiri”) ham ibtido qilg’ondur. Ammo itmomig’a (oxiriga) ular vafo qilmaydur...” Xoja Bahouddin an-Naqshbandiy hazratlari ham al-Hakim at-Termiziy haqlarida: “Aziz avliyolarning peshvosi Xoja Muhammad ibn Ali al-Hakim at-Termiziyning ruhoniyyotiga tavajjuh tushganda, har safar menga ta’rif va tavsifdan xoli tasavvuf namoyon bo’ladi”, deb, uning ruhoniylar olamidagi yuksak martaba va maqomlarini alohida lutf bilan ta’rif etgan ekanlar.

Binobarin, al-Hakim at-Termiziyning o’z hayot yo’llari haqida yozib qoldirgan ma’lumotlari favqulodda ahamiyat kasb etadi. Har holda allomaning asarlarida unchalik mukammal, to’liq bo’lmas-da, uning hayoti va ilmiy-ma’naviy merosining tadrijiy kamoloti haqida etarli tasavvurga ega bo’lamiz. O’zining hayotiy bosqichlari haqida, masalan, sanalari aniq ko’rsatilgan holda ma’lumot bermagan, ilm yo’lida xorijga qilgan safarlari, o’zi yaratgan asarlar, o’zi asos solgan mazhab yoki maktab haqida ham aniq ko’rsatilmagan. Lekin boshqa ba’zi manbalardan uning Nishopurga rihlat qilganligi va unda hadisdan saboq berganligi, Nishopur olimlaridan YAhya ibn Mansur al-Qoziy undan hadislar rivoyat qilganligi, Termizdan chiqarib yuborilganligi va Balxda bir necha yil yashaganligi haqida ham xabarlar bor. Manbalarga tayanib yana aytish mumkinki, al-Hakim at-Termiziy faoliyatining keyingi ikki bosqichi ilmiy-ijodiy nuqtai nazardan g’oyatda samarali va barakali bo’lgan. CHunonchi, aynan shu davrda uning faoliyatida keng omma bilan muloqot, uning atrofida ko’p sonli shogirdlar va izdoshlarning to’planishi va eng muhimi uzoq yillar davomida shakllangan qarashlari, fikr-mulohazalari va hayotiy tajribalari asosida o’zining o’lmas asarlarini yaratdiki, bu asarlar buyuk bir ma’naviy meros sifatida islom madaniyati, ayniqsa tasavvuf ilmi taraqqiyotida salmoqli o’rin egalladi.

O’zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar al-Hakim at-Termiziy merosini urganish faqatgina bu alloma dafn etilgan maqbara tarixini urganish bilan chegaralandi, xolos. Bu borada 1936-1938 yillarda Eski Termizda prof. M.E.Masson boshchiligida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari nashr etilgan tuplamlarda (M.E.Masson, 1940; 1945) al-Hakim at-Termiziy maqbarasi, ayniqsa, alloma shogirlaridan biri Xoja Varroq mozori (Abu Bakr Umar al-Varroq Termiziy) haqidagi ma’lumotlarni kursatib utish mumkin. Ayniqsa, 1960 yilda M.E.Masson tomonidan al-Hakim at-

Termiziy maqbarasidagi tarixiy yozuvlarning “Nadpisi na shtuke iz arxitekturnogo ansamblya u mavzoleyaxakima Tarmizi” mavzusida e’lon qilinishi juda muhim buldi. M.E. Masson uzining bu maqolasida nafaqat maqbara va undagi tarixiy yozuvlarni, balki al-Hakim at-Termiziy biografiyasi va asarlariga ham sharhlar berishga muyassar buldi. SHunday qilib, Uzbekiston mustaqillikka erishgunga qadar amalda Vatanimizda al-Hakim at-Termiziy hayot yuli, asarlari va ta’limoti tarixiga bag’ishlangan alohida asar yoki risola yaratilgani yuq.

1990 yilda al-Hakim at-Termiziy vatandoshi buyuk muhaddis Abu Iso Muhammad at-Termiziyning 1200 yilligi va undan sung Uzbekiston mustaqillikka erishgandan boshlab al-Hakim at-Termiziy hayot yuli, ta’limoti va asarlariga bag’ishlab qator tadqiqotlar e’lon qilina boshlandi. Bu borada Abdug’ani Abdullaning al-Hakim at-Termiziyga bag’ishlangan maqolalari juda muhim buldi.

1991 yilda Toshkentdagi “Mehnat” nashriyoti Mahmud Hasaniy va G’oliba Juraevalar mas’ulligida “al-Hakim at-Termiziyning “Navro’znoma” va “Solnoma” asarlarini nashr etdi. SHunday qilib, vatanimizning mustaqillikka erishuvi barcha ijtimoiy-iqtisodiy jabhalarida bulganidek, al-Hakim at-Termiziy merosini urganishda tub burilishni boshlab berdi. Ayniqsa, mustaqillikning dastlabki yilidan al-Hakim at-Termiziy me’moriy majmuining ziyoratchi va sayyohlar uchun ochilishi juda muhim vokea buldi.

Al-Hakim at-Termiziy maqbarasiga tashrif buyurgan vatandoshlarimiz va xalqaro sayyohlik guruhleri sonining kupayishi, uz navbatida alloma dafn etilgan maqbara, olim hayoti, asarlari va ta’limoti haqida mukammal ma’lumotlar bitilgan risola va qullanmalarning nashr etilishini talab etdi. Bu borada 1998 yilda T.Annaevning “Al-Hakim at-Termiziy”

2000 yil al-Hakim at-Termiziy merosini urganishda muhim bosqichni boshlab bergan yil hisoblanadi. Bu avvalambor, al-Hakim at-Termiziy tavallud topib, voyaga etgan ona shahri Termizning 2500 yillik tantanalarini nishonlash munosabati bilan alloma merosini asosli va chuqur urganishga e’tibor berilishi edi. Termiz shaxrining 2500 yilligi munosabati bilan taniqli ismloshunos U.Uvatovning

2001 yil Toshkentda “Ma’naviyat” nashriyotida “Al-Hakim at-Termiziy” risolasi,

2001 yili “SHarq” nashriyotida nashr etilgan “Termiz-buyuk yullar chorrahasidagi kuhna va yangi shahar” asari(makolalar tuplami)da, “Termizning ulug‘ odamlari» maqolasi nashr yuzini kurdi. U.Uvatovning 2005 yilda Toshkent “SHarq” nashriyotida e‘lon qilgan “Ikki buyuk donishmand” risolasi al-Hakim at-Termiziy va buyuk muxaddis Imom Iso at-Termiziy merosini vatandoshlarimizga targ‘ib va tashvik qilishda muhim buldi.

2001 yilda “O‘zbekiston Milliy qomusi” nashriyotida Mirzo Kenjabekning “Termiz tazkirasi” ham nashr etildi. 2003 yilda A.SHoshiy arabchadan Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali Hakim at-Termiziyning “Manozil ul-ibod min al- iboda” asarini tarjima qilgan bulsa, I.Usmonov 2006 yilda “Al-Hakim at-Termiziy hadislar”, “Navodir al-usul” asari asosida (arab tilidan tarjima) asarini nashr etdi.Bundan tashkari Jalol Mirzoning “Termiz sayidlari” (Samarkand, 2001.), “Termiz tarixi” (T.: “SHark”, 2001.) mualliflar jamoasining “Surxondaryo tarix kuzgusida” (T.: “SHark” 2001.), “Surxondaryo tarixi” (T.:”SHark”2004.), S.Tursunovning “Termiziy buyuk siymolar” (T.:SHark, 2002.), B.Kodirov va B.Murtazoevlarning “CHagoniyon adabiyoti” (T.:YAngi asr avlodi, 2002.) nomli asarlarida xam alloma merosiga e‘tibor karatilgan.al-Hakim at-Termiziy merosini urganish va targ‘ib qilishda Termiz davlat universitetida keyingi yillarda e‘tiborga loyiq tadqiqotlar e‘lon qilindi. Bu borada surxonlik olimlardan B.Murtazoev, R.Abdullaev va Z.CHorievlarning ilmiy tadqiqotlarini alohida ta’kidlab utmoq lozim. 2004 yilda Termiz davlat universitetida “Al-Hakim at-Termiziy va uning davri” mavzusida xalqaro ilmiy anjuman tashkil etildi. Universitet tarixchi va adabiyotshunos olimlarining al-Hakim at-Termiziy merosini urganish borasida amalga oshirilgan izlanishlarining mantiqiy yakuni Z.CHoriev, T.Aннаev, B.Murtazoev, J.Aннаevlar tomonidan yaratilgan va 2008 yilda nashr etilgan “Al- Hakim at-Termiziy” asari hisoblanadi. Monografiyada al-Xakim at-Termiziy xayot yuli, kisman tavalludi va vafoti sanalari baxsi, allomaning tasavvufiy merosi, yaratgan asarlari, ularning saklanayotgan joylari, anik nomlari, amalga oshirilgan nashrlari, tarjimalari, ayrimlarining umumiy taxlili, ilm zikridagi fikrlari uz bayonini topgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun qo‘shimcha savol va topshiriqlar

1. al-Hakim at-Termiziy hayoti va ma'naviy merosi haqida nimalarni bilasiz?
2. al-Hakim at-Termiziyning hadis ilmidagi faoliyatini bilasizmi?
3. al-Hakim at-Termiziy ustoz va shigirdlari haqida nimalarni bilasiz?
4. at-Termiziyning islom ilmlarini rivojlantirishdagi xizmatlari nimadan iborat?
5. at-Termiziy ijodining O'rta asr ilohiyotchilarining yirik vakili ekanligini qanday izohlaysiz?

Mavzuni o'zlashtirish uchun quyidagi adabiyotlarni albatta o'qing

1. At – Termiziy. Sahihi Termiziy. – T., 1993.
2. Buyuk allomalar 1-2 j. – T., 1998-2000.
3. Ma'naviyat yulduzlari. -T.: Fan, 1999.
4. Islom ensiklopediyasi. -T., 2004.
5. Ibrohimov Abduqahhor Biz kim o'zbeklar. –T., 2001.

9-Mavzu: Abu Nasr Forobiy o'rta asrning buyuk qomusiy olimi

Reja:

1. Abu Nasr Forobiyning jahon madaniyatiga qo‘shgan hissasi

2. “Muallim us-soniy” Forobiy ijodida qadimgi YUnon mutafakkirlari asarlari va ularga yozilgan sharhlar

3. Forobiyning ilmiy merosi va ahamiyati

O‘rta asrlar Markaziy Osiyo xalqlari falsafiy fikrining rivojlanishda, ayniqsa, Abu Nasr Ibn Muhammad al-Forobiy (870-950) faxrli o‘rin tutadi. U Sirdaryo bo‘yidagi Forob qishlog‘ida tug‘iladi va dastlabki bilimini SHosh, Samarqand va Buxoroda oladi. So‘ngra Forobiy o‘z bilimni davom ettirish uchun Bag‘dodga boradi. Natijada, u o‘z davrining yirik olimi va buyuk faylasufi bo‘lib etishadi. Forobiy Bag‘dodda yashab ijod qiladi, umrning so‘nggi yillarini Xalab va Damashqda o‘tkazib, shu yerda vafot etadi.

Al-Forobiy 160 dan ortiq asarlar yozgan bo‘lib, bizga ularning bir qismigina etib kelgan. U yaratgan asarlarni ularning xarakteriga qarab ikki guruhga ajratish mumkin: a) qadimgi yunon tabiatshunos olimlari va faylasuflari ilmiy merosini o‘rganish, tarjima qilish va sharhlashga oid asarlar. Bulardan Aristotelning “Kategoriyalar”, “Ikkinchi analitika”, “Topika”, “Poetika”, “Ritorika”, “Sofistika” va shu kabi asarlariga yozilgan sharhlarni keltirish mumkin; b) O‘rta asr fanining tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalariga oid risolalar. Bulardan: “Ixso-al-ulum”, “Hikmat asoslari”, “Aristotel “Mantig” ining talqinlari”, “Katta musiqa kitobi”, “Assiyosat al-madaniy”, “Mantiqqa kirish”, “Vakuum haqida”, “Fozil odamlar shahri” va shular kabilardir.

Forobiy asarlarini ularning mazmuniga qarab quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Falsafaning umumiy masalalariga oid asarlar (Masalan: “Substansiya haqida so‘z”, “masalalar manbai”, “Qonunlar haqida kitob” va shular kabi);

2. Inson bilishining tabiatiga oid asarlar (Masalalar: “YOshlarning aqli haqida kitob”, “Kattalarning aqli haqida so‘z”, “Mantiq haqida katta qisqartma kitob”, “Isbot kitobi”, “Silloqizm shartlari kitobi”, “Jonning mohiyati haqida risola” va boshqalar);

3. Falsafa va tabiatshunoslik fanlarining mazmuni va mundariyasi haqida asarlar (mas.: “Ilmlarning kelib chiqishi va ta’rifi haqida kitob”, “Faslafa tushunchasining ma’nosi haqida so‘z”, “Falsafani o‘rganishdan oldin nimani bilish kerakligi haqida kitob”, “Falsafaga izohlar” va shular kabi);

4. Moddaning miqdori, hajmi va fazoviy munosabatlarini o‘rganishga oid asarlar (mas.: “Hajmi va miqdor haqida so‘z”, “Fazo geometriyasiga kirish haqidagi qisqartma kitob” va boshqalar);

5. Modda xossalari va turlari, hayvon va inson organizmining xususiyatlarini o‘rganuvchi asarlar (mas.: “Fizika usullari haqida kitob” “Hayvon a’zolari to‘g‘risida so‘z”, “Inson a’zolari haqida risola va shu kabilar”);

6. Tilshunoslik, she’riyat, notiqlik va hattotlikka oid asarlar (mas.: “SHe’r va qofiyalar haqida so‘z”, “Ritorika haqida kitob”, “Lug‘atlar haqida kitob”, “Hattotlik haqida kitob” va boshqalar);

7. Ijtimoiy-siyosiy hayot, davlatni boshqarish, axloq, huquq va tarbiyaga oid asarlar (mas.: “Baxt-saodatga erishuv yo‘llari haqida risola”, “SHaharni boshqarish”, “Urush va tinch turmush haqida kitob”, “Fazilatli hulqlar” va boshqalar).

Forobiy falsafiy qarashlarining asosini uning dunyosining tuzilishi haqidagi panteistik ta’limoti tashkil qiladi. Bu ta’limotga ko‘ra, butun mavjudot-borliq emanatsiya asosida yagona boshlang‘ichdan bosqichma-bosqich vujudga kelgan. Bu oltita bosqichdan iborat bo‘lish, ular o‘zaro sababiyat orqali bog‘langan. Bunday birinchi bosqich-birinchi sabab – bu “vujudi vojib”-o‘z-o‘zidan zaruriy mavjud bo‘lgan yagona Olloh (as-sabab al-avval); ikkinchi bosqich-bu birinchi “vujudi mumkin” bo‘lib, ular osmon jismlari, ikkinchi sababdir (as-sabab as-soniy); uchinchi bosqich-bu ikkinchi “vujudi mumkin”, ya’ni faol aqldir (al-aql al faol); to‘rtinchi bosqich - to‘rtinchi sabab-bu tirik mavjudotlarga xos jonxir (an-nafas), ya’ni uchinchi “vujudi mumkin” dir; beshinchi bosqich-beshinchi sabab-bu narsa va hodisalarning ko‘rinishi, ya’ni shakli (as-surat)dir, ya’ni turtinchi “vujudgi mumkin»dir; nihoyat, oltinchi bosqich-oltinchi sabab-bu narsa va hodisalarning jismi, tanasi, ya’ni moddadir, bu beshinchi “vujuddi mumkin” dir. Bu bosqichlar bir-birlari bilan sababiy bog‘langandir.

Borliqning Forobiy tomonidan bunday talqin qilinishi o'sha davrda tabiiy- ilmiy g'oyalarning yanada rivojlanishiga keng yo'l ochadi. Uning talqinidagi to'rtinchi, beshinchi va oltinchi bosqichlar osmon va er sathidagi jismlar moddiylik xossasiga ega bo'lib ular ham 6 turga bo'linadi: to'rt element osmon jismlari, minerallar, o'simliklar, aqlsiz hayvonlar va aqlli hayvonlar. Forobiyning borliq haqidagi bu ta'limotida shakl va mazmunning munosabati haqida u shaklni narsalarning qiyofasi, tuzilishi va shu kabi miqdoriy aniqlovchilarning yaxlit ko'rinishi, deb; moddani esa narsalarni tashkil qiluvchi mohiyat, asos, deb tasavvur qiladi.

Forobiy xudo bilan borliqni bir butunlik sifatida olib, ulardan sabab-oqibat shaklida boshqa barcha narsalarni keltirib chiqaradi. Uningcha, xudo yakka-yagona bo'lib, u na massaga, na nasabga, na ta'rifga ega bo'lmagan zaruriy, o'z-o'zicha mavjud «vujudi zarurdir», boshqa barcha bosqichlarning, xususan, moddaning ham sababidir. “U shu ma'noda barcha narsalar mavjudligining sababini;-deb yozadi Forobiy,-u ularga abadiy mavjudlik kasb etadi va ularni no mavjudlik xolos etadi”.

Forobiyning fikricha, oltinchi bosqich modda ko'plab belgi va xususiyatlarga ega, ya'ni u sifat va miqdorga, substansiya va aksidensiyaga, imkoniyat va voqelikka, zaruriyat va tasodifga, harakat, makon va zimonga ega. Uning ta'kidlashicha: “hamma narsalar uchun umumiy jism-olamdir, olamdan tashqarida hech narsa yo'q”. Jism bo'lishlik hislati mavjud hamma narsalarning xususiyatidir.

Forobiy inson, uning bilishi, ilm-fan va aql haqida ham o'zining falsafiy qarashlarini ilgari suradi. Garchi u insonni «aqlli hayvon»desa ham aqlli inson haqida shunday yozadi: “Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishga zo'r iste'dodga ega, (ular) yomon ishlardan o'zini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil, deydi. Yomon ishlarni o'ylab topish uchun zehn-idrokka ega bo'lganlarni aqlli, deb bo'lmaydi, ularni ayyor, (muttaham), aldoqchi, degan nomlar bilan atamoq lozim”.

Forobiy, borliqni insoning bila olishini qayd qilib, insonning bilishini, uning ruhiy qobiliyatlarini inson miyasi boshqaradi, barcha ruhiy “quvvatlar”, jumladan bilish qobiliyati ham unga bog'liq, deydi. U o'zining “Ilm va san'atning fazilatleri” risolasida insonning tabiatni

bilishi cheksizligini, bilim bilmaslikdan bilishga, sababiyatni bilishdan oqibatni bilishga, aksidensiya (al-oraz)lardan, ya'ni sifatlardan substansiyani-mohiyat (javhar)ni bilishga qarab borishini, ilmning borgan sari ortib, chuqurlashib borishni aytadi.

Forobiy inson bilishi jarayonini ikki bosqichga bo'lib, bu bosqichlarning o'zaro bog'liqligini, aqliy bilim hissiy bilishsiz yuzaga kelmasligini alohida ta'kidlaydi. U inson bilish jarayonining bu bosqichlarini insondagi "tashqi quvvat" va "ichki quvvat" lar bilan izohlaydi. "Tashqi quvvatlar" bevosita tashqi ta'sirlar orqali sezgi a'zolarida vujudga keladigan sezgilardir. Ular 5 turli: teri-badan sezgisi, ta'm bilish sezgisi, hid bilish sezgisi, eshitish sezgisi, ko'rish sezgisi. Bularning hammasini Forobiy hissiy bilish ("quvvat hissiya"), deb qaraydi. "Ichki quvvatga" ga esa u esda olib qolish (xotira), hayol (tasavvur), his-tuyg'u nutq (fikrlash) "quvvatlari" ni kiritadi. "Ichki quvvat" deganda u insonning aqliy bilish bosqichini tushunadi. Uningcha, ilmni egallash shu "quvvatlar" orqali amalga oshadi.

Forobiy "Aql ma'nolari haqida" risolasida aql muammosini chuqur tahlil qilib, bu haqida aql, bir tomondan, ruhiy jarayon, ikkinchi tomondan, tashqi ta'sir, ya'ni ta'lim-tarbiyaning natijasi, deydi. Uning fikricha, aql faqat insonning xos bo'lgan ruhiy kuch bilan bog'liq qobiliyat, insonni hayvondan ajratuvchi asosiy omildir.

Forobiy o'z bilish nazariyasida Platonning g'oyalar dunyosi, g'oyalarning tug'ma bo'lishi haqidagi ta'limotga qarama-qarshi, g'oyalarning, tushunchalarning borliqdan, reallikdan olinganini, masalan, matematik tushunchalar: nuqta, chiziq, doira va sath kabi geometrik tushunchalar real mavjud narsalarning inson miyasidagi fikri in'ikoslari ekanligini aytadi.

Forobiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari ham muhim ahamiyatga ega. U o'rta asrlarda birinchi bo'lib, jamiyatning kelib chiqishi, uning maqsad va vazifalari haqida izchil talimot yaratdi. Forobiyning bu ta'limoti uning "Fozil shahar aholisining maslagi", "Davlat saodatga erishuv yo'llari haqida risola" asarlarida o'zining yorqin ifodasini topgan. U "Fozil shahar aholisining maslagi" risolasida shunday yozadi: "Har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muxtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun

zarur bo'lgan narsalarni etkazib beradi. SHuning uchun insonlar ko'paydilar va urning aholi yashaydigan qismiga o'rnashdilar, natijada, inson jamoasi vujudga keldi”.

Forobiy shaharni ijtimoiy uyushishning etuk shakli, insoniyat kamolotga erishuvining muhim vositasi hisoblaydi. U insonlarni o'zaro hamkorlikka, xalqlarni o'zaro do'stlikka, tinchlikka chaqirib, dunyoda yagona insonlar jamiyatni tuzishni orzu qiladi. Forobiy inson qadr-qimmatini kamsituvchi jamiyatni qoralab, inson qadr-qimmatini ulug'lovchi jamiyatni orzu qiladi. U o'zining “Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola” asarida: “Davlatnig vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir, bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo'lga kiritiladi”,-deb yozadi. Forobiy davlatni har tomonlama etuk kishi, etuk hislatlarga ega bo'lgan, xalq tomonidan saylangan kishilar boshqarishi lozimligini aytadi. Davlatni etuk kishilar boshqarsagina fozil jamiyat, fozil shahar, fozil mamlakat qaror topadi. Fozil jamiyat, fozil davlat shunday bo'ladiki, bu jamiyatning har bir a'zosi kasb hunar, ilm-fanni egallash bilan shug'ullanadi. Bunday davlatda odamlar chin ma'nosi bilan ozod va erkin bo'ladilar. “Ular orasida turli xil yaxshi odatlar, shavqli-zavqli ashulalar paydo bo'ladi”. Bunday jamoatni boshqaruvchi kishi yoki kishilar guruhi o'zlarida olti xil hislatga ega bo'lishi zarur. Bular: avvalo adolatli bo'lish, ikkinchidan, dono bo'lishi uchinchidan, qonunlarga qat'iy rioya qilishi va to'rtinchisi yangi qonunlar yarata olishi, beshinchisi-kelgusini oldindan ko'ra bilishi, va nihoyat, oltinchisi-boshqalarga g'amxo'r va mehribon bo'lishi kerak.

Umuman olganda, Forobiyning fozil jamoa, fozil davlat, fozil rahbar haqidagi ta'limoti uning komil inson haqidagi qarashlari bilan uzviy bog'lanib ketadi. Mutafakkirning qarashicha, fozil jamoadagina komil inson hislatlari kamol topadi. Uning bu ta'limoti insonni ma'naviy ozod etishiga, uning imkoniyatlarini, qobiliyat va iste'dodlarini ochishga, yuzaga chiqarishga, xizmat qilib, ilg'or ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga buyuk hissa bo'lib qo'shildi.

Forobiy o'z falsafiy qarashlarida insoniylikni ulug'laydi. U bu haqda shunday yozadi: “Odamlarga nisbatan ularni birlashtirib turuvchi ibtido- insoniylikdir, shu tufayli odamlar odamzod turkumiga oid bo'lganligi uchun ham o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim”.

Xullas, Forobiy falsafiy qarashlariga yakun yasab shuni qayd etish lozimki, uning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlari o'zidan

keyingi mutafakkirlar, xususan, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino qarashlarining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynadi.

Forobiy o‘z davridayoq buyuk faylasuf, SHarq mutafakkirlari orasida Aristoteldan keyingi “Ikkinchi muallim” degan nomga sazovor bo‘lgan qarashlari bizning mustaqillik sharoitimizda ham muhim ahamiyatga ega.

Mavzuni mustahkamlash bo‘yicha savol va topshiriqlar

1. Forobiy SHarq aristotetizmi asoschisi ekanligini qanday tushunasiz?
2. Forobiyning hayoti va merosi haqida nimalarni bilasiz?
3. Forobiyning qanday asarlarini bilasiz?
4. Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asari haqida nimalarni bilasiz?
5. Forobiyning komillik va kasb-hunar egallashga doir qanday fikrlarini bilasiz?

Mavzuga doir quyidagi adabiyotlarni albatta o‘qing

1. Karimov I.A. “O‘rta asrlar SHarq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli” mavzusidagi xalqaro konferensiyada so‘zlangan nutqi. “Xalq so‘zi”, 2014 yil 15-16 may.
1. Ma’naviyat yulduzlari. -T.: Fan, 1999.
2. Islom ensiklopediyasi. -T., 2004.
3. Ibrohimov Abduqahhor Biz kim o‘zbeklar. –T., 2001.
4. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T., 2000.

5.Xayrullaev M. O‘rta Osiyoda ilk uyg‘onish davri madaniyati. – T.: Fan, 1994.

10-Mavzu: Qaffol ash-SHoshiy hayoti va merosi

Reja:

1. Qaffol ash-SHoshiy hayoti va ijodi.
2. Qaffol ash-SHoshiyning qonunshunoslikka oid asarlari
3. O‘zbekistonda Qaffol ash-SHoshiy merosining o‘rganilishi

Hanafiy usul al-fiqh faniga oid "Usul ash-SHoshiy" asari islom olamida keng shuhrat yoyishiga qaramasdan uning muallifi xususida tadqiqotchilar orasida hamon turli noaniqliklar mavjud. Bunga asosiy sabab, birinchidan "ash-SHoshiy" kunyasi ostida fa‘oliyat olib borgan olimlar saksondan ortiq ekanligi va ular orasida "usul al-fiqh" faniga doir asar yozganlari bir nechta bo‘lganligi, shuningdek, tadqiq etilayotgan "Usul ash-SHoshiy" asarining qo‘lyozma va aksariyat bosma nusxalarida muallif nomi aniq ko‘rsatilmaganligidir.

Mazkur muammoni hal etishda asar muallifi borasida tadqiqotchilar tomonidan bayon etilgan fikrlarga asoslanib ularni bir necha qismga ajratish mumkin. Jumladan, YUsuf Ilyon Sarkis (1) (1856-1932), Karl Brokelman (2) (1868-1956), Xayriddin az-Zirikliy (3) (1893-1976), hamda ‘Umar Rizo Kahhola(4)lar "Usul ash-SHoshiy" asarini Abu Ya‘qub Ishoq ibn Ibrohim ash-SHoshiy (vaf. 325/937 y.) tarafidan yozilgan deb qayd etadilar.

Uning to'liq ismi Ishaq ibn Ibrohim Abu Ya'qub al-Xurosoniy ash-SHoshiy bo'lib, Ibn YUnus uni Misrga kelib qolgan g'ariblar-musofirlar orasida zikr qilib o'tgan va u haqida shunday yozgan. "U Abu Hanifa mazhabida faqihlik qilar va o'zi ham faqih bo'lgan edi. U Misr qozilari bilan birga yurar va Misrda bir muddat qozilik ham qilgan edi. U tomonidan ko'plab hadis va hikoyalar yozib qoldirilgan. U Muhammad ibn al-Hasan ash-SHayboniyning «al-Jomi' al-kabir» "عماجلا رييكللا" asarini Zayd ibn Usomadan, u Abu Sulaymon al-Juzjoniydandan, u imom Muhammad ibn al-Hasandan rivoyat qilar edi va Siqat "ةقت" -ishonchli hadis rivoyat qiluvchi bo'lgan. U Misrda 325/937-sanada vafot etgan".

SHuningdek, tadqiqotchi Xalil al-Mayyis "Usul ash-SHoshiy" asariga bitgan sharhida muallif qilib Abu 'Ali Ahmad ibn Muhammad ibn Ishaq ash-SHoshiyni (vaf. 344/955 yil Bag'dod) ko'rsatgan. (6) Abu 'Ali ash-SHoshiy tarjimai holini imom az-Zahabiy "Ta'rix al-islom" "خيرأت ملاسلا" asarida shunday yozadi: "Ahmad ibn Muhammad ibn Ishaq Abu 'Ali ash-SHoshiy Bag'doddagi hanafiy mazhabining ustozu Abu al-Hasan al-Karxiydandan keyingi shayxi va raisi bo'lib, qadri baland va mazhabni yaxshi biluvchi edi". SHuningdek, 'Abdulqodir al-Qurashiy ham "al-Javohir al-Muziy'a" "رهاوجلا ةئيضملا" da (1:98,99) ushbularni yozib, uning 344/955-yilda vafot etganini qo'shimcha qilgan. O'z davrining allomasi hisoblangan 'Abdulhay al-Laknaviy ham "al-Favoid al-bahiyya" "ةيهيلا دنأوفلا" asarida (43,44) yuqoridagi ma'lumotlarni keltirib o'tgan.

Tadqiqotchi Xalil al-Mayyisning ushbu ma'lumotlarga asoslanib shu kungacha

Bayrutda nashr etilayotgan "Usul ash-SHoshiy" asarining ko'plab nusxalarida Abu

'Ali ash-SHoshiyni muallif sifatida qayd etib kelinmoqda. Bulardan tashqari asarning Tokio qo'lyozma fondlarida saqlanayotgan nodir manba'lar fihrisida Abu Bakr Muhammad ibn 'Ali ibn Ismoil al-Qaffol al-Kabir ash-SHoshiy (904-976) tomonidan yozilganligi qayd etiladi. Abu Bakr Muhammad ibn 'Ali ibn Ismoil al-Qaffol al-Kabir ash-SHoshiy SHofe'iy mazhabiga mansub yirik alloma va faqih. U tafsir, hadis, kalom, fiqh, usul al-fiqh, she'riyat va tilshunoslik

ilmlarida etuk olim bo‘lgan. Abu Bakr al-Qaffol ash-SHoshiy tarjimai holi deyarli barcha arab manba‘larida aks etgan. Jumladan, Ibn Xallikon (608/1211-681/1282) ning “Vafiyat al-A‘yan” نايحاً تايفو (Mashhur kishilar vafotlari), Tojiddin as-Subkiy (1327-1370) ning “Tabaqot ash-SHofe‘iyya al-kubro” ةيعفاشلا (SHofe‘iylarning yirik darajalari), Abu Zakariyo an-Navaviy (1233-1277) ning “Tahzib al-asmo va l-lug‘ot” تاغلا و

عاملاً

"بيذھت" (Ism va soʻzlarni tartibga solish), Abu Saʼd as-Samʼoniy
(506/1113-563/1167) ning "Kitob
al-ansob"
"باسنلاً"

"باتك" (Nasablar haqidagi kitob), YOqut al-Hamaviy (575/1179-626/1228) ning "نادبلا" "Mu'jam al-buldon"

"مجمع" (Mamlakatlar qomusi), Umar Rizo
Kahholaning "Mu‘jam al-muallifiyn" نيفلؤملا

"مجمع" (mualliflar qomusi) va yana boshqa shu kabi asarlarda keltirib o'tilgan.(9) Hindistonda joylashgan Xudobaxsh kutubxonasiidagi fihrisda esa, yana bir SHoshlik faqih Abu Bakr 'Abdulloh ibn Ahmad ibn 'Abdulloh al-Marvaziy al- Qaffol as-Sag'ir ash-SHoshiy (vaf.417/1026 y.) ga ham asar muallifi sifatida ishora etilganligini uchratish mumkin. U Abu Bakr 'Abdulloh ibn Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy al-Qaffol as-Sag'ir. (vaf. 417/1026 y.) bo'lib, u ham SHofe'iy mazhabiga mansub olimlardan bo'lgan Uning tarjimai holini asosan SHofe'iy ulamolalar ta'rixlari bitilgan asarlarda uchratish mumkin. Jumladan, as-Subkiyning "Tabaqot ash-SHofe'iyya al-kubro" "يربکلا"

تيعفاشلا

تاقبٹ" (SHofe'iy larning yirik darajalari) asarida shunday yoziladi: "U 'Abdulloh ibn Ahmad ibn 'Abdulloh al- Marvaziy ulug' imom Abu Bakr al-Qaffol as-Sag'irdir. U Xuroson tariqatining shayxi bo'lgan. Uni qaffol (qulfsoz) deyilishiga sabab, u dastlabki holda qulfsozlik kasbi bilan shug'ullanib, ushbu kasbning mohir ustasiga aylangan va hatto kaliti bilan atiga to'rt bug'doy donasining vaznicha keladigan qulf ham yasagan. U o'ttiz yoshga etgach, o'zidagi nozik qobiliyatni sezib, ilm olishga kirishdi va shayx Abu Zayd va boshqalardan ilm oldi. Natijada, unga ergashiladigan darajadagi faqih bo'lib etishdi. U SHofe'iy mazhabiga mansub alloma bo'lib, juda ko'plab asarlar yozib qoldirgan. Ammo, ilmiy izlanish olib borish jarayonida mazkur asarning yuqorida nom va tarjimai hollari zikr etilgan SHoshlik olimlardan birortasining ham qalamiga mansub emasligi aniqlandi va ushbu ma'lumotlarga zid bo'lgan bir nechta ilmiy faktlar ma'lum bo'ldi.

Abu Bakr al-Qaffol al-Kabir (904-976) hamda Abu Bakr al- Qaffol as-Sag'ir (vaf.417/1026y.) larning har ikkisi ham SHofe'iy mazhabiga mansub bo'lganlar. (16) "Usul ash-SHoshiy" asari esa, hanafiy mazhabiga asoslangan holda yozilgan bo'lib, SHofe'iy mazhabi qarashlarini tanqid ostiga olgan. Bu esa, asar Abu Bakr al-Qaffol ash-SHoshiylarning har ikkalasining ham qalamiga mansub emasligini yana bir bor isbotlaydi.

Unda asar muallifi kim bo'lgan? degan haqli savol paydo bo'ladi. Ba'zi manba' va tadqiqotlarda "Usul ash-SHoshiy" asariga muallif sifatida Nizom ad-din ash- SHoshiy (VII/XIII asr) nomi zikr etiladi. Jumladan, XVII-asr ta'rixchisi Hoji Xalifa kunyasi bilan tanilgan Mustafo ibn Abdulloh al-Qustantiniy ar-Rumiy o'zining "Kashf az-zunun an asami al- kutub va l- funun"

يماساً نع"

نونظلا

فشك

نونفلا و

"بتكلا" (kitob va fanlar ismlaridan gumonlarni ketqazish) nomli asarida "Usul ash- SHoshiy" asarining muallif tomonidan qo'yilgan asl nomi "Kitob al-Xamsin" "نيسمخلا باتك" (ellik yoshli kishining kitobi) bo'lganligi hamda ushbu asar Nizom ad-din ash-SHoshiy tomonidan ta'lif etilganligi haqida yozib shunday deydi: "Kitob al-xamsin" hanafiy usul al fiqhi bo'yicha yozilgan bo'lib, u Nizom ad-din ash-SHoshiy tomonidan yozilgan. Aytilishicha, musannifning yoshi uni yozgan paytida ellik yoshda bo'lgan ekan. SHuning uchun unga shunday nom qo'yibdi".

O'ZFA sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida saqlanayotgan "Usul ash- SHoshiy" asarining qo'lyozma nusxalariga yozilgan fihristlardan birida yozilishiga ko'ra, Nizom ad-din ash-SHoshiyning to'liq ismi Nizom ad-din ibn Muhammad 'Aziz ash-SHoshiy bo'lgan. (18) Nizom ad-din Movarounnahrning SHosh mintaqasida dunyoga keldi. Uning tarjimai holi, ota-onasi haqida manba'larda ma'lumotlar uchramaydi. SHuningdek, manba'larda uning tavallud topgan sanasi ham qayd etilmagan. Tadqiqotlarda uning yashagan asri bayon etilgan xolos. Jumladan, hindistonlik tadqiqotchi Muhammad al-Jaylamiy uning VII/XIII asrda yashab o'tganligini ta'kidlaydi. (19) Suriyalik tadqiqotchi Valiy ad-din al-Farfur esa, muallifning vafot etgan sanasini 600/1203 yildan so'ng deb yozadi. YUqoridagi fikrlardan uning qaysi yillarda yashaganligi haqida faqatgina taxminiy xulosalar berish mumkin xolos. Demak, u yashagan davr xalifalik va podshohlklarning inqirozga yuz tutish davriga to'g'ri kelgan. Hoji Xalifa keltirgan ma'lumotlarni o'z davrining yirik allomasi bo'lgan Abdulhay Laknaviy (vaf. 1886 y) ham o'zining "al-Favaid al-bahiyya fi tarojim al-hanafiyya" "مجارت يف قيهيلا دئاوفا قيفنحلا" (hanafiy olimlariga doir qimmatli foydalar) asarida tasdiqlab o'tgan. (21) Tadqiqotchi Muhammad al-Jaylamiy (vaf. 1904 y) "Hadoiq al-hanafiyya" "قنادح قيفنحلا" (hanafiylarning bog'lari) nomli kitobida asarni Nizom ad-din ash-SHoshiyga mansub ekanligini zikr etish bilan birga uning VII/XIII- asrda yashaganligini ham zikr etadi .

SHuningdek, O'zFASHI qo'lyozmlar fondida saqlanayotgan asarning qo'lyozma hamda bosma nusxalariga yozilgan barcha fihristlarda ham Nizom ad-din ash-SHoshiyni muallif deb yozilgan. №6638 raqamli

fihristda esa, asar muallifining ismi “Nizom ad-din ibn Muhammad ‘Aziz ash-SHoshiy” deb qayd etilgan.

"Usul ash-SHoshiy" kitobi muallifi Nizom ad-din ash-SHoshiy ekanligini Xudobaxsh kutubxonasiidagi fihristda “Bu shubhasiz haqiqatdir” deya zikr etiladi. (23) SHuningdek, arab tadqiqotchilaridan Valiy ad-din al-Farfur o‘zining "Usul ash-SHoshiy" asariga yozgan "ash-SHofiy ‘ala usul ash-SHoshiy" nomli asarida, turk tadqiqotchilaridan Fuat Sezgin (24) hamda Murteza Bedir (25) va O‘zbekistonlik tadqiqotchilardan A.Mo‘minovlar ham yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaganlar.(26) SHuningdek, XX asrning 70-yillarida O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy idorasi (hozirgi O‘zbekiston musulmonlari idorasi) da faoliyat olib borgan marhum tadqiqotchi Nodirxon ‘Alouddinxon o‘g‘li shunday yozadi: "Ba’zi mualliflar "Usul ash-SHoshiy" kitobini Qaffolning asari deb hisoblaydilar, ammo bu asar diniy arbob, Qaffol SHoshiy maqbarasiga dafn etilgan Nizom ad-din ash-SHoshiyga mansubdir. Asarda muallifning nomi yo‘qligi hozirgi zamon olimlarini noto‘g‘ri fikrga olib kelgan bo‘lsa kerak.

SHuningdek, tadqiqotchi A. Muminov ham o‘zining "Rol i mesto xanafitskix ‘ulama’ v jizni gorodov Sentralnogo Mavarannaxra (II-VII/VIII-XIII vv.)" nomli tadqiqotida shunday fikrlarni keltiradi: "SHoshdan etishib chiqqan Abu ‘Ali Ahmad b. Muhammad b. Ishoq ash-SHoshiy (vaf. 344/955-56 y.) – Abu-l-Hasan al-Karxiy (vaf. 340/951 y.) ning shogirdi Bag‘dodda "Kitob al-Usul" ni yozdi (GAL SB, T. I, C. 294). Ushbu kitob bir necha bor nashr etilgan. Ba’zi nashrlarda mazkur asar muallifligi SHoshning boshqa bir vakili – Abu Ya‘qub Ishoq b. Ibrohim ash-SHoshiy al-Xurosoniy (vaf. 325/937 y. Misr.) yoki Nizom ad-din ash-SHoshiy (VII/XIII asr) ; "Muxtasar usul ash-SHoshiy" yoki "Kitob al-xamsin fi usul al-hanafiy" nomlari ostida) larga beriladi. Asar oxirgi marta Bayrutda 2000 yili nashr etilgan. Asarning ikki qo‘lyozma nusxasi mavjud. Ularan biri O‘ZFASHI qo‘lyozmalar fondida, ikkinchisi esa, O‘zbekiston musulmonlari diniy idorasining kutubxonasida saqlanmoqda". A.Muminov mazkur ma’lumotida asarning qaysi bir SHoshlik faqih qalamiga mansubligini aniq ko‘rsatmagani holda, uning qo‘lyozma nusxasini ikkitaligini ta’kidlab o‘tadi. Ammo, tadqiqot olib borish jarayonida bu nodir asarning qo‘lyozma nusxalari soni ikkidan

ortiqdigi aniqlandi. Bu haqida tadqiqotning quyi qismida batafsil to'xtalib o'tiladi. Demak, shu kunimizga qadar na yurtimiz va na xorijda "Usul ash-SHoshiy" asari yoki uning muallifiga doir kompleks tarzda tadqiqot ishlari olib borilmagan. YUqorida nomi zikr etilgan tadqiqotchilarning barchalari asar yoki uning muallifiga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni o'z tadqiqotlarining bir qismida kichik bir hajmda bayon etish bilangina kifoyalanganlar xolos. Bu esa, asar chuqur tadqiqotga muhtojligi, ayniqsa uning muallifi kim bo'lganligi ustida hali bir muncha ishlar amalga oshirilishi lozim ekanligini ko'rsatadi. Ilmiy izlanish natijalaridan olingan ma'lumotlarga asoslangan holda quyidagi xulosaga kelish mumkin: Asl nomi "Kitob al-xamsin" bo'lgan "Usul ash-SHoshiy" asari YUsof Ilyon Sarkis (29) (1856-1932), Karl Brokelman (1868-1956) (30), Xayriddin az-Zirikliy (1893-1976) (31), hamda, Umar Rizo Kahlola (32) lar ta'kidlab o'tganlaridek, Abu Ya'qub Ishoq ibn Ibrohim ash-SHoshiy (vaf. 325/937 y.) tarafidan, yoki tadqiqotchi Xalil al-Mayyis "Usul ash-SHoshiy" asariga bitgan sharhida muallif qilib ko'rsatgan Abu 'Ali Ahmad ibn Muhammad ibn Ishoq ash-SHoshiy (vaf. 344/955 yil Bag'dod) (33) tomonidan, hamda Tokio qo'lyozma fondlarida saqlanayotgan nodir manba'lar fihristida ishora etilgan Abu Bakr Muhammad ibn 'Ali ibn Ismoil al-Qaffol al-Kabir ash-SHoshiy (904-976) (34) tomonidan, shuningdek, Hindistondagi Xudobaxsh kutubxonasi fihristida nomi zikr etilgan Abu Bakr 'Abdulloh ibn Ahmad ibn 'Abdulloh al-Marvaziy al-Qaffol as-Sag'ir ash-SHoshiy (vaf. 417/1026y.) lar tomonidan ta'lif etilmagan. Mazkur asarning asl muallifi Hoji Xalifa, Abdulhay Laknaviy, Muhammad al-Jaylamiy, Muhammad Akram an-Nadviy, Valiy ad-din al-Farfur, Fuat Sezgin va Murteza Bedir kabi tadqiqotchilar ta'kidlab o'tganlaridek, Nizom ad-din ash-SHoshiy bo'lib, uning to'liq ismi Nizom ad-din ibn Muhammad 'Aziz ash-SHoshiy bo'lgan. U VII/XIII asrlarda yashagan va 600/1203 yildan keyin vafot etgan. U o'zi tug'ilib o'sgan SHoshdagi buyuk alloma hozirda mahalliy xalq tilida "Hasti Imom" nomi bilan ataluvchi hazrati imom Abu Bakr Muhammad ibn 'Ali ibn Ismoil al-Qaffol al-Kabir ash-SHoshiy (904-976) maqbarasi ichiga dafn etilgan.

Mavzuni mustahkallash uchun qo'shimcha savol va topshiriqlar

1. Qoffol SHoshiy haqida nimalarni bilasiz?

2. Qoffol SHoshiyning hayoti va merosi haqida nimalarni ayta olasiz?

3. Qoffol SHoshiy merosi va O‘zbekistonda uning ziyoratgoh qadamjolari barpo etilganligi haqida nimalarni bilasiz?

Mavzu bo‘yicha quyidagi adabiyotlarni albatta o‘qing

1.Zohidiy A. Turkistonda o‘rta asr arab – musulmon madaniyati. –T., 1990.

2.Hamidov K. Olis – yaqin yulduzlar. –T., 1990.

3.Moziydan taralgan ziyo. Imom al – Buxoriy. – T., 1998.

4.At – Termiziy. Sahihi Termiziy. – T., 1993.

5.Buyuk allomalar 1-2 j. – T., 1998-2000.

6.To‘lqin Hayit. “ Qoffol SHoshiy ”. - T., 2004.

7.SHayx Ismoil Maxdum. Toshkentdagi Usmon Mushafining tarixi. – T., 1995.

8.Muhammadrasul o‘g‘li A. “Qaffol SHoshiy ibрати”, “Hidoyat”, 2004.

9.Ibrohim Mikoil o‘g‘li Veliev. Qoffol SHoshiy. Qisqacha ma’lumotnoma. –T.: Istiqlol, 2005.

11-Mavzu: Abu Mansur al-Moturudiy – buyuk kalom imomi va fiqh allomasi

Reja:

1. Abu Mansur al-Moturdiy- Moturidiya ta'limoti asoschisi

2. Abu Mansur al-Moturudiyning "Kitob at-tavhid" asari va uning ahamiyati.

3. O'zbekistonda 2000- yilda allomaning 1130 yilligi tavallud sanasining nishonlanishi.

Imom Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Moturidiy as-Samarqandiy al-Ansoriy. "Muturidiy" nomi Samarqand shahridagi mahallaning nomi bilan bog'liq. Uning shogirdlari turli nomlar bilan atashgan. Misol uchun "Imomul Hudo", "Mutakallimlar Imomi", "Musulmonlar e'tiqodini to'g'rilovchi peshvo", "Ahli sunna val jamoa raisi". Bu sifatlar va nomlanishlar shogirdlarining qalbidan joy olganligi hamda sunnatni tarqatishda va uni himoya qilishda katta o'rin egallaganidandir. Islom olamida buzg'unchi e'tiqodlar (ekstremistik g'oyalar) tarqalishni boshlagan mahalsharqiy mintaqada Imom Moturidiy yuksalgan bo'lsa, Abul Hasan Ashariy esa Islomning o'rta mintaqasida paydo bo'ldi. Imom Moturidiyning tug'ilish sanasi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Uning nasabi Abu Ayyub Xolid ibn Zayd ibn Kulayb al-Ansoriyga borib taqalishi asarlarda kelgan. Ibn Kulayb al-Ansoriy Payg'ambar s.a.v.ga sahoba bo'lish va 7 oy xizmat qilish sharafiga erishgan. Imom Moturidiy Abbosiylar (847-861 mil. yil. / 232-247) davrida yashagan. Tarixchilar tug'ilish sanasini ustozlari bilan qiyoslab, taxminan, hijriy 238 yilda, deb hisoblaydilar. Umilodiy 944/hijriy 333 yilda vafot etgan, deb aniq ma'lumot qoldirishgan.

Imom Moturidiy Islom mamlakatining sharqiy mintaqasida yashab ulg'aygan. SHarqiy mintaqa Abbosiylar xalifaligining tasarrufida edi. O'sha payt Xalifa Ma'mun ittifoqdoshlari bilan bostirib kela boshlagan mahal edi. Sekin asta kichkina davlatlar Bag'dod tasarrufidan ajrala boshladi. Xususan, Mutavakkil xalifalik qilayotgan davrda ko'p shaharlar Abbosiylar saltanatidan ozod bo'lib, mustaqilligini e'lon qildi. Movarounnahr

shaharlari Somoniylar bayrog‘i ostida birlashib mustaqillik e‘lon qildilar. Sarofiydavlati Fors, Xuroson, Sijiston, Kirmonlarni o‘ziga qo‘shdi. Jurjon va Tabariston esa Zaydiylar davlatiga qo‘shildi. Somoniylar davlati Abbosiylar xalifaligidan milodiy 875/hijriy 261 sanada ajraldi. Somoniylar to‘liq mustaqillikka erishgach, o‘z davlatini Abbosiylar davlatidek ulug‘ davlatga aylantirmoqchi bo‘ldilar. Maqsadlariga erishdilar ham. Ularning davlati milodiy 999/389 hijriy sanagacha davom etdi. Keyin bir tomondan Subuktagin oilasi va bir tomondan Xoqon turklari qo‘lidan davlat yakun topdi.

Somoniylar davlati hukmronligida fikriy, ilmiy va adabiy maydonlar uchun keng yo‘llar ochildi. Ular orasida musobaqalar tinmadi. Somoniylar podsholari turli ilmlar qatorida islom ilmlarining rivojlanishiga va kengayishiga yo‘llar ochib berdi. O‘z davrining etuk tarixchisi Maqdisiy Somoniy podsholari va Movarounnahr hamda Xuroson shaharlarining sifatlari to‘g‘risida shunday baho beradi: “Bu mintaqa hurmatga sazovor joy. Ko‘pchilik odamlari ulug‘ donishmand yoki olim. Bu joy yaxshilik xazinasini, ilm qaror topgan, Islom odamlarning qalbi tubiga kirgan, hukmlarga to‘liq amal qiladigan va qo‘rg‘oni baquvvat makon. Hukmdorlari oliy janob, askarlari oliy himmat va faqihlarini esa podsholar darajasida hurmat qilishadi”. SHunga o‘xshash maqtovlarni tarixchi Ibn Xalikon asarida shunday yozadi: “Somoniy podsholari Movarounnahr va Xuroson erlariga egalik qilar edi. Ular siyrati go‘zal kishilar edi. Podsholarga nisbatan “Sultonlar sultoni” deb murojat qilinar edi. Ular adolat, din va ilmni mahkam ushlagan buyuk shaxslardir”.

Qisqa va aniq ma‘lumotdan bilinadiki, ta‘lim olish Somoniylar hukmronbo‘lgan shaharlarda omma uchun oson va keng qilingan. Bilim o‘rganib, turli sohada mutaxassis bo‘lgan olimlarning soni ko‘p edi. Tafsir, fiqh, hadis, kalom, falsafa, tasavvuf, lug‘at, odob, tibbiyot, falakiyot va boshqa tabiiy fanlar yuqori cho‘qqiga etgan edi. Afsuski, shunday ulug‘ olimlar orasida tor fikrlaydigan, zindiq kishilar ham yo‘q emas edi. O‘sha davrda ikki doira orasida kurash borayotgan edi. Mo‘‘tazila firqasi kamayib borayotgan, ahli sunna val jamoa kuchayib borayotgan davr edi. Natijada ko‘pchilik mamlakat fuqarolari aqida va fiqhda Imom A‘zam mazhabini tanladi va uni qattiq himoya qildi. Abu Mansur Moturidiy yashagan jamiyat siyosiy sokinlikda, o‘zaro davlat ustiga kurashdan xoli, lekin mazhablar va turli firqalar orasida bid‘at va xurofotlar qaynashni boshlagan bir davr edi. Mo‘‘tazila firqasi

e'tiqodiy masalalarda yakka aqlga suyanishgach muhaddis va faqih olimlarni qiyin ahvolga solib qo'yishdi. Kim naql qilingan manbaga suyanib muhaddis yoki faqihga yondoshsa, omma musulmonlar (mo'taziliy) g'azabiga duchor bo'lar edi. SHu mahal Imom Moturidiy chiqdi va islom olamining sharqiy qismini naql va aql jihatdan birlashtirdi. So'ng tarix sahnasiga Imom Abu Hasan al-Ash'ariy Basrada mo'taziliy bo'lib chiqdi. Uning ustozlari Abu Ali al-Jiboiy Mo'taziliy edi. Imom Ash'ariy mo'taziliy firqasida 40 yil e'tiqod qildi. Qirq yildan so'ng mo'taziliy firqasi xato degan tushunchaga keldi va ahli sunna val jamoa mazhabini qattiq tutdi. Ikkala imom – Abu Mansur Moturidiy va Abul Hasan Ash'ariy ahli sunna val jamoaning aniq va ravshan namoyondalaridir. Ular orasidagi farqlar juda ham kam. Ash'ariy olimlar naqlga suyanib, aql bilan qo'llab quvvatlaydilar. Moturidiylar esa aqidaga bog'liq bo'lgan masalalarda shar'iy yo'ldan borib aqlga suyanadilar. Bu holat esa o'ziga xoslik bilan ajraladi. Imom Moturidiy yangi narsa yaratmadi. Balki katta ustoz sanalmish Abu Hanifaga suyandi. Tarixchi yozuvchilarning kitoblarida Imom Moturidiyning ilmiy darajasi, pog'onama-pog'ona yuksalishi to'g'risida ochiq va aniq ma'lumot topa olish mushkul. Bir-birini to'ldiradigan bo'lak ma'lumotlar va ishoralar hayotining ko'rinmas jihatlarini ochishga yordam beradi.

Imom Moturidiy o'z yurti va asrining buyuk olimlaridan ilm o'rgangan. Uning ustozlari silsila bo'yicha Imom Abu Hanifaga bog'lanadi. Silsila ustozlari to'rt nafardan oshmaydi:

1. Abu Nasr Ahmad ibn Abbos ibn Husayn al-Iyoziy,

2. Abu Bakr Ahmad ibn Ishoq ibn Solih al-Juzjoniyy ("al-farq va tamyiz" sohibi),

3. Nusayr ibn YAhyo al-Balxiy,

4. Qozilar qozisi Muhammad ibn Muqotil ar-Roziy.

Abu Nasr al-Iyoziy Imom Moturidiyga dars bergan ustozlari edi. YOshlik chog'larida har ikkalasi Abu Bakr Ahmad al-Juzjoniyyga shogird bo'lgan. U esa Abu Sulaymon Muso ibn Sulaymon al-Juzjoniyy qo'lida tahsil olgan. Ibn Sulaymon esa Qozi Abu Yusuf va Muhammad ibn Hasan ash-SHayboniy qo'lida ta'lim olgan. Abu

YUsuf va Imom Muhammadlar Abu Hanifaning eng katta va mashhur shogirdlari hisoblanadi. Imom Nusayr ibn YAhyo al-Balxiy ham Imom Abu Sulaymon Muso ibn Sulaymon al-Juzjoniy qo'lida ilm olgan. Balxiy va Imom Muhammad ibn Muqotil ar-Roziy ham ikki imom qo'lida, ya'ni Abu Muti' Hakam ibn Abdullo al-Balxiy va Abu Muqotil Avf ibn Muslim as-Samarqandiy qo'lida tahsil olgan. So'ng Imom Muhammad ibn Muqotil ar-Roziy esa Imom Muhammad ibn Hasan ash-SHayboniydan fiqh ilmini o'rganadi. Imom Moturidiyning ustozlari bahs etgan maydonlar usul va furu', tavhid, tamyiz, tahdislar bo'lgan. Imom Moturidiyning maydoni esa Qur'on tafsiri, usulul fiqh, usulul aqiyda, shuningdek,

bid'atchilarning ixtilofiga ko'ra munozara qilish bo'lgan.

Manbalardan ma'lum bo'ladiki, Imom Moturidiy naqliy ilmlarni chuqur o'rganganidek aqliy ilmlarni ham puxta egallagan. SHuning uchun har ikkalasining usuli bo'yicha daqiq ta'lifotlar qoldirgan. Bu esa uni tafsir, fiqh va kalom ilmlarida peshqadam imom qilgan. Imom Moturidiy ustozlaridan kelgan manbalarni qabul qildi va shogirdlariga rivoyat qildi. Rivoyatlarni to'laligicha tushunib uni rivojlantirdi. SHunday qilib uning qo'lida Ahli sunna val jamoaning e'tiqodini bayon qiladigan boshqa bir manba shakli paydo bo'ldi. Dalil va hujjatsiz e'tiqodi to'g'ri bo'lmagan kishiga shu manbadan foydalanib javob berdi. SHunga qaramasdan, bu me'ros Imom Moturidiy qo'lida aqidadan ilmga aylandi. Manba usullari qat'iy dalillar bilan tahqiq etildi. Uning furu'lari esa kuchli hujjatlar bilan naqshlandi. Abu Hanifa maktabi va Movarounnahr shaharlarida bosh manba bo'lishi uchun aniq hujjatlar bilan mukammal holga keltirildi. Imom Moturidiy tuzgan manba ko'p olimlarning diqqatini o'ziga tortdi. Uning ovozi boshqa yurtlarga ham tarqaldi. E'tiqod masalasida bahs qilish uchun Basra shahriga 22 marta safar qilgani xabarlarda keladi. Bu safarlar Imom Moturidiy mazhabining tarqalishiga va mazhab uning nomi bilan atalishiga sabab bo'ladi.

Imom Moturidiy qo'li ostida ko'plab shogirdlar peshvo olim bo'lib chiqdilar. Ularning mashhurlari:

1. Abul Qosim Ishoq ibn Muhammad ibn Ismoil (Hakim Samarqandiy nomi bilan tarixda qolgan. Vafoti milodiy 951/ hijriy 340 yil),

2.Imom Abul Hasan Ali ibn Said ar-Rustug‘afiy (Vafoti milodiy 956/ hijriy 345 yil),

3.Imom Abu Lays Nasr ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ibrohim al-Buxoriy, as- Samarqandiy (milodiy 984/ hijriy 373 yil),

4.Imom Abu Muhammad Abdulkarim ibn Muso al-Bazdaviy (vafoti milodiy 1000/

hijriy 390 yil).

Imom Moturidiy ustozlari Abu Hanifaning ilmini shogirdlariga o‘rgatganidek, Imom

Moturidiyning shogirdlari ham ustozining ilmini yosh avlodga etkazdilar. Turli ilm halqalarida Imom Moturidiyning rivojlantirgan manbasini, uslubini bahs qilishar, dars qilishar edi. Boshqa firqalarga qarshi raddiya qilishmoqchi bo‘lishsa unga suyanishar edilar. Oxir oqibat, necha asrdirki uning ilmiy merosi Movarounnahr shaharlari madrasalarida asosiy manba sifatida qo‘llanma bo‘lib kelmoqda.

Movarounnahrning turli firqalardan toza va sof holda kelishiga katta xizmat qilmoqda. Biz keltirgan ma’lumotlar Imom Abu YAsr Muhammad ibn Abdulkarim al-Bazdaviy (vafoti milodiy 1110/ hijriy 493 yil)“Usulid din fi tabsiytil mazhab” kitobida otasidan, otasi esa bobosidan, u esa Imom Moturidiydan rivoyat qilganligini keltiradi.

SHuningdek, Imom Abu Mu’in an-Nasafiy (vafoti milodiy 1114/ hijriy 508 yil)o‘z kitobining muqaddimasida Imom Moturidiyning mazhabini ahamiyatga molik, deb bilgan. Uni tarqatishda o‘z xizmatini a’lo darajada bajargan. U Imom Moturidiyning ta’viloti uchun chiroyli sharh yozgan. Nasafiyning shogirdi Imom Alouddin Abu Bakr ibn Muhammad ibn Ahmad as-Samarqandiy sharhdan foydalanib mashhur “Tabassurotil adillati” (Hujjatlarni ko‘rib chiqish) kitobini yozgan.

Abu Hafs Najmiddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy (vafoti milodiy

1184/ hijriy 580 yil) Imom Moturidiyning manbasiga suyangan ikki kitobni taqdim qildi:

1.Kifoya fil hidoya (To‘g‘ri yo‘lni topishda kifoya qilguvchi kitob),

2. Al-Bidoyatu fi usulid din.

Imom Nasafiy ushbu kitoblarda turli falsafa va mutakallimlarning fikrlarini keltirib munozara qilgan.

Imom Abu Lays Samarqandiy ustozini Imom Moturidiydan qattiq ta'sirlanib "SHarhi fiqhul Absat" nomli kitobini yozadi. Kitobni o'qigan tarixchilar Imom Moturidiyni muallif, deb o'ylashadi. Keyinchalik boshqa qo'lyozma topilgandan so'ng Abu Lays kitobning muallifi, degan xulosaga kelishgan. Sababi kitobda Imom Moturidiyning so'zlari ko'p marotaba takrorlangan. Bu esa tarixchilarni adashuviga olib kelgan.

Imom Moturidiyning ko'p asarlari bizgacha tarixchilar va tabaqot kitoblaridan etib kelgan. Maqola o'quvchi uchun uzun bo'lib, malollanib qolishligini hisoblab, ularning barchasiga to'xtab o'tirmaymiz. Qisqaroq yo'lni tanlab uning ilmiy majmuasini 3 qismga bo'lish mumkin:

1. Aqida va turli firqalar fikrlari,

2. Usulul fiqh,

3. Qur'oni karim ta'vili va unga mos masalalar. Aqida va boshqa firqalar fikrlari (Kalom ilmi).

-Kitabut tavhid (Tavhid kitobi)– Abu Mu'in an-Nasafiy va Abu YAsr al-Bazdaviylar bu nomni zikr qilishgan. "Kashfuz zunun va hadiyyatul orifin" kitobida "Kitabut tavhid va isbotis sifat" nomi bilan vorid bo'lgan. Bu kitob shubhasiz Imom Moturidiyning eng muhim ta'lifotlaridan hisoblanadi. Unda ilmi kalomning nazariyasi va e'tiqodiy masalalarning eng muhim jihatlari bayon qilingan. U Moturidiyya mazhabining asosiy manbasi hisoblanadi. Kitobda turli firqalarga raddiyalar ham berib o'tgan. Xususan, mo'taziliy firqasiga qattiq raddiyalar yozilgan. Lekin Imom Bazdaviy aytganlaridek, kitobni hazm qilish juda ham qiyin hisoblanadi. Sababi unda tushunish qiyin bo'lgan ma'nolar, iboralar, terminlar mavjud. SHuning uchun, uning qo'lyozma nusxalari ko'p tarqalmagan va unga sharh yozilmagan. Imom Moturidiyning shogirdlari o'z ta'lifotlarida ba'zi joylarining ma'nosini bildirib o'tishgan.

-Kitobul maqolot (maqolalar kitobi) – bu nom Abu Mu'in an-Nasafiyning "Tabsiratul adilla" kitobida va Hoji Xalifa esa "Kashfuz

zunun” kitobida uchraydi. Kitobning qo‘lyozma nusxasi Istambul kutubxonasida ekanligi ma‘lumoti bor xolos. Imom Moturidiyning bu ta‘lifi to‘g‘risida ma‘lumotlar yo‘q. Lekin boshqa manbalarga qiyosan, unda boshqa firqalarga raddiyalar to‘planganligini taxmin qilishimiz mumkin.

-Kitabul usul yoki usulud din – Imom Moturidiyning kitoblarini o‘rganishda nom chiqargan olim Korik Buruklamon “Kitabul usul” kitobida manbani zikr qiladi.

-Raddu a‘la Qaromita (Qaromitalarga raddiya) – Abu Mu‘in an-Nasafiy

Qaromitalarga yozilgan ikki radiya kitobi borligini zikr qiladi.

-Raddul usul al xamsa liabi Muhammad al-Bohiliy (Muhammad Bohiliyga besh usul raddiyasi) -Raddu avoilul adillati lil Ka‘biy (Ka‘biy dalillariga raddiyalar)

-Raddu tahzibul jadal lil Ka‘biy (Ka‘biyning jadaliga raddiya)

-Raddu va‘iydul fussoq lil Ka‘biy (Ka‘biyning fosiqlar to‘g‘risidagi so‘ziga

raddiya)

-Raddu Kitobul imomati liba‘zi Ravofiza (Rofiziylarga raddiya)

-Bayonu vahmi mo‘‘tazilati (Mo‘‘taziliylar xayoloti bayoni)

Usulul fiqh.

Imom Moturidiyning usulul fiqh borasida ikki kitobi mavjud. Bular

-Kitabul jadal

-Maoxizush sharo‘i

Bu ta‘lifotlar bizgacha etib kelmagan. Ularning nomi ba‘zi kitoblarda uchraganligi uchun zikr qildik.

Tafsir va Qur'on ilmi.

-Risola fiyma la yajuvzu al vaqfu alayhi fil Qur'on (Qur'onda to'xtash mumkin

bo'lmagan joylar to'g'risida risola)

-Ta'vilotul Qur'on (Qur'on ta'villari)

Imom Moturidiyga tegishli bo'lgan boshqa kitoblar:

-SHarhu fiqhul akbar

-Kitabul aqiyda av risolatun fil aqiyda

-Risolatun fil iymon

-SHarhu kitabul ibonati lil Ash'ariy

-Vasoyova munojot.

Abu Mansur al-Moturidiy sunniy e'tiqodidagi ikki yirik oqimlardan biri bo'lmish Moturidiya oqimining asoschilaridan hisoblanadi. Uning hayoti haqida ma'lumotlar juda oz. To'liq nomi Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hanafiy al-Moturidiy as-Samarqandiydir. Buyuk kalom imomi va fiqh olimi asli Samarqandning Moturid qishlog'idan (hozirgi Jonboy tumanida joylashgan) bo'lib, uning taxallusi shu qishloqqa nisbatan olingandir. Abu Mansur al-Moturidiy dastlabki ta'limni shu qishloqda olib, keyinchalik Movarounnahrning o'sha davrdagi diniy va ma'rifiy markazi bo'lgan Samarqandda davom ettiradi.

Al-Moturidiy yashagan davr Somoniylar hukmronlik qilgan davrga to'g'ri keladi. Samarqand dastlab bu davlatning poytaxti bo'lib, so'ngra IX aerning oxiridan boshlab poytaxt Buxoroga ko'chirildi. Biroq o'sha vaqtda ham Samarqand Buxoro bilan bir qatorda Movarounnahrning iqtisodiy-madaniy markazi bo'lib qolaverdi. Abu Mansur al-Moturidiy tug'ilgan yili haqida aniq ma'lumotlar yo'q. U Samarqandda 944—945 yilda vafot etgan va

shahar chekkasidagi CHokardiza degan qabristonga dafn etilgan. Ba'ni manbalarda uning Samarqanddagi al-Ayoziy madrasasida ta'lim olgani qayd etilgan. Al-Moturidiy Abu Bakr Axmad al- Juzjoniy, Abu Nasr Ahmad al-Iyodiy, Imom A'zam mazhabidagi buyuk olim Nasr ibn Yaxyo al-Balxiy, Muhammad ibn al-Fadl kabilarni o'zining ustozlari deb bilgan. Al-Moturidiy fiqh va kalom masalalari bilan qiziqib, Hanifiya mazhabi olimlaridan dars olib o'z bilimini oshiradi. SHu vaqt davomida ko'plab mashhur faqihlar va muhaddislar bilan muloqatda bo'lgan va munozaralar qilgan. Butun umri davomida shu sohaga oid asarlar yozib qoldirgandir. Mahmud ibn Sulaymon al- Kafaviyning (vafoti 1582 yil) "Katoib ul- a'lom al-axyor fi taboqot va mashaoyix mazahab an-Nu'mon" ("Nu'mon mazhabiga mansub bo'lgan taniqli alloma faqihlar va shayxlar haqidagi kitob") nomli kitobida al-Moturidiy va uning asarlari haqida ayrim ma'lumotlar beriladi. Masalan, quyidagi asarlari nomlari keltirilgan: "Kitabi Tavhid", "Kitab Maqomat", "Kitab rad avomil lil adila lil ka-biy" ("Ka'biy zalolatlarining boshlanishini rad qilishga bag'ishlangan kitob"), "Kitab bayon va hum ul-ma'tazila" ("Mu'tazila g'av-g'olari va undan qo'rqmaslik haqidagi kitob bayoni"), "Kitab Ta'vilot al-qur'on" ("Qur'on ta'vili kitobi"). Lekin Hoji Xalifaning (1609—1659) "Kashf az-zunun an-asomil kutub va-l-funun" ("Kitob va fanlar nomlari haqidagi shubhalarni bartaraf etish kitobi") kitobida e'tirof etilishicha, yana Abu Mansur al-Moturidiyning "Ma hazi ash-shari'a" ("SHariat asos-lari sarasi"), "Kitab al-jadal" ("Dialektika haqida kitob") kabi asarlari ham bo'lgan. Bulardan tashqari al-Moturidiyning "Kitab al-usul" ("Diniy-ta'limot usuli kitobi") asari ham ma'lum. Abu Mansur al-Moturidiyning ko'p asarlari bizgacha etib kelmagan, etib kelganlari ham asosan xorijiy mamlakatlar kutubxona va qo'lyozma fondlarida saqlanadi.

Al-Moturidiy islom olamida juda nozik hisoblangan "Kitab Tavhid" — asari bizning davrimizga etib kelgan va u 1970 yilda Fathulloh Xulif tomonidan Bayrutda nashr etilgan. U islom dinidagi sunniylarning to'rtta asosiy mazhabi asoschilarining asarlarini o'rganib, fiqhga va kalomga oid asar yozadi. Bu al- Moturidiyning "Ta'vilot ahl as-sunna" yoki boshqa bir nomi "Ta'vilot al-Qur'on" deb nomlanadi. Al-Moturidiy bu asarida sunniy aqidadagi (ta'vilda) zid

qarashlarni rad qilishga harakat qiladi va Abu Hanifaning qarashlariga suyangan holda ish ko‘radi. Bu asar O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi SHarqshunoslik instituti fondida saqlanadi. “Ta’vilot”ning birinchi jildi qohirada 1971 yilda Ibrohim Avadayn va as-Sayd Avadaynlar tomonidan nashr etilgan. Al-Moturidiyning bu birgina asari tarix jarayonida ko‘p allomalar asarlariga asos solgan, ular ijodiga turtki bo‘lgan. SHulardan biri Alovuddin Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad as-Samarqandiyning sharhidir. U “SHarh ta’vilot ahli as-sunna” deb nomlanib, Institut fondida bu asarni ikkita nusxasi saqlanadi.

SHu bilan birga al-Moturidiy nomi ostida yozilgan bir necha soxta asarlar ham ma’lumdir. Masalan: “Favoid” (qoidalar), boshqa nomi “Pandnoma”, “Kitob al-Usul”, “SHarh al-Fiqh al-Akbar” asarlari shular jumlasidandir. Bu al-Moturidiyning diniy ilmlar namoyandalari orasida qanchalik mashhur bo‘lganligidan dalolat beradi. Al-Moturidiy ko‘p shogirdlar etishtirdi, ular orasida islom olamiga mashhur allomalar: Abu-l-Hasan ar-Rustug‘faniy (vafoti 961), Ishoq ibn Muhammad as-Samarqandiy va Abdu-l-Karim al-Pazdaviy (vafoti 999), Abu Ahmad al-Iyodiy kabi olimlar bor edi. SHogirdlari o‘z ustozlarining ta’limotini davom ettirishganligi tufayli Hanafiya mazhabidagilar ichida Moturidiya oqimi vujudga kelgan.

Abu Mansur al-Moturidiyning zamondoshlari hamda hamfikrlaridan mashhur fihq olimi Abu-l-Qosim Hakim as-Samarqandiyning alohida ko‘rsatib o‘tish lozim. Bu olim Samarqandda tug‘ilib, butun umrini shu erda o‘tkazgan. Fiqh va kalom sohasida mashhur bo‘lgan.

Abu Mansur umri davomida faqihlar, muhaddislar bilan muloqatda bo‘lgan va munozaralar olib borgan. U islom dini Hanafiya mazhabini Movarounnahrda tarqatish va o‘zidan keyingi avlodlarga qusursiz etkazish ishiga muhim hissa qo‘shdi. Al-Moturidiy nafaqat fihq, kalom ilmiga oid, balki boshqa fanlarga oid asarlar ham yozgan deb aytish mumkin. O‘zR FAning Beruniy nomidagi SHarqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan al-Moturidiyning ovchilikka oid asari bunga dalil bo‘ladi. Bu asarning bir qo‘lyozma nusxasi “Risola jonvor doriy” (“Jonvorlarga oid risola”) deb nomlangan bo‘lib, unda ovchi qushlarni boqish haqida fikr yuritiladi. Bu asarda ovchi burgutlarning har xil zotlari, ularning tashqi ko‘rinishlari, oziqlantirish, ovga yaroqliligi bilan bir qatorda ko‘paytirish, izi va chatishtirish

usullari kabi masalalar haqida gap boradi. Al-Moturidiy o‘z davrining islomiy ilmlari sohasida eng etuk bilim sohibi hisoblanib, musulmon dunyosi olimlari tomonidan tan olingan va hozirda ham turli diniy asarlarda zo‘r ehtirom bilan tilga olinadi. Al-Moturidiyni ulug‘lab “Imom al-Xuda” va “Imom al-mutakallimin” (Hidoyat yo‘li imomi va mutakallimlar imomi) kabi nomlar bilan ham ataganlar. Movarounnahr — Markaziy Osiyo xalqlari turli falsafiy, tabiiy, aniq fanlar, adabiyot, san‘at sohalarida dunyoga mashhur siy -molar, allomalar bilan birga islom nazariyasi, diniy ilmlar bo‘yicha al-Moturidiydek butun musulmon olamida nom qozongan olim-larni ham etishtirib chiqardilar. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 dekabrda qabul qilgan qaroriga binoan 2000 yilda allomaning 1130 yillik tavallud sanasi nishonlandi.

Mavzuni mustahkamlash uchun qo‘shimcha savol va topshiriqlar

1. Abu Mansur al-Moturudiy hayoti va ma’naviy merosi haqida nimalarni bilasiz?
2. Moturidiya kalom maktabi haqida nimalarni bilasiz?
3. Moturidiyga islom olamida qanday unvon berilgan?
4. O‘zbekistonda Moturidiy merosi va shaxsiyatiga ijobiy munosabatning boisi nima?

Mavzuni chuqurroq o‘rganish uchun qo‘shimcha adabiyotlar

1. Karimov I.A. YUksak ma’naviyat engilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008. 176.b.
2. Karimov I.A. “O‘rta asrlar SHarq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli” mavzusidagi xalqaro konferensiyada so‘zlangan nutqi. “Xalq so‘zi”, 2014 yil 15-16 may.
3. SHayh Muhammad Sodiq Muhammad YUsof. Samarqandning sara ulamolari. –

T.: Xilol-Nashr, 2014.

4. SHayh Muhammad Sodiq Muhammad YUsuf. Mazhablar – birlik ramzi. –T.: Xilol-Nashr, 2014.
5. Ma’naviyat yulduzlari. -T.: Fan, 1999.
6. Ziyodov SH. “Abu Mansur al-Moturidiy va uning at-ta’vilot” asari.- Toshkent: Fan, 2009. B. 134

12-Mavzu: Abu Ali ibn Sino-qomusiy alloma

Reja:

1. Abu Ali ibn Sino SHarq Uyg‘onish davrining buyuk mutafakkiri.
2. Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari va uning ahamiyati.
- 3 “SHayx ur-rais” Ibn Sinoning izdoshlari va shogirdlari

IX-XII asrlar musulmon SHarqi, xususan Markaziy Osiyo xalqlari tabiiy- ilmiy va ijtimoiy-falsafiy fikrlarining rivojiga o‘zining buyuk hissasini qo‘shgan qomusiy olimlardan yana biri Abu Ali Husayn Ibn Abdulloh Ibn Sino (980-1037) dir.

Abu Ali Ibn Sino Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog‘ida tug‘ilib, so‘ng Buxoroda o‘qib ulg‘ayadi. Bu erda u turli ustozlardan ta‘lim olib, o‘z davri ilmlari: matematika, mantiq, astronomiya, huquqshunoslik, fizika, kimyo, falsafa kabi dunyoviy ilmlarni chuqur o‘rganadi. Ayniqsa, u tibbiyot ilmini kuchli va zo‘r qiziqish bilan egallaydi. Tabobat saboqlari uning uchun shu qadar kuchli ta‘sir qiladiki, u 16 yoshga kirganda bu soha ilmlarni nazariy o‘zlashtirish

bilan cheklanmay, balki amaliy tibbiyot bilan shug‘ullanib, tabiblik ham qila boshlaydi. Abu Ali Ibn Sino 18 yoshga to‘lganda juda ko‘p ilm sohalarini egallagan bo‘ladi. U shu davrdan boshlab o‘zi ham bu sohalariga oid asarlar yarata boshlaydi.

Abu Ali Ibn Sino o‘z davrining barcha ilg‘or ta‘limotlarini, xususan, qadimgi Hind, YUnon, Turon, nihoyat, O‘rta asr arab, Uyg‘onish davri Markaziy Osiyo ilmiy merosi bilan chuqur tanishadi, ularni o‘z dunyoqarashida umumlashtiradi. U o‘zidan oldin o‘tgan SHarq olimlari, vatandoshlari: al- Xorazmiy, al-Kindiy, ar-Roziy, Forobiy asarlari bilan birga, yunon olimlari: Galen, Gippokrat, Evklid, Arximed, Pifagor, Porfiriylar, Platon, Aristotel asarlarini ham chuqur o‘rganadi. Ayniqsa, Forobiyning asarlari uning falsafiy va ijtimoiy qarashlariga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Natijada, Abu Ali Ibn Sino tibbiyot, falsafa, qator tabiiy-ilmiy fanlar, ijtimoiy-gumanitar bilimlar, sohalarida, falsafiy mazmundagi badiiy adabiyot sohalarini bo‘yicha ham ko‘plab asarlar muallifi, mashhur qomusiy olim bo‘lib etishadi. U bizga o‘zidan 450 dan ortiq asarlar qoldiradi, shulardan 190 ga yaqini falsafa, mantiq psixologiya, ahloqshunoslik va boshqa ijtimoiy-siyosiy hamda ma‘naviyat masalalariga bag‘ishlangan. Lekin bizga ulardan faqat 100 ga yaqini etib kelgan. Ibn Sino o‘zining bu asarlari bilan O‘rta asr SHarqiy, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari falsafiy, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy va ahloqiy fikrlar tarixiga buyuk hissa qo‘shadi. Natijada, u o‘z davrida butun SHarqda «SHayx-ur-raisi» («Olimlar boshlig‘i») degan nom oladi.

Ibn Sinoning bizgacha etib kelgan asarlari orasida 5 tomndan iborat «Al- Qonun fit tib» («Tib qonunlari») asari, 18 tomndan iborat mantiq, fizika, matematika va metafizika (Falsafa)ni to‘liq o‘z ichiga olgan «Kitob ash-SHifo», «Kitob an-najot», shuningdek 20 tomlik «Kitob al-Insof» («Insof kitobi»),

«Donishnoma» asarlarini alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Ibn Sino o‘z asarlarini o‘sha davrda turli sohalarida erishilgan ilmiy yutuqlarni falsafiy umumlashtirish, ularni tartibga solish va izchil bayon etish bilan birga, o‘zi ham turli ilmlarga oid masalalarda ajoyib yutuqlarni qo‘lga kiritib, o‘z davri uchun ilg‘or g‘oyalarni olg‘a suradi.

Ibn Sinoning asarlaridagi falsafiy qarashlari o'zining tabiiy-ilmiy xarakteri, ularda tabiat falsafasi haqidagi g'oyalarning ustunligini yaqqol ko'rish mumkin.

Masalan, unda inson tanasini boshqarib turuvchi tabiat qonunlari, inson organizmi bilan tabiiy muhit, inson va tabiatning o'zaro munosabati masalalarini bayon qilishda o'z ifodasini topganining guvohi bo'lamiz. SHu jihatdan bu asar o'zining tibbiyotdagi buyuk ahamiyatidan tashqari katta falsafiy qiymatga ham ega. Bu asarning asosiy qismida inson tanasi, uning faoliyati, unda kechadigan ruhiy jarayonlar o'zlarining ilmiy talqinini to'g'ri topgan. Uning tibbiyot sohasidagi erishgan yutuqlari muhim falsafiy ahamiyatga ham egadir.

Ibn Sino o'zining «Ash-SHifo» kitobida tabiatshunoslikning geologiya, mineralogiya, astronomiya, kimyo, matematika, botanika sohalariga oid muhim fikrlar olg'a surilib, ularni rivojlantirish falsafiy bilimlarni boyitishda muhim ahamiyatga ega ekanligini aytib o'tadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin bizda Ibn Sinoning tabiatshunoslikning turli sohalariga uning qo'shgan hissasi, uning asarlaridagi tabiat falsafasi tadqiqotchilari tomonidan keng o'rganilmoqda.

Ibn Sinoning falsafiy qarashlari uning «Ash-SHifo» asarida keng rivojlangan

3 ta katta sohada: metafizika, fizika va mantiqda ko'proq o'zining yorqin ifodasini topgan. Bu sohalardan metafizika-ilohiyot, vujud va mavjudod, dunyoning boshlanishi, tuzilishi va tarkibi haqidagi muammolarni o'rganadi. Fizika sohasi - tabiatshunoslik masalalarini, jism, modda, ularning tuzilishi va tarkibini o'rganish bilan bog'liq masalalarini o'z ichiga oladi. Mantiq bo'lsa-bilish metodi, to'g'ri fikrlashni, aqliy bilish shakllarini o'rganadi.

Ibn Sino asarida umumiy falsafiy masalalarni 2ga bo'ladi. Ular: 1) nazariy va 2) amaliy masalalardan iborat bo'lib, o'z navbatida, ularning har biri qator ilm sohalarni o'z ichiga oladi. Uning vujud, mavjudot, borliq haqidagi ontologik ta'limotida u vujudni ikkiga: vujudi vojib, ya'ni zaruriy vujud hamda vujudi mumkinga ajratadi. Bunda vujudi vojib, ya'ni zaruriy vujud hamma narsalarning boshlang'ich - birinchi sababi, ya'ni tangridir. Vujudi mumkin esa shu vujudi vojibdan kelib chiquvchi boshqa barcha borliqdagi

narsalardir. Vujudi vojib yakkalikni, vujudi mumkin ko‘plikni ifodalaydi. Vujudi vojib o‘z-o‘zicha mavjud bo‘lib, u azaliy; vujudi mumkin esa vujudi vojibdan paydo bo‘ladi. Lekin bu paydo bo‘lish birdaniga bo‘lmay, balki asta-sekinlik bilan bosqichma-bosqich sabab-oqibat bog‘lanish asosida kelib chiqadi. Bu kelib chiqish ematsiya asosida amalga oshadi.

U “Kitob ash-shifo” asarida shunday yozadi: “Zaruriy vujuddan kelib chiqqan vujudlar undan uzoqlashgan sari mustaqil bo‘la boradilar, lekin o‘zlarining boshlang‘ich sabablarining hislatlarini saqlab qoladilar va ular keyingi vujudlar uchun sabab bo‘ladilar”

Ibn Sinoning yozishicha birinchi vujudning hislatlari undan kelib chiqadigan barcha vujudlarga o‘tib boradi. Uning vujud haqidagi fikrlari, mavjudot shakllarining o‘zaro bog‘lanishlari, ularning hammasi dastlabki zaruriy vujuddan kelib chiqishi haqidagi emanatsiya ta‘limoti “Kitob ash-shifo”, “Kitob an-najot”, “Donishnoma” asarlarining metafizika bo‘limlarida har tomonlama bayon etib berilgan. Ibn Sinoning bu qarashlari panteistik ta‘limot bo‘lib, u O‘rta asr SHarq mutafakkirlari falsafiy qarashlarining ko‘pchiligiga xos bo‘lgan ilg‘or ta‘limot hisoblanadi.

Ibn Sino o‘z ta‘limotidagi “vujudi mumkin” ni substansiya (“javhar”) va aksidensiya (“oraz”)ga ajratadi. Substansiya, uningcha turli ko‘rinishlarga ega bo‘lib, u sodda va murakab substansiyalardir. Sodda substansiya boshlang‘ich elementlar - olov, havo, suv va erdan iborat bo‘lib, shuningdek, modda, shakl, ruh va aql ham shu sodda substansiyaga kiradi. Jism, narsalar esa murakkab substansiyadir. Jism va narsalar modda va shaklning birligidan tashkil topib, ular tabiat: o‘simlik, hayvonot, inson va boshqa shakllarda mavjuddir.

Ibn Sino falsafiy bilimlarni ikki qismga yoki bo‘limga ajratadi. Ularning birinchisi - nazariy falsafa: ikkinchisi - amaliy falsafa. Nazariy falsafa - metafizika (buni u oliy fan, deydi), matematika (buni u o‘rta fan, deydi) va tabiat haqidagi fanlar (buni u quyi fan, deydi)dan iborat. amaliy falsafa-siyosat, huquq, iqtisodiyot, ahloqshunoslikdan tashkil topadi.

Ibn Sino qarashicha, metafizika oliy ilm sifatida mutlaq vujudni, ya‘ni “vujudi vojib” ni-Tangrini-yaratuvini o‘rganish va bilishdan iborat ilohiyot haqidagi fandır.

Ibn Sino insonni tana va jondan tashkil topadi, deydi. Miya esa jonni boshqaruvchi markazdir. Uning fikricha, hasharotlar, o‘simliklar, hayvonlar va insonlar qandaydir ichki kuch - jon (“an-nafas”)ga egadir. Inson joni bunda eng oliy va etuk jondir. SHuning uchun inson fikrlash hislatiga mavhum tushunchalarni o‘zlashtirish, bilish mavjudotning mohiyatini tushunish, maqsadli faoliyatlarni amalga oshirish qobiliyatiga egadir. Inson aqli jonning oliy darajadagi ifodasidir. Inson mavjudot mohiyatini bilishi uning tafakkurining dunyoviy aql bilan qo‘shilishi asosida vujudga keladi.

Ibn Sino ijtimoiy-siyosiy masalalarni davlat, jamiyatning tuzilishi, vazifalari, jamoani boshqarish, ijtimoiy uyushmalarning faoliyatini, insonning hulq atvori, odatlari ahloqiy mezonlarni, huquqiy tartib qoidalarni amaliy falsafa, o‘rganadi, deydi. SHundan kelib chiqib, u amaliy falsafani o‘z predmeti va vazifalariga qarab, 3 qismga bo‘ladi: 1) ahloqshunoslik; 2) iqtisodiyot; 3) siyosat. Bunda ahloqshunoslik inson shaxsiyatining fazilatlari, axloqiy normalar va qoidalarni o‘rganadi. Iqtisodiyot esa oilani boshqarish, uning talablarini, vazifa va faoliyatini boshqarish va ta’minlab turish uchun zarur bo‘lgan masalalarni o‘rganadi. Inson bo‘lsa, bu – davlatni idora qilish va boshqarish hukumat, fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish masalalarini o‘rganadi.

Ibn Sinoning jamiyat to‘g‘risidagi ijtimoiy qarashlari ham diqqatga sazovordir. U jamiyatda kishilar o‘zaro bir-biriga yodam borishlari asosida yashashi kerak, deydi. Ibn Sino jamiyat kishilarning o‘zaro kelishuvlari asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi lozimligini aytadi. Uning ta’kidlashicha, jamiyat a’zolarining hammasi bu qonunlarga itoat etishlari zarur. Jamiyatda qonunlarni buzishlar va adolatsizliklar jazolanishlari lozim.

SHunday qilib, Ibn Sino o‘zining ko‘p tarmoqli mahsuldor ijodi tibbiy va tabiatshunoslik fanlariga oid tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga juda katta hissa qo‘shdi. U IX-XII asrlar SHarq xalqlari, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari madaniy “uyg‘onishi”ning ma’naviy yutuqlarini o‘z asarlarida mujassamlashtirgan holda butun insoniyatning madaniy-ma’rifiy taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Uning tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy qarashlarining bugungi kunda bizning mustaqil O‘zbekistonda adolatli huquqiy demokratik davlat qurishimizda ham ahamiyati juda katta. Buni Prezidentimiz Islom

Karimovning 1999 yil yanvar oyida Ibn Sino jamg'arma fondini tashkil qilish to'g'risida»gi chiqargan farmoni yaqqol tasdiqlaydi.

Mavzuni mustahkamlash bo'yicha savol va topshiriqlar

1. Abu Ali Ibn Sino hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?
2. "Tib qonunlari" Ibn Sinoning shoh asari
3. Ibn Sino merosining dunyo ilm –fanidagi ahamiyati

Mavzuni chuqurroq o'rganish uchun quyidagi adabiyotlarni albatta o'qib

chiqing

1. Karimov I.A. "O'rta asrlar SHarq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli" mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlangan nutqi. "Xalq so'zi", 2014 yil 15-16 may.
2. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Xayrullaev M. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati. – T.: Fan, 1994.
4. Abu Ali ibn Sino. – T., 1980.

13-Mavzu: Abu Rayhon Beruniy hayoti va faoliyati

Reja:

1. Beruniy o'rta asrlarning qomusiy allomasi

2.Xorazm Ma'mun akademiyasining vujudga kelishi.

3.Beruniy asarlarining musulmon SHarqi madaniyatiga ta'siri va O'zbekistonda

fan sohasida Beruniy nomidagi Davlat mukofoti ta' sis etilishi.

O'rta asr SHarqining, xususan, Markaziy Osiyo ilk uyg'onish davrining qomusiy olimlaridan yana biri Abu Rayxon Muhammad Ibn Ahmad Beruniy (973-

1048)dir. U qadimiy Xorazmning poytaxti bo'lgan Kot shahrida tug'ilib o'sadi va shu erda muvaffaqiyat bilan bilim oladi. U ona tilidan tashqari, arab, sug'd, fors, suryoniy, yunon, qadimiy yahudiy tillarini, keyinroq sanskrit va hind tillarini o'rganadi. Beruniy o'z davridagi deyarli hamma ilm sohalarini egallaydi va ularga oid o'zi ham ko'plab asarlar yozadi. Natijada, u o'zidan keyingi avlodlarga katta va boy ilmiy meros – 160 dan ortiq asarlar, tarjimalar, yozishmalar qoldiradi. Uning bu asarlarining 45 dan ortig'i astronomiyaga, qolganlari tabiatshunoslik, tarixshunoslik, filologiya va falsafiy muammolarga bag'ishlangan bo'lib, ularning bir qismigina bizgacha etib kelgan. Beruniyning bizgacha etib kelgan asarlari: "Osoral-boqiya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"), "Hindiston", "Geodeziya", "Kitobi Saydana" ("Farmakagnoziya"), "Geografiya", "Qonuni Ma'sudiy" ("Ma'sud qonunlari"), "Mineralogiya", "Kitobi at-tafxim", "Dorivor o'simliklar haqida kitob" va boshqalarni ko'rsatash mumkin. Uning "o'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar" ("Osor al-boqiya") asarida muallif yozma manbalar, xalq og'zaki ijodi namunalari asosida xorazmliklar, sug'diylar, eroniylar va arablarning islom dinigacha bo'lgan e'tiqorlari to'g'risida, ularning astronomik, matematik va geografik tushunchalari haqida juda qimmatli tarixiy ma'lumotlar beradi. Beruniy o'zining "Hindiston" nomli asarida Hindistonning iqlimi, uning geografik tuzilishi, xalqlari, ularning urf-odatlari, ilm-fani, adabiyot va san'ati, falsafasi, diniy qarashlarini bayon qilib beradi. U bu asari bilan juda katta shuhrat qozonadi.

Beruniy astronomiyaga oid bir qancha original asarlar yaratib, ularda oston yoritqichlarining harakatlari ustida olib borgan kuzatishlarini bayon qiladi va o‘z o‘tmishdoshlari al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy qarashlarini rivojlantiradi. Beruniy “Geodeziya”, “Kitobi Saydana” (“Farmakognoziya”), “Geografiya” asarlarida o‘zining topografiya, farmakognoziya, geografiya, meteorologiya sohalarida olib borgan tadqiqotlarini umumlashtirib bayon qilib beradi. Bu asarlari ham shu sohalarga oid ishlarga juda katta hissa bo‘lib qo‘shiladi. U o‘zining “Astrologiya san’ati asarlarini o‘rganish uchun kitob” asarida osmondagi o‘n ikki burj, ular bo‘ysinadigan sayyoralar tabiati, harakati, ularning Er iqlimiga ta’siri haqida, bu haqdagi to‘g‘ri va xato qarashlarni bayon qiladi.

Beruniyning astronomik qarashlarida Erning o‘z o‘qi va Quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrlari juda qimmatli fikrlardir. U astronomiyada o‘z davrida sayyoralar va osmon yoritqichlarini izohlashda geotsentrik va geliotsentrik ta’limotlarni qo‘llash bu fanga hech bir zarar keltirmaydi, deydi, aksincha, bu ta’limotlar orqali astronomik hodisalarni yaxshilab tushuntirib berish mumkin, deydi.

Beruniyning Er, Quyosh, uning nurlari, nurlarga xos issiqlik, er ichki xaroratlari, ularning tabiati haqidagi qarashlari ham diqqatga sazovordir. Uning bu hodisalar haqidagi mulohazalarida qanchadan-qancha genial gumonlar, fikrlar o‘z ifodasini topgan.

Beruniy o‘z asarlarida tog‘lar va sahrolar, daryo va dengiz hamda okeanlar, foydali qazilmalar, minerallar, ularning paydo bo‘lishi, xossa va xususiyatlari haqida ham qimmatli ilmiy fikrlarni bayon qiladi. Bu jihatlari bilan u buyuk tabiatshunos olim sifatida namoyon bo‘ladi. Beruniy o‘z astronomik qarashlarida hatto koinotda boshqa dunyolar ham mavjud degan fikrni ilgari suradi. Olimning bunday fikrlari, bir tomondan, uning qadimgi Hind, Markaziy Osiyo va yunon mutafakkirlarning ilg‘or qarashlarini chuqur o‘rganganidan, tafakkur doirasining juda kengligidan dalolat beradi. Biz Beruniy asarlarini o‘rganar ekanmiz, deb yozgan edi taniqli faylasufimiz I. Mo‘minov, – uning teran aqliga, iste’dodiga, dadilligi va mardligiga, tabiat va uning hodisalarini tushunish va tushuntirishda teran ilmiy tafakkur yuritishiga qoyil qolmasdan ilojimiz yo‘q...

Astronomiya sohasida o'z zamonasi darajasidan butun bir tarixiy davrga ilgarilab ketgan ilmiy fikrlarni izhor etish va targ'ibot qilish uchun Beruniydek haqiqat qidiruvchi bo'lmoq lozim edi.

Beruniy O'rta asr SHarq uyg'onishi sharoitida haqiqiy ilmiy tabiatshunoslikka asos soldi, u tabiatshunoslikning turli sohalarida o'z davri uchun taajjubga soluvchi shunday ilmiy va faraziy fikrlarni olg'a surdiki, ular bir necha asrlardan so'ng Evropa ilmida o'z isbotini topdi.

Beruniy al-Xorazmiy, al-Farg'oniy tabiatni bilish, o'rganishda asoslangan kuzatish, taqqoslash, tajriba, mantiqiy umumlashtirish tahlil kabi metodlarini o'z tadqiqotlarida to'g'ri qo'llash asosida ularni ilmiy mazmun jihatidan boyitdi. U o'z ilmiy faoliyati jarayonida tabiatni bilishning tajriba ilmiy metodini ishlab chiqdi. Beruniyning bu metodiga ko'ra, tabiatni bilishda eskilik, fanatizm, aqidachilik, shaxsiy g'araz, sub'ektivizmdan ozod, bo'lish, aksincha, tabiatning o'ziga, uni kuzatishda tajribaning rad etib bo'lmaydigan dalillariga asoslanish lozim.

SHuni alohida ta'kidlash kerakki, Beruniy asarlarida, uning tabiiy-ilmiy qarashlari bilan bog'liq chuqur ijtimoiy-falsafiy mulohazalar, umumlashmalar ham o'z ifodasini topgan. U Forobiy falsafiy ta'limotiga asoslanib ollohni hamma narsaning birinchi sababi, deb hisoblaydi. Uning tushunishicha ham xudo hamma narsaning yaratuvchisi ekanligi e'tirof qilinadi. Lekin Beruniy shu birinchi sababdan kelib chiqqan hamma narsaning rivojlanish va o'zgarish huquqini tabiatga beradi. Uning ta'limoticha, tabiatda hamma narsa tabiiy qonunlar asosida yaratiladi, tabiat o'zining tabiiy kuchiga ega bo'lib, shu kuch ta'sirida tabiatda to'xtovsiz harakat, o'zgarish, o'sish, rivojlanish, vujudga kelish, emirilish, halok bo'lish jarayonlari sodir bo'ladi. Bularndan shunday xulosaga kelish mumkinki Beruniy o'z falsafiy qarashlarida deizmga yaqin pozitsiyada turgan. U moddiy dunyoning adabiyliги haqida gapiradi.

Beruniy fikricha, xudo va boshlang'ich modda, ya'ni materiyadan boshqa hech narsa bo'lmagan. Borliq abadiy, u o'zgarish va taraqqiyotdadir. Materiya muayyanlik libosiga burkanadi, u faoldir, harakat tamomila materiyaga tegishli, u ruhni modda bilan bog'laydi va uni turli shakllarda kezib yurishga majbur etadi.

Beruniy yunon faylasuflari Levkipp va Demokrit qarashlariga qo'shib, atomistika ta'limotini tan oladi, lekin ulardan farqli o'laroq

borliqda bo'shliqning mavjudligini inkor etadi. U atomlar sifat jihatdan o'zgarish xususiyatiga ega, degan fikrni bildiradi. Beruniy nuqtai nazaricha, makon va zamon borliqning muhim xususiyatlaridir.

Beruniyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. U insonni eng sharaflı borlıq sifatida tushuntiradi. Inson faqat o'zi uchun yashamasligi, insonlar bir-birlariga yordam berishlari kerakligini ta'kidlaydi. Uningcha, insonlar o'rtasidagi tafovut ko'proq tashqi jihatdan mavjud bo'lib, ular ichki tuzilashi va tashkil topishi jihatdan bir umumiylikka ega. Lekin inson maymunga o'xshasa ham, ular o'rtasida tub farqlar mavjud. U «Hindiston» asarida insonlarda tillarning turlicha ekanligi to'g'risida to'xtalar ekan: «Tillarning turlicha bo'lishiga sabab-odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-birlaridan uzoqda yashashlaridir», -deydi

Beruniy jamiyatda ijtimoiy hayotning o'ziga xos «shartnoma» asosida tuzilishini e'tirof etadi. U: «Inson o'z ehtiyojlarini tushunib, o'ziga o'xshash kishilar bilan birga yashashning zarurligini anglay boshlaydi. SHuning uchun o'zaro kelishuvchanlik qabilidagi «shartnoma» tuzishga kirishadi. Odamlarning birgalikdagi turmushi bu hali insonni haqiqiy qudratga, uning ehtiyojlarini qondirishga olib kelmaydi, buning uchun (ular) yana mehnat qilishlari ham zarurdir», -deydi.

Beruniy jamiyatni boshqarishda jamiyat podshohga xizmat qilmay, balki podshoh jamiyatga xizmat qilishi lozimligini aytadi. «Tabiatan boshqarishga moyil» bo'lgan hokim, -deb yozadi u - o'z fikri va qarorlarida qa'tiy bo'lishi kerak, o'z ishlarini amalga oshirishlarida faylasuflarning. . . fikrlariga amal qilishi lozim; «shohning o'zi ham» yaratuvchilik ongiga ega bo'lmog'i, ayniqsa, dehqonlar to'g'risida ko'proq g'am eyishi kerak. «Podshohlik» dehqonchiliksiz yashay olmaydi, – deb yozgan edi u.

Beruniy mamlakat ravnaqi, el-yurt farovonligini ilm-fan taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'ladi. U: «har bir olim o'z muhokamasida amaliyotga asoslanishi, o'z tadqiqotida aniq maqsadga ega bo'lishi, tinimsiz mehnat qilishi, xatolarni qidirib tuzatishi, ilmda haqiqat uchun har xil uydirma, yuzakichilikka qarshi kurash olib borishi zarur», -deb yozgan edi. Beruniy mamlakatda xalqlar do'st, inoq, ittifoq bo'lib yashashi uchun kurashib, insoniyatga

qirg'in keltiruvchi urushlarni qattiq qoralaydi va kishilarni tinchlikka chaqiradi.

Vatandoshimiz Beruniyning bu g'oyallari bugunki kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Aksincha, uning juda ko'p g'oyalari Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan qo'llab-quvvatlanib, ular yurtboshimizning nutqlari va maqolalarida, ilmiy risolalarida yanada rivojlantrilmoqda, hamda ular O'zbekistonning o'ziga xos va o'ziga mos mustaqil taraqqiyot yo'lidan rivojlanib borishda xizmat qilmoqda. Bugungi kunda Beruniyning ona Vatani-mustaqil O'zbekistonda uning ijodiga juda katta e'tibor berilib, uni har tomonlama chuqur o'rganilmoqda.

Mavzuni mustahkamlash bo'yicha savol va topshiriqlar

1. Abu Rayhon Beruniy hayoti va ilmiy merosi haqida nimalarni bilasiz?

2. Beruniy merosida qadimgi xalqlar tarixi va tabiatshunoslikning muhim jihatlari e'tibor qaratganmisiz?

3. O'zbekistonda Beruniy shaxsiyati va merosiga munosabatni qanday baholaysiz?

Mavzuni chuqurroq o'rganish bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar

1.Karimov I.A. "O'rta asrlar SHarq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli" mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlangan nutqi. "Xalq so'zi", 2014 yil 15-16 may.

2.Ma'naviyat yulduzlari. -T.: Fan, 1999.

3.Islom ensiklopediyasi. -T., 2004.

4.Abu Rayxon Beruniy. Tanlanganlar asarlar. – T.: Fan, 1973.

5. Qayumov A. Abu Rayxon Beruniy. Abu Ali ibn Sino. –T., 1987.

14-Mavzu: Bahouddin Naqshband tariqati

Reja:

1. Baxouddin Naqshband hayoti va merosi
2. Naqshbandiylik ta'limoti
3. Naqshbandiya- ezgulik va bunyodkorlik tariqati
4. Naqshbandiylik tariqatining ma'naviy ahamiyati

Hazrat Bahouddin Naqshband q.s- asl ismlari Muhammad ibn Muhammad Jamoliddin bo'lib, Xojayi Buzrug (ulug' Xoja), shohi Naqshband, Bahouddin nomlari bilan jaxonga mashhur.

Hazrat Bahouddin Buxoro yaqinidagi Qasri Xinduvonda tug'ilgan. Keyinchalik bu zoti sharif barakotidan qasri Xinduvon Qasri Orifonga aylandi.

Tug'ilgan sanalari 1318 yil Hazratning kasblari matoga naqsh solmoq edi. Hazrat Bahouddin Boboyi Samosiy, Sayid Mir Kulol, Qusam SHayx, Xalil Ota, Orif Deggaroniy, Bahouddin Qishloqiylardan saboq olganlar. Tariqat odobini, ilmini Hazrat Bahouddin Sayid Mir Kuloldan o'rgandilar. Lekin haqiqat yuzasidan Hazrat Baxouddin uvaysiy bo'lib, Xoja Abduholiq G'ijduvoniy ruxlaridan ta'lim olganlar.

“Tuxfatul ansob” kitobida Baxouddin nasablari haqida ma'lumot berilgan: Hazrat Baxoul haq vad din Sayid Muhammad ibn Sayid Muhammad Jamoliddin Buxoriy ibn Sayid Buxoriddin ibn Sayid SHabon ibn Sayid Abdulloh ibn Sayid Zaynulobiddin ibn Sayid

SHabon ibn Sayid Burxon ibn Sayid Mahmud Rumiyy ibn Sayid Ishoq ibn Sayid Taqi ibn Sayid mahmud Jome ibn Sayid Ali Akbar ibn Xazrat Imom Ali Taqi ibn Imom Muhammad Taqi ibn Xazrat Imom Ali Muso ar Rizo ibn Zaynulobiddin ibn Husaynibn Ali ibn Abu Tolib.

Hazrat Bahouddin ona tomonidan sidqiydurlar, ya'ni nasablari Abu Bakr Siddiqa borib taqaladi.

Hazrat Bahouddin “Hayotnoma”, “ Dallelul oshiqin”, “Avrod” nomli kitoblar va quyidagi ruboiylar muallifi hisoblanadilar.

“ Maqomoti SHohi Naqshband” kitobida qayd qilinganki, Sul-tonul Orifin (ya'ni Boyazid Bastomiy) aytubdilarki, bu yo'lga kirganlar har qancha yurgan bilan alarning oxirgi qadami bizning birinchi qadamimizga etur. Xojamiz (ya'ni Baxouddin) buyuruptilarki, g'ayrat yuzasidan Haq taolo suh-bati harom bo'lsin u kishigakim, uning birinchi qadami Boyazidning oxirgi qadamiga etmasa va yana deydilarki, biz intihoni ibtidoda darj ayladik.

Naql qilishlaricha, bir kun SHayx Xisrav Hazrat Bahouddin huzurlarida niyozmandlik ila arz qildiki, Harkom suvi goh-goh toshib, Karmana arig'I qirg'oqlarini yuvib, atrof-javonibni xarob etadi. SHu sabab yana bir ariq qazish zarurati bor. Xalq ko'p tashvish chekmoqda.

Hazrat Bahouddin buyurdilarki, bundan so'ng Haromkom suvi toshib, Karmana arig'ini buzmaydi va bo'ridan odamlarga zarar etmaydi, yo'lovchilar bemalol borib keladigan bo'ladilar.

Hazrat tillaridan bu muborak suxan aytilgan zahot podshoh farmon chiqaribtiki, Karmana yo'li qo'riqlansin, toki yo'lovchilarga biror maxluqning zarari tegmasin. Ajabki, Haromkom suvi ham toshmaydigan bo'libti.

Hazrat Bahouddin Naqshband dedilar: “ Bizning tariqatimiz “urvatul vusqo”

– mustahkam tutqich. Mustahkam tutqich bu- Qur'oni Karim hisoblanadi.

Naql qiladularki Hazrat Bahouddin ko'chada bir darvishni ko'rdilar. U

quyidagi baytni o'qirdi:

Nekuvonro do‘st dorad xar ki boshad dar jaxon, Gar badonro do‘st dori go‘y burdi az miyon.

Mazmuni: YAxshi kishilarni hamma xam do‘st tutadi, lekin agar sen yomon kishilarni do‘st qilsang (ya‘ni ularni o‘zinga yaqinlashtirib, yaxshi yo‘lga boshlay olsang) yutuq egasi bo‘lasan.

Hazrat Bahouddin dedilarki: “ Men uchun bu bayt saboq bo‘ldi va barcha darvishlarga mazkur baytni yodlamoqni buyurdim”.

Hazrat Bahouddinning birinchi xalifalari Hazrat Alouddin Attor, ikkinchi xalifalari Hazrat Xoja Porso, uchinchi xalifalari Hazrat Alouddin G‘ijduvoniyy edilar. SHaxy Pirmastiy, Xoja Abulqosim Buxoriy Hazrat Baxouddining ashoblaridurlar.

Hazrat Bahouddin ikki farzand ko‘rganlar. O‘g‘illari yoshlikda vafot qilgan, qizlarini esa Alouddin Attorga nikohlab berganlar. Hazrat Hasan Attor- ular valiyulloh bo‘lib, Bahouddining nevaralari hisoblanadi. Alouddin Attor va Hasan Attorlarning qabrlari Denavdir. Hazrat Bahouddin vafotlaridan bir kun oldin muridlarning hammasini Xoja

Muhammad porsoga tobe bo‘lishini vasiyat qilgan. 1389 yil Baxouddin Qasri Orifonda vafot qildilar. Juda ko‘p shoirlar Hazrat vafotlariga atab tarix bitgan, lekin eng mashxuri ma budir:

Raft shohi Naqshbandon Xojai dunyovu din, Osh ki budi shohi rohu dinu davlat millatash. Maskanu ma‘voi o‘ chun bud Qasri Orifin, “Qasri irfon” z-in sabab omad xisobi rehlatah.

Mazmuni: dunyo va dinning Xojasi SHoxi Naqshband vafot qildi, u dinu lavlatning shoxi erdi. Uning maskanu ma‘vosi Qasri Orifon bo‘lgan. SHu sabab vafot etish tarixi “ Qasri irfon” dan chiqadi.

“ Qasri irfon” dan abjad hislbida 791 yil hosil bo‘ladi, bu melodiyy 1389 yilga to‘g‘ri keladi.

Hazrat Bahouddin qabrlari ustidagi dahma va ushbu ziyoratgohdagi xonaqohni Abdulazisxon ibn Ubaydulloxon 1544 yilda qurdirgan. Maqbara atrofida masjid , xovuz, quduq, minora, darvozaxona bor.

Hukumatimizning sa‘y-harakati bilan 2003 yil Hazrat Bahouddin ziyoratgohlari yanada obod, fayzli etildi.

Buxoro shaxridan to ushbu ziyoratgohgacha boradigan yo‘l jahon andozasiga mos qilib bino etilgani tahsinga loyiq.

Hazrat Bahouddin ziyoratgohlarda ulkan majmu‘a qad rosladi. Bunday keng ko‘lamdagi obodonchilik ishlari biror asru ayomda qilingan emas. Qadimgi darvozalar – Xoja Dilovar, Bobus Salom asl holiga keltirildi. Ziyoratgohning janubida ulkan gumbazli darvozaxona qurildi. Hazratning qabrlari sharqi va janubida ulkan va go‘zal ayvon tiklandi. Bu yangi ayvon qadimgi ayvonga g‘oyat muttanosibdir. Xonaqox, masjidlar, madrasa binolari sidqidildan ta‘mirlandi.

Hazrat Bahouddin Naqshband ziyoratgohlari bilan onalari – Orifabibi ziyoratgohlari bir majmuaga aylantirilgan. Orada bog‘, gulzor barpo bo‘lgan.

Hazrat Bahouddin muzeylaridagi eksponatlar ham yangilanib, bu erga kirgan kishi tasavvuf, Etti pir haqlarida yaxlit bir tushunchaga ega bo‘ladi. Toshkent, Samarqand, Xorazm, Qo‘qon va boshqa viloyatlardan kelgan qo‘li gul ustalar ixlos bilan, e‘tiqod bilan ushbu majmuada xizmat qiladilar. Bir so‘z bilan aytganda, XVI asr obidasi qarama-qarshisida unga uyg‘un holda XXI asr obidasi qad rosladi. Mashoyixlar: “ ming eshitgandan bir ko‘rgan afzal” deganlar. Ushbu majmuani ta‘rif-tafsiflashga qalam ojiz. Kelgan odam ko‘radi va qoyil bo‘ladi. Hazrat Bahouddinning ulug‘ nomlariga munosib ziyoratgoh barpo etilgandir.

Darhaqiqat, “ Har qanday obodlik ko‘ngildan boshlanadi” (I.A.Karimov), to ko‘ngil obod bo‘lmasa, bunday hashamatli, bunday ko‘rkam, bunday salobatli, bunday fayzli majmuani bino qilib bo‘lmaydi.

Hazrat Bahouddin majmualarini ziyorat qilayoiganingizda o‘tgan ulug‘larimizning quyidagi qalb so‘zlari qulog‘ingizga eshitilsa, aslo ajablanmang

Ulug‘ pirlarimiz ziyoratgoxlarini obod etayotgpnlarini Olloh taolo ikki dunyoda saodatmand etsin, Omin!

Tasavvuf - xudoni tan olsada, lekin uning tabiat taraqqiyotiga dahli yo‘q deb biluvchi diniy-falsafiy ta‘limot ham emas, ilohiy quvvatni inkor etuvchi dahriylik, dinsizlik ham emas. Bu ta‘limotda inson vojib- al vujudda hayot kechiradi, harakat qiladi va vojib-al vujud uning asli mabda‘i va maodidir deb qaraladi. Holbuki, tasavvufni din ulamolari juda hur fikrliligi uchun tanqid etgan

bo'lsalar, faylasuflar uni diniy ta'limot deb kam o'rganganlar. Tasavvufning ijobiy g'oyalari boy ta'limotlardan biri - naqshbandiyadir.

Naqshbandiya SHarqda: O'rta Osiyo, Hindiston, Pokiston, arab mamlakatlari, Turkiya, Malayziya, Indoneziyada, hozirgi paytda esa, qator Evropa mamlakatlari: Fransiya, Germaniya, Angliya, Italiya va Amerika qit'asida yoyilib borayotgan ta'limotdir.

Naqshbandiya ta'limoti mavjud bo'lgan jamoa ma'lum makon va zamonda o'z ta'sirini qoldirgan. Naqshbandlar jamoasi iktisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotga, madaniyat va san'atga, arxitektura va hunarmandchilik taraqqiyotiga ta'sir o'tkazgani tabiiy. Lekin biz o'z tadqiqotimizda bu ta'limotning inson va uning kamolotiga oid fikrlariga

e'tiborimizni qaratamiz.

Tasavvuf va uning tariqatlari, xususan naqshbandiya Farb va SHarq tadqiqotchilarining diqqatini o'ziga jalb etgan. Tasavvufni quyidagi olimlar o'rganganlar: Annemarie SHimmel, E.F.Bertels, N.Zarrinkub, Inoyatxan, Djavad Nurbaxsh, Idris SHox, A.D.Кныш, N.Komilov, A.Muhammadxo'jaev, R.N.Nosirov, M.Oripov, Sajjodii Sa'id Ja'far, M.T.Stepanyans, Dj.S.Trimingem, Usmon Turar, Mahmud Zoxid Kutku, M.Hazratqulov, Ibrohim Haqul, Saljuk Eroydin, Karl Ernest, Ahmad al Naqshbandiy al Xolidiy va boshqalardir. Bular tasavvufning asl mohiyati haqida fikr yuritib, naqshbandiya ta'limotiga ham e'tibor berganlar.

Naqshbandiya ta'limotini maxsus o'rgangan olimlar: SHvetsariyalik sharqshunoslar: Frits Mayer, Anke fon Kyugelgen, Germaniyadan YUrgen Paul, AQSHdan Devin Diuis, Juan Gross, Xisham Kabboni, Turkiyadan Taxsin YOzuvchi, Mahmud As'ad Jo'shon, Albaniyadan N.Algar, Hindistondan S.K.Gupta, Fansiyadan M.Mole, Teri Zargon, arab mamlakatlaridan Abdurahmon Naqshbandi Pokistoni, Rossiyadan O.F.Akimushkin, V.A.Gordlevskiy, A.A.Semyonov, Sitnyakovskiy, Tojikistondan A.Muhammadxo'jaev, M.Rajabov, O'zbekistondan B.Boobojonov, M.N.Boltaev, O.Bo'riev, B.Valixo'jaev, A.Zohidiy, Izzat Sulton, Ilyos Bozor, N.Yo'ldoshev, Sultonmurod Olim, Sadridin Salim Buxoriy, R.A.Tillaboev, I.Tojiev, Orif Usmon, Xurram Baraka, R.SHodiev,

A.Qayumov, A.Xayitmetov, Xoji Ismatullo Abdulloh va boshqalar bu sohada izlanishlar olib borganlar.

Ko'rinib turibdiki, SHarq va Farb olimlari naqshbandiyani o'rganish uchun ancha ishlar qilganlar. Lekin bu tadqiqotchilarning ko'pi sharqshunos, tarixchi, filolog bo'lib, bulardan M.Stepanyans, M.Rajabov, R.SHodiev, A.Muhammadxo'jaev, M.O.Oripov va M.Hazratqulovlarning tadqiqotlari falsafiy yo'nalishdadir. SHuning uchun ham naqshbandiya tasavvufiy ta'limotining falsafa tarixidagi o'rnini aniqlash va uning mazmunini tadqiq etish zaruradir. Faylasuf olimlardan prof. O. Fayzullaev suxravardiya tariqati haqida ma'lumot berganlar. Faylasuf olimlar I.Mo'minov, M.B. Baratov, X.Aliqulov, M.Xayrullaev, I.Karimov, M.Qodirov, B.To'raevning ishlarida bu masalaning u yoki bu qirrasini ochilganidir. YOsh olimlar N.Safarova, O.SHaripova xojagon tariqatini tadqiq etganlar. Suhravardiya, xojagon, yassaviya va kubraviya tariqatlarini tadqiq etgan olimlar ham naqshbandiya ta'limotini u yoki bu qirrasini bilan aloqador masalalarni echganlar.

Naqshbandiyaga oid tadqiqotlar Abu Muxsin Muhammad Boqirning «Maqomoti hazrati Xoja Naqshband», Jomiyning «Nafahot al-uns va hazorot al-quds», as-Safiyning «Rashahot ayn al hayot», Ahmad Sirxindiyning «Maktuboti Imom Rabboniy», Alisher Navoiyning «Nasoyimul-muhabbat min shamoyimul futuvvat» kabi manbalarga asoslangan. Biz bu manbalar bilan birga yangi quyidagi manbalar borligini aniqladik: Xo'ja Ahrorning «Anfosi Nafisa», Salohiddin ibn Muborak Buxoriyning «Anisut-tolibin va uddat us- solikin», «Risolai hazrat Mavlavi Jomi», Abdurahmon Naqshbandi Laxuri Pokistoniyning «SHajarai tayyiba», Muhammad Porsoning «Risolai qudsiya», Jalol Xiraviyning «Risolai digar mansub ba Sohib-zoda», Ahmad Sirhindiyning «Panj latoifai Nodirai muazzama», Ahmad G'uriyning «Kanzal-ibod fi sharx al-avrod», Irbiliy shayx Muhammadning «Al ijobatul rabboniya li sharx va manofe' Virdi Naqshbandi SHayxul Akbaril Sayyid Muhammad Bahouddin al-Husayni, al-Hasani al-Uvaysi al-Buxoriy Naqshband» va Ahmad al-Naqshbandi Xolidiyning «Jami' al-usul fi al-avliya».

Biz bu qo'lyozma va toshbosma manbalar hamda tadqiqotchilarning asarlaridagi g'oyalarni tarixiylik va mantiqiylik asosida o'rganib, qiyosiy tahlil uslublari asosida tadqiq etdik va

naqshbandiya ta'limotida inson, uning kamolotiga oid yangi g'oyalari ilgari surganligini aniqladik.

Tasavvuf tariqatlaridan biri sanalgan Bahouddin Naqshband nomi bilan mashhur Muhammad ibn Muhammad al-Buxoriy (1318-1389) tomonidan asoslangan naqshbandiya ta'limotida inson kamoloti masalasi o'ziga xos va mos uslub va yo'llar bilan hal etilgan. Tasavvufga xos bo'lgan inson kamolotga etish uchun o'z-o'zini anglashi va o'zini, o'z nafsini bilgan Haqa eta olishi masalasi naqshbandiya uchun ham xosdir. Lekin inson o'z-o'zini anglashi, o'z mohiyatini bilishi va hayot mazmunini fahmlashi uchun butun o'zidagi quvvatlarni safarbar etish va bir nuqtaga jamlashi lozim. Bu masalani hal etishda tasavvufda quyidagi ikki usul qayd etilgan:

1. Zunun Misriy (796-861) ma'rifat yo'lining hol va maqomlarini ishlab chiqqan.

2. Horis Muhosibiy (791-857) o'z nafsini kuzatish va nazorat qilish (muroqaba va musohaba) qoidalarini, "ilm al - qulub va -l xatarot" (qalb va uning ma'rifati yo'lidagi xavf-xatarlardan saqlanish ilmi)ni asoslab bergan.

Naqshbandiya ta'limotida inson kamoloti uchun zarur hol va maqomlarga emas, balki o'z nafsini kuzatish va nazorat qilishga e'tibor beriladi va inson butun jismoniy, aqliy, nafsoniy, ruhiy quvvatlarini bir nuqtaga to'plash uchun shu uslubni ma'qul hisoblab, shunga doir usullarni tavsiya etadi.

Inson kamoloti uchun tasavvufda ixtiro etilgan ikkinchi o'z-o'zini idora etish yo'li asosan qalb tarbiyasi va uning holati masalasiga e'tibor beradi. SHuning uchun Bahouddin Naqshband ixtiro etgan inson ruhiy kamolotining oliy darajasi vuqufi qalbiy, ya'ni qalbning ogoh bo'lishi va insonning ham qalb holatidan voqifligini anglatadi. Bu darajaga etish uchun naqshbandiya ta'limoti quyidagi talablarga rioya etishni zarur deb hisoblaydi:

1. Nafas olish quvvatini nazorat etish, har bir nafasni idora etib, uni ezgulik yo'liga, haq rizoligi uchun safarbar etish. Bahouddin Naqshband aytganlar:

"Ogoh zi bahr bosh baynul nafasayn"⁴⁸

Mazmuni:

⁴⁸ Сафий. Рашахот айн-ал хаёт. Т., 2005. - 20-бет.

Dengizdan (ya'ni olam mohiyatidan) nafaslarning orasidagi damda ham ogoh va hushyor bo'lgin. YA'ni, sen nafasni ogohlik bilan olib, ogohlik ila chiqarish amaliyotidan qoniqmasdan, bular orasidagi damni ham unumli o'tkazgin. Inson to'g'ri nafas olish uchun, birinchidan jismoniy quvvatlarni boshqarishni o'rganadi. Nafas yo'llari, o'pka quvvati to'g'ri ishlasa, miya faoliyati yaxshilanadi, aqliy quvvat ortib, inson uni ham boshqaradi. Nafasni behudaga ketkazmaslik nafsoniy quvvatlarni jilovlaydi va inson nafasi pok, qudsiy bo'lib, Iso nafasi kabi hayotbaxsh bo'la boradi. Bunday insonni "dami, nafasi o'tkir", deb ayta boshlaydilar. Bahouddin Naqshband shuning uchun ta'kidlardiki, "Gum zada be hamdamii hush dam".

Mazmuni:

"Hushsiz damni umuman yo'q qilish". Ko'pgina manbalarda buni "Kam zada", ya'ni "Kamaytirib" deb tarjima etadilar. Ali Safiyning "Rashahot" asarining yangi tarjimasida ham shunday yozilgan. Lekin bu naqshbandiya mohiyatiga mos emas, chunki nafaslar orasidagi damni ham asrashga o'rgatayotgan ta'limot, hushsiz damni kamaytir emas, yo'qot deb ta'kidlashi aniq.

2. Ko'rish, nazar quvvatlarini boshqarish. Bahouddin Naqshband bu ma'noda aytganlar:

Ey, monda zi bahri ilm dar sohil ayn, Dar bahr farog'at astu, dar sohil shayn, Bardor safi nazar zi mavji kavnayn, Ogoh zi baxr bosh baynul nafasayn.

Mazmuni:

Ey, ilm dengizi sohilida qarab turgan kishi, Dengizda farog'at boru, sohilda yomonlik.

Sen nazarlar safini ikki olam to'lqinlaridan ko'targin, Nafaslarning orasidagi damda ham dengizdan ogoh bo'lgin.

Bu erda dengiz - botin olami, mohiyat olamidir. Inson butun olamga mushohada nazari bilan, ochiq ko'z bilan qaraydi. U tashqi, zohir olamiga nazar etadi. SHE'rda botinga, mohiyatga qara, zohir, ya'ni sohil bu yomonlikdir, shuning uchun sen nazarlar safini to'lqinlardan

olib, dengizga qaratgin deb ta'kidlanmoqda.

Ko'z insonga berilgan eng oliy ne'matlardan biri. Bu mo'jiza tufayli inson borliqni ko'radi. Ko'rish quvvati qalb holatiga bevosita bog'langan. Go'zal narsa va hodisalarga qarash qalbning holatini yaxshilasa, iflos, xunuk narsa va hodisalar quvvati qalbni o'ldiradi. Qalb sog'lomligi va pokligi ko'zni qaerga va kimga tushishiga bog'liq. SHuning uchun Bahouddin ta'kidlamoqdaki, "Nazarlaring safini ikki olam to'lqinlaridan olgin". Sarob, o'tkinchi narsalarga qarab ko'z nurini, ko'rish quvvatini zoe etmaslik va botin nazari bilan qaragan kishiga haqiqiy ilohiy ilm nasib etadi. U o'zini bilib, haqa etadi. Ko'z quvvatini asrash, nojoiz kishiga qaramaslik, noloyiq joyga boqmaslik, qalb bilan ko'zni poklab, qalb ko'zining ochilishiga imkon beradi. Bunday insonlar nazari kimga va qaerga tushsa, u erga xayru barakot, ezgulik ne'matlari yog'iladi. SHuning uchun bunday insonlarni "Nazar karda", "Nazari Xo'ja Xizr kabi" degan iboralar bilan ta'riflaydilar va imkoni boricha bu odam ko'zini bolalariga tushishiga, uning nazariga tushishiga harakat qiladilar.

3. Oyoq quvvatlarini boshqarish. Qadam qo'yish bilan nazar qilish quvvatlarini ehtiyot qilishni naqshbandiya ta'limotidagi "nazar bar qadam" talabi aks ettiradi. Qadamni nojoiz joyga qo'ymasligi va inson har bir qadamini mushohada qilib qo'yishi va yurish quvvatini ezgulikka tomon safarbar etishi lozim. Nazar qadamni muntazam kuzatishi va har bir qadam haqa insonni yaqinlashtirishi, ilohiy sifatlarni olishiga yordam berishi kerak. Bu mazmunda shunday yozilgan:

Dur naguzashta nazarash az qadam.

Mazmuni:

Nazarini qadamidan yiroq qilmay.

Demak, doim qadam quvvatlari nazarning nazoratida bo'lishi

insonning kamolotiga yordam beradi.

4. Qalb holatini nazorat etish. Bu erda inson botinidagi quvvatlarni idora etishi nazarda tutiladi. YA'ni qalabda o'rnashib olgan, uni halokatga olib boradigan, inson hayot

mazmunini yo'qotadigan kibr, hasad, g'azab, nafrat, gina, qudurat kabi illatlardan poklanish va niyatni poklash darajasiga etish mumkinligi ta'kidlaniladi.

Bahouddin Naqshband bu ma'noda ta'kidlaganlar: Zi g'ayrat xonai dilro zi g'ayrat kardaam xoli,

Ki g'ayratro nameshoyad dar in xilvat saro budan. Mazmuni:

G'ayrat qilib, g'ayrdan (ya'ni illatlardan) qalbni pokladim, chunki illatlar bu xilvat makoniga arzimaydilar. Kibr, hasad, gina, g'azab qalbning quvvatlarini kana kabi so'rib olib, inson quvvatini yomonlikka yo'naltiradilar, nafsining quliga aylantiradilar. Qalb va botinni poklash, insonni ezgu niyatli, ezgu so'z va amalli bo'lishiga yordam beradi. YA'ni inson ilohiy axloq bilan bezanadi.

5. Inson o'z harakati va fe'lini boshqarishi. Bu erda qo'l harakati, gavadadagi boshqa uzvlar holatini idora etish nazarda tutiladi. Birov bilan muomalada til va qo'lning nojo'ya harakati yomon oqibatlarga olib keladi. Birovni urish, zo'ravonlik yig'ilgan ezgu quvvatlarni yo'qotadi. SHuning uchun Naqshbandiyada ta'kidlanadi: Doim hama vaqt, dar hama joy, dar hama hol

Medor nuhufta chashmi dil janobi yor.

Mazmuni:

Doimo ,hama vaqt,har erda,har holatda, YAshirin qalb ko'zing yorga tomon bo'lsin.

Demak: sen barcha holatda o'zingni o'zing idora etib, haqa maqbul amallarni bajarishing lozim.

6. Barcha quvvatlaringni xolis xizmatga ravona etish. Naqshbandning "Dast ba kuru, dil ba yor" shiorining mohiyati birovga ta'masiz, xolis, Olloh rizoligi uchun xizmat etish, sizga berilgan aql-idrok, fahm-farosat, ilmu-zakovat va kasb-hunardan insonlar bahramand bo'lishi va jamiyat ahli farovon yashashi yo'lida xizmat qilishidir. Bu ta'limotda "Bozgasht"degan talab mavjud bo'lib,har bir qilingan amal va harakatdan qaytish va shu amalni qayta nazorat etish va agar ta'ma bilan qilingan bo'lsa, "tavba" qilish, agar pok holda qilingan bo'lsa, "shukur" deyish lozim deb ta'kidlanadi. Bu amaliyot bilan inson o'z faoliyatini nazorat etib, poklab boradi.

7. Xotira quvvatini boshqarish. Bu juda murakkab jarayondir. CHunki xotirani bo'ysundirish og'ir. Lekin bu tariqatdagi "yodkard"

"nigohdosht", "yoddosht" degan amallar asta - sekinlik bilan shaytoniy, nafsoniy xotirani yo'qotib, malakoniy, rahmoniy xotiraga aylantiradilar va xotira quvvatini haq yo'lga safarbar etadilar. Bular barchasi qalb pokligiga olib keladi.

Demak, Naqshbandiya ta'limoti inson kamolotiga erishish uchun, avvalo o'z jismoniy quvvatlarini: ko'rish, eshitish, nafas olish, qo'l va oyoq quvvati, gapirish, harakat qilishni boshqarib, ularning hukmdori bo'lishi lozimligini aytadi. Keyin aqliy quvvatni boshqarish va aql- zakovatni ezgu yo'lga safarbar etish imkoni tug'iladi. Eng asosiysi, jismoniy va aqliy quvvatlarni boshqarishni o'rganib, ular yordamida nafsini jilovlaydi va uni ammoralikdan safiya poklik darajasigacha tarbiyalaydi. Eng oxirida bularning barchasi insonga o'z ruhiy quvvatlarini boshqarishga yordam beradi. Albatta, bu jarayon bir-biri bilan chambarchas bog'liq va biri ikkinchisini taqozo etadi va bir-biriga yordam beradi. Chunki inson yaxlit tizimdir.

Naqshbandiya ta'limotining ahamiyati:

- Uzoq muddat qaramlik, erksizlik, birovning amriga itoat qilib yashagan xalqimizning mustaqil Respublikada haqiqiy hur, erkin bo'lishi, botinan boy, o'z-o'zini boshqara oladigan inson bo'lishiga, bu ta'limotning bunyodkor g'oyalari yordam beradi.
- Bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi qiyinchiliklardan o'tib, o'z-o'zini ruhan boshqara olish uslublarini bu yo'l tajribasida olish mumkin.
- Ta'limotdagi borliqqa muhabbat, vaqtni asrash, xolis mehnat qilish, kishilarning og'irini engillatish, bag'rikenglik kabi g'oyalardan yoshlarga tarbiya berish jarayonida foydalanish mumkin.

Bahouddin Naqshband tasavvufiy, diniy-falsafiy ta'limotning davomchisi sifatida o'ziga xos noyob, nodir, hozirgi davrda ham foydalanish mumkin bo'lgan barkamol insonni tarbiyalashning uslublarini topgan.

U inson borlig'ini ilohiyot, jamiyat, mehnat bilan bog'lab, mukammal harakatda bo'lishi yo'llarini ixtiro etgan.

Bu ta'limotning asosiy g'oyasi – inson o'z-o'zini anglashi orqali

Haqni anglaydi va o'z-o'zini idora etib, kamolotga eta oladi.

Mavzuni mustahkamlash usun savol va topshiriqlar

1. Bahouddin Naqshband haqida nimalarni bilasiz?
2. Naqshbandiya tariqati haqida bilasizmi?
3. Naqshbandiya ta'limoti haqida Prezidentimiz I.Karimov nima deganlar?

Mavzuni chuqurroq o'rganish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar

- 1.Komilov N. Tasavvuf. 1-kitob. –T.: “YOzuvchi”, 1997.
- 2.Komilov N. Tasavvuf. 2-kitob. –T.: “O‘zbekiston”, 2000.
- 3.Haqqulov I. Tasavvuf saboqlari. “Buxoro” nashr., 2000.
- 4.Navro‘zova G.N. Naqshbandiya ta'limoti va barkamol avlod tarbiyasi.2002.
5. Navro‘zova G.N. Raxmatova X.X. Naqshbandiya tushunchalari va genezisi.Buxoro .2010.

15-Mavzu: Maxmud az-Zamaxshariy arab va ajam allomasi

Reja:

1. Mahmud az-Zamaxshariy hayoti va ma'naviy merosi

2. Allomaning jahon fani va madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi

3. Zamaxshariyning arab tili grammatikasiga oid ijodiy faoliyati

Ko'hna Xorazm zaminida jahon fani va madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shgan ko'plab buyuk allomalar etishib chiqqan. Abul Qosim az-Zamaxshariy ana shunday ulug' siymolardan biridir. Allomaning to'liq ismi Abul qosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy bo'lib, u hijriy 467 yil rajab oyining 27 kuni (1075 yil 19 mart) Xorazmning katta qasabalaridan biri — Zamaxshar qishlog'ida tavallud topdi. Az-Zamaxshariy haqidagi ma'lumotlar asosan O'rta asr arab manbalarida keltiriladi. Otasi unchalik badavlat bo'lmasa-da, savodli, taqvodor, diyonatli kishi bo'lgan va aksar vaktini Qur'on tilovatiyu namoz o'qish bilan o'tkazib, Zamaxshardagi bir masjidda imomlik ham qilgan. Az-Zamaxshariyning onasi ham taqvodor, dindor ayollardan hisoblangan. Aftidan, az-Zamaxshariyning otasi serfarzand bo'lgan. CHunonchi, shoir qasidalaridan birida otasining farzandlari ko'p va oilasi katta bo'lgani tufayli ham tirikchilik yo'lida tinmay mehnat qilgani haqida yozadi. Az-Zamaxshariylar oilasi islomning mu'taziliy ta'limotiga mansub bo'lib, yosh Mahmudning dunyoqarashi mana shu dindor, taqvodor otasining ta'sirida shakllandi va dastlabki bilimni ham o'z otasidan oldi. Alloma haqidagi ma'lumotlardan ma'lumki, uning bir oyog'i yog'ochdan bo'lib, tarixchilar bu haqda: «Bir oyog'i yog'ochdan edi va uzun yaktagini tushirib kiygani uchun kurgan odam uni cho'loq deb o'ylardi» — deb yozganlar. Og'ir illat tufayli u yoshligidan bir oyoq bo'lib qolgan va shundan so'ng otasi uni endi og'ir mehnatga yaramaydi, deb kiyim tikuvchi ustaga shogirdlikka bermoqchi bo'ladi. Biroq yoshligidan ilmga havasmand o'sgan Mahmud otasidan o'zini madrasaga o'qishga yuborishni so'raydi. O'g'lidagi ilmga bo'lgan zo'r ishtiyoq va havasni sezgan otasi uni madrasaga beradi.

Az-Zamaxshariy ilm-fanning turli sohalari bilan qiziqib, tolibi ilmlar orasida zo'r iste'dodini namoyon qila boshlaydi. U madrasada

o'qitiladigan ilmlarni, ayniqsa, arab tili va adabiyo-ti, diniy ilmlarni puxta egallashga kirishadi, o'sha davrda ilm ahpi orasida qadrlangan xattotlik san'atini ham mukammal egallab, o'z tirikchiligini birqadar tuzatadi. So'ng, arab tarixchisi va biografi ibn Xallikonning yozishicha, talabalik yoshiga etgach, bilimni yanada oshirish, har tomonlama kamol toptirish maqsadida Buxoroga yo'l oladi. Buxoro, mashhur olim Abu Mansur as-Saolibiyning (961-1138) iborasi bilan aytganda: "Somoniylar davridan boshlab shon-shuhrat makoni, saltanat ka'basi va zamonasining ilg'or kishilari jamlangan: er yuzi adiblarining yulduzlari porlagan va o'z davrining fozil kishilari yig'ilgan (joy) edi". Az-Zamaxshariy Buxoroda o'qishni tugatgach, bir necha yil Xorazmshohlar xizmatida bo'lib, kotiblik bilan shug'ullanadi, hukmdorlar bilan yaqinlashishga urinadi. Biroq qobiliyati, ilmi, fazilatiga yarasha biror mansab va munosib e'tibor ko'rmagach, o'zga yurtlarga safar qiladi, matlabu-maqsadlarining ushaliyiga umid bog'laydi. 1118 yili az-Zamaxshariy og'ir dardga chalinadi, bu kasallikdan tuzalgach esa hukmdorlar xizmatiyu mansab va mol-dunyo ta'masidan mutlaqo voz kechadi, qolgan umrini faqat ilm-fanga bag'ishlashga, asarlar ta'lif etishga astoydil qaror qiladi. Az-Zamaxshariyning o'z davri ilmlarini to'liq egallashga, olimlik darajasiga etishishida, shubhasiz, ustozlarining xizmati benihoya katta bo'lgan. Mana shunday ustozlardan biri — til, lug'at va adabiyot sohasida mashhur olim Abu Mudar Mahmud ibn Jariyr al-Dabbiy al-Isfahoniydir (1113 yili Marvda vafot etgan). Al-Isfahoniy Xorazmda ham bir qancha muddat yashagan. Bu o'lkada mutaziliylar ta'limotining joriy bo'lishi ham mana shu Al-Isfahoniy nomi bilan bog'liqdir. Az-Zamaxshariy Bag'dodda shayx ul-islom Abu Mansur Nasr al-Xorisiy, Abu Saad ash-SHaqqoniy, Abul Xattab ibn Abul Batar kabi mashhur olimlardan hadis ilmidan tahsil oddi. Makkada bo'lganida esa nahv va fiqh bo'yicha ilmni Abu Bakr Abdulloh ibn Talxat ibn Muhammad ibn Abdulloh al-Yabiriy al-Andalusiy, ash-shayx as-Sadiyd al-Xayyatiy, lug'at ilmini esa Abu Mansur Mavhub ibn al-Xadar al-Javoliqiy kabi mashhur olimlardan o'rgandi. Az-Zamaxshariy hayoti davomida Marv, Nishopur, Isfahon, SHom, Bag'dod va IIIjjozda, ikki marta Makkada bo'ldi. Olim bu erda ilmiy ishlarini davom ettirdi, arab tili grammatikasi va lug'atini hamda mahalliy qabilalarning lahjalari, maqollari, urf-odatlarini chuqur o'rgandi, bu mintaqa jug'rofiyasiga oid xilma-xil ma'lumotlarni

to'pladi. Adib ko'p asarlarini Makkaligida yaratadi. O'z hayotida chuqur iz qoddirgan Makkada az-Zamaxshariy besh yilcha yashaydi. SHu boisdan u Jorulloh («Ollohning qo'shnisi») degan sharaflı laqabga muyassar bo'ladi.

O'z davrining yirik olimi darajasiga ko'tarilgan az-Zamaxshariyning Xorazmda ham, SHarqning boshqa ko'pgina shaharlarida ham ko'pdan-ko'p shogirdlari bo'lgan, alloma ko'p vaqtini o'shalarga bag'ishlardı. U qarindosh-urug'larining qiyin-qistovlariga qaramasdan, hayotida biror marta ham uylanmagan. Ilmiy asarlar yaratish va munosib shogirdlar tayyorlashni farzand o'stirishdan a'lo deb hisoblagan. Az-Zamaxshariy oxirgi marta Makkadan qaytib, Xorazmda bir necha yil yashaydi va hijriy 538 yilda, arafa kechasi (1144 yil 14 aprel) vafot etadi. 1333 yili Xorazmda sayohatda bo'lgan mashhur arab sayyohi ibn Battuta (1304-1377)

«Ar-Rihla» («Sayohatnoma») asarida az-Zamaxshariyning ustida qubbasi bo'lgan maqbarasini ko'rganini yozadi. Buyuk mutafakkir az-Zamaxshariy arab grammatikasi, lug'atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, jug'rofiya, tafsir, hadis va fiqhga oid ellikdan ortiq asarlar yaratgan, ularning aksariyati bizgacha etib kelgan. Arab tilshunosligi va grammatikasining turli tomonlariga oid asarlar az-Zamaxshariy ijodida salmoqli o'rin egallaydi. Jumladan, arab tili grammatikasiga oid «Al-Mufassal» (1121 yil) nomli asarini u Makkada yashagan paytida, bir yarim yil davomida yozgan. «Al-Mufassal» arab tili nahvu sarfini o'rganishda yirik qo'llanma sifatida azaldan SHarqda ham, g'arbda ham shuhrat topgan asarlardan hisoblanadi. Ko'pchilik olimlar o'z ilmiy qimmatı jihatidan az-Zamaxshariyning bu asari taniqli arab tilshunosi Sibavayhning (796 yili vafot etgan) arab grammatikasiga oid kitobidan keyin ikkinchi o'rında turadi, deb ta'kidlaganlar. O'sha davrning o'zidayoq arablar orasida ham bu asar katta e'tibor qozongan va arab tilini o'rganishda asosiy qo'llanmalardan biri sifatida keng tarqalgan. Hatto SHom (Suriya) hokimi Muzaffariddin Muso kimda-kim Az-Zamaxshariyning ushbu asarini yod olsa, unga besh ming kumush tanga pul va sarupo sovg'a qilishni va'da bergan. Bir qancha kishilar asarnı yod olib, mukofotga ham sazovor bo'lganligı manbalarda keltirilgan. Bu misol az-Zamaxshariy asarining o'sha davrda ham qanchalik yuksak baholanganini ko'rsatadi. Bu asarning bir qo'lyozmasi Toshkentda, O'zR FA SHarqshunoslik

institutida saqlanadi. «Al- Mufassal»ning ixchamlashtirilib, muxtasar holga keltirilgan nusxasi «Al- Unmazaj» («Namuna») nomi bilan ataladi. Grammatikaga oid asarlaridan SHarh abyat kitob Sibavayh» — hozir zikr etganimiz Sibavayhning kitobiga yozilgan mukammal sharhdir. Az-Zamaxshariyning xorazmshoh Alouddavla Abulmuzaffar Otsizga bag'ishlab yozilgan “Muqaddimat ul-adab” asari alohida ahamiyatga egadir. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, xo-razmshohlar davrida ilm-fan, madaniyat ancha taraqqiy qilgan edi. Hukmdorlar, ayniqsa, xorazmshoh Otsiz olimlar, shoiru adiblarga hurmat bilan qarar, o'zi ham iste'dodli, ma'rifatparvar, adabiyotga qiziqqan, bilimdon odam edi. Uning davrida ilm-fan taraqqiyoti yo'lida bir qancha xayrli ishlar amalga oshirilgan. SHu sababdan bo'lsa kerak, az- Zamaxshariy «Muqaddimat ul-adab»ni uning nomiga bag'ishlab yozgan. Asar besh katta qismga bo'lingan bo'lib — otlar, fe'llar, bog'lovchilar, ot o'zgarishlari va fe'l o'zgarishlari haqida bahs yuritadi. Asar 1137 yillari yozib tugallangan. Az-Zamaxshariy o'z asarida o'sha davr arab tilining iste'molda bo'lgan barcha so'zlari, iboralarini qamrashga intilgan, ularning etimologiyasiga katta e'tibor qilgan. SHu boisdan ham az-Zamaxshariyning bu yirik asarini mazkur yo'nalishdagi dastlabki asarlardan deyishga haqlimiz. “Muqaddimat ul-adab” arabchadan fors, chig'a-toy, mo'g'ul va turk tillariga tarjima qilingan. Manbalarda ta'kidlanishicha, asarning chig'atoy tilidagi tarjimasi az-Zamaxshariyning o'zi tomonidan amalga oshirilgan. Zotan xorazmshoh Otsizning tushunishi uchun asarning arabcha matni bilan birgalikda chig'atoy tilidagi tarjimasi ham yaratilgan, deb bilish o'rinlidir. “Muqaddimat ul-adab” yaratilgan davridan boshlab bir necha asrlar davomida olimlar, tadqiqotchilar diqqatini o'ziga tortib kelayotir. U birinchi marta 1706 yili Xo'ja Ishoq Afandi tomonidan usmonli turk tiliga tarjima etilgan. So'ngra Ovro'poning bir qancha tillariga (fransuz, nemis) o'girilgan. Parij, Leypsig, Vena, Leydan, qozon shaharlarida, Norvegiya, Misr va Hindistonda bir necha marta chop etilgan. Nemis olimi Vatzastayn «Muqaddimat ul-adab»-ning Ovro'po qo'lyozma fondlaridagi ettita nusxasini qiyosiy o'rganib, 1850 yili Leypsigda asarning ikki jildlik tanqidiy matnini nashr etgan. Asarning chig'atoy tilidagi tarjimasi uzbek tili tarixini o'rganuvchilar uchun muhim ahamiyatga egadir. Bu haqda Sadriddin Ayniy 1921 yili “Mehnatkashlar tovushi”

gazetasiga yozgan maqolasida “Az-Zamaxshariyning “Muqaddimat ul- adab” asari uzbek tili uchun butun dunyoning xazinasini bilan barobardir”, deb yozgan edi. Az-Zamaxshariy Makka amiri, olim va adib Abul Hasan Ali ibn Hamza ibn Vahhos as-Sulaymon bilan dust edi. Ibn Vahhos o‘z mamlakatining jug‘rofiyasi bilan juda yaxshi tanish bo‘lgan. Az-Zamaxshariy ibn Vahhos ma’lumotlariga tayanib, o‘zining Hijozga qilgan safaridan olgan shaxsiy kuzatishlari asosida yozgan “Kitob al-jibol va-l-amkina va-l-miyoh” (“Tog‘lar, joylar va suvlar haqida kitob”) nomli asarida jug‘rofiy joylar, tog‘lar va dengizlarga doyr qimmatbaho ma’lumotlar keltiradi. Mashhur arab olimi va sayyohi YOqut al-Hamaviy (1179-1229) ham o‘zining butun dunyoga taniqli “Mu’jam al-buldon” (“Mamlakatlar qomusi” asarida Arabiston, xususan, Hijoz haqidagi ma’lumotlarni az-Zamaxshariyning ushbu asariga tayanib yozgan. Az-Zamaxshariyning bu asari g‘arb olimlari o‘rtasida ham keng tanilgan, 1856 yili gollandiyalik arabshunos olim Salverda de Grave tomonidan mukammal tadqiq qilingan holda nashr etilgan. z-Zamaxshariy adabiyot, tafsir, hadis, fiqh ilmlari bo‘yicha ham mukammal asarlar yaratgan.

Olimning “Asos al-balog‘a” (“Notiqlik asoslari”) asari asosan lug‘atshunoslikka bag‘ishlangan. Unda arab tilining fasohati, mukammalligi haqida so‘z boradi. Fikrni chiroyli ibora va so‘zlar bilan ifodalash, so‘z boyligidan ustalik bilan foydalanish uchun kishi fasohat, balog‘at ilmlaridan yaxshi xabardor bo‘lishi kerak. Buning uchun so‘zni to‘g‘ri, o‘z o‘rnida ishlatish, qoidaga muvofiq so‘zlash va yozish ham kerak bo‘lgan. Bu asarda adabiyotning asosiy qismlari, frazeologik so‘z birikmalari, ularni amalda tadbiq etish yo‘llari chuqur tahlil qilingan.

“Atvoq uz-zahab fi-l-mavoi‘z va-l-xutab” (“Xutbalar va va’zlar bayonida oltin shodalar”) — nasihatimiz maqolalar to‘plamidan iborat. Asar birinchi marta

1835 yili olmon olimi Fon Xomir tomonidan nemischaga tarjima qilinib, arabcha matni bilan nashr etilgan. O‘ttiz yilcha o‘tgach, fransuzchaga tarjima qilinib, 1886 yili Parijda chop etilgan. 1873 yili ham usmonli turk tiliga tarjima qilinib, Istambulda nashrdan chiqqan...

Az-Zamaxshariyning “Rabi’ ul-abror va nusus ul-axyar” (“Ezgular bahori va yaxshilar bayoni”) asarida adabiyot, tarix va boshqa fanlarga oid hikoyalar, latifalar, suhbatlarning eng saralari

jamlangan, 97 bobdan iborat bu asarning nodir bir qo‘lyozma nusxa-si Toshkentda, O‘zR FA SHarqshunoslik institutida saqlanadi. Bun-dan tashqari, Leyden, Berlin kutubxonalarida ham qo‘lyozmalari mavjud. Olimning aruz vazni haqida bahs yurituvchi “al-Kustos fi-l-aruz” (“Aruzda o‘lchov (mezon)”) asari muhim manbalardan hisobla-nadi. Alifbo tartibida yig‘ilgan arab maqollari, masallariga ba-g‘ishlangan boshqa bir asarini “Al-Mustaqso fi-l-amsol” (“Nihoyasiga etgan masallar”) deb atapsh. “Maqomat” (“Maqomlar”) — ellik maqomdan iborat bo‘lib, qofiyali nasr — saj‘ uslubining nozik namunalarini o‘zida mujassam etgan muhim asardir. “Devon ush-she‘r” kitobi ham diqqatga sazovor asarlardan sanaladi. Az-Zamaxshariyning “Navobig‘ ul-kalim” (“Nozik iboralar”) asari esa arab lug‘atlarini o‘rganishga bag‘ishlangan yuksak did bilan yozilgan. Bu asar dastlab fransuz tiliga tarjima qilinib, asl nusxasi bilan birgaliqda 1876 yili Parijda, 1870 yili qohirada, 1884 yili Bayrutda, 1896 yili esa qozonda nashr etilgan.

Az-Zamaxshariyning g‘oyatda keng tanilgan “Al-Kashshof an haqiqi it- tanziyl va uyun ilgaqoviyl fi vujuh it-ta’viyl” (“Kur’on haqiqatlari va uni sharhlash orqali so‘zlar ko‘zlarini ochish”) asari Qur’on tafsiriga bag‘ishlangan. Ma’lumki, O‘rta asrlardan boshlab Qur’onni tafsir yoki sharh bilan o‘qish odat tusini olgan. SHu boisdan ham qur’on yaratilgan davrdan boshlaboq unga bag‘ishlangan tafsirlar, sharhlar yozishga katta ehtiyoj sezilgan. Turmush taqozosi bilan shunday vaziyatda islom tarixida qur’onga bag‘ishlangan ko‘pdan-ko‘p tafsirlar, sharhlar vujudga kelgan. Az-Zamaxshariy ham tafsir yozishdan avval o‘zidan oldin yaratilgan Qur’on tafsiriga bag‘ishlangan ko‘plab asarlarni qunt bilan o‘rgangan.

«Al-Kashshof» az-Zamaxshariy Makkada turgan paytida, uch yil davomida (1332— 1334) yozilgan. Nemis sharqshunosi Karl Brokkelman dunyoning turli qo‘lyozma xazinalarida «Al-Kashshof»ning yuzga yaqin qo‘lyozmalari va asarning o‘ziga bitilgan yigirmadan ortiq sharh va hoshiyalar borligi haqida yozishi az-Zamaxshariy asarining katta shuhratidan dalolat beradi. Qohiradagi butun dunyoga mashhur Al-Azhar diniy dorulfununining talabalari ham az-Zamaxshariyning «Al-Kashshof» asari asosida Qur’onni o‘rganadilar. “Al- Kashshof”ning Toshkentda, jumladan, O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniya nazoratining kutubxonasida bir qancha qo‘lyozma nusxalari

saqlanadi. Az- Zamaxshariyning chuqur bilimi, dahosi va fanning turli sohalariga oid o'lmis asarlari hali u hayot paytidayoq butun musulmon SHarqida unga katta shuhrat keltirgan. Allomani chuqur hurmat va mehr bilan "Ustoz ul-arab va-l-ajam" ("Arablar va g'ayri arablar ustoz"), "Faxru Xvarazm" ("Xorazm faxri") kabi sharaflil nomlar bilan ataganlar. Mashhur olimlar, shoirlar, adiblar davrasida u doimo peshvolardan biri bo'lib, qizg'in ilmiy bahslar, munozaralarda uning fikri inobatga olinardi. Mana shunday ulkan obro'-e'tibor, ehtimol, daho o'z asarlaridan birida "va inniy fi Xvarazm kaabat ul-adab" ("CHindan ham men Xorazmda adiblar uchun bir ka'baman") deb yozishiga asos bo'lgan bo'lsa kerak!

Mustaqillik tufayli nomi tiklangan, merosi tadqiq va nashr etilayotgan buyuk allomalarimizdan biri Mahmud Zamaxshariydir. U adabiyotshunoslik, lug'atshunoslik, tilshunoslik, islom ilmlari, aruz, mantiq kabi qator fanlarga bag'ishlangan asarlar yaratgan bo'lib, merosi asrlar davomida sharq va g'arb tadqiqotchilarini o'ziga rom etib kelmoqda. Zamaxshariyning ilm-fan rivojidadagi o'rni munosib baholanib, u "Dunyo ustoz", "Jorulloh" "Xorazm faxri", "Arab va ajam ustoz", "Adiblar ka'basi" kabi nomlar bilan sharaflangan.

Bibliografik manbalarda Mahmud Zamaxshariy nomiga ikki taxallus: "al-lug'aviy" va "an-nahviy" so'zlari qo'shib yozilganiga guvoh bo'lish mumkin. Bu nomlarning birinchisi "tilshunos", ikkinchisi "grammatik", ya'ni "grammatika mutaxassisi" ma'nolarini anglatadi. Binobarin, Zamaxshariy tilshunoslik, lug'atshunoslik, grammatika kabi sohalar rivojiga ulkan hissa qo'shgani sabab bu fanlar bilan bog'liq taxalluslar uning nomiga qo'shib zikr etiladigan bo'ldi. Zero, shu paytgacha ba'zilarining faqat nomi, ba'zilarining esa qo'lyozmasi topilgan alloma qalamiga mansub 72 asarning orasida tilshunoslik va grammatikaga oid asarlar salmoqli o'rin egallaydi. Allomaning mazkur sohada erishgan muvaffaqiyati uning tilshunoslikdan boshqa sohalarda ham go'zal asarlar bitishida muhim omil bo'ldi, deyishga to'la asos bor.

Mahmud Zamaxshariy tilshunoslik sohasida "Muqaddamat al-adab" (Adab ilmiga kirish) "Asos al-balog'a" (Balog'at asoslari), "Savoir al-amsol" (Saralangan iboralar), "Mutashobih asomiy ar-ruvot" (Roviylarning ismlaridagi noaniqliklar haqida), "Javohirul-lug'a" (Til javharlari), "Al-Asmo fil-lug'a" (Tilshunoslikda ismlar) "Al-

qistos al-mustaqiym fi ilmil-aruz” (Aruz ilmida aniq mezon), “Risola fil-majoz val-isti’ara” (Majoz va isti’ora haqida risola), “Al-Mu’jam al-arabiy al-farsiy” (Arabcha-forscha lug‘at) “Al-mustaqso fil-amsol” (CHuqur o‘rganilgan iboralar) kabi asarlar ta’lif etdi. Ular orasida “Muqaddamat al-adab” va “Asos al-balog‘a” ko‘plab mutaxassislarni qadimdan o‘ziga jalb etib, turli tillarga tarjima qilinib, ko‘p marta nashr qilingan asarlardir. “Muqaddamat al-adab” Xorazmshoh Alouddavla Abulmuzaffar Otsizga (1127-1156) bag‘ishlab yozilgan bo‘lib, uning arabcha-forscha, arabcha-turkiy, arabcha-xo-razmiycha, arabcha-forscha-turkiy, arabcha-forscha-turkiy-mo‘g‘uliy tillaridagi so‘zliklar kiritilgan qo‘lyozmalari bo‘lgan. SHu nuqtai nazardan asarni tadqiq etish va uni boshqa tillarga tarjima qilish keyingi asrlarda ham davom etgan.

“Muqaddamat al-adab” beshta katta qismga bo‘lingan bo‘lib, unda otlar, fe’llar, bog‘lovchilar, ot o‘zgarishlari va fe’l o‘zgarishlari haqida batafsil fikr bildirilgan. Bu mo‘tabar asarning yig‘ma ilmiy-tanqidiy matni filologiya fanlari doktori, professor Zohidjon Islomov tomonidan 2002 yilda “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasida chop etilgan. Muhim manba sifatida bu asar 1706 yilda usmonli turk tiliga, so‘ngroq fransuz, nemis tillariga tarjima qilingan. Parij, Leypsig, Vena, Leyden, Qozon, Norvegiya, Misr va Hindistonda bir necha marotaba nashr etilgan. Asarning chig‘atoy tiliga qilingan tarjimasi o‘zbek tili tarixini o‘rganuvchilar uchun muhim ahamiyatga egadir. Bu haqda mashhur yozuvchi Sadriddin Ayniy ham 1921 yili “Mehnatkashlar tovushi” gazetasidagi maqolasida: “Zamaxshariyning “Muqaddamat al-adab” asari o‘zbek tili uchun butun dunyoning xazinasini bilan barobardir”, deb yozgan edi. Mahmud Zamaxshariyning “Asos al-balog‘a” (Balog‘at asoslari) nafaqat uning tilshunoslikka oid asarlari orasida, balki butun arab lug‘atshunosligida ham muhim ahamiyatga ega asardir. U mazkur asari bilan arab lug‘atshunosligida yana bir maktabga asos solgan. Yirik sharqshunoslar, tilshunoslar, tarixchilar tomonidan “Asos al-balog‘a”ning bu qadar yuqori baholanishiga Zamaxshariyning lug‘atshunoslik sohasiga kiritgan bir qator yangiliklarini sabab qilib ko‘rsatish mumkin. Zamaxshariyning “Asos al-balog‘a”dagi asosiy yutug‘i bu ung‘acha mavjud bo‘lg‘an, lekin rivojlantirilmag‘an usul, ya’ni lug‘atda barcha o‘zak undoshlarni hisobg‘a olg‘an holda so‘zlarni qat’iy alifbo tartibida berish usulining‘

takomillashtirilganligidadir. SHuning uchun ham Zamaxshariy arab lug‘atshunosligi-da birinchi bo‘lib alifbo tizimini yo‘lga quygan lug‘atshunos hisoblanadi. Zamaxshariyning arab lug‘atshunosligiga bag‘ishlangan “Asos al- balog‘a” asarida fikrni chiroyli ibora va so‘zlar bilan ifodalash, lug‘at boyligidan o‘rinli va g‘oyatda mohirlik bilan foydalanish kabi masalalar mukammal ravishda o‘z ifodasin topgan. Bu qimmatli asar ham arab mamlakatlarida bir necha bor nashr etilgan va qo‘lyozma nusxalari SHarqning ko‘plab shaharlarida saqlanadi. Mahmud Zamaxshariyning grammatika sohasidagi asarlari ham hali- hanuz tilshunos olimlarning tadqiqot ob‘ekti bo‘lib qolmoqda. Masalan, Iroqlik tilshunos olim, Bag‘dod universiteti professori Bahiyja Boqir al-Hasaniy (1931 yilda tug‘ilgan) Zamaxshariyning “Al-muhajot bil-masail an-nahviya” (Grammatikaga oid ba’zi nodir masalalar), “Al-qistos al-mustaqim fiy ilm al-aruz” (Aruz ilmiga doir aniq mezon), “Al-mufrad val-muallaf fin-nahv” (Grammatikadagi yolg‘iz va qo‘shma so‘zlar), “Al-mufrad val-murakkab fil- arabiya” (Arab tilidagi birlik va ko‘plik) kabi asarlarini nashr etdi.

Mahmud Zamaxshariy “Al-Mufassal fin-nahv” nomli asarini u Makkada yashagan paytida bir yarim yil davomida yozgan. “Al-Mufassal” arab tili nahvu sarfini mukammal o‘rganishda eng muhim manbalardan biri sifatida azaldan SHarqda ham, G‘arbda ham shuhrat topgan va g‘oyatda qadrlanadi. Ko‘pchilik olimlar o‘z ilmiy qimmatini jihatidan Zamaxshariyning bu asari taniqli arab tilshunosi Sibavayhning (u 796 yili vafot etgan) arab grammatikasiga oid mashhur kitobidan keyin ikkinchi o‘rinda turadi deb ta’kidlaganlar. O‘sha davrning o‘zidayoq Zamaxshariyning bu asari katta e‘tibor qozongan va arab tilini o‘rganishda asosiy qo‘llanmalardan biri sifatida keng tarqalgan. Hatto SHom (Suriya) hokimi Muzaffariddin Muso kimda-kim Zamaxshariyning ushbu asarini yod olsa, unga besh ming kumush tanga pul va bosh-oyoq sarupo sovg‘a qilishni e‘lon qilgan. Bir qancha kishilar asarni yod olib, mukofotga ham sazovor bo‘lganligi haqida manbalarda aniq ma’lumotlar keltirilgan. Bu misol Zamaxshariy asarining o‘sha davrda ham qanchalik yuksak baholanganligini ko‘rsatadi. Bu muhim asar SHarq va G‘arb olimlari tomonidan ilmiy tadqiqotga keng jalb qilingan va bir necha marta nashr ham etilgan. Asarning bir qancha qo‘lyozma nusxalari Toshkentda, O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi

SHarqshunoslik institutida saqlanadi.XIX asrda ijod etgan nemis tilshunos olimi Maks Myuller kimki faqat ona tilini o'rganishga e'tibor qaratsa-yu, boshqa biror tilni o'zlashtirmasa, u o'z tilini ham mukammal bila olmaydi, degan mazmundagi g'oyani ilgari surgan edi. Myullerning bu fikrini undan sakkiz asr oldin vatandoshimiz Mahmud Zamaxshariy o'z asarlari orqali amaliy jihatdan isbotlab bergan edi.

Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek, "O'rta asrlarda Xorazm diyorida olis Arabistonga borib, arab tili grammatikasini mukammal tarzda ishlab chiqqan, ilm-fanning ko'plab boshqa sohalarida ham shuhrat qozongan Mahmud Zamaxshariy bobomizni esga olaylik. O'zining jismoniy nogironligiga qaramay, dunyoning ko'plab mamlakatlariga mashaqqatli safarlar qilgan, teran bilimi va ilmiy salohiyati bilan butun islom olamini lol qoldirgan bu zot, hech shubhasiz, xalqimiz uchun ma'naviy etuklik timsoli bo'lib qolaveradi". Mahmud Zamaxshariy (1075-1144) tilshunoslikning barcha sohaları, xususan, uning grammatika, adabiyot, balog'at, aruz singari yo'nalishlari bo'yicha dunyo tan olgan ustoz, shuningdek, tafsir, hadis va fiqh sohaları bo'yicha etuk alloma hisoblanadi. Zamaxshariy merosida fiqh, ya'ni islom huquqiga bag'ishlangan asarlar mavjudligi uning mazkur soha taraqqiyotidagi o'rnini belgilab beradi.Alloma ta'lif etgan 70 dan ortiq asarning oltitasi fiqh sohasiga tegishli va ulardan faqat "Ruusul-masail"gina bizgacha etib kelgan bo'lib, u islomdagi mazhablarni o'rganish borasida muhim qo'llanmadir.Fiqh va undagi yo'nalishlar mohiyatini yaxshi anglagan Mahmud Zamaxshariy hanafiy mazhabining namoyandasidir va fiqh sohasida uning Imom A'zam Abu Hanifa No'amon ibn Sobit (699-767) asos solgan mazhabga mansub ekani o'z isbotini topgan. Buni quyidagi besh omil bilan izohlash mumkin: Bibliografik asarlarning aksariyatida Zamaxshariyning hanafiy mazhabi vakili sifatida e'tirof etilgan.Alloma ilmiy merosiga bag'ishlangan zamonaviy tadqiqotlarda ham faoliyatidagi mazkur jihat o'zining isbotini topgan. Zamaxshariy ta'lif etgan "Kashshof" tafsirida va "Ruusul-masail" asarida Abu Hanifa va uning shogirdlari qarashlariga ustuvor maqom berilgan. Allomaga ustozlik qilgan faqihlar va uning shogirdlari asosan hanafiylikka mansub bo'lgan. Mahmud Zamahshariyning o'zi hanafiy mazhabida ekanidan faxrlangan.Birinchi omil. Qomuslarda Mahmud

Zamaxshariy hanafiy mazhabi faqihlari qatorida zikr etilgan. Bunga Al-Qurashiyning (1297-1373) “Al-Javahir al-muziya fi tabaqot al-hanafiya”, Ibn Qutlug‘bekaning (1399-1474) “Tojut-tarojim fi tabaqot al-hanafiya” va YOfi‘iyning “Mir‘ot al-janon” kabi asarlarini misol sifatida keltirish mumkin. Hanafiylikning mashhur namoyandalaridan biri Abdulhay Laknaviy (1848-1886) “al-Favaid al-bahiya fi tarojum al-hanafiya” asarida Zamaxshariyning hanafiy mazhabining ulug‘ faqihlaridan hisoblagan. “SHazarot az-zahab fi axbar man zahab” nomli tarixiy manbada esa alloma mazkur mazhabning peshvolaridan deb zikr etilgan. Ikkinchi omil. Mahmud Zamaxshariy asarlarini tadqiq etishda samarali faoliyat olib borib, alloma qalamiga mansub “Ad-dur ad-dair”, “Risala fiy kalima ash-shahada”, “Al-qistos al-mustaqim fiy ilm al-aruz”, “Al-qasida al-ba‘uziyya”, “Al-mufrad val-muallaf fin-nahv”, “Al-mufrad val-murakkab fil- arabiya” kabi asarlarini nashr etgan iroqlik olim doktor Bahiyja Boqir al-Hasaniy Zamaxshariyning “Al-muhajot bil-masail an-nahviya” asariga yozgan so‘zboshisida allomaning fiqhda hanafiy mazhabiga mansub bo‘lganini qayd etgan. Zamaxshariyning “Ruusul-masail al-xilafiya baynal-hanafiyya vash- shafiiyya” asarining nashri muqaddimasida doktor Abdulloh Nazir Ahmad ham allomaning hanafiy mazhabining faqihi ekanini ta’kidlagan. Uchinchi omil. Mahmud Zamaxshariy o‘zining mashhur tafsiri “Kashshof”da yuzdan ortiq o‘rinda Imom A‘zam Abu Hanifa No‘‘mon ibn Sobit va uning Muhammad ibn Hasan SHayboniy, Abu YUsuf YA‘qub ibn Ibrohim al-Ansoriy hamda Zufar ibn Huzayl kabi shogirdlarining oyatlardan olinadigan fiqhiy hukmlar borasidagi qarashlarini naql qilgan. SHuningdek, “Ruusul-masail” asarida Zamaxshariyning hanafiy mazhabiga oid masalalarni yoritishda “Bizning qarashimiz yoki bizning dalilimiz” qabilidagi iboralarni ishlatgani uning mazkur mazhab vakili va namoyandasi ekanini isbotlaydi. To‘rtinchi omil. Zamaxshariy hanafiy mazhabining mashhur namoyandalaridan biri Abul-Husayn Ahmad ibn Ali Domg‘oniydan (1090-1145) ta’lim olgan. Allomaning tilshunoslik va grammatika borasida eng yaqin talabalaridan biri Muhammad ibn Abil-Qosim Boyjuk al-Baqqoliy, hadis ilmi bo‘yicha undan saboq olgan Abu Tohir Somon ibn Abdul-malik ibn al-Husayn as- Somoniy al-Hanafiy al-Xorazmiy, Imom A‘zam biografiyasiga bag‘ishlangan muhim asarni ta’lif etgan faqih, adib, shoir Abul-Muayyad Xorazmiy kabi shogirdlari hanafiy

mazhabida bo‘lishgan. Beshinchi omil. Mahmud Zamaxshariy hanafiy mazhabi vakili bo‘lganidan faxrlangan va bu turli davr tarixchilari tomonidan yozilgan asarlar qatorida e’tirof etilgan. Allomaning bir qancha asarlarini tadqiq etib, nashr etgan doktor Bahiyja Boqir al-Hasaniy mashhur muarrix Ibn Xallikonning “Vafayotul-a’yon”idan, doktor Abdulloh Nazir Ahmad esa Misrlik olim Ahmad Muhammad Al-Hufiyning “Az-Zamaxshariy” asaridan Zamaxshariy qalamiga mansub quyidagi nazmni naql qilishgan: “Dinu e’tiqodimni, maslaku mazhabimni Hanafiylarga bog‘ladim, ularni ixtiyor etdim. Diyonatlari haqiqiy, mazhablari hanafiy Mashaqqatni talab etmas, yo‘llaridan ravon ketdim. Mazkur misralar Mahmud Zamaxshariyning hanafiy mazhabida bo‘lganini anglatadi. SHE’rdagi ya’ni “e’tiqodimni” deya, aqida borasida ham hanafiy mazhabida ekanini alloma tomonidan e’tirof etilishi e’tiborga loyiqdir. SHu o‘rinda bir narsani alohida ta’kidlash joizki, Zamaxshariy merosi bo‘yicha izlanish olib borganlar, xususan, arab dunyosidagi ba’zi tarixchilar asarlarida allomaning mo‘‘tazila oqimiga mansubligi to‘g‘risidagi fikrlarga urg‘u berish ko‘zga tashlanadi. Ayrim hollarda, uning arab tili va adabiyoti taraqqiyotiga qo‘shgan benazir hissasi unutilib, aqidasi borasidagi turli qarashlarni bo‘rttirish seziladi. Bu holat ilmiy izlanish borasidagi eng muhim talablardan biri bo‘lmish xolislikdan chetlanishni anglatadi. Aslida, agar Mahmud Zamaxshariy hayoti borasidagi tadqiqotlarning ko‘lami kengaytirilsa va tahlillar chuqurlashtirilsa, mazkur da’volarning noo‘rin ekani ma’lum bo‘ladi. Masalan, alloma ta’lif etgan 70 dan ortiq asarning asosiy qismi tilshunoslik va adabiyotga qaratilgan. Uning tafsir, hadis va fiqh sohalaridagi asarlari merosining oz qismini tashkil qiladi. Zamaxshariyning aqida sohasiga tegishli deb taxmin qilinayotgan birgina “Al-minhoj fi usul” risolasi ham shu paytgacha musulmon olamida o‘rganilmagan. Binobarin, Mahmud Zamaxshariyning aqidasi borasidagi qarashlarga urg‘u berish maqsadga muvofiq emas va alloma ilmiy merosiga nisbatan noxolis munosabatni keltirib chiqarishi tabiiy. Garchi tarixiy manbalarning aksariyatida Zamaxshariy fiqhda hanafiy, aqidada mo‘‘taziliy yo‘nalishiga mansub, deya qayd etilsa-da, ammo so‘nggi ilmiy izlanishlar natijalari u umrining oxirida mo‘‘taziladan sunniylik aqidasi qaytganini ko‘rsatmoqda. Mazkur qarashni ilgari surgan tadqiqotchilar isbot uchun quyidagi dalillarni keltirganlar: Ibn Xallikon naql

qilishicha, Mahmud Zamaxshariy vafotidan ilgari o‘z qabri ustiga hayotining birinchi davridagi gunohlaridan qilgan tavbasini ifoda etgan she‘ri yozilishini vasiyat qilgan. Muarrixlar birinchi davrdan murod, mo‘‘tazila aqidasiga e‘tiqod qilingan davr ekanini qayd etishgan. “Mu‘jam al-muallifiyn”, “Hadiyat al-arifiyn” hamda Zirikliyning “Al-a‘lam” kitoblarida keltirilishicha, o‘z davrida muarrix, faqih, adib, shoir va tilshunoslik sifatida tanilgan Marokashlik Hofiz Abu Abdulloh Muhammad ibn Muhammad as-Sog‘iyr al-YAfroniyy (ba‘zi manbalarda al-Ifroniyy) (1669-1728) “Tal‘at al-mushtariy fi subut at-tavba az-Zamaxshariy” (“Mushtariy yog‘dusi kabi sobit bo‘lgan Zamaxshariy tavbasi”) nomli risola yozgan. Ibn Tulunning “Al-arf al-anbariy fi tarjama az- Zamaxshariy” (“Zamaxshariy tarjimai holidagi mushk-anbar ifori”) nomli asarida ham Zamaxshariyning sunniylik aqidasiga qaytgani haqida so‘z yuritilgan. YUqoridagi ma‘lumotlar zaminida Mahmud Zamaxshariy nafaqat fiqh borasida, balki aqidada ham hanafiy mazhabiga mansub bo‘lgan, degan xulosa yotadi. Mazhabsizlik g‘oyasi musulmon olami uchun eng katta tahdidlardan biriga aylangan hozirgi davrda “Xorazm faxri”, “Dunyo ustoz” degan sharafli nomga sazovor bo‘lgan Zamaxshariy kabi alloma ham sunniylik mazhablaridan biriga mansub bo‘lganini tadqiq etish jaholat va bilimsizlik tufayli yuzaga kelayotgan turli ziddiyatlarga barham berishda, kishilar o‘rtasidagi birdamlik va jamiyatdagi barqarorlikni muhofaza etishda dolzarbdir. Umuman, Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosini, uning fiqh va mazhablar borasidagi qarashlarini o‘rganish Markaziy Osiyoda hanafiy mazhabi, qiyosiy fiqhshunoslik, qiyosiy dinshunoslik kabi sohalar taraqqiyotini tadqiq etish hamda bugungi kunda dinshunoslik borasida dolzarb bo‘lgan masalalarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Zamaxshariy hayoti va faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
2. Zamaxshariyning tilshunoslik sohasidagi ishlari to‘g‘risida nimalarni ayta olasiz?

3.Zamaxshariy merosining ahamiyati nimalarda ko‘rinadi?

Mavzuni chuqurroq o‘rganish bo‘yicha qo‘shimcha adabiyotlar

1.Islomov, S.Saidjalolov. Mahmud Zamaxshariy va fiqh ilmi. – T.:

“Movarounnahr.2011. b.8.

2.Qurashiy Abu Muhammad Abdul-Qodir ibn Abil-Vafa Muhammad ibn Muhammad Misriy. al-Javahir al-Muziya fiy tabaqatil-xanafiya: 2-jild. – Haydarabad. 1910 , – B. 493.

3. Ibn Qutlug‘beka, Tojut-tarajim fiy tabaqotil-hanafiya, – Qohira. 2001, – B. 493

4.Laknaviy Muhammad Abdul- Hayy al-Hindiy. al-Favoidil-bahiya fiy tarajim al- xanafiya: 2-jild. – Qohira. 1902. – B. 210.

16-Mavzu: Burxonuddin al-Marg‘inonilarning ilmiy merosi

Reja:

1.Burxonuddin al-Marg‘inoniy hayoti va faoliyati

2. Al-Marg‘inoniyning butun islom olamida mashhur bo‘lgan “Hidoya ” asari

3.O‘zbekistonda 2000 yilda Al-Marg‘inoniyning 910 yillik tavallud sanasining keng jamoatchilik tomonidan nishonlanishi

II BOB. O‘rta Osiyo tariqatlari tarixi

3-Bo‘lim. Tasavvufning paydo bo‘lishi, shakllanishi va tasavvufga doir masalalar

17-Mavzu: O‘rta Osiyoda tasavvuf va tariqatlarni o‘rganish muammolari

Reja:

1.O‘rta Osiyo tasavvufini o‘rganish manbalari

2.Tasavvuf tarixi va ta’rifi

3. Tasavvufning shakllanishi, ilk mutasavviflar

Tasavvuf ta’limotining shakllanishi va taraqqiyoti uzoq davr davom etgan bir hodisa bo‘lib, o‘ziga xos mustahkam mafkura kuchiga aylangan. Markaziy Osiyoda tasavvuf 10-12 asrlarga kelib nazariy va amaliy jihatdan takomillashdi. “Tasavvuf va uning tariqatlari ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilgan. Tarakqiyot asosida tasavvufning yaxshi, ideal jamiyat haqidagi qarashlar vujudga kelgan. Tasavvuf bunday jamiyatga zo‘rlik inqilob yo‘li bilan emas, balki har insonni axloqiy tarbiyalash orqali etishish mumkin deb utirgan. Insonning mutlaq haqiqat mutlaq adolat va poklikka erishish istaklari ayni tasavvufda mujassam bo‘lgan”.

Islom dini ma’naviyatining muhim tarkibiy va ajralmas tarkibiy qismi bo‘lgan tasavvuf o‘z tarixi, shakllanishi va takomillashuvi jarayoniga ega. Tasavvuf musumonchilik ma’ahnaviy hayotining e’tiqod, axloq, huquq, falsafa, adabiyot, san’at kabi turli-

tuman jabhalaridan chuqur joy olib kelgan. Markaziy Osiyo xallari ma'naviy hayotida islom dini va tasavvuf ta'limoti muhim o'rin tutadi. Har bir xalqning tarixida barcha ijtimoiy-ma'naviy hodisalar o'shzining turli darajadagi ta'siriga ega bo'shladi va bu hol shu xalqlarning keyingi hayotida ham etarli ahamiyat kasb etadi. Tarix o'timish bilan kelajakni bog'lab turuvchi ko'prikdir.

Inson o'z amaliy faoliyati davomida har doim o'zi bosib o'tgan yo'liga

murojaat qiladi, o'z tajribalariga asoslanib, undagi ijobiy jihatlardan keying8i faoliyatida amaliy tarzda foydalanadi. Jamiyat uchun ham uning tarixi mana shu jihatlari bilan muhimdir. Tarix jamiyatda buyuk murabbiy sifatida katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Tasavvuf ta'limoti ham Markaziy Osiyo xalqlarining bir necha asrlik tarixida davomida ma'naviy omil vazifasini bajarib kenlagn. SHu jihatdan bu xalqlarning ijtimoiy, madaniy hayotida tasavvuf tariqatlarning ta'siri muhim o'rin tutadi. Hozirgi tasavvuf ta'limotining ilmsiy o'rganishga katta e'tibor qfaratilmogda, Tasavvuf ta'limotining ilmiy o'rganish bilan birga unin amaliy tarbiyaviy jihatlari katta e'tiborni qartaisho' lozim.

Milliy istiqlol g'oyasining asosiy maqsadlaridan biri komil inson tarbiyasidir. Jamiyat rivojlanishida barkomaol inson, har jihatdan etuk shaxslar hal qiluvchi omil vazifasini bajaradi. Tasavvuf ta'limotining ham diqqat markazida komil inson g'oyasi turadi. YOsh avlodni tarbiyalash jarayonida tasavvuf ta'limotidagi g'oyalardan hozirgi davr nuqtai nazari bilan baholagan holda foydalanish mumkin. "Komil inson uchun xalqqa naf keltirishdan ko'ra foydaliroq ish va yaxshiroq toat yo'qdir. Va uning uning uchun eng ulug' rohat biror ish, biror so'z bilan bu dunyoda kishilarning mushkulini oson qilish, olamning balo- fitnalaridan saqlanishga yordam berish, oxiratda esa maxfirat topishga ko'maklashishdir".

Tarixda o'tgan buyuk shaxslarning hayot yo'li har doim kishilar uchun ibratlidir. Bahouddin Naqshbandning mehnatsevarligi, Najmiddin Kubroning vatanparvarligi, YAssaviyning insoniylik jihatlari ko'rsatuvchi ularning hayotidagi ma'lum bir ibratli tomonlardan yosh avlodni tarbiyalash davomitda foydalanisht mumkin. Ularning hayoti haqida hikoya qiluvchi ommabop va badiiy asarlar yaratishning ham amaliy-tarbiyaviy ahamiyati kattadir. SHu

sabali biz tasavvuf ta'limotining faqat tor doirada ilmiy o'rganimsh bilan cheklanmasdan uning tarbiyaviy jihatlariga ham ko'proq e'tiborimizni qartmog'imiz lozim. Demak fuqarolik jamiyati va boor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantiriish jarayonida ma'naviy etuk komil insonni tarbiyalashda, ijtimoiy munosabatlarda insonparvarlik tamoyilini ustuvorligiga erpishishda tasavvuf ta'limotini o'rganishning amaliy- tarbiyaviy ahamiyati imkoniyatlari kengdir. Tasavvuf ta'limoti payg'ambarlardan meros qolgan. Har bir ulug' payg'ambar o'z qalbini Alloohning zikri bilan pok etib, Uning buyruqlarini bekamu ko'st bajargan va o'z qo'llari bilan mehnat qilib halol rizq egshanlar. Masalan, Odam aliyhissalom dehqonchilik, Idris alayhissalom tikuvchilik, Dovud aliyhissalom temirchilik, Muso va Muhammad aliyhissalomlar cho'ponlik qilganlar. Keyinchalik Muhammad aliyhissalom tijorat bilan shug'ullanganlar. Payg'ambarimzning muborak hayot yo'llari chuqur ma'naviy tarbiya, axloq –odob qoidalarining timsoli bo'lib kelgan va kelmoqda.

Tasavvuf g'oyalarining tarqalishi, darveshchilik harakatining rivoj topishiga turli pirlar, atoqli shayxlarning nomi bilan bog'liq tariqatlarning ahamiyati katta bo'lgan. Tariqat (yoki suluk – yo'llar) bir-biridan, avvalo, yuqorida aytganimiz, islomdagi ikki mazhab – shia yoki sunnaga rag'bati bilan, ikkinchidan, shariatga munosabati bilan, uchinchidan, muayyan tariqat tarqalgan aholining qadimiy tasavvur-odatlarini, madaniy darajasi bilan va, nihoyat, to'rtinchidan har bir piri murshidning tarbiya usuli, ma'qul deb hisoblagan ruhiy- ma'naviy ta'sir vositalari bilan o'zaro farqlangan. Masalan, Mesopotamiya va Eron, Hurosonda tafakkuriy- falsafiy yo'nalish, Turkiya, Afrika mamlakatlari, qisman Hindistonda shariatga zich bog'langan yo'nalish, Movarounnahrda ham falsafiy va ham shariat izmidagi yo'nalishlar birgalikda yoyilgan. Tariqatlar-ning soni elliktadan ortiq. CHunonchi, tayfuriya, zahabiya, hurufiya, hallojiya, shozaliya, junaydiya, suhravardiya, safariya, qodiriya, ne'matullohiya, chishtiya, nizomiya, bektoshiya, nurbaxshiya, mavlaviya, malomatiya, qalandariya, ma'rufiya, firdavsiya, nuriya, qushayriya, xalvatiya, adhamiya, ahmadiya va hokazo.

Bulardan tayfuriya (Tayfur Boyazid Bistomiy nomi bilan bog'liq), hakimiya (Hakim Termiziy nomi bilan bog'liq), hallojiya (Mansur Hallojga nisbat beriladi), suhravardiya (YAhyo Suhrevardiy nomi bilan bog'langan) oqimlar ko'proq nazariy tomonlari bilan ma'lum.

CHunki Bistomiy, Hakim Termiziy, Junayd Bag‘dodiy yoki YAhyo Suhravardiy maxsus xonaqo tariqatini tuzib, solik tarbiyasi bilan shug‘ullanmaganlar. Ularning tarafdorlari bor, xolos.

Qalandariya, malomatiya kabi oqimlar esa biror shayx nomi bilan bog‘liq bo‘lmagan, alohida yo‘nalishlardir.

Markaziy Osiyoda quyidagi tariqatlar qadimdan keng tarqalgan: qodiriya, yassaviya, kubraviya va naqshbandiya (yoki «xojagon»).

Qodiriya tariqati eronlik shayx Geloniy (1077–1166) nomi bilan asoslangan. U asosan Bag‘dodda yashab karomatlar ko‘rsatish, ilmu riyozat bilan mashhur. Sunniy mazhabidadir. Abulqodir Geloniy Junayd Bag‘dodiyning «sahv» (hushyorlik) konsepsiyasini rivojlantirgan, u muridlari orasida «Buyuk madadkor» (G‘avsul a‘zam) nomi bilan mashhur bo‘lgan. Uning tariqati hozirgi Arabiston mamlakatlari, Turkiya va O‘zbekistonda tarqalgan. Abdulqodir Geloniy Movarounnahrda bo‘lgan emas, ammo shunga qaramay uning tariqatining Farg‘ona vodiysi, Samarqand, Qashqadaryo tomonlarda ixlosmandlari va izdoshlari bor.

YAssaviya ulug‘ shayx va shoir Xoja Ahmad YAssaviy (vafoti 1166 yil) asoslagan tariqat. SHuni aytish kerakki, yassaviya bilan naqshbandiyaning ildizi Xoja YA‘qub YUsuf Hamadoniya (1048–1140) borib taqaladi.

Ahmad YAssaviy ilk ustozi Arslonbobdan xirqa kiyib, tasavvuf yo‘liga kirgach, Buxoroga borib Hamadoniya tariqat ta‘limini oladi. Abduxoliq G‘ijduvoniya bilan birga Hamadoniya ning eng ishongan xalifasiga aylanadi. Hamadoniya vafot etgach, uning o‘rniga uchinchi bo‘lib shayxlik maqomiga ko‘tari-ladi, ammo ko‘p o‘tmay Buxorodagi ishlarini birodari Abduxoliq G‘ijduvoniya ga topshirib, o‘z vatani Turkistonga qaytadi va bu erda yangi tariqatni ta‘sis etadi. Uning ko‘p sonli muridlari turkiy xalqlar orasida yurib, tasavvuf g‘oyalarini yoyganlar. YAssaviy ovoz chiqarib zikr aytish («zikri jahriya») va karomatlar ko‘rsatib murid tarbiyalash, hilvatda suhbat qilishni yo‘lga qo‘ygan. Uning o‘zidan keyingi silsilasini quyidagi shayxlar davom ettirganlar: So‘fi Muhammad Donishmand, Suylamon Boqirg‘oniy, Mansur bin Arslon bobo, Luqmon Paranda, Abdumalik Tojxoja, Ishoq bobo, Zangi ota bin Abdumalik, Said Xorazmiy, Xalil ota, Xoja Bektosh Valiy, Uzun Hasan, Sadr Xoja, Badr Xoja, Ahmad Sayyid, Kamol Iqoniy, Hazrati Bashir va boshqalardir.

YAssaviya tariqati hozirgi Markaziy Osiyo, Turkiya va Rossiya xududlarida tarqalgan.

Kubraviyaning asoschisi xorazmlik ulug' shayx Najmiddin Kubro (1145–

1221)dir. U kishining ismi Ahmad, otasining ismi Umar bo'lib, Najmiddin, Kubro, Valitarosh, Abuljannob so'zlari u kishini sharaflovchi kunya va laqablardir.

U kishi Misr, Eron Iroq, SHom mamlakatlarini kezib, turli ilmlarni egallaganlar. SHayx Ro'zbehon Vazzon, Bobo Faraj, SHayx YOsir Ammor, SHayx Ismoil al Kasriylardan so'fiylik sirini egallab, Xorazmga qaytib, xonaqo qurganlar. Juda ko'p muridlari bo'lgan. U kishining nazari tushgan odam albatta ilohiy fayzu barakot topar ekan. Ulug' shayx shogirdlariga ilohiy haqiqatlar sirini ochish, poklik va ruhiy-ma'naviy yuksalishni ta'lim bergan. Najmiddin Kubro bir necha kitoblar ta'lif etgan, ularda inson va koinot, inson ruhiyati tadqiq etiladi. O'ziga xos tariqat yo'li («usuli ash'ora» – o'nta usul) bayon etiladi.

Najmiddin Kubro mug'ul bosqichilariga qarshi jangda qahramonlarcha halok

bo'lgan, qabri Ko'hna Urganchdadir.

Najmiddin Kubroning silsilasi:

Majdiddin Bag'dodiy, Sayfiddin Boxarziy, Sa'diddin Hamaviy, Farididdin Attor, Raziaddin Axi Lolo, Najmiddin Doya, Badriddin Firdavsiy, Najmidin Muhammad, Sadriddin Ibrohim, Aziziddin Nasafiy, SHayx Kamol Jundiy, Nuriddin Abdurahmon Isfahoniy, Rukniddin Ali ad Davla as Simmoniy.

Kubraviya Eron, Pokiston, Afrikada tarqalgan, firdavsiya, nuriya, rukniya, hamadoniya kabi o'ndan ortiq shoxalari bor.

Naqshbandiya Buxoroi sharifda shakllangan bo'lib, dunyoda eng ko'p tarqalgan tariqatidir. Asoschisi Bahovaddin Muham-mad bin Burhon bin Muhammad al- Buxoriy (1318–1389). «Naqshband», «balogardon» ul zoti sharifning muborak sifatlaridir. Bahovaddin Naqshband silsilasini yuqorida keltirdik. Ammo bu bir shoxasidir. Naqshbandiyaning Hindiston, Malaziya, Filippin, Eron, Pokiston,

Afgʻoniston, Turkiya, Rossiyada yana koʻplab tarmoq silsilalari bor. Hatto gʻarbiy Evropa va AQSHda ham bu tariqat tarafdorlari bor. Lekin shuni qayd etish kerakki, xorijda yashovchi «naqshbandiy»larning bir qismi asl Naqshband tariqatidan uzoqlashib qolganlar. Naqshband zikri xafiy (sokin zikr) tarafdori, u kishi suhbatni tarbiyaning asosiy quroliga aylantirib, xilvatninishlikni ham, samou raqsni ham qabul qilmaganlar. Balki botiniy olamni rivojlantirish, shariatdan uzoqlashmasdan soʻfiylik maqomini egallashni talab qildilar. Naqshband hazratlari amal qilgan «Safar dar vatan», «Xilvat dar anjuman», «hush dar dam», «nazar dar qadam», «dil ba YOru dast ba kor» shiorlari odamni ham maʼnaviy yuksalishga koʻmaklashadi va ham jamiyatda bahamjihat yashab oʻzaro bir-biriga yordam berish, mehnat, bunyodkorlik bilan yurtni obod qilishga safarbar etadi.

Tasavvuf SHarq maʼnaviyati tarixida muhim oʻrin egallab kelgan tadrijiy taraqqiyotga ega bir taʼlimot boʻlib, islom olamida VIII asrning oʻrtalarida paydo boʻlgan. Dastlab u zohidlik harakati koʻrinishida kurtak yoyadi. Gap shundaki, hazrati Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vasallam vafotlaridan keyin musulmonlar jamoasi ichida boʻlinish yuz beradi, ayniqsa, xalifa Usmon razyallohu anhu zamonlarida boylikka ruju qoʻyish, qimmatbaho tuhfa bilan qarindosh-urugʻlar, yaqin doʻst-birodarlarni siylash rasm boʻladi. Ummaviya xalifaligi davriga kelib esa, saroy hashamlari, dabdabali bezaklar, oltin-kumushga berilish, xazina toʻplash avj oldi. YAʼni diniy mashgʻulotlar, Xudo yoʻlidagi toat- ibodat oʻrnini dunyoviy ishlar, dunyo moliga muhabbat egallay boshladi. Bu hol diniy amrlarni ado etishni har qanday dunyoviy ishlar, boyliklardan ustun qoʻygan eʼtiqodli kishilarning noroziligiga sabab boʻldi. Ular orasida hadis toʻplovchi muhaddislar, ilgaridan qashshoq boʻlib, uy-joy, mol-mulkka eʼtibor qilmagan sahobalar ham bor edi. Bularning bir qismi dinni himoya qilib, ochiq kurashga otlangan boʻlsalar, ikkinchi qismi esa, qanoat va zuhdni («zuhd» soʻzidan «zohid» soʻzi kelib chiqqan) asosiy maqsad qilib olib, saroy ahli va sarvatdorlar, boylar axloqiga qarshi norozilik belgisi sifatida tarkidunyochilik gʻoyasini targʻib etib, ijtimoiy faoliyatdan butunlay chetlashganlar, surunkali toat-ibodat bilan shugʻullanganlar.

Kufa, Bagʻdod, Basra shaharlarida tarkidunyo qilgan zohid-lar koʻp edi, aytish kerakki, ularning obroʻ-eʼtibori ham xalq orasida katta

bo'lgan. CHunonchi, Uvays Qaraniy (VII asr), Hasan Basriy (642–728) kabi yirik so'fiylar aslida zohid kishilar edilar, shuning uchun bu zotlarning nomi shayxlar va so'fiylar haqidagi tazkiralarda zohid sifatida tilga olinadi, ba'zi mualliflar esa ularni so'fiylar qatoriga qo'shmaganlar ham.

Buning boisi shuki, zohidlar uzlat va taqvoni pisha etgan bo'lishlariga qaramay, ishq va irfon (ilohiy ma'rifat)dan bexabar kishilar edilar. Ular falsafiy mushohadakorlik, ajzu irodat bilan ma'naviy-axloqiy kamolot sari intilish, valilik, karomat-mo'jizalar ko'rsatish kabi xislatlarga ega emasdilar. Zohidlarning niyati ibodat bilan oxirat mag'firatini qozonish, Qur'oni Karimda va'da qilingan jannatning huzur-halovatiga etishish edi. So'fiylar nazarida esa jannat umidida toat-ibodat qilish ham tama'ning bir ko'rinishidir. Holbuki, so'fiy uchun na dunyodan va na oxiratdan tama' bo'lmasligi kerak. YA gona istak bu – Xudoning diydoridir, xolos.

Mashhur so'fiy ayol Robiya Adviya (714–801) Allohga munajatlarida nola qilib aytar ekan: «Ey Parvardigorim, ey YOri aziz, agar jannating tama'ida toat qiladigan bo'lsam, jannatingdan benasib et, agar do'zaxingdan qo'rqib ibodat qiladigan bo'lsam, meni do'zax o'tida kuydir – ming-ming roziman! Ammo agar Sening jamolingni deb tunlarni bedor o'tkazar ekanman, yolvoraman, meni jamolingdan mahrum etma!»

Alloh taologa quruq, ko'r-ko'rona mute'likning hojati yo'q. Xudo g'azabidan qo'rqibgina amri ma'rufni bajarish sadoqat belgisi emas, balki riyodir. SHuning uchun so'fiylar: Allohni jon-dildan sevish, Uning zoti va sifatlarini tanish va bilish, ko'ngilni nafsu hirs g'uboridan poklab, botiniy musaffo bir holatda Iloh vasliga etishish va bundan lazzatlanish g'oyasini keng targ'ib qildilar. Inson ruhi ilohiydir va, demak, asosiy maqsad – ilohiy olamga borib qo'shilmoqdir, dedilar.

SHu tariqa, dunyodan ko'ngil uzgan, ammo zohidlarga o'xshamaydigan, «bir nazar bilan tuproqni kimyo etadigan» (Hofiz SHeroziy) zehnu zakovat, aqlu farosatda tengsiz, ammo o'zga mutafakkirlar, faylasuflardan ajralib turadigan, shariat ilmini suv qilib ichgan, toatu ibodatda mustahkam, lekin oddiy dindorlardan farqlanadigan ajoyib xislatli odamlar toifasi paydo bo'lgan ediki, ularni ruh kishilari deb atardilar. Bunday odamlarning fe'l-atvori, yurish-turishi, xoriqulodda (odatdan tashqari) so'zlari va ishlari

atrofdagilarni hayratga solar, ba'zilarining g'aybdan bashorat beruvchi kamromatlari, sirli mo'jizalari aqllarni lol qoldirardi. Ularni ahlulloh, avliyo, ahli hol, ahli botin, arbobi tariqat, darvesh, qalandar, faqir degan nomlar bilan tilga olardilar. Ammo bu toifaga nisbatan ko'proq «so'fiy» nomi qo'llanilgan, chunki ushbu so'zning ma'nosi ancha keng bo'lib, boshqa tushuncha va atamalarni o'z ichiga sig'dirardi.

Xo'sh, «so'fiy» so'zi qaerdan paydo bo'lgan? Bu haqda bir necha xil qarashlar bor. Ba'zilar bu so'z «saf» so'zidan kelib chiqqan deydi, chunki so'fiy Iloh yo'lga kirganlarning birinchi safida turuvchidir. Ba'zi olimlar uni «suffa» so'zidan hosil bo'lgan deb aytadilar: ashobi suffa hazrati Payg'ambar sallallohu alayhi vasallam hayotliklaridayoq tarki dunyo qilgan taqvo-dor kishilar bo'lib, so'fiylar shularga taqlid qiladilar, deb tushuntiradilar. Yana bir guruh olimlar so'fiy so'zi

«safo» so'zidan kelib chiqqan, chunki bu toifaning qalbi sidqu safo oftobiday porlab turadi, deganlar. Yana ba'zilar so'fiy «sufuh» so'zidan yasalgan, sufuh – biror bir narsaning xulosasidir, bu jamoa xalqning xulosasi bo'lganligi sababli ularni so'fiy deganlar, deb yozadilar. So'fiy so'zi «sof» so'zidan chiqqan deguvchilar ham bor. Abu Rayhon Beruniy bo'lsa «suf», ya'ni faylasuf so'zining oxirgi qismidan yasalgan deb ko'rsatadi. Ammo ko'pchilik so'fiy so'zi arabcha

«so'f» so'zidan hosil bo'lgan, degan fikrni bildiradilar. «So'f» so'zining lug'aviy ma'nosi jun va jundan to'qilgan matodir. So'fiylar ko'p hollarda jun chakmon yoki qo'y terisidan tikilgan po'stin kiyib yurishni odat qilganlari uchun ularni jun kiyimlilar (forschasi pashminapo'sh), ya'ni so'fiy deb yuritganlar. Bizningcha, shu keyingi e'timologik ma'no haqiqatga yaqinroqdir, zero, so'fiy so'zining «so'f» so'zidan yasalishi arab tili qonun-qoidalariga mos keladi.

Agar «so'f» so'zidan so'fiy yasalgan bo'lsa, o'z navbatida, «so'fiy»dan,

«tasavvuf», «mustasuf», «mutassuf», «mutasavvuf» so'zlari hosil bo'lgan. Mustasuf o'zini so'fiylarga o'xshatib, taqlid qilib yuradigan, ammo asl maqsadi amal-mansab, molu mulkka intilishdan iborat bo'lgan kishilarga nisbatan ishlatilgan so'z bo'lsa, mutassuf tariqat va haqiqatda muayyan manzillarni egallagan, biroq so'fiy darajasiga ko'tarila olmagan kishilardir. Qalban so'fiyona

g'oyalarga moyil, tasavvufni e'tiqod - maslak qilib olgan, lekin tariqat amaliyotini o'tama-gan, rasman so'fiy bo'lmagan odamlar esa mutasavvuf bo'lib hisoblanganlar. So'fiylarning o'zini ham Husayn Voiz Koshifiy «Futuvvatnomai sultoniyy» nomli asarida uch guruhga ajratgan: muoshirlar, mutarasmlar, muhaqqiqlar. Muoshirlar – tariqat ahlining muxlislari. Ular darveshlarga muhabbat bilan qaraydilar, darveshlar suhbatida ishtirok etadilar, ularning xizmatlarini bajaradilar va savobga o'zlarini sherik deb biladilar. «Mutarasm» so'zining ma'nosi rasmu rusumga ergashuvchi demak, ammo mutarasmlar darveshlarning odatlariga zohiran taqlid qilsalar-da, botinan hol talabgoridirlar va shu toifiga ixloslari tufayli fayzdan bahramanddirlar.

Muhaqqiqlar – Haqqa etganlar, ularni oliy martabali so'fiylar deb ta'riflash mumkin. Haqiqiy avliyolar, shayxi murshidlar shular ichidan etishib chiqqan. Bu o'rinda muhaqqiq so'fiylarning najib sifatleri xususida to'xtab o'tish joiz deb hisoblaymiz.

Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, chin so'fiy o'zlikdan va foniy dunyolan kechgan va Haq baqosida o'zligini qayta topgan zot bo'lib, suratda bandayu, ma'nida ozod kishidir. Surat – tashqi ko'rinishda banda bo'lish – jism-tanani Iloh toatiga bag'ishlash bo'lsa, ma'nida ozodlik-botinni barcha aloqalardan tozalab, ruhni hur va pok saqlash demak. So'fiyga hech bir narsa va hech bir kishi qaram bo'lmasligi; uning o'zi ham hech bir narsaning va hech bir odamning qarami bo'lmasligi kerak. Bahouddin Naqshband aytganlariday:

Hechi mo neyu hechi mo kam ne, Az payi hech-hechi mo g'am ne,

Janda bar pushtu pusht-go'riston, Ro'ze ki mirem hech motam ne.

Ma'nosi: Hech narsamiz bo'lmaganligi uchun hech kamimiz yo'q, o'sha

«hech», ya'ni narsa ketidan quvib, g'am ham chekmaymiz. Egnimizda – janda, orqamizda – go'riston, biz vafot etgan kun hech bir motamning keragi yo'q.

So'fiyning ozodligi deganda tasavvuf ahli solikning bashariy sifatlardan mutlaq qutulishi va ilohiy faqr sifati bo'lmish pok ruh ko'rinishida istig'no olami – Tangri

taolo olamining zarurlari bepoyonligini kullan idrok etishini anglaganlar. So'fiy yana «sirri sof, aqli etuk, muhabbat ahliga dil bog'lagan» (Koshifiy) bo'lishi, nafasidan bedardlar qalbi bedor bo'lmog'i kerak. So'fiylar ruhoniyyat bilan suhbat quradigan, kayhonu

falak asroridan mujda keltiradigan, faqrni ixtiyoriy ravishda bo‘yinga olib, tabiiy axloqni tark eta borib, ilohiy axloqni kasb etuvchi, ezgulik yo‘lida jonini fido qiluvchidirlar, ular borliq va yo‘qlik, zamon va makondan xorij, azalu abadni birlashtirgan mukarram zotdirlar.

Bunday karomatli insonlarni xalq aziz-avliyo, qudsiy nafasli kishilar sifatida alohida e‘zozlagan. Bu zotlar atrofdagilar ongi va shuuriga qattiq ta‘sir o‘tkazganlar va ma‘naviyat sultonlari bo‘lib maydonga chiqqanlar. Ularning so‘zi va harakati, xislati va axloqi hammaga ibrat qilib ko‘rsatilgan. Jahonning butunligi, obodonlik va osoyishtalik Parvardigor fayzini etkazuvchi shu tabarruk zotlarning duosi, xayrli ishlariga vobasta deb qaralgan. SHu asnoda avliyo-anbiyoning merosxo‘ri – davomchisi degan aqida shakllangan. YA‘ni, garchi Payg‘ambari oxirzamon Muhammad salallohu alayhi vasallamdan keyin Payg‘ambar kelmasa- da, ammo qutbi kirom valilar har zamonda paydo bo‘lib, xalqni islom haqiqatlariga hidoyat etadilar, to‘g‘ri yo‘lga boshlaydilar. CHunonchi, ulug‘ shoir Xusrav Dehlaviy o‘z piri Nizomidin Avliyoni shunday kishilardan deb ta‘rif etadi va

«Matla‘ul anvor» dostonida bunday yozadi: Nuri jahon az qadami
avliyost,
Joni nazar dar jasadi to‘tiyost.

(Ko‘zning ravshanligi to‘tiyo vujudida bo‘lganiday, jahonning nuri avliyo qadamidandir).

Alisher Navoiy ham Bahouddin Naqshband va Abdurahmon Jomiyni garchi Xusrav Dehlaviy kabi payg‘ambar davomchisi deb atamasa-da, lekin ularni «murshidi ofoq», «koshifi asrori Iloh», barcha ishlardan xabardor karomatli va pok niyatli zotlar sifatida ta‘rif-tavsif etadi. Masalan, Bahouddin Naqshband:

Mulki jahon mazrai dehqoni ul, Balki jahon mulki nigahboni ul. Yo‘q
mamolikka nigahbon bo‘lib,
Barcha salotin uza sulton bo‘lib...

Haq so‘zin elga qilurda ado, Teng ko‘runib olida shohu gado.
(«Hayratul abror»dan)

Bu faqat shoirlarning hayajonli ta‘rif-tavsifi emas, albatta. Buni o‘rta asrlar kishisining tafakkur tarzi va dunyoqarashi ifodasi deb

bilmoq kerak. Soʻfiy va darveshlar haqiqatan ham katta nufuz va obroʻga ega edilar. Muqtadir shayxlargina emas, qalandarlar, eshonlar, majzub «devonalar», oddiy darveshlarni ham odamlar hurmat qilganlar. SHuning natijasi oʻlaroq,, darveshchilik harakati keng quloq yoygan, xonaqo udumlari shakllanib, darveshlar alohida bir toifa - tabaqa sifatida jamiyatda muhim oʻrin egallagan.

Biroq bu birdaniga yuzaga kelgan harakat emas, aytib oʻtganimizday, tasavvuf va darveshlik harakati uzoq tadrijiy tarixga ega. Olimlar tasavvuf tarixini dastlab ikki davrga ajratadilar: birinchi – zohidlik davri, ikkinchisi – oriflik va oshiqlik davri. Soʻfiylarning oʻzini ham orif soʻfiylar, zohid soʻfiylar, rind soʻfiylar, faqir soʻfiylar, faylasuf soʻfiylarga ajratish mumkin.

Zohidlik davri soʻfiylari (chunonchi: Ibrohim Adham, Hasan Basriy, Abuhoshim Kufiy va boshqalar) taqvo va parhezkorlikni bosh maqsad deb bilgan boʻlsalar, keyingi davr soʻfiylari tafakkuriy-shuuriy rivojlanish – yaʼni dunyoni va Ilohni bilish, tanishni asosiy maqsad deb hisoblaganlar. Birinchi davrni tasavvufning ibtidoiy davri («avvalgi davr») sifatida tilga oladilar. Oriflik davri deb ataganimiz ikkinchi davr ham (bu IX asr oʻrtalaridan boshlanadi) bir necha bosqichlarga ega. CHunonchi, IX–X asrlar – xonaqohlarning paydo boʻlishi, tariqat rusumlarining shakllanish davri. XI–XII asrlar – tasavvuf maktablari, silsilalarning tarkib topish davri. Bunda Misr, Bagʻdod, Basra, Buxoro, Nishopur, Termiz, Balx shaharlari tasavvuf va tariqat markazlari sifatida muhim rol oʻynagan. Natijada Misr, Xuroson, Movarounnahr, Iroq va Turkiston maktablari shuhrat topgan.

XIII asr oxiri – XIV asr boshlari tasavvuf tarixida alo-hida bir mahsuldor davridir. Bu davrga kelib, tasavvuf ham nazariy-ilmiy nuqtai nazardan, ham amaliy harakatchilik nuqtai nazaridan oʻzining yuksak choʻqqisiga koʻtarilgan edi. Tasavvuf adabiyotining gullashi ham shu davrga toʻgʻri keladi. Ayniqsa, Najmiddin Kubro (1145–1221), Muhyiddin Ibn Arabiy (1165–1240), YAhʻyo Suhravardiy (1155–1191) singari mutafakkir shayxlar, Farididdin Attor (vaf.

1220), Ahmad YAssaviy (vaf. 1166), Jaloliddin Rumiy (1207–1273) kabi ulugʻ soʻfiy shoirlar tasavvuf ilmining doirasini kengaytirdilar, uni falsafa va hikmat bilan boyitdilar. Agar IX–XI asrlarda tavhid asoslarini chuqurlashtirishga katta eʼtibor berilib, tasavvufning fano va

baqo kabi tushunchalari, Haqqa vosil bo'lish mayli shiddat bilan targ'ib qilingan bo'lsa, XIII asr o'rtalaridan boshlab, tafakkuriy-ahliy yo'nalish etakchilik qila boshladi. Bu falsafiy oqim tasavuf tarixida «vahdatul vujud» nomi bilan shuhrat topdi. So'fiylar endi koinot tuzilishi, odamlarning hususiyatlari, olam va odam munosabatlari, komil inson anglamlari bilan bosh qotiradigan bo'ldilar. Natijada Ibn Arabiy va Jaloliddin Rumiy kabi zotlarning asarlarida butun bir falsafiy tizim o'z ifodasini topdi, ular ilohiy kashfu karomat, ruhiy-psixologik holatlar, botiniy latifliklar bilan birga, real insoniy hayot haqida ham ko'p ajoyib fikrlarni bayon etdilar. SHunday qilib, tasavvuf SHarq fikriy taraqqiyotidagi ko'p asrlik tajribalarni o'z ichiga qamrab olib, uni rivjlantirdi, din va falsafa, hikmat va vahdat, kalom va hadis ilmlarini birlashtirdi, ilohiy ilmlar bilan dunyoviy ilmlarni o'zaro bog'lashga harakat qildi. Natijada tasavvuf SHarq kishisining tafakkur tarzi va axloq normasini belgilaydigan hodisaga aylanib qoldi.

Tasavvuf tarixiga nazar tashlar ekanmiz, islom dinidagi mazhablar, qarashlar xilma-xilligi so'fiylar hayoti va dunyoqarashiga ham inchunin ta'sir etib turganini ko'ramiz. Xususan, sunniy va shia mazhablari orasidagi kurash sezilarli iz qoldirgan. Eron olimlari, jumladan, «Tasavvuf istilohlari sharhi» (Tehron, 1347 hijriy yili) nomli qomus muallif Sayid Sodiq Guharin tasavvufning paydo bo'lishi va qaror topishida shia mazhabi qarashlarining ta'siri borligini ta'kidlaydi. Boshqa bir qator olimlar yunon falsafasi, qadimgi zardushtiylar, hind falsafiy-asotiriy qarashlarining rolini ko'rsatadilar. Tasavvuf amaliyoti va falsafasida bu buloqlarning samarali ta'siri bo'lishi mumkin. Bu erda boshqa narsani ta'kidlamoq kerak: birinchidan, islomiy tasavvuf o'zi o'zlashtirgan jamiki narsalarini islom ruhida qayta ishlab, shariatga muvofiqlashtirgan. Ikkinchidan, biz aytmoqchi bo'lgan fikr shuki, shia va sunniy mazhablari orasidagi kurash tasavvuf silsilalarining yo'nalaishlarini belgilagan. CHunonchi, tayfuriya, suhravardiya, hululiya, firdavsiya kabi silsilalar ko'proq shiachilikka moyil bo'lsalar, yassaviya, qodiriya, naqshbandiya suluklari sunniy mazhabida mustahkam turgan tariqatlar edi. Hazrati Bahouddin Naqshbandning asosiy jiddu jahdi ham tasavvuf va tariqatni sunniy mazhabiga moslashtirish, uni shiachilikka xos jahru samo'lardan tozalashdan iborat bo'lgan. Natijada naqshbandiya sunniy mazhabli aholi orasida chuqur yoyilgan.

Ammo Najmiddin Kubro asoslagan kubraviya silsilasida shia va sunniy mazhabidagi kishilar birga ta'lim olardilar. Chunki ulug' shayxning o'zlari mazhab va maslaklarga e'tibor qilmagan. Najmiddin Kubro vafotidan keyin esa shogirdlarining bir qismi sunniy tariqatiga (Sayfiddin Boxarziy kabi), bir qismi esa shia asosidagi tariqatlarga (Sa'diddin Hamaviy kabi) qo'shilib ketganlar.

Shu kabi Jaloliddin Rumiy nomi bilan bog'liq bo'lgan mavlaviya mazhabi ham sunniy yo'nalishdagi tariqat bo'lsa-da, lekin diniy va mazhabiy ayirmalar ularda u qadar ahamiyatli bo'lmagan. Bugina emas, Rumiy umuman dinlarning o'zini ham bir-biridan ustun qo'ymay, ularni Oloh sari olib boradigan turli yo'llar deb qaragan.

Tasavvuf tarixi haqida gapirar ekanmiz, hazrati Bahoud-din Naqshbanddan keyingi davrni ham baholashimiz lozim bo'ladi. XV–XVI asrlar Movarounnahr va Xurosonda naqshbandiya to'la tantana qilib, gullagan davr bo'ldi. Ayniqsa, Xoja Ahrori Valining amaliy va Mahdumi A'zam-Ahmadi Xojagonning ilmiy faoliyatlari tufayli naqshbandiya mustahkamlandi, nufuzi oshdi va Hindiston, Arabiston erlariga etib bordi, Turkiyaga tarqaldi.

Naqshbandiyadan keyin tasavvuf tarixida boshqa silsila vujudga kelgan emas. Eron va Hindistonda ayrim yangi tariqatlar shakllangan, lekin ular shoxobchalar bo'lib, tasavvuf uchun yangi nazariy va amaliy yo'nalish bermadi. Umuman XV asrdan keyin tasavvufning nazariy-falsafiy jihati so'na boshladi. Mahdumi A'zam risolalari naqshbandiya aqidalarini sharhlash va chuqurlashtirishdan iboratdir. Hindistonda bir qadar tafakkuriy siljish bo'lgan. Jumladan, «vahdatush shuhud»,

«vahdati mavjud» oqimlarini yangi falsafiy oqimlar deb qarash mumkin. Mirzo Bedil ijodiga bu qarashlarning ta'siri bor. YA'ni unda barcha ilmlarni inson shaxsi bilan bog'lash, inson va uning ruhini tadqiq etishga urinishi bo'lgan. Biroq, baribir XV asrdan keyingi davrda ilgari to'plangan tajribani o'zlashtirish, sharhu tafsir qilish va targ'ib etish bilan shug'ullanildi. SHuning uchun eng toza va jur'atli fikrlarni biz IX–XIII asrlarda yashagan so'fiylarda uchratamiz. Tasavvufning klassik davri ham shu davrdir.

Tasavvuf g'oyalarining sarchashmalari ustida bahs bo'lgani-day, birinchi so'fiylar kim edi, degan savolga ham turli xil javoblar mavjud. Husayn Voiz Koshifiy «Futuvvatnomai sultoniy» asarida

(«Meros» nashriyoti, 1994) keltiriladikim, birinchi soʻfiy Odam alayhisslomning farzandlaridan biri SHish degan kishi edi. U oq poʻstin kiyib yurgani uchun shu nomni olgan. Alisher Navoiyning «Nasoyimul muhabbat» asarida birinchi soʻfiy sifatida hazrati Paygʻambarimizning zamondoshi va muhibi Uvays Qaraniy tilga olinadi. Lekin Abdurahmon Jomiyning «Nafahotul uns» asarida birinchi marta el orasida soʻfiy laqabi bilan shuhrat qozongan kishi Abuhoshim Kufiy ekanligi aytilgan. Uni Abuhoshim As soʻfiy Al Kufiy ham deydilar. Jomiyning yozishicha, Abuhoshim Soʻfyoni Savriy degan boshqa bir atoqli darvesh bilan zamondosh boʻlgan ekan. Soʻfyoni Savriy hijriy 191 (milodiy 807) yilda olamdan oʻt-gan. Abuhoshim esa Guharinning maʼlumotiga qaraganda, 788 yilda vafot etgan («SHarhi istilohoti tasavvuf», I jild. Mu-qaddima, 55-bet). Soʻfyoni Savriy deydi: «Men Abuhoshimni koʻrganimga qadar soʻfiy nima ekanini bilmas edim va ungacha ham zuhd va muomala va varaʼda, tavakkul tariqi va muhabbat tariqida sobit buzurgvorlar bor edilar, lekin avval kishikim uni soʻfiy deb atadilar ul edi va ungacha biror kishini bu nom bilan atamagan edilar» («Nafahotul uns», Toshkand, 1913, 27-bet).

«Abuhoshim nasroniy rohiblar kabi uzun jun kiyim kiyib yurar va hamisha taqvo bilan kun oʻtkazardi» (Guharin, koʻrsatilgan asar, 53-bet). Sayid Sodiq Guharin bundan tashqari Jobir bin Hayon (822 yilda favot etgan) va Abdak Soʻfiy (821 yilda vafot etgan)larni ham dastlabki soʻfiylar sifatida tilga oladi. SHuni ham qayd etish kerakki, tasavvuf ahli CHor yori uzom va Rasulullohning yaqin sahobalaridan Salmon Forsiy hamda Imom Jaʼfar Sodiqni soʻfiylik va valiylik xislati koʻringan ulugʻ insonlar sifatida ehtirom bilan tilga oladilar. Mazkur zotlar inchunin juvonmardlarning pirlari sifatida ham zikr etiladi. Bejiz emaski, koʻp soʻfiylar oʻz shajaralarini shu uch zoti sharafga yoxud ularning birovi vositasida Muhammad sallallohu alayhi vasallamga olib borib bogʻlaydilar. CHunonchi, «Nazmus silsila» asari muallifi Vasliy Samarqandiy (XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod etgan) urgutlik Eshoni Valixon silsilasini yozar ekan, ul kishining soʻfiylik nisbatini quyidagicha belgilab chiqadi: hazarti Muhammad sallallohu alayhi vasallamdan Abu Bakr Siddiq raziyallohu anhuga, ul kishidan Salmon Forsiyga, ul janobdan Imom Jaʼfari Qosim raziyallohu anhuga, ul janobdan Imom Jaʼfar Sodiqga, ul janobdan Sulton Abuyazid Bistomiya, ul

janobdan Abulhasan Xaraqoniya, ul janobdan Xoja Ali Formadiya, ul janobdan Xoja YUsof Hamadoniya, ul janobdan Xoja Orif Revgariya, ul janobdan Xoja Mahmud Anjir Fag'naviya, ul janobdan Xoja Ali Rometaniya, ul janobdan Xoja Muhammad Boboyi Samosiya, ul janobdan Sayid Amir Kulolga, ul Janobdan Xoja Bahouddin Naqshband hazratlariga, ul janobdan Xoja Muhammad Alouddin Attorga, ul janobdan YA'qubi CHarxiya, ul janobdan Xoja Ubaydulloh Ahrori Valiga, ul janobdan Xoja Muhammad Zohidga, ul janobdan Xoja Darveshga, ul janobdan Xoja Amkangiya, ul janobdan Xoja Muhammad Boqiybillohga, ul janobdan Xoja Ahmad Foruq – Imom Rabboniya, ul janobdan Xoja Muham-mad Saidga, ul janobdan Xoja Abdulahadga, ul janobdan Xoja Muhammad Obidga, ul janobdan Xoja Muhammad Musoxonga, ul janobdan Xoja Muhammad Siddiqga, ul janobdan Mavlono Husaynga, ul janobdan Mavlono Mirmuhammad Ibrohimga, ul janobdan hazrati Eshon Xoja Valixonga so'fiylik nisbati o'tib kelgan. Demak, naqshbandiya silsilasi Salmon Forsiy va Abu Bakr Siddiq raziyallohu anhumalar oraqli Payg'ambarimizga olib borib ulangan.

SHu zaylda, tasavvuf tarixi islom tarixi bilan birga rivojlanib, islom madaniyati va ma'rifatiga o'lgan hissa bo'lib qushildi. Agar dastlabki paytlarda Kufa, Basra va Bag'dod shaharlarida sanoqli darajada zohid sufiylar yashagan bo'lsa, bora-bora musulmon olamida shayxu mashoyixlar, so'fiy darveshlar, qalandarlarning soni ko'paydi, yuqorida aytganimizday bu o'ziga xos bir harakatga aylandi. Birigina Abdurahmon Jomiyning «Nafahotul uns minal hazarotul quds» nomli kitobida 664 ta shayxu so'fiyning nomi zikr etiladi. Bu XV asrgacha yashab o'tgan atoqli so'fiylar tazkirasi, vaholanki ulardan ko'plarining nomi Jomiy kitobida zikr eitlmagan, Navoiy ularning bir qismini «Nasoyimul muhabbat» asariga kiritgan. SHulardan yuzdan ortiqrog'i Turonzaminda etishib chiqqan buzurgvorlar hisoblanadi. XV asrdan keyin ham yana qancha azizu avliyo yashab o'tganlar.

IX asr boshlariga kelib tasavvufning nazariy asoslari ishlab chiqildi, so'fiylarning amaliy, ruhiy-psixologik mashqlari, o'z-o'zini tarbiyalash va chiniqtirish tabdir-usullari shakllandi. **TARIQAT, MA'RIFAT, HAQIQAT** degan tushunchalar yuzaga kelib, tasavvufning ushbu uch qismiga oid qarashlar majmui tuzildi - tasavvuf alohida ilm sifatida qaror topdi. So'fiylar dastlabki paytlar tasavvufni nuqul siru asror, tushuntirib bo'lmaydigan holatlar

(«iboraga kelmaydigan ishoratlar») deb hisoblagan bo'lsalar, bora-bora bu holatlar haqida fikr-mulohazalar bayon qilina boshlandi, so'fiyni tarbiyalash vazifasi, pir-muridlik qoidalari, odobini yaratish zarurati tug'ildi. Natijada, tariqat va shariat orasidagi munosabatlar, olam, odam va Xudo orasidagi aloqa-muomala mohiyati, tavhid - vahdat masalalari munozalarga sabab bo'ldi. Din arboblari bilan so'fiy shayxlari, ayniqsa falsafiylashgan tasavvuf tarafdorlari jiddiy mafkuraviy tortishuvlarga bordilar. Tasavvuf butun Islom olamini zabt etib, barcha qadimiy shaharlarda xonaqohlar qurildi, yo'llarda rabotlar, aziz-avliyolarning mazorotida shayxlar maskan tutib, ko'plab shoigrdlarni tarbiyaga oldilar.

Mavzuni mustahkamlash bo'yicha savol va topshiriqlar

1.O'rta Osiyoda tariqatlarning tarixi va ularning ma'naviy hayotdagi o'rni

haqida nima deya olasiz?

2. Tariqat deganda nimani tushunasiz?

3. Tariqatlarning vujudga kelishi tarixini bilasizmi?

Mavuzni chuqurroq o'rganish bo'yicha adabiyotlar

1. N. Komilov. Tasavvuf. 1-kitob. -T., 1996.

2. N. Komilov. Tasavvuf. 2-kitob. -T., 1999.

3.YU.Mahmud A'sad Jushon. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. II. Xasan tarjimasi. - T., 1998.

4.Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. Nodirxon Xasan tarjimasi. -T., 1999.

5.Ernst Karl. Sufizm. -M., 2002.

6.Farididdun Attor. Ilohiynoma. N. Komilov tarjimasi. -T., 1994.

7.Farididdun Attor. Tazkirat ul-avliyo. M.Kenjabek tarjimasi. -T., 1997.

18-Mavzu: Tasavvufning islomiy ildizlari

Reja:

1. Islom va tasavvufning islomiy manbalari
2. SHariat va tariqat masalalari
3. Sunniy tasavvuf tariqatlari

Islom dini va mafkurasining kuchayishi ko‘p jihatdan so‘fiylik ta‘limoti – tasavvuf tariqatlarining shakllanishi va uning keng yoyilishi bilan uzviy bog‘liq edi. Tasavvuf, ya‘ni so‘fiylik, umumiy tarzda aytganda poklangan zohid, taqvodorlik ma‘nosini anglatuvchi tadrijiy taraqqiyotga ega xalqparvar diniy ta‘limot bo‘lib, u o‘rta asrlar musulmon SHarqida keng tarqaladi. O‘z davrining bu diniy-falsafiy oqimi dastlab VIII asr o‘rtalarida Iroqda yuzaga keladi. U jabrdiyda ommaning zulm va nochorlikka qarshi noroziligini ifodalaydi. Tasavvuf xususiy mulkchilik hamda boylik va kambag‘allikning vujudga kelishini adolatsizlikning oqibati deb qaraydi. Adolatga, haqqa faqat ibodat va ma‘rifat orqali etishish g‘oyasi ilgari suriladi. Tasavvuf ko‘p asrlik tadrijiy tarixga ega. Olimlar bu diniy-falsafiy ta‘limot tarixini zohidlik va oriflik davrlariga bo‘ladilar. Zohidlik davri so‘fiylari taqvo va parhezkorlikni, orifiy davr so‘fiylari esa tafakkuriy rivojlanishni, ya‘ni dunyo va Ollohni bilishni asosiy maqsad deb hisoblaganlar.

So‘fiylar foni dunyodan ko‘ngil uzgan, zehnu zakovat, aqlu farosatda tengsiz, shariat ilmining bilimdoni, toatu ibodatda mustahkam, ammo oddiy mutaabbid dindorlardan ajralib turadigan ajoyib xislatli insonlar toifasi bo‘lib, tarixda ular “ruh kishilari” deb ulug‘langan. YOzma manbalarda ular ahdulloh, avliyo, arbobi tariqat,

darvesh, qalaydar va faqir kabi nomlar bilan tilga olinadi. Ammo diniy adabiyotda ularga ko'proq "so'fiy" nomi qo'llanilgan. So'fiy so'zi arabcha "so'f" iborasidan yasilib, jun chakmonli, jun kiyimli ma'nosini anglatgan. Chunki so'fiy darveshlarning aksariyati, odatda, jun chakmon yoki qo'y terisidan tikilgan po'stin kiyib yurganlar. So'f yoki so'fiy so'zidan yasalgan "tasavvuf" iborasi so'fiylik tariqati haqidagi ta'limot degan ma'noni bildirgan.

Tasavvufning xususiyatlaridan biri, faqat nazariy jihat bilan cheklanib qolmasdan, balki tamoyillarini tariqatlar yo'li orqali amaliy tadbiq etishdir.

«Tasavvuf» deb atalgan bu ta'limot amaliy hayotda «tariqat» deyiladi.

Tariqat - arabcha «yo'l» degan ma'noni bildirib, tasavvuf adabiyotida

«Allohga yaqinlashmoq va Uning roziligiga erishish maqsadida yurish kerak bo'lgan yo'l» demakdir. Ushbu yo'lga yurgan kishiga esa «solik» deyiladi. Solik bu yo'lda yurish davomida Allohni bilib-tanigunga qadar turli manzillar va maqomlarni bosib o'tadi. Tariqat tushunchasidagi yo'l moddiy hayotdagi bir manzilni boshqasiga tutashtiruvchi ma'nosida emas, ruhiy kamolot yo'li ma'nosida qo'llaniladi. «Tariqat — Haqiqatni mistik bilishning uslubidir»⁴⁹, deydi O.Akimushkin. «Tariqat — amaliy uslub bo'lib, tolibni tafakkur, hissiyot va amallarga yo'naltiradi, uni bosqichma-bosqich maqomlardan o'tkazib, holatlar, deb nomlanuvchi psixologik tajribalar bilan ilohiy haqiqatga etkazadi»⁵⁰ deydi tariqatlarni islomshunoslikda maxsus tadqiq etgan ingliz olimi Dj.S.Trimingem. Tariqat «ilohiy ma'rifatni egallashga bel bog'lagan kishining ruhiy-axloqiy yo'li.

Tariqat tasavvufning amaliy qismi»⁵¹ degan ta'riflar bor. Professor N.Komilov tariqatga «taraqqiyot yo'li»⁵² deb baho beradi. Taraqqiyot yo'lga kirgan tolib bunga o'zini ongli ravishda

⁴⁹ Тарикат/Ислам. Энциклопедический словарь.-М.: Наука,1991-С.224.

⁵⁰ Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе. Пер. с англ. А.А.Ставиской. М.: Наука, 1989-С.17.

⁵¹ Комилов Н. Комиллик тариқати// Тафаккур-1998-1-сон.64-бет.

⁵² Комилов Н. Комиллик тариқати.Тафаккур. 1998.2-сон.61-бет.

bag'ishlab, bu jarayonni tezlashtirmoqchi bo'ladi, o'zligidan, nafsidan g'olib keladi. Qur'onda tariq-yo'l ekanligi(46:29/30) qayd etilgan.

Tasavvufda inson ruhiy kamolotida shariatdan keyingi, ma'rifat va haqiqatdan oldingi kamolot darajasi ham tariqat deyiladi. Tariqatni tor doirada din bilan tenglashtiruvchi fikrlar ham mavjud.

«Tariqat bu islom dini, Alloh taoloning amri, Rasululloh(s.a.v)ning qadr - qiymati beqiyos, bebaho sunnatidir. Boshqa hech narsa emas»⁵³, degan fikrga qo'shila olmaymiz. Chunki tasavvuf ta'limotidagi tariqat tushunchasi jannatiy va do'zaxiy tushunchalaridan ancha yuksalib, ta'madan poklanib, Ollah diydoriga etishish, asl Haqiqat uchun harakat va riyozat yo'lidir. SHuning uchun tariqatni faqat islom dini va boshqa hech narsa emas, deyish uni ta'sir doirasini chegaralash bo'ladi. Tariqat diniy-falsafiy kamolot yo'lidir. To'g'ri yo'lning boshida bu harakat shariat doirasida bo'ladi. Keyinchalik uning darajasi yuksaladi. Haqiqat darajasiga etgan yo'lchi uchun diniy, jinsiy, irqiy, kastaviy, milliy va boshqa chegaralar qolmaydi. Uning harakati umumbashariy, umumjahoniy doirada yuksala boradi. SHuning uchun tariqatni ruhiy, ma'naviy taraqqiyot yo'li deyish lozim. Bu yo'l ma'lum chiziqdagi yoki ma'lum doiradagi yo'l bo'lmay, inson ruhini oliy had darajasiga yuksaltiradigan kamolot yo'lidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

- 1.Tasavvufning islomiy manbalari haqida nimalarni bilasiz?
- 2.Sunniy tasavvuf vakillarini bilasizmi?
- 3.SHariat va tariqatni tushuntiring?
- 4.Tasavvuf va sufiylikni farqlang?

⁵³ Умар Форук. Сайдо ал Жазарий. Тасаввуф сирлари. -Тошкент: Мовароуннахр, 2000. 9-бет.

Mavzuni chuqurroq o‘rganish uchun quyidagi adabiyotlarni o‘qing

1. Alisher Navoiy. Nasoyimul muhabbat. 17-jild. -T.: Fan, 2002.
2. Jaloliddin Rumi. Masnavii ma’naviy. SHarhi bilan, 1-kitob. – T.: «SHarq» matbaa nashr., 2000.
3. Ahmad YAssaviy. Hikmatlar. –T.: «O‘zbekiston», 1993.
4. «Komil inson haqida to‘rt risola» (N.Komilov tarjimai). –T.: «Ma’naviyat», 1998.
5. Bertels E.E. Izbirannaya trudy. Sufizm i sufiyskaya literatura. -M.: «Nauka», 1965. Str. 13-103.
6. Ibn Arabi. Gemmy mudrosti (glavy). Perevod A.V. Smirnova. V.Kn. M.Stepanyans. Filosofskie aspekty sufizma. -M.: «Nauka», 1987. Str. do-119.
7. Doktor Abdulhusayn Zarrinko‘b. Justujo‘ dar tasavvufi Eron. Ikki jildlik (fors tilida). Tehron, hijriy 1349.
8. Komilov N. Tasavvuf. 1-kitob. –T.: «YOzuvchi», 1997.
9. Komilov N. Tasavvuf. 2-kitob. –T.: «O‘zbekiston», 2000.
10. Haqqulov I. Tasavvuf saboqlari. «Buxoro» nashr., 2000.

19-Mavzu: Tasavvuf tariqatlari vujudga kelishi va shaklanishi

Reja:

1. Tasavvuf tariqatlarining vujudga kelishi va shakllanishi.
2. Tariqatning ma'nosi va tasnifi.
3. Tariqatlarning amaliy xususiyatlari

Tasavvuf SHarq ma'naviyati tarixida muhim o'rin egallab kelgan tadrijiy taraqqiyotga ega bir ta'limot bo'lib, islom olamida VIII asrning o'rtalarida paydo bo'lgan. Dastlab u zohidlik harakati ko'rinishida kurtak yoyadi. Gap shundaki, hazrati Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vasallam vafotlaridan keyin musulmonlar jamoasi ichida bo'linish yuz beradi, ayniqsa, xalifa Usmon razyallohu anhu zamonlarida boylikka ruju qo'yish, qimmatbaho tuhfar bilan qarindosh-urug'lar, yaqin do'st-birodarlarni siylash rasm bo'ladi. Ummaviya xalifaligi davriga kelib esa, saroy hashamlari, dabdabali bezaklar, oltin-kumushga berilish, xazina to'plash avj oldi. YA'ni diniy mashg'ulotlar, Xudo yo'lidagi toat-ibodat o'rnini dunyoviy ishlar, dunyo moliga muhabbat egallay boshladi. Bu hol diniy amrlarni ado etishni har qanday dunyoviy ishlar, boyliklardan ustun qo'ygan e'tiqodli kishilarning noroziligiga sabab bo'ldi. Ular orasida hadis to'plovchi muhaddislar, ilgaridan qashshoq bo'lib, uy-joy, mol-mulkka e'tibor qilmagan sahobalar ham bor edi. Bularning bir qismi dinni himoya qilib, ochiq kurashga otlangan bo'lsalar, ikkinchi qismi esa, qanoat va zuhdni («zuhd» so'zidan «zohid» so'zi kelib chiqqan) asosiy maqsad qilib olib, saroy ahli va sarvatdorlar, boylar axloqiga qarshi norozilik belgisi sifatida tarkidunyochilik g'oyasini targ'ib etib, ijtimoiy faoliyatdan butunlay chetlashganlar, surunkali toat-ibodat bilan shug'ullanganlar.

Kufa, Bag'dod, Basra shaharlarida tarkidunyo qilgan zohid-lar ko'p edi, aytish kerakki, ularning obro'-e'tibori ham xalq orasida katta bo'lgan. CHunonchi, Uvays Qaraniy (VII asr), Hasan Basriy (642–

728) kabi yirik soʻfiylar aslida zohid kishilar edilar, shuning uchun bu zotlarning nomi shayxlar va soʻfiylar haqidagi tazkiralarda zohid sifatida tilga olinadi, baʼzi mualliflar esa ularni soʻfiylar qatoriga qoʻshmaganlar ham.

Buning boisi shuki, zohidlar uzlat va taqvoni pasha etgan boʻlishlariga qaramay, ishq va irfon (ilohiy maʼrifat)dan bexabar kishilar edilar. Ular falsafiy mushohadakorlik, ajzu irodad bilan maʼnaviy-axloqiy kamolot sari intilish, valilik, karomat-moʻʼjizalar koʻrsatish kabi xislatlarga ega emasdilar. Zohidlarning niyati ibodat bilan oxirat magʼfiratini qozonish, Qurʼoni Karimda vaʼda qilingan jannatning huzur-halovatiga etishish edi. Soʻfiylar nazarida esa jannat umidida toat-ibodat qilish ham tamaʼning bir koʻrinishidir. Holbuki, soʻfiy uchun na dunyodan va na oxiratdan tamaʼ boʻlmasligi kerak. YAgona istak bu – Xudoning diydoridir, xolos.

Mashhur soʻfiy ayol Robiya Adviya (714–801) Allohga munajatlarida nola qilib aytar ekan: «Ey Parvardigorim, ey YOri aziz, agar jannating tamaʼida toat qiladigan boʻlsam, jannatingdan benasib et, agar doʻzaxingdan qoʻrqib ibodat qiladigan boʻlsam, meni doʻzax oʻtida kuydir – ming-ming roziman! Ammo agar Sening jamolingni deb tunlarni bedor oʻtkazar ekanman, yolvoraman, meni jamolingdan mahrum etma!»

Alloh taologa quruq, koʻr-koʻrona muteʼlikning hojati yoʻq. Xudo gʻazabidan qoʻrqibgina amri maʼrufni bajarish sadoqat belgisi emas, balki riyodir. SHuning uchun soʻfiylar: Allohni jon-dildan sevish, Uning zoti va sifatlarini tanish va bilish, koʻngilni nafsu hirs gʻuboridan poklab, botiniy musaffo bir holatda Iloh vasliga etishish va bundan lazzatlanish gʻoyasini keng targʻib qildilar. Inson ruhi ilohiydir va, demak, asosiy maqsad – ilohiy olamga borib qoʻshilmoqdir, dedilar.

SHu tariqa, dunyodan koʻngil uzgan, ammo zohidlarga oʻxshamaydigan, «bir nazar bilan tuproqni kimyo etadigan» (Hofiz SHeroziy) zehnu zakovat, aqlu farosatda tengsiz, ammo oʻzga mutafakkirlar, faylasuflardan ajralib turadigan, shariat ilmini suv qilib ichgan, toatu ibodatda mustahkam, lekin oddiy dindorlardan farqlanadigan ajoyib xislatli odamlar toifasi paydo boʻlgan ediki, ularni ruh kishilari deb atardilar. Bunday odamlarning feʼl-atvori, yurish-turishi, xoriqulodda (odatdan tashqari) soʻzlari va ishlari atrofdagilarni hayratga solar, baʼzilarining gʻaybdan bashorat beruvchi

kamromatlari, sirli mo‘‘jizalari aqllarni lol qoldirardi. Ularni ahlulloh, avliyo, ahli hol, ahli botin, arbobi tariqat, darvesh, qalandar, faqir degan nomlar bilan tilga olardilar. Ammo bu toifaga nisbatan ko‘proq «so‘fiy» nomi qo‘llanilgan, chunki ushbu so‘zning ma‘nosi ancha keng bo‘lib, boshqa tushuncha va atamalarni o‘z ichiga sig‘dirardi.

Xo‘sh, «so‘fiy» so‘zi qaerdan paydo bo‘lgan? Bu haqda bir necha xil qarashlar bor. Ba‘zilar bu so‘z «saf» so‘zidan kelib chiqqan deydi, chunki so‘fiy Iloh yo‘liga kirganlarning birinchi safida turuvchidir. Ba‘zi olimlar uni «suffa» so‘zidan hosil bo‘lgan deb aytadilar: ashobi suffa hazrati Payg‘ambar sallallohu alayhi vasallam hayotliklaridayoq tarki dunyo qilgan taqvo-dor kishilar bo‘lib, so‘fiylar shularga taqlid qiladilar, deb tushuntiradilar. YAna bir guruh olimlar so‘fiy so‘zi

«safo» so‘-zidan kelib chiqqan, chunki bu toifaning qalbi sidqu safo oftobiday porlab turadi, deganlar. YAna ba‘zilar so‘fiy «sufuh» so‘zidan yasalgan, sufuh – biror bir narsaning xulosasidir, bu jamoa xalqning xulosasi bo‘lganligi sababli ularni so‘fiy deganlar, deb yozadilar. So‘fiy so‘zi «sof» so‘zidan chiqqan deguvchilar ham bor. Abu Rayhon Beruniy bo‘lsa «suf», ya‘ni faylasuf so‘zining

oxirgi qismidan yasalgan deb ko‘rsatadi. Ammo ko‘pchilik so‘fiy so‘zi arabcha

«so‘f» so‘zidan hosil bo‘lgan, degan fikrni bildiradilar. «So‘f» so‘zining lug‘aviy ma‘nosi jun va jundan to‘qilgan matodir. So‘fiylar ko‘p hollarda jun chakmon yoki qo‘y terisidan tikilgan po‘stin kiyib yurishni odat qilganlari uchun ularni jun kiyimlilar (forschasi pashminapo‘sh), ya‘ni so‘fiy deb yuritganlar. Bizningcha, shu keyingi e‘timologik ma‘no haqiqatga yaqinroqdir, zero, so‘fiy so‘zining «so‘f» so‘zidan yasalishi arab tili qonun-qoidalariga mos keladi.

Agar «so‘f» so‘zidan so‘fiy yasalgan bo‘lsa, o‘z navbatida, «so‘-fiy»dan,

«tasavvuf», «mustasuf», «mutassuf», «mutasavvuf» so‘zlari hosil bo‘lgan. Mustasuf o‘zini so‘fiylarga o‘xshatib, taqlid qilib yuradigan, ammo asl maqsadi amal-mansab, molu mulkka intilishdan iborat bo‘lgan kishilarga nisbatan ishlatilgan so‘z bo‘lsa, mutassuf tariqat va haqiqatda muayyan manzillarni egallagan,

biroq soʻfiy darajasiga koʻtarila olmagan kishilardir. Qalban soʻfiyona gʻoyalarga moyil, tasavvufni eʼtiqod - maslak qilib olgan, lekin tariqat amaliyotini oʻtama-gan, rasman soʻfiy boʻlmagan odamlar esa mutasavvuf boʻlib hisoblanganlar. Soʻfiylarning oʻzini ham Husayn Voiz Koshifiy «Futuvvatnomai sultoniyy» nomli asarida uch guruhga ajratgan: muoshirlar, mutarasmlar, muhaqqiqlar. Muoshirlar – tariqat ahlining muxlislari. Ular darveshlarga muhabbat bilan qaraydilar, darveshlar suhbatida ishtirok etadilar, ularning xizmatlarini bajaradilar va savobga oʻzlarini sherik deb biladilar. «Mutarasm» soʻzining maʼnosi rasmu rusumga ergashuvchi demak, ammo mutarasmlar darveshlarning odatlariga zohiran taqlid qilsalar-da, botinan hol talabgoridirlar va shu toifiga ixloslari tufayli fayzdan bahramanddirlar.

Muhaqqiqlar – Haqqa etganlar, ularni oliy martabali soʻfiylar deb taʼriflash mumkin. Haqiqiy avliyolar, shayxi murshidlar shular ichidan etishib chiqqan. Bu oʻrinda muhaqqiq soʻfiylarning najib sifatleri xususida toʻxtab oʻtish joiz deb hisoblaymiz.

Avvalo, shuni taʼkidlash kerakki, chin soʻfiy oʻzlikdan va foniyy dunyolan kechgan va Haq baqosida oʻzligini qayta topgan zot boʻlib, suratda bandayu, maʼnida ozod kishidir. Surat – tashqi koʻrinishda banda boʻlish – jism-tanani Iloh toatiga bagʻishlash boʻlsa, maʼnida ozodlik-botinni barcha aloqalardan tozalab, ruhni hur va pok saqlash demak. Soʻfiyga hech bir narsa va hech bir kishi qaram boʻlmasligi; uning oʻzi ham hech bir narsaning va hech bir odamning qarami boʻlmasligi kerak. Bahouddin Naqshband aytganlariday:

***Hechi mo neyu hechi mo kam ne, Az payi hech-hechi mo gʻam ne,
Janda bar pushtu pusht-goʻriston, Roʻze ki mirem hech motam ne.***

Maʼnosi: Hech narsamiz boʻlmaganligi uchun hech kamimiz yoʻq, oʻsha

«hech», yaʼni narsa ketidan quvib, gʻam ham chekmaymiz. Egnimizda – janda, orqamizda – goʻriston, biz vafot etgan kun hech bir motamning keragi yoʻq.

Soʻfiyning ozodligi deganda tasavvuf ahli solikning bashariy sifatlardan mutlaq qutulishi va ilohiy faqr sifati boʻlmish pok ruh koʻrinishida istigʻno olami – Tangri taolo olamining zaruratleri bepoyonligini kullan idrok etishini anglaganlar. Soʻfiy yana «sirri sof, aqli etuk, muhabbat ahliga dil bogʻlagan» (Koshifiy) boʻlishi,

nafasidan bedardlar qalbi bedor bo‘lmog‘i kerak. So‘fiylar ruhoniyyat bilan suhbat quradigan, kayhonu falak asroridan mujda keltiradigan, faqrni ixtiyoriy ravishda bo‘yinga olib, tabiiy axloqni tark eta borib, ilohiy axloqni kasb etuvchi, ezgulik yo‘lida jonini fido qiluvchidirlar, ular borliq va yo‘qlik, zamon va makondan xorij, azalu abadni birlashtirgan mukarram zotdirlar.

Bunday karomatli insonlarni xalq aziz-avliyo, qudsiy nafasli kishilar sifatida alohida e‘zozlagan. Bu zotlar atrofdagilar ongi va shuuriga qattiq ta‘sir o‘tkazganlar va ma‘naviyat sultonlari bo‘lib maydonga chiqqanlar. Ularning so‘zi va harakati, xislati va axloqi hammaga ibrat qilib ko‘rsatilgan. Jahonning butunligi, obodonlik va osoyishtalik Parvardigor fayzini etkazuvchi shu tabarruk zotlarning duosi, xayrli ishlariga vobasta deb qaralgan. SHu asnoda avliyo-anbiyoning merosxo‘ri – davomchisi degan aqida shakllangan. YA‘ni, garchi Payg‘ambari oxirzamon Muhammad salallohu alayhi vasallamdan keyin Payg‘ambar kelmasa- da, ammo qutbi kirom valilar har zamonda paydo bo‘lib, xalqni islom haqiqatlariga hidoyat etadilar, to‘g‘ri yo‘lga boshlaydilar. CHunonchi, ulug‘ shoir Xusrav

Dehlaviy o‘z piri Nizomidin Avliyoni shunday kishilardan deb ta‘rif etadi va

«Matla‘ul anvor» dostonida bunday yozadi:

Nuri jahon az qadami avliyost, Joni nazar dar jasadi to‘tiyost.

(Ko‘zning ravshanligi to‘tiyo vujudida bo‘lganiday, jahonning nuri avliyo qadamidandir).

Alisher Navoiy ham Bahouddin Naqshband va Abdurahmon Jomiyni garchi Xusrav Dehlaviy kabi payg‘ambar davomchisi deb atamasa-da, lekin ularni «murshidi ofoq», «koshifi asrori Iloh», barcha ishlardan xabardor karomatli va pok niyatli zotlar sifatida ta‘rif-tavsif etadi. Masalan, Bahouddin Naqshband:

Mulki jahon mazrai dehqoni ul, Balki jahon mulki nigahboni ul.

Yo‘q mamolikka nigahbon bo‘lib, Barcha salotin uza sulton bo‘lib...

Haq so‘zin elga qilurda ado,

Teng ko‘runib olida shohu gado.

(«Hayratul abror»dan)

Bu faqat shoirlarning hayajonli ta'rif-tavsifi emas, albatta. Buni o'rtasida kishisining tafakkur tarzi va dunyoqarashi ifodasi deb bilmoq kerak. So'fiy va darveshlar haqiqatan ham katta nufuz va obro'ga ega edilar. Muqtadir shayxlarga emas, qalandarlar, eshonlar, majzub «devonalar», oddiy darveshlarni ham odamlar hurmat qilganlar. SHuning natijasi o'laroq,, darveshchilik harakati keng quloq yoygan, xonaqo udumlari shakllanib, darveshlar alohida bir toifa - tabaqa sifatida jamiyatda muhim o'rin egallagan.

Biroq bu birdaniga yuzaga kelgan harakat emas, aytib o'tganimizday, tasavvuf va darveshlik harakati uzoq tadrijiy tarixga ega. Olimlar tasavvuf tarixini dastlab ikki davrga ajratadilar: birinchi – zohidlik davri, ikkinchisi – oriflik va oshiqlik davri. So'fiylarning o'zini ham orif so'fiylar, zohid so'fiylar, rind so'fiylar, faqir so'fiylar, faylasuf so'fiylarga ajratish mumkin.

Zohidlik davri so'fiylari (chunonchi: Ibrohim Adham, Hasan Basriy, Abuhoshim Kufiy va boshqalar) taqvo va parhezkorlikni bosh maqsad deb bilgan bo'lsalar, keyingi davr so'fiylari tafakkuriy-shuuriy rivojlanish – ya'ni dunyoni va Ilohni bilish, tanishni asosiy maqsad deb hisoblaganlar. Birinchi davrni tasavvufning ibtidoiy davri («avvalgi davr») sifatida tilga oladilar. Oriflik davri deb ataganimiz ikkinchi davr ham (bu IX asr o'rtalaridan boshlanadi) bir necha bosqichlarga ega. CHunonchi, IX–X asrlar – xonaqohlarning paydo bo'lishi, tariqat rusumlarining shakllanish davri. XI–XII asrlar – tasavvuf maktablari, silsilalarning tarkib topish davri. Bunda Misr, Bag'dod, Basra, Buxoro, Nishopur, Termiz, Balx shaharlari tasavvuf va tariqat markazlari sifatida muhim rol o'ynagan. Natijada Misr, Xuroson, Movarounnahr, Iroq va Turkiston maktablari shuhrat topgan.

XIII asr oxiri – XIV asr boshlari tasavvuf tarixida alo-hida bir mahsuldor davridir. Bu davrga kelib, tasavvuf ham nazariy-ilmiy nuqtai nazardan, ham amaliy harakatchilik nuqtai nazaridan o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan edi. Tasavvuf adabiyotining gullashi ham shu davrga to'g'ri keladi. Ayniqsa, Najmiddin Kubro (1145–1221), Muhyiddin Ibn Arabiy (1165–1240), YAh'yo Suhravardiy (1155–1191) singari mutafakkir shayxlar, Farididdin Attor (vaf.

1220), Ahmad YAssaviy (vaf. 1166), Jaloliddin Rumiy (1207–1273) kabi ulug‘ so‘fiy shoirlar tasavvuf ilmining doirasini kengaytirdilar, uni falsafa va hikmat bilan boyitdilar. Agar IX–XI asrlarda tavhid asoslarini chuqurlashtirishga katta e‘tibor berilib, tasavvufning fano va baqo kabi tushunchalari, Haqqa vosil bo‘lish mayli shiddat bilan targ‘ib qilingan bo‘lsa, XIII asr o‘rtalaridan boshlab, tafakkuriy-ahliy yo‘nalish etakchilik qila boshladi. Bu falsafiy oqim tasavvuf tarixida «vahdatul vujud» nomi bilan shuhrat topdi. So‘fiylar endi koinot tuzilishi, odamlarning hususiyatlari, olam va odam munosabatlari, komil inson anglamlari bilan bosh qotiradigan bo‘ldilar. Natijada Ibn Arabiy va Jaloliddin Rumiy kabi zotlarning asarlarida butun bir falsafiy tizim o‘z ifodasini topdi, ular ilohiy kashfu karomat, ruhiy-psixologik holatlar, botiniy latifliklar bilan birga, real insoniy hayot haqida ham ko‘p ajoyib fikrlarni bayon etdilar. SHunday qilib, tasavvuf SHarq fikriy taraqqiyotidagi ko‘p asrlik tajribalarni o‘z ichiga qamrab olib, uni rivjlantirdi, din va falsafa, hikmat va vahdat, kalom va hadis ilmlarini birlashtirdi, ilohiy ilmlar bilan dunyoviy ilmlarni o‘zaro bog‘lashga harakat qildi. Natijada tasavvuf SHarq kishisining tafakkur tarzi va axloq normasini belgilaydigan hodisaga aylanib qoldi.

Tasavvuf tarixiga nazar tashlar ekanmiz, islom dinidagi mazhablar, qarashlar xilma-xilligi so‘fiylar hayoti va dunyoqarashiga ham inchunin ta’sir etib turganini ko‘ramiz. Xususan, sunniy va shia mazhablari orasidagi kurash sezilarli iz qoldirgan. Eron olimlari, jumladan, «Tasavvuf istilohlari sharhi» (Tehron, 1347 hijriy yili) nomli qomus muallif Sayid Sodiq Guharin tasavvufning paydo bo‘lishi va qaror topishida shia mazhabi qarashlarining ta’siri borligini ta’kidlaydi. Boshqa bir qator olimlar yunon falsafasi, qadimgi zardushtiylar, hind falsafiy-asotiriy qarashlarining rolini ko‘rsatadilar. Tasavvuf amaliyoti va falsafasida bu buloqlarning samarali ta’siri bo‘lishi mumkin. Bu erda boshqa narsani ta’kidlamoq kerak: birinchidan, islomiy tasavvuf o‘zi o‘zlashtirgan jamiki narsalarini islom ruhida qayta ishlab, shariatga muvofiqlashtirgan. Ikkinchidan, biz aytmoqchi bo‘lgan fikr shuki, shia va sunniy mazhablari orasidagi kurash tasavvuf silsilalarining yo‘nalaishlarini belgilagan. CHunonchi, tayfuriya, suhravardiya, hululiya, firdavsiya kabi silsilalar ko‘proq shiachilikka moyil bo‘lsalar, yassaviya, qodiriya, naqshbandiya suluklari sunniy mazhabida mustahkam turgan tariqatlar edi. Hazrati

Bahouddin Naqshbandning asosiy jiddu jahdi ham tasavvuf va tariqatni sunniy mazhabiga moslashtirish, uni shiachilikka xos jahru samo'lardan tozalashdan iborat bo'lgan. Natijada naqshbandiya sunniy mazhabli aholi orasida chuqur yoyilgan.

Ammo Najmiddin Kubro asoslagan kubraviya silsilasida shia va sunniy mazhabidagi kishilar birga ta'lim olardilar. Chunki ulug' shayxning o'zlari mazhab va maslaklarga e'tibor qilmagan. Najmiddin Kubro vafotidan keyin esa shogirdlarining bir qismi sunniy tariqatiga (Sayfiddin Boxarziy kabi), bir qismi esa shia asosidagi tariqatlarga (Sa'diddin Hamaviy kabi) qo'shib ketganlar.

Shu kabi Jaloliddin Rumi nomi bilan bog'liq bo'lgan mavlaviya mazhabi ham sunniy yo'nalishdagi tariqat bo'lsa-da, lekin diniy va mazhabiy ayirmalar ularda u qadar ahamiyatli bo'lmagan. Bugina emas, Rumi umuman dinlarning o'zini ham bir-biridan ustun qo'ymay, ularni Oloh sari olib boradigan turli yo'llar deb qaragan.

Tasavvuf tarixi haqida gapirar ekanmiz, hazrati Bahoud-din Naqshbanddan keyingi davrni ham baholashimiz lozim bo'ladi. XV–XVI asrlar Movarounnahr va Xurosonda naqshbandiya to'la tantana qilib, gullagan davr bo'ldi. Ayniqsa, Xoja Ahrori Valining amaliy va Mahdumi A'zam-Ahmadi Xojagonning ilmiy faoliyatlari tufayli naqshbandiya mustahkamlandi, nufuzi oshdi va Hindiston, Arabiston erlariga etib bordi, Turkiyaga tarqaldi.

Naqshbandiyadan keyin tasavvuf tarixida boshqa silsila vujudga kelgan emas. Eron va Hindistonda ayrim yangi tariqatlar shakllangan, lekin ular shoxobchalar bo'lib, tasavvuf uchun yangi nazariy va amaliy yo'nalish bermadi. Umuman XV asrdan keyin tasavvufning nazariy-falsafiy jihati so'na boshladi. Mahdumi A'zam risolalari naqshbandiya aqidalarini sharhlash va chuqurlashtirishdan iboratdir. Hindistonda bir qadar tafakkuriy siljish bo'lgan. Jumladan, «vahdatush shuhud»,

«vahdati mavjud» oqimlarini yangi falsafiy oqimlar deb qarash mumkin. Mirzo Bedil ijodiga bu qarashlarning ta'siri bor. YA'ni unda barcha ilmlarni inson shaxsi bilan bog'lash, inson va uning ruhini tadqiq etishga urinishi bo'lgan. Biroq, baribir XV asrdan keyingi davrda ilgari to'plangan tajribani o'zlashtirish, sharhu tafsir qilish va targ'ib etish bilan shug'ullanildi. SHuning uchun eng toza va jur'atli

fikrlarni biz IX–XIII asrlarda yashagan so‘fiylarda uchratamiz. Tasavvufning klassik davri ham shu davrdir.

Tasavvuf g‘oyalarining sarchashmalari ustida bahs bo‘lgani-day, birinchi so‘fiylar kim edi, degan savolga ham turli xil javoblar mavjud. Husayn Voiz Koshifiy «Futuvvatnomai sultoniyy» asarida («Meros» nashriyoti, 1994) keltiriladikim, birinchi so‘fiy Odam alayhisslomning farzandlaridan biri SHish degan kishi edi. U oq po‘stin kiyib yurgani uchun shu nomni olgan. Alisher Navoiyning «Nasoyimul muhabbat» asarida birinchi so‘fiy sifatida hazrati Payg‘ambarimizning zamondoshi va muhibi Uvays Qaraniy tilga olinadi. Lekin Abdurahmon Jomiyning «Nafahotul uns» asarida birinchi marta el orasida so‘fiy laqabi bilan shuhrat qozongan kishi Abuhoshim Kufiy ekanligi aytilgan. Uni Abuhoshim As so‘fiy Al Kufiy ham deydilar. Jomiyning yozishicha, Abuhoshim So‘fyoni Savriy degan boshqa bir atoqli darvesh bilan zamondosh bo‘lgan ekan. So‘fyoni Savriy hijriy 191 (milodiy 807) yilda olamdan o‘t-gan. Abuhoshim esa Guharinning ma‘lumotiga qaraganda, 788 yilda vafot etgan («SHarhi istilohoti tasavvuf», I jild. Mu-qaddima, 55-bet). So‘fyoni Savriy deydi: «Men Abuhoshimni ko‘rganimga qadar so‘fiy nima ekanini bilmas edim va ungacha ham zuhd va muomala va vara‘da, tavakkul tariqi va muhabbat tariqida sobit buzurgvorlar bor edilar, lekin avval kishikim uni so‘fiy deb atadilar ul edi va ungacha biror kishini bu nom bilan atamagan edilar» («Nafahotul uns», Toshkand, 1913, 27-bet).

«Abuhoshim nasroniy rohiblar kabi uzun jun kiyim kiyib yurar va hamisha taqvo bilan kun o‘tkazardi» (Guharin, ko‘rsatilgan asar, 53-bet). Sayid Sodiq Guharin bundan tashqari Jobir bin Hayon (822 yilda favot etgan) va Abdak So‘fiy (821 yilda vafot etgan)larni ham dastlabki so‘fiylar sifatida tilga oladi. SHuni ham qayd etish kerakki, tasavvuf ahli CHor yori uzom va Rasulullohning yaqin sahobalaridan Salmon Forsiy hamda Imom Ja‘far Sodiqni so‘fiylik va valiylik xislati ko‘ringan ulug‘ insonlar sifatida ehtirom bilan tilga oladilar. Mazkur zotlar inchunin juvonmardlarning pirlari sifatida ham zikr etiladi. Bejiz emaski, ko‘p so‘fiylar o‘z shajaralarini shu uch zoti sharafga yoxud ularning birovi vositasida Muhammad sallallohu alayhi vasallamga olib borib bog‘laydilar. CHunonchi, «Nazmus silsila» asari muallifi Vasliy Samarqandiy (XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod etgan) urgutlik Eshoni Valixon

silsilasini yozar ekan, ul kishining so‘fiylik nisbatini quyidagicha belgilab chiqadi: hazarti Muhammad sallallohu alayhi vasallamdan Abu Bakr Siddiq raziyallohu anhuga, ul kishidan Salmon Forsiyga, ul janobdan Imom Ja‘fari Qosim raziyallohu anhuga, ul janobdan Imom Ja‘far Sodiqga, ul janobdan Sulton Abuyazid Bistomiyga, ul janobdan Abulhasan Xaraqoniyga, ul janobdan Xoja Ali Formadiyga, ul janobdan Xoja YUsof Hamadoniyga, ul janobdan Xoja Orif Revgariyga, ul janobdan Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviyga, ul janobdan Xoja Ali Rometaniyga, ul janobdan Xoja Muhammad Boboyi Samosiyga, ul janobdan Sayid Amir Kulolga, ul Janobdan Xoja Bahouddin Naqshband hazratlariga, ul janobdan Xoja Muhammad Alouddin Attorga, ul janobdan YA‘qubi CHarxiyga, ul janobdan Xoja Ubaydulloh Ahrori Valiga, ul janobdan Xoja Muhammad Zohidga, ul janobdan Xoja Darveshga, ul janobdan Xoja Amkangiyga, ul janobdan Xoja Muhammad Boqiybillohga, ul janobdan Xoja Ahmad Foruq – Imom Rabboniyga, ul janobdan Xoja Muham-mad Saidga, ul janobdan Xoja Abdulahadga, ul janobdan Xoja Muhammad Obidga, ul janobdan Xoja Muhammad Musoxonga, ul janobdan Xoja Muhammad Siddiqga, ul janobdan Mavlono Husaynga, ul janobdan Mavlono Mirmuhammad Ibrohimga, ul janobdan hazrati Eshon Xoja Valixonga so‘fiylik nisbati o‘tib kelgan. Demak, naqshbandiya silsilasi Salmon Forsiy va Abu Bakr Siddiq raziyallohu anhumalar oraqli Payg‘ambarimizga olib borib ulangan. SHu zaylda, tasavvuf tarixi islom tarixi bilan birga rivojlanib, islom madaniyati va ma‘rifatiga o‘lkan hissa bo‘lib qushildi. Agar dastlabki paytlarda Kufa, Basra va Bag‘dod shaharlarida sanoqli darajada zohid sufiylar yashagan bo‘lsa, bora-bora musulmon olamida shayxu mashoyixlar, so‘fiy darveshlar, qalandarlarning soni ko‘paydi, yuqorida aytganimizday bu o‘ziga xos bir harakatga aylandi.

Mavzuni mustahkamlash bo‘yicha savol va topshiriqlar

1. So‘fiy va tasavvuf so‘zlarining ma‘nosini ayting?
2. Tariqat so‘zining lug‘aviy ma‘nosi nimani anglatadi ?
3. Tariqatlarning shakllanishi haqida nimalarni bilasiz?

4. Qanday tariqatlarni bilasiz?

Mavzuni chuqurroq o‘rganish uchun qo‘shimcha adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Nasoyimul muhabbat. 17-jild. -T.: Fan, 2002.
2. Jaloliddin Rumi. Masnavii ma’naviy. SHarhi bilan, 1-kitob. – T.: «SHarq» matbaa nashr., 2000.
3. Ahmad YAssaviy. Hikmatlar. –T.: «O‘zbekiston», 1993.
4. «Komil inson haqida to‘rt risola» (N.Komilov tarjimai). –T.: «Ma’naviyat», 1998.
5. Bertels E.E. Izbirannaya trudы. Sufizm i sufiyskaya literatura. -M.: «Nauka», 1965. Str. 13-103.
6. Ibn Arabi. Gemmy mudrosti (glavy). Perevod A.V. Smirnova. V.Kn. M.Stepanyans. Filosofskie aspekty sufizma. -M.: «Nauka», 1987. Str. do-119.
7. Doktor Abdulhusayn Zarrinko‘b. Justujo‘ dar tasavvufi Eron. Ikki jildlik (fors tilida). Tehron, hijriy 1349.
8. Komilov N. Tasavvuf. 1-kitob. –T.: «YOzuvchi», 1997.
9. Komilov N. Tasavvuf. 2-kitob. –T.: «O‘zbekiston», 2000.
10. Haqqulov I. Tasavvuf saboqlari. «Buxoro» nashr., 2000.

20-Mavzu: Tasavvuf tariqatlari va ularning

o‘ziga xos xususiyatlari

1. Tariqi axyor, tariqi abror, tariqi shutter, botil tariqatlar.
2. Tariqatlarning mushtarak unsurlari; Insoniy unsurlar, amaliy unsurlar. Zikr, xilvat, chilla, arbain, sayru suluk. nafs va rux.
3. Fikriy unsurlar. Botiniylik, ishroqiylik, malomatiylik, futuvvat – axiylik, rijol-ul

g‘ayb.

4. Moddiy unsurlar”: Takya, Xirqa, kulox, kamar, shadd, xaydariy, tannura, a’lam.

IX-X asrlarda Muhosibiy, Junayd Bag‘dodiy, Abu Bakr, Kalobodiy, Abu Nasr, Sarroj, Sulamiy, Xujviriylarning fikricha, tariqat asosan amaliy (qisman nazariy) uslub, axloqiy, etikaviy, psixologik qoidalar yig‘indisidir. Bu davrda tariqat maqom va hol bilan bog‘liq bo‘lgan.

X-XII asr o‘rtalarida pir, shayx, murshid va murid instituti avval Xurosonda vujudga kelib, keyin butun musulmon olamiga tarqalgan. Bu davrda tariqat ta’lim berish maktabiga aylangan va faqat maxsus kishilar doirasida kengayib, xalq ommasi orasida tarqalgan. XII asrning oxirida silsila instituti to‘la shakllandi va so‘fiylik tariqatlari vujudga keldi⁵⁴.

⁵⁴ Қаранг: Акимушкин О. Тариқа / Ислам. Энциклопедический словарь. - М.: Наука, 205

Ingliz olimi Dj.Trimingem tariqatlar vujudga kelishi va taraqqiyotini uch bosqichga bo‘lib tahlil etgan. U bu yo‘lning shaxs kamoloti ta‘siriga qarab bosqichlarga ajratgan. Birinchi bosqichda shaxs Olohgagina bo‘ysungan deb, uni xonaqoh deb nomlaydi. Bu bosqichni u tariqatlar taraqqiyotining oltin davri deb ta‘riflaydi. U X-XII asrlarni o‘z ichiga oladi. Ikkinchi bosqichni tariqa deb ataydi. U XIII-XIV asrlarga tegishli bo‘lib, qoida - usullarni ishlab chiqish va ta‘lim berishga silsilaning kirishi bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda shaxs ruhiy kamolotida tasavvuf taraqqiyotida vujudga kelgan qoidalarga bo‘ysunish vujudga keladi. Bu davrda jamoa bo‘lib ekstaz holatiga tushish uslublari vujudga kelgan.

Uchinchi bosqichni Trimingem t o i f a deb ataydi va uni XV asrga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi. So‘fiylik bu davrda xalq harakatiga aylanadi. Tariqatlar shakllanib, ulardan yangi shoxalar ajralib chiqadi. Toifada muqaddas shaxsga sig‘inish kuchayadi. Bu davrda juda ko‘p qonun-qoidalar ishlab chiqildiki, ular shaxsning erkin ruhiy o‘shini chegaralab qo‘ydi. SHaxs jamoa talabiga moslashadi va jamoa amaliyotiga bo‘ysunadi⁵⁵. Uchinchi bochqichda uch holat ham mavjud

bo‘lgan. Birinchi bosqichda shaxs ruhan erkin harakat qilsa, uchinchi bosqichda shaxs ruhan shayxiga qaram bo‘lgan. Bu esa ruhiy qullikka ham olib kelgan. Natijada keyingi davrda tariqatlar taraqqiyoti tanazzulga yuz tutgan. Birinchi bosqichdagi Pir, ustoz shogirdining ruhiy kamolotiga yordam bergan, uni chegaralamagan bo‘lsa, keyingi davrlarda bu holat o‘zgargan. Birinchi bosqich xususiyatini saqlagan tariqatlar kamol topgan.

Tariqatlar turli xil bo‘lgan. Usmon Turar ularning quyidagi tasniflarini keltiradi⁵⁶.

I. Zikrdagi holatlarga ko‘ra:

1.Qiyomiy tariqatlar: ko‘proq tik holda zikr qiluvchi tariqatlar;

masalan, qodiriya.

1991 - С. 224.

⁵⁵ См.Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе. - М. Наука, 1989. – С. 90.

⁵⁶ Қаранг: Турар У.Тасаввuf тарихи. Т.: Истиқлол, 1999. 62-бет.

2.Quudiy tariqatlar: o‘tirib zikr qiladigan tariqatlar; masalan, naqshbandiya.

II. Zikrning bajarilishiga ko‘ra:

1.Xafiy tariqatlar: ovoz chiqarmay yashirin zikr qiluvchi tariqatlar; masalan, naqshbandiya.

2.Jahriy tariqatlar: ovoz chiqarib zikr qiluvchi tariqatlar; masalan, xilvatiya.

III. Qo‘llagan uslubiga ko‘ra:

1.Tariqi axyor (xayrlilar yo‘li):muomala arbobining yo‘li bo‘lib, farz va sunnatlarni, nafl namozlarni ado etish, nafl ro‘zalar tutish, Qur‘on o‘qish va hokazo ibodatlar orqali Haqqa vosil bo‘lishga asoslangan.

2.Tariqi abror (qalbi soflarning yo‘li): bu riyozat va mujohada

yo‘li bo‘lib, shu orqali axloqni go‘zallashtirish, qalbni poklash asos qilib olingan. Riyozatdan maqsad-nafs istaklarini bajarmaslik, mujohada esa nafs istaklariga qarshi kurashish bo‘lib, shu tarzda qalb yomon xulqlardan tozalanib, ezgu axloq bilan bezanadi.

3.Tariqi shutter (ishq va jazba ahlining yo‘li):bu ishq muhabbat, jazba yo‘li bo‘lib, bu yo‘lda yurgan solik bir holdan ikkinchi holga, bir maqomdan ikkinchi maqomga o‘tish orqali ma’naviy sayr qiladi. SHu bois bu yo‘lni «tariqi soirin» ham deydilar. Bu yo‘lning sharti-inson o‘limni o‘z irodasi bilan qabul qilishidir. Solik go‘yo o‘lik misol hamma narsalardan voz kechib, hatto o‘z borlig‘ini ham yo‘q hisoblashi kerak. Bu yo‘l «usuli ashara» degan quyidagi o‘n asosga tayanadi: tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, uzlat, doimiy zikr, butun borlig‘i bilan Allohga yo‘nalmoq, sabr, muroqaba va rizo. Malomatiylar qiyin bo‘lishga qaramay, maqsadga erishuvda eng qisqa yo‘l bo‘lgani uchun, shu yo‘lni asos qilib olganlar⁵⁷.

IV. Fikr tizimlarining haq va botil bo‘lishiga ko‘ra:

⁵⁷ Муҳаммад Али Айний. Тасаввуф тарихи. Истанбул: 1341. 193-194-бетлар; Исмоил Ҳаққий. Янги калом илми. 1-ж. Истанбул, 1339. 155-бет.

1.Haq (shar'iy, ortodoks) tariqatlar: Islomning bosh asoslariga tayangan holda tashkil qilingan va shakllangan tariqatlar; naqshbandiya va qodiriya kabi.

2.Botil (g'ayri shar'iy) tariqatlar: Bular ikki qismdir. Birinchisi, dastlab zuhur etib, asoschisining fikrlari haq bo'lganu biroq asta-sekin turli fikr va an'analar ta'sirida botillashgan tariqatlar, masalan, bektoshiylik. Ikkinchisi, dastlab paydo bo'lishidanoq islomga muvofiq kelmagan tariqatlar; chunonchi, xurufiylik va qalandariylik.

V. Silsilalarga ko'ra:

1. Bakriya yoki siddiqiya: silsilasi hazrati Abu Bakrga taqaladigan;

2. Umariya yoki foruqiya: silsilasi hazrati Umarga taqaluvchi;

3. Usmoniya: silsilasi hazrati Usmonga taqaladigan;

4. Alaviya: silsilasi hazrati Aliga borib taqaladigan tariqatlar.

VI. Tasavvufiy qarashlariga ko'ra. Tasavvufdan maqsad-tavhidga erishmoq bo'lib, mutasavviflarga ko'ra, tavhidga eltuvchi yo'l-fanoni amalga oshirish. Ammo mutasavviflar «tavhid» va «fano» tushunchalariga ko'ra uch qismga bo'linadilar.

1. Qudusiya. O'z qasdu irodasini Allohning irodasida foniy qilganlarga aytiladi. Bu toifa so'fiylarning Allohdan boshqa biron maqsadlari yo'q, shu bois, ular Alloh nimani murod qilgan bo'lsa, uni iroda qiladilar, uning amridan aslo chetga chiqmaydilar. bu toifaning yo'li yuqorida qayd etilgan «axyor» yo'lidir. Dastlabki so'fiy va zohidlar mazkur yo'lni tanlaganlar. Bularning maqomiga «fano fil qusud» deyiladi. Bu so'fiylar Alloh bilan birga o'z borliqlarini va ibodatlarini idrok etadilar. YA'ni doimo «sahv» holidadirlar. Izmirlik Ismoil Haqqiy bu yo'l payg'ambarlarning, sahobalarining va avliyoning yo'li ekanligi hamda Islomning zohir va botinini tashkil etishini ta'kidlagan.

2. SHuhudiya. Har narsada va har ishda Allohni mushohada etuvchilarga «shuhudiya» deyiladi. Bu toifa so'fiylarning Allohga bandalik qilishlari va muhabbatlari shu darajaga kelganki, Allohga

bo‘lgan ishtiyoqlaridan na ibodatlarining, na muhabbatlarini farqiga boradilar. Ular faqat Allohni o‘ylaydilar. Har narsada Allohni mushohada etadilar. Bu martabaga «fano fish-shuhud» deyiladi. Bu maratabada Alloh-banda, Alloh boshqa yaratilqlar kabi ikkilik munosabatiga ahamiyat beriladi. SHuningdek, so‘fiy Allohga bo‘lgan muhabbati tufayli, Undan boshqa biror borliqqa (mosivoga) ahamiyat bermaydi. «Abror» yo‘lidagi so‘fiylarning holi shudir.

3. Vujudiya. Allohdan boshqa biron borliqni tan olmaydigan so‘fiylarga «vujudiya» deyiladi. Martabasiga esa «fano filvujud» deyiladi. Bu maqomda so‘fiy nazarida, olam Haqning tajallisi, shuun (nuri) va atvoridan iborat, mustaqil borlig‘i yo‘qdir. So‘fiylar nazarida «tavhid»ning eng baland martabasi ham shu.

Qodiriya tariqati asoschisi Abdulqodir Giyloniy o‘zining “Sirrul asror” asarining 23 fasli – “Tasavvuf ahli xususida” yozib tariqatlarni 2 guruhga bo‘ladi:

1. Sunniylar.

2. Bid‘at ahli.

Avvalgi guruh – sunniylar. Bu toifa so‘zda, amalda, shariat va uning ma‘nosi bo‘lgan tariqatda tamoman qoimdir. Ularni “ahli sunnat val-jamoat” ta‘biri bilan ataladi.

Ta‘kidlanganlardan tashqari bo‘lgan (jam‘i toifa)lar ikkinchi guruhga oiddir va ularga nisbatan “bid‘at ahli” deya ta‘bir qo‘llaniladi. Ularning jumlasini shunday siralanadi: hululiya, holiya, avliyoiya, shamuroniya, hubbiya, huriya, ibohiya, mutaqosima, mutajohila, voqifiya, ilhomiya. Ushbu sanalgan toifalar haqida biroz to‘xtalsak:

- Xululiya. Bular deydi, go‘yo chiroyli badan va go‘zal chehraga qaramoq, qizdir-erkakdir baribir, haloldir. Raqsga ham tushadilar. Ayol-erkak kim bo‘lsa ham, marhami bo‘lmasa ham, muboh ekanligiga da‘vo qiladilar. Bu da‘volar to‘g‘ridan-to‘g‘ri kufrdir.

- Holiya. Bular ham raqsni va nog‘ora chalishni halol ekanligini aytadilar. YAna shayxning shunday bir holi borki, shariat bundan bahs eta olmasligini da‘vo qiladilar. Bu so‘zlar esa tom ma‘noda bid‘atdir. Payg‘ambar (s.a.v.)ning sunnatlariga uyg‘un emas.

- Avliyoiya. Bular da'vo qiladilarki, go'yo banda valoyat darajasiga etishsa undan diniy hukmlar ko'tariladi; yana, valiy payg'ambardan ustundir. Bunga sabab qilib, payg'ambarga ilm Jabroil (a.s.) vositasi ila keldi, valiyning ilmi vositasizdir, deyдилar. Bunday ta'villari ularning xatosi hisoblanadi va shu tufayli halok bo'ladilar. Bunday e'tiroz ularni yiqitib, keyin sheriklaridek to'g'ri kufrga etaklaydi.

- SHamuroniya. Bular aytadilarki, go'yo suhbat qadimdir va suhbat qiluvchidan (shar'iy) hukm va ta'qiqlar masalasi ko'tariladi. Daf, tanbur va boshqa asboblari chalmoqni, o'yinchilik asboblarini halol hisoblaydilar. (Oralarida) ayollar bormi-yo'qmi ahamiyatsiz, farq etishmaydi. Bular kufri keltiruvchi toifa bo'lib, damlari (musiqqa ovozlari) ham mubohdir.

- Hubbiya. Bular aytadilarki, go'yo bandasi muhabbat holiga etishgach, diniy (shar'iy) hukmlar ulardan ko'tariladi. Odob (va avrat) joylarini berkitmaydilar.

- Huriya. Bular ham holiyachilar kabidir. Faqat, hurlar bilan qovushganlarini da'vo qiladilar. Va o'zlaricha (raqsdan so'ng) hushlariga kelgach, g'usl qiladilar. SHu hollari bilan yolg'on so'zlaydilar. (Ular ham) halok bo'lguvchilardir.

- Ibohiya. Bular yaxshi amallarga amr, yomonlaridan qaytarish (amru ma'ruf va nahy munkar)ni tark qiladilar. Haromni halol hisoblaydilar, ayollarni muboh biladilar.

- Mutaqosima. Bu toifa mehnat qilmaydi. Eshikma-eshik yurib, tilanadilar. Go'yoki, shu zohiriy hollari bilan dunyoni tark qilganliklariga ishonadilar. SHuning uchun ham halokatga uchramoqdalar.

- Mutajohila. Bular esa fosiq kishilarga xos liboslar kiyadilar. Holbuki, Alloh taolo: "Zulm yo'lini tutgan kimsalarga berilib ketmanglar (ergashmanglar). Aks holda sizlarga do'zax o'ti etar. Sizlar uchun Allohdan o'zga biron do'st yo'qdir. Keyin (ya'ni zolimlarga ergashsangiz) sizlarga yordam berilmas" (Hud: 113) deya amr etgan; janobi payg'ambarimiz (s.a.v.) ham "Qay bir jamoaga o'xshashga harakat qiluvchi, o'shalardandir" deya, marhamat qilganlar.

- Vofiqiya. Bu jamoa "Alloh, faqat Alloh biladi" deyдилar va ma'rifat yo'lini tutmaydilar (ya'ni, ilm olmaydilar). SHu jaholatlari tufayli halokatga uchraydilar.

- Ilhomiya. Bu toifa (ham) ilm o‘rganmaydi. (Hatto) dars o‘qimoqchi bo‘lgan yoshlarga ta‘qiqalar qo‘yishadi. Hukamo (shoiru donishmandlar) so‘zlariga tobe’dirlar. Aytadilarki, “Qur’on bizga pardadir. Tariqatning Qur’oni she’rdir.” SHu e’tiqodda Qur’onni tark etadilar, farzandlariga ham faqat she’r o‘rgatadilar, o‘qilishi lozim bo‘lgan duo va bu kabi boshqa amallarni qildirmaydilar. SHu tufayli ular (ham) halokatga uchraguvchilardir.⁵⁸

Ba’zi mutasavviflar, ma’naviy darajalariga ko‘ra musulmonlarni Alloh nazdida darajasiga qarab tasnif etganlar. Masalan, Mavlono Abdurahmon Jomiy «Nafahot ul-uns» asarida so‘fiylarni quyidagicha tartibga solgan:

1. Ashobi vusul (Allohga vosil bo‘lganlar-etishganlar)

a) Mashoyixi so‘fiya (irshod bilan vazifador murshidlar)

b) Fanofillohga erishganlar (irshod bilan vazifador bo‘lmagan valiyalar.)

2. Ahli suluk:

a) Oliy maqsadga tolib bo‘lgan va Allohning zotiga talabgorlar, bular ikki qism: mutasavviflar, malomatiylar.

b) Jannat va oxirat ne‘matlarini xohlovchilar, bular esa to‘rt

qismga bo‘linganlar: zohidlar, faqirlar, xodimlar va obidlar.⁵⁹

Manbalar tahlili tariqatlarni yana quyidagi ikkita katta guruhga

bo‘linishidan dalolat beradi:

⁵⁸ Қаранг: Шайх Сайид Абдулқодир Гийлоний. Сиррул асрор. Мактубот. /Таржимон, нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва луғат-изоҳлар муаллифи О.Жўрабоев. – Т.: Моварауннаҳр, 2005. 145-148 – бетлар.

⁵⁹ Қаранг: Наврўзова Г. Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси. Т.: Фан, 2005. 35-62-бетлар.

1. Dastlabki tariqatlar.

2. Mumtoz tariqatlar.

Dastlabki tariqatlar haqida Hujviriy “Kashful mahjub” kitobida

ma'lumot bergan. U o'z davrida 12 tariqat borligini yozgan va ulardan

10 tasini haq, 2 tasini botil deb ko'rsatgan.⁶⁰ (Qarang: 1-Ilova). Birinchi vujudga kelgan bu tariqatlar keyingi mumtoz tariqatlar uchun asos bo'lib, ularning shakllanishiga yordam bergan. Naqshbandiya tariqatiga ham ilk tariqatlarning ta'siri bor.

DASTLABKI SO'FIY TARIQATLAR

⁶⁰ Хужвирий, Кашфул маҳжуб./С.Улуғдоғ нашрга тайёрлаган. Истанбул, 1982. 281-294-бетлар.

1-ilova

№	Tariqat nomi	Asoschisi	Asosiy tushunchalar	Tariqat sifati
1	Muhosibiya	Horis Muhosibiy (857m.y.v.e.)	Muhosaba, rizo	Haq
2	Qassoriya	Hamdun Qassor (884m.y.v.e.)	Sidq, xolislik	Haq
3	Tayfuriya	Abu YAzid Tayfur al Boyazid Bistamiy (848 m.y.v.e.)	qushsizlik, fano	Haq
4	Junaydiya	Junayd Bag‘dodiy (909 m.y.v.e.)	Tamkin, sukr- xushyorlik, baqo	Haq
5	Nuriya	Abul Husayn Nuriy (907 m.y.v.e.)	Suhbat, isor	Haq
6	Sahliya	Sahl ibn Abdulloh Tustariy (896m.y.v.e.)	Nafs bilan mujohada, riyoza va chilla	Haq
7	Hakimiya	Hakim Termiziy (898m.y.v.e.)	Valiylik va tamkin, istiqomat	Haq
8	Xarroziya	Abul Hasan Aliy Muhammad Xarroz (890 m.y.v.e.)	Fano va baqo	Haq

9	Hafifiya	Abu Abdulloh Muhammad ibn Hafif (982 m.y.v.e.)	G‘aybat va huzur	Haq
---	----------	--	------------------	-----

10	Sayyoriya	Abu Abbos Sayyoriy (h.IV-asr.v.e.)	Jam’ va farq (tafriqa)	Haq
11	Hallojiya	Foris ismli bir shaxs	Hulul va tanosuh	Botil
12	Hulmoniya	Abu Hulmon Damashqiy	Hulul, imtizoj va ruhlarning tanosuxi	Botil

Hujviriyy 4000 rijolul g‘ayb – yashirin, bir-birini tanimaydigan valiylar, 300 ahyor, 40 abdol, 7 abror, 4 avtod, 3 nukaba, birta qutb yoki g‘avs bor. Bular bir-birini biladilar,⁶¹ deydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Tariqatlar va ularning turlicha yo‘l va amaliyotlarini qanday tushunasiz?
2. Tariqatlar to‘g‘risida yana nimalarni bilasiz?
3. Botil tariqatlar deganda nimni tushunasiz?

Mavzuni chuqurroq o‘rganish uchun quyidagi adabiyotlarni albatta o‘qib

chiqing

⁶¹ Ал-Хужвирий Кашф ал-маҳжуб. 213-бет.

- 1.Ahmad YAssaviy. Hikmatlar. –T.: “O‘zbekiston”, 1993.
- 2.“Komil inson haqida to‘rt risola” (N.Komilov tarjimasi). –T.: “Ma’naviyat”,
1998.
- 3.Bertels E.E. Izbirannaya trudы. Sufizm i sufiyskaya literatura. -M.: “Nauka”,
1965. Str. 13-103.
- 4.Ibn Arabi. Gemmy mudrosti. Perevod A.V. Smir-nova. V.Kn. M.Stepanyans. Filosofskie aspekty sufizma. -M.: “Nauka”, 1987. Str. do-119.
- 5.Doktor Abdulhusayn Zarrinko‘b. Justujo‘ dar tasavvufi Eron. Ikki jildlik (fors tilida). Tehron, hijriy 1349.
- 6.Komilov N. Tasavvuf. 1-kitob. –T.: “YOzuvchi”, 1997.
- 7.Komilov N. Tasavvuf. 2-kitob. –T.: “O‘zbekiston”, 2000.
- 8.Haqqulov I. Tasavvuf saboqlari. “Buxoro” nashr., 2000.

21-Mavzu: Yirik tariqatlar va ularning asoschilari

Reja:

- 1.Muxosibiya tariqati va Xoris Muxosibiy va Xamdun Qassor asos solgan qassoriya tariqati.
- 2.Tayfuriya yo‘nalishi. Junaydiya. Nuriya. Saxliya. Xakimiya. Xarroziya. Xafifiya. Sayyoriya. Xallojiya. Xulmoniya.
- 3.“G‘avsul a‘zam” Abduqodir G‘iyloniy. Qodiriya tariqati Mavlaviya.

Muhosibiya dastlabki tariqatlardan bo‘lib, Muhosibiy tomonidan asoslangan. Abu Ali al-Haris b. Asad al-Anazi Muhosibiy (tax. 781-857)

– sufiylik ta’limotining birinchi nazariyotchilaridan bo‘lib, Basra shahrida tug‘ilgan. Hadis va fiqh ilmini Yazid b. Xarun (821 yil vaf.) va Abz Ishoq al Kurashidan o‘rgangan. YOshlikda Bag‘dodga ko‘chib kelib, bu erda mustaqil ilm o‘rganishni davom ettirgan. Hayoti shu erda o‘tgan uchun uni sufiylikning Bag‘dod maktabiga mansub deb aytadilar.

Muhosibiy so‘fiylik “psixologiyasi” (ilm al-qulub va-l-xatarot)ning asosiy qoidalarini asoslagan. Uning fikricha inson kamoloti uchun, o‘z-o‘zini kamolotga etkazishda muroqaba – o‘z-o‘zini kuzatish va muhosaba – o‘z-o‘zini nazorat etish asosiy qurol bo‘lib xizmat etadi. SHuning uchun ham unga Muhosibiy nomi berilgan. CHunki muhosibiy

– o‘z-o‘zini nazorat etuvchi, o‘z-o‘ziga hisobot beruvchi ma’nosini anglatadi. Muhosibiy fikricha, nazorat etish ob’ekti eng avvalo niyat va qalb harakati (xatarot) bo‘lishi lozim, chunki ular insonni hatu-harakatini belgilaydilar. Haq yo‘lidan boruvchining yo‘lida turli xavf- xatar va aldovlar uchraydi. Ba’zilar dunyo shon-shuhratidan foydalanmoqchi bo‘ladilar. Bunga ular tashqi tomondan o‘zlarini xudojo‘y qilib ko‘rsatib erishadilar. Buni Muhosibiy riyo va kibr deb atadi va ularga niyat va amaldagi sidq va ixlos fazilatlarini qarama-qarshi turishini ta’kid etdi. Inson atrofda gilarining u Haqdagi fikriga ishonmasligi lozim, chunki faqat uning o‘zigina uni harakatga keltirayotgan asl motivlarni biladi. Imonli kishi o‘zini Tangrining haqiqiy bandasi deb hisoblab, dunyoviy bog‘lanishlardan uzilgan bo‘lishi lozim. CHunki bu insonga har bir harakatini ilohiy iroda asosida amalga oshirishga va faqat Olloh rizoligini talab etadigan bo‘lishga yordam beradi. Ilohiy huquqlarga to‘g‘ri rioyat etish uchun insonga aql berilgan. Muhosibi aqlni toat va aqlsizlikni ma’siyat deb baho beradi.

Muhosibiy 30 asar muallifidir. Uning quyidagi asarlari ma’lum va mashhurdir:

1. Kitab ar-ra’iyat li-huquq Allah.

2. Kitab at-tavahhum.

3. Kitab al-ba's va-n-nushur.

4. Kitab al-vasaya.

5. Fahm al-Qur'an.

Muhosibiy so'fiylikning Bag'dod maktabini asoslab juda ko'p kishini tarbiyaladi. U Junayd Bag'dodiyning ham ustozidir.⁶²

Hujviriy "Kashf al-mahjub" asarining birinchi bo'limi 11-bobiga

"Abu Abdulloh al-Horis ibn Asad al Muhosibiy" nomini berib, u haqida

ma'lumotlar beradi. Uning fikricha Muhosibiy o'z davridagi barcha ulamolar tomonidan tan olingan. Uning "Ra'iyat li-huquq Alloh" – "Ollah oldidagi vazifalarni bajarish" asari so'fiylikni tamoyillari haqidadir. "Muhosibiy o'z davrida Bag'dodning birinchi shayxi edi,"⁶³ – deb yozadi Hujviriy.

Hujviriy Muhosibiyni quyidagi fikrini keltiradi: "Kimga qalbining yashirin harakati tanish, u tanani harakat qildirib amal qila oladigan kishidin afzaldir." Ilm bu kamolot, ilm bu ilohiy sifatdir, deydi Muhosibiy "Bir onlik tafakkur oltmish yillik ibodatdan afzal", deb Muhosibiy qalb harakati, ma'naviy, ruhiy, tafakkuriy harakatni jismoniy harakatdan afzal va ustun deb hisoblaydi. SHuning uchun "Donishmandning uyqusi, nodonning bedorligidan afzal" deb aytadilar. CHunki dono kishi qalbi doim Tangri bilan, demakki tanasi ham u bilan bog'langandir. Asarda shuningdek Muhosibiyni "YOki ilohiy bo'l, yokim hech kim bo'l" degan fikri keltirilgan. YA'ni

⁶² Қаранг: Кныш А. Ал-Мухосиби. Ислам. Энциклопедический словарь. Москва: Наука, 1991.182-183-бетлар.

⁶³ Али ибн Усман аль-Джулаби аль-Худжвири. Раскрытие скрытого за завесой для сведущих в тайнах сердец (Кашф аль-махжуб ли арбаб аль кулуб). /Перевод с английского А.Орлова, Изд. Перв. – Москва: Единство, 2004. 107-108-бетлар.

Ilohiy irodaga bo‘ysunib, pokiza bo‘l, bo‘lmasa seni odam zotiga mansub deyish xato.⁶⁴

Hujviriyy “Kashf al-mahjub” asarining birinchi bo‘limi 14-bobida dastlabki sufiy tariqatlarining ta‘limotlarini tahlil etgan. Birinchi so‘fiy tariqati sifatida muhosibiyani tilga olgan va bu ta‘limotga xos bo‘lgan tomonlarni ko‘rsatgan.⁶⁵ Uning fikricha, muhosibiylar Abu Abdulloh Xoris ibn Asad Muhosibiyning davomchilaridir. Muhosibiya tariqatiga xos bo‘lgan asosiy e‘tiqod **rizo va muhosabadir**.

RIZO - rozilik, xushnudlik, mamnunlik. Tasavvufda Olloh

hukmi va irodasiga to‘la taslim bo‘lish. Zunnun Misriyga ko‘ra, "Rizo -qayg‘u va kadarning achchig‘ligini qalb sevinchi ila qarshilamoq". Ruvaym bin Ahmad al-Bag‘dodiy esa rizoni insonga qismat etilmish balolardan lazzatlanish iste‘dodi, deya ta‘riflaydi. Mavlono Fuzuliy: YO Rab, baloyi ishq ila qil oshno mani, Bir dam baloyi ishqdan etma judo mani,

deganida, bu - o‘tkinchi dunyo hirsu havaslaridan ko‘ngilni butunlay poklashni nazarda tutgan edi. Zero, Junayd Bag‘dodiy qayd etganidek: "Rizo - qalblarda vosil bo‘lgan ilmning mustahkam va sahih bo‘lishidir. Qalb ilmning haqiqatiga yuzlangach, ilm uni rizoga yo‘naltirar".

Rizo masalasida so‘fiylar xilma-xil fikr va mulohazalar bildirganlar. Qushayriy shunday degan: "Iroqlik so‘fiylar bilan xurosonlik malomatiylar rizo holmi yoki maqommi degan masalada munozaraga kirishdilar. Xurosonliklar dedilarki, rizo - maqomlar jumlasidandir, tavakkulning nihoyati erur. Buning ma‘nosi, rizo - qulning harakati va intilishi bilan erishiladigan narsalar toifasidan demak. Iroqliklar esa bunday deydilar: "Rizo - hollarga mansub. Qul bunga mehnat, mashaqqat bilan etisha olmas. Aslida, rizo dastlab qulning intilishi ila qo‘lga kiritilar. Ushbu holatga ko‘ra, u maqomlardan biri hisoblanar, natija e‘tibori ila esa rizo hollar toifasiga kirar, shuning uchun u qozoniladigan bir narsa emasdir".

Rizo tushunchasining asoschisi Horis Muhosibi shunday aytadi: “Rizo – ilohiy taqdir amri bilan bo‘ladigan voqealar vaqtida qalbning

⁶⁴ Қаранг: Ўша асар. Ўша жойда.

⁶⁵ Қаранг: “Кашф ал-махжуб”. 176-182-бетлар.

sokinligi, xotirjamligi ilohiy lutf bilan bo‘ladi. Rizo Ilohiy muhabbat natijasidir, chunki haqiqiy oshiq ma’shuq tomonidan beriladigan barcha ishdan rozidir.” Hujviriy “Rizo maqomlarning oxiri va holning boshidir deb ta’rif beradi.”⁶⁶ Lekin Muhosibi rizoni hol deb belgilagan, chunki unga faqat Ilohiy lutf bilan erishiladi. Rizo haqida Hujviriy o‘z asarida yozadiki, u ikki xil bo‘ladi:

1. Tangrining insondan roziligi.

2. Insonning tangridan roziligi.

Tangrining insondan roziligi, insonning har bir ezgu ishi uchun ajru baraka berish va unga alohida karomatga o‘xshash fayzlar lutf etishida ko‘rinadi.

Insonning Tangridan roziligi u tomonidan Ilohiy amrlarni bajarishida namoyon bo‘ladi. Tangrining insondan roziligi, insonni Tangridan roziligidan oldin keladi. Chunki faqat ilohiy marhamat bilan inson Tangri amrlarini bajara oladi. Inson roziligi taqdir zarbalaridan norozi bo‘lmaslik, unga bog‘liq bo‘lmagan ishlarga ruhning istiqomati- ustuvorligi, Tangri qahri va lutfini bir xil qabul etish, tangri tomonidan nima berilsa rozi bo‘lishdir. Shuning uchun ham rizo qalbni poklaydi.

Rizo axloq nuqtai nazardan shunday holatki, barcha narsa Tangri tasarrufida ekanligiga va Tangri barcha holatda uni qo‘llashiga ishonchdir. Rizo holatidagi insonlar xotirjam bo‘ladilar. Ularni to‘rt xili bor:

1. Ilohiy ajr va ma’rifatdan rozi bo‘lganlar.

2. Bu dunyoda berilgan ne’matlardan rozi bo‘lganlar.

3. Bandaga sinov sifatida beriladigan balolarga rozi bo‘lganlar.

4. Olloh tomonidan tanlanganligi va bu ilohiy muhabbat samarasi ekanligidan rozi bo‘lganlar.⁶⁷

⁶⁶ Кашф ал-махжуб. 181-бет.

⁶⁷ Қаранг: Кашф ал-махжуб. 177-бет.

Kim hadyaga ko‘zini tikib, unga Hadya berayotgandan ko‘zini olsa, u ne‘matni yo‘qotadi, shuning uchun rizo hadya beruvchidir.

Abduqodir Geloniy

Murosali hayot tarzi haqida mutasavviflar, inchunin G‘avsul A‘zam – Buyuk Saqlovchi, Piri Dastgir nomlari bilan mashhur Abdulqodir Giyloniy (1078-1167) ham tafakkur qilib, bunyodkor g‘oyalarini yozib qoldirgan. U kishi ham rizo tushunchasi haqida fikr yuritgan va u ham naqshbandiya g‘oyalariga ta‘sir etgan.

Biz Abdulqodir Giyloniyning “Fathur Rabboniy val-Fayzur Rahmoniy”, ya‘ni “Rabboniylik va Rahmoniy fayzni fathi” asari asosida buyuk mutasavvifni rizo haqidagi g‘oyalariga to‘xtalmoqchi edik. G‘avsul A‘zamning bu asari Toshkentdagi “Movarounnahr” nashriyotidan 2005 yilda birinchi tomi, 2006 yilda ikkinchi tomi samarqandlik ulamo ahlidan Muhammadjon Nuriddin, Olimxon YUsuf, Abror Abdulazim, Abdulboqi Azimlar tarjimasida “Rabboniylikni anglash va rahmoniy fayzni qozonish” nomi bilan nashr etildi. Bu kitob oltmish sakkiz majlisdan iborat bo‘lib, tarjimonlar ellik majlisini chop etganlar.

Butun tasavvuf ahli kabi G‘avsul A‘zam borliqni ilohiy mohiyatga ega ekanligini va u juda ham mukammallikda yaratilganligini tan oladi. SHuning uchun borliqdagi mukammallik, mutanosiblikka mos, uyg‘un harakat to‘g‘ri, ezgu, yaxshi ish deb qaralgan. G‘avsul A‘zam o‘z asarlarida butun ilohiy mohiyatga mos muvofiq yashashni borliqdagi barcha tizim va strukturalarni o‘zaro uyg‘un yashashi deb anglaydi.

O‘z asarlarida Giyloniy muvofiq, uyg‘un, murosa, rozi kabi tushunchalarni tez-tez ishlatadi. “Solih bandalar Uning huzurida ixlos bilan tavba qilib sobit turadilar. Qazoi qadarga o‘zingiz uchun ham, boshqalar uchun ham muvofiq bo‘linglar. Azizliku xorlik, boyliku faqirlik, salomatligu kasallik va yaxshi-yomon narsalarda Undan rozi bo‘linglar”⁶⁸ deb yozadi G‘avsul A‘zam. Bu iqtibos uning norozilik gunohni keltirib chiqarishini va inson undan qaytib, tavba qilib rozi

⁶⁸ Абдулқодир Жийлоний (Ғавсул Аъзам). Раббонийликни англаш ва Раҳмоний фойзни қозониш. Биринчи китоб. /Масъул муҳаррир Тўлқин Ийсо ўғли. Т.:Мовароуннахр, 2005. 43-бет.

bo‘lib, borliqqa uyg‘un, murosas bilan harakat qilishi zarurligi, buning uchun qazoi qadarga muvofiq bo‘lish kerakligi nuqtai nazarini yoritadi.

Darhaqiqat, inson o‘z-o‘zini yaxshi anglasa, o‘ziga berilgan imkon, aql-idrok, fahm-farosat, intilish va layoqatni sezsa jamiyatdagi o‘rni va o‘z vazifasini biladi va shunga mos harakat qiladi. Rozilik murosayu madorani, u bo‘lsa xotirjamlik va sokinlikni keltirib chiqaradi. Norozilik, o‘ziga mos bo‘lmagan narsa va hodisalarga intilish murosasizlik, nizo, janjal, urushni keltirib chiqaradi va insonlar halovati buziladi. O‘z-o‘zini anglamaslik, bilmaslik va murosasizlik insonga turli iztiroblarni va bu iztiroblar yomon his-tuyg‘ular: g‘azab, nafrat, hasad, jahl, rashq, umidsizlik, kibru havolarni uyg‘otib, insonni o‘z nafsining qurboniga aylantiradi. SHuning uchun G‘avsul A‘zam yozadi: “Alloh taolo tortishuvchi va janjalkash bilan do‘st bo‘lmaydi. Balki u go‘zal xulqli, zohiri va botini xotirjam, to‘g‘ri, sofdil kishiga hamrohdir. Qadarga rozi bo‘lgan har bir kishiga Alloh taoloning hamrohligi doimiy bo‘ladi”⁶⁹.

G‘avsul A‘zam Allohga muvofiq bo‘lishga, uning sizga va boshqalarga nisbatan fe‘llariga rozi bo‘lishga chaqiradi. Allohga muvofiqlik deganda u tor doiradagi bog‘lanishlardan uzilib, eng oliy haddagi umumborliq miqyosidagi zotga bog‘lanish va butun borliqqa yuqoridan nazar qilib, mehr-muhabbatli bo‘lishni tushunadi. Insonlar ko‘pincha o‘z mansablari, mavqelari, odamlarning ularni hurmat-izzat qilishi, pul, mol-dunyo, oila-farzand va boshqalarga bog‘lanib, tor doirada o‘ylaydilar. Ollohga muvofiqlik yoki unga bog‘lanish butun millatlarni bu zot yaratgani, barcha dinlar, ularning payg‘ambar, valiy, muqaddas kitoblari uning izni bilan bo‘lganligini anglashga va ularni hurmat qilishga, ular ham yashash va mavjudlik huquqiga ega bo‘lishini tushunishga olib kelib, tinch-totuvlik, bag‘rikenglikka asos bo‘ladi.

G‘avsul A‘zam butun borliqqa muvofiqlik bilan harakatga xilof ishni nafs deb aytadi. Darhaqiqat, inson tana va ruhning uyg‘unligidan iborat. Tana istaklari nafsni tug‘diradi. Ularni me‘yordan ortishi badnafslilik, baxillik, johillik, zulm, xiyonat, munofiqlik, riyokorlikka sabab bo‘ladi. Abdulqodir Giyloniy “Agar najot istasang, Rabbing

⁶⁹ Ўша асар. 45 - бет

azza va jallaga muvofiq bo‘lish orqali nafsingga xilof ish tut. Uning toatiga muvofiq bo‘lib, osiy bo‘lishdan saqlan”⁷⁰, deydi. Bu bilan butun borliq doirasidagi ilohiy muvofiqlik insonni imonlilik va bandalik kabi ulug‘ maqomga etkazib, ezgu ishdir. Nafsga muvofiqlik esa tor doirada o‘ylash, nomutanosublik, nomukamallikka olib keladi va isyon va osiylikka sabab bo‘lib, insonni tubanlashtiradi degan g‘oyani ilgari suradi.

G‘avsul A‘zam butun maxluqotni uch turga bo‘ladi: farishta, shayton, ins. “Farishta butunlay yaxshi, shayton butunlay yomon. Innda

esa yaxshilik ham, yomonlik ham aralash. Agar yaxshilik g‘olib kelsa, farishta qo‘shiladi, agar yomonlik g‘olib kelsa shayton bilan tanishadi”⁷¹, deb yozadi Giyloniy.

G‘avsul A‘zam “Mashg‘ullik ila forig‘lik” shior bilan butun holatda Olohndan ogoh bo‘lishga, ya‘ni har bir amalni butun borliq uchun ezgu bo‘lishiga e‘tibor berib qilishga chaqiradi. U biror ish bilan mashg‘ullik sizni asldan forig‘ etmasligi lozim deydi. Siz mansab, pul, mol-dunyoga mashg‘ul bo‘lib, yolg‘on, makr-hiyla, omonatga xiyonat qilganingizda Rahmonni unutib, shayton yo‘liga o‘tasiz. Bu esa nomaqbul harakatligini G‘avsul A‘zam ta‘kidlaydi.

G‘avsul A‘zam o‘z asarida “Odamlarga murosayu madora qilish ham sadaqadir” degan hadisni keltirib, saxiy bo‘lishga, Olohning sizga qilgan ikromidan ularni ham bahramand etishga chaqiradi. Odamlarga mehribonlik va yumshoqlik tufayli inson xulqi ilohiy sifatni egallashi va natijada inson ilohiy mohiyatga muvofiq bo‘la olishini buyuk mutasavvif ta‘kidlaydi.

“Muvofiqlik muhabbat shartlaridandir. Muxoliflik esa dushmanlik shartlaridandir”⁷², deb, G‘avsul A‘zam taqdiridan rozi bo‘lishga chaqiradi.

G‘avsul A‘zam insonning zohirini botiniga, dilini tiliga, amalini ilmiga muvofiq, uyg‘un bo‘lishi lozim deb, riyo, munofiqlik, soxtalikdan insonlarni saqlash lozim deydi.

Mutasavvif muvofiq, uyg‘un, murosadan chekinganda, gunoh yuklaridan qutulish uchun tavba qilishni tavsiya beradi.

⁷⁰ Ўша асар. 91 – бет.

⁷¹ Ўша асар. Иккинчи китоб. Т.: Мовароуннахр. 2006. 124-бет.

⁷² Ўша асар. 100 – бет.

Hujviriyy haq deb ko'rsatgan Horis Muhosibiy asoslagan muhosibiya tariqati uchun rizo tushunchasi asosiy bo'lib, naqshbandiya tariqati uni to'la qabul etgan. Naqshbandiya tariqati asosida turgan 11

umdatning 6-chisi "Bozgasht" bo'lib, unga asosan bu yo'ldagi shaxs har bir qilgan amalini tahlil etib, poklab, "Tangrim, mening maqsudim sen va sening rizoligingni tilayman" deb ibodat etadi. U tavba va shukr orqali Haqqa o'z rizoligini izhor etadi.

"Bozgasht" tamoyilini tariqatga Abdulxoliq G'ijduvoniyy kiritgan. Bu ko'rsatadiki naqshbandiya ta'limotidagi rizo g'oyasining shakllanishida xojagon tariqatining ham o'rni bor. Xojagon tariqatidagi rizo g'oyasining shakllanishda esa muhosibiya tariqati ta'siri bor. Abdulxoliq G'ijduvoniyy bu ma'noda shunday yozgan:

Pokiza xisol boshi andar hama hol,

Ki az xislati pokiza shavad ahli kamol. Behtar zi rizogii Haq chi yobad banda? Rozi ast xudo zi mardi pokiza xisol.⁷³

Mazmuni:

Barcha holatda pokiza xislatli bo'l,

CHunki kamol ahli pokiza xislat ila bo'ladi.

Banda Haq rizolidan yaxshiroq nimani topa oladi? Pokiza xislatli er kishidan Xudo ham rozidir.

Xojai Jahon bu misralar orqali rizo maqomi poklik darajasi ekanligini va Olloh pokiza xislatidan roziligini qayd etmoqda. SHuningdek bu g'oyalarni davom ettirib, xojagon tariqatining

⁷³ Абдулхалиқ Ғиждувоний. Васиятнома қўлёзма. 17 б – варақ.

toʻrtinchi piri Xoja Ali Romitaniy ham oʻz “Risolai Azizon” asarida

Haqqa etishning oʻn shartlaridan ettinchisini rizo deb koʻrsatgan.

Manbada bu haqda shunday yozilgan: “Ettinchi shart – Oллоh Taolo hukmiga rizo boʻlish. Tavakkul va tafviz – butun ishlarni Oллоhga topshirish ham shulardandir.”⁷⁴ Bu erda rizo maqomi - tavakkul va tafviz maqomlari bilan uygʻun, muvofiq va bogʻlanishda ekanligi qayd etilmoqda. Darhaqiqat rizo boʻlgan odamgina tavakkul qila oladi.

Rizo shartida Hazrat Azizon inson oʻzini meʼyorda saqlashi, xotirjam boʻlishi, tanazzulga tushmasligi uchun xavf-qoʻrquv va rijo-umid maqomlari orasida boʻlishini tavsiya beradi. YAʼni inson doimo har bir qilgan amalini nazorat etib turishi, gunoh qilishdan qoʻrqishi, yaxshi, xayr ishning barakasi fayziga umid qilishi lozim. Rizo sharti insonni haqiqiy banda maqomiga etkazadi. Bundan maʼlum boʻladiki, muhosibiyadan rizo maqomi tasavvufiy tariqatlarga, bir tomondan tavakkul va tafvizni, boshqa tomondan, xavf va rijo maqomlarini vujudga kelishiga sabab boʻlgan.

Rizo haqidagi taʼlimotni shakllanishida Bahouddin Naqshbandning ustoz Muhammad Boboyi Samosiyning ham oʻz oʻrni bor. Bu haqda manbalarda quyidagi maʼlumot beriladi: Bahouddin Naqshband Muhammad Boboyi Samosiyning xizmatlariga borib, uylari yonidagi masjidga tuni bilan ibodat qilib, boshini sajdaga qoʻyib, kuchli hojatmandlik iltijosi bilan tilidan: “Iloho, balo va kulfatning yukini koʻtara olish va muhabbatning mehnatini torta olish quvvatini menga arzon tut”, degan soʻz oʻtdi. Tong otgach, Bahouddin Hazrati Xoja Boboyi Samosiy huzuriga kirdi. U kishi shunday dedilar: “Ey farzand, duoda: “Iloho, Sening ulugʻ rizoing nima ishda boʻlsa bu bandani oʻsha

ishga muhtalo et!” demoq lozimdir, chunki Haq subhonahu va taolo oʻz hikmati bilan oʻz doʻstiga muhabbat balosini yuboradi va oʻz inoyati bilan oʻsha yukni tortishni oʻz doʻstiga ato qiladi.”⁷⁵ Bu

⁷⁴ Наврўзова Г. Ҳазрат Азизон камолотга етишнинг ўн шарти хусусида. Бухоро: 2007. 32-бет.

⁷⁵ Қаранг: Баҳоуддин Балогардон. 24-бет.

iboralar Naqshbandiya tariqatidagi rizo g‘oyasining shakllanishida asoslardan biri bo‘lib xizmat qilgan.

Rizo insonni tamkin, uyg‘unlik, muvofiqlik, murosa va madoraga olib keluvchi zaruriy holatdir. U insonlar orasida xotirjamlik, sokinlik, barqaror munosabatni olib keladi. Jamoa hayotining barqarorligi shartlaridan biri rizodir. Bahouddin Naqshband bu g‘oyalarni rivojlantirib aytgan edilarki, “To dar in hirqaem mo,

Ham naranjem, ham naranjonem”⁷⁶

Mazmuni:

“Biz shu hirqa-darveshlik kiyimida ekanmiz,

Birovdan ranjimaymiz ham va birovni ranjitmaymiz ham.”

Rizo tushunchasi murosa falsafasining ham muhim tarkibiy kategoriyasidir. Mustaqillik davrida falsafa fani mazmun-mohiyati jihatdan tubdan o‘zgardi. Sinfilylik, qarama-qarshilik nuqtai nazarlar joyini murosa, tadrijiylik kabi insoniyatga tinch-totuv, xotirjam hayotiy tarzni ta‘minlovchi tushunchalar egallay boshladi. Lekin hali murosa falsafasini har jihatdan o‘rganish talab etiladi. Prezident Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 16 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so‘zida quyidagilarga e‘tibor berish kerak deb, beshta masalani ko‘rsatdilar. Beshinchi masala yuzasidan

I.Karimov yurtimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o‘rtasida totuvlikni, fuqarolararo ahillikni ko‘z qorachig‘iday asrash yaqin va uzoq qo‘shnilarimiz bilan hamkorlik va hamjihatlikda yashash, jamiyatimizda mehr-oqibat, saxovat va bag‘rikenglik muhitini yanada kuchaytirish har birimizning muhim vazifamiz bo‘lib qolishi darkor deb ta‘kidladilar. SHuning uchun ham bu vazifani amalga oshirishga yordam beradigan ta‘limotlarni o‘rganishni davrimiz taqozo etadi.

⁷⁶ Абул Муҳсин Муҳаммад Боқир ибн Муҳаммад Али. Баҳоуддин Балогардон. Т.: Ёзувчи, 1983. 97-бет.

Rizo maqomi tinchlik va osudalikning ham asosidir. Xalqimiz azaldan tinch-osuda, xotirjam, murosayu-madorada, o‘zaro uyg‘unlik va muvofiqlikda yashashni istaydi va shunga hamisha harakat qiladi. Bunday tamoyillar asosida yashash bag‘rikenglik turmush tarzidir. Lekin tinch-osudalik joyini urush-janjal, murosayu madoraning o‘rnini murosasizlik va ziddiyat, o‘zaro uyg‘unlik va muvofiqlikni esa nizo va kelishmovchilik egallab turish hollari ko‘p uchraydi. Insonlar rozi bo‘lib, sokin, botamkin yashashga munosib bo‘lganlari holda ko‘pincha norozi, iztirobda, behalovat yashaydilar. Natijada bag‘rikenglik joyini bag‘ritorlik egallaydi.

Inson zotining bag‘ri, ko‘ksi, qalbida butun olam sig‘a oladigan bo‘laturib, arzimaydigan narsa uchun jismu jonini azobga qo‘yadi. Axir inson zotiga behudaga quyidagi ta‘rif berilmagan:

Gar ba surat olami asg‘ar tui, Lek ba ma‘ni olami akbar tui.

Mazmuni:

Surating, zohiran kichik olam bo‘lsang-da, Lekin ma‘no jihatidan, botinan buyuk olamsan.

Antik davr faylasuflaridan tasavvuf namoyandalarigacha inson butun borliq ichida kichik zarra, mikroolam bo‘lsa-da, lekin ma‘no jihatidan makroolam ekanligini tavsifu tadqiq etganlar.

Inson o‘z mohiyatiga uyg‘un rozi holatda amal qilsa baxtli yashaydi, lekin unga nomuvofiq, norizo bo‘lsa iztiroblar zanjirida o‘ralashadi. Inson o‘z-o‘zini anglamay, iztiroblar girdobiga qolishiga sabablar nima? Inson o‘z-o‘zini, mohiyatini, hayotdagi o‘rnini, umr mazmunini anglab, taqdirga rozi bo‘lib yashasa sokin, xotirjam bo‘ladi. Lekin ma‘lum tor doiradagi narsalarga bog‘lansa, umrini foniy o‘tkinchi narsalarga qurbon qilish mumkin. Inson tana va ruhi uchun ozuqa bo‘lgan narsalarga me‘yorida bog‘lanishi mumkin. Me‘yoridan ortiq juda ham, devonavor bog‘lanishi mutaassiblik, aqidaparastlikni olib keladi.

Hayotiy tajribalar ko‘rsatadiki, inson o‘zini mavqei, o‘rniga, odamlar orasidagi unga bo‘lgan munosabatga, hukmronlikka, pulga, o‘z qobiliyatiga, birovlarni nazorat qilib turishga, o‘zining nomukammalligi, ya‘ni qo‘lidan ish kelmasligiga, oila, bolalariga, jinsiy maylga, o‘z maqsadiga, o‘z faoliyatiga, aqli, husniga, ma‘lumoti va ishongan g‘oyasiga mol-mulk va boshqalarga me‘yoridan ortiq

bog‘lanishi mumkin.⁷⁷ Bu bog‘lanish uni bezovta qiladi. U bog‘langan narsasidan ajralishdan qo‘rqadi, birov u haqda noto‘g‘ri fikr aytsa jahli chiqadi, uni qo‘llamagan kishidan nafratlanadi, uni ayblaydi, ulardan xafa bo‘ladi, rashk qiladi, ko‘ngli to‘lmaydi. Mabodo bog‘langan maqsadiga erishmasa uyaladi, xavotirlanadi, umidini uzib, ruhan tushkunlikka tushadi, g‘azablanadi, hasad jismu-jonini kuydiradi va shunday vaziyatga tushmaslik uchun noinsoniy, hayvonga xos harakatlar qiladi. Naqshbandiya ta’limoti asoschisi Bahouddin Naqshband shunday deganlar:

Taalluq hijob astu behosili, CHun in bandho biguseli vosili.

Mazmuni:

Bog‘lanishlar hijob, parda, to‘siqdiru sen hosilsizsan,

Bu bandlardan qutulsang, ularni uzib tashlasang, ular bilan xayrlashsang vosilsan.

Darhaqiqat, ma’lum maqsad-muddaoga me’yoridan ortiq bog‘lanish inson ko‘zini ko‘r, qulog‘ini kar qilib, qalbini qattiq va tor qiladi. Natijada inson kibru havoga berilib o‘z maqsadi yo‘lida gunoh ishlarga ham qadam qo‘yib, o‘z-o‘ziga jabr qiladi. U birovga tuhmat qilish, hayotiga zomin bo‘lishdan ham tonmaydi. Bir gunohni yopish uchun undan ham kattaroq gunohga qo‘l uradi.

Bularni hammasi insonda turli iztiroblarni tug‘diradi. Psixolog A.Sviyash tadqiq etganki, inson jismiga kirib olgan iztiroblar 50% bo‘lguncha u qulay, rohatlanib yashashi mumkin. Lekin ular sathi 70%ga etsa muammolar o‘sadi. Masalan: Mashinasiga juda bog‘langan kishi avariyaga uchrab, bu mashinasi omadsizlik keltirishi mumkin. Mol-mulkiga mukkisidan berilgan uyiga o‘g‘ri tushishi yoki yong‘in bo‘lishi mumkin. YA’ni tabiat muvozanat, me’yor buzilganligi bilan insonni ogohlantirib, hushyorlik va ogohlikka chaqirib, g‘aflat uyqusidan uyg‘ota boshlaydi. Iztiroblar ko‘zasi 85%ga etsa maqsadlarga to‘siqlar paydo

⁷⁷ Қаранг: Свияш Александр. Как быть, когда все не так как хочется. Москва. ЗАО Центрполиграф, 2005. С. 270.

bo'ladi. SHu maqsadiga etishi yo'lida inson bog'langan kompaniya yoki bank bankrot bo'lishi, o'sha g'oyaning xatoligi fosh bo'lishi mumkin. Bular insonni o'ziga kelishga, hayotni chuqurruq mushohada qilishga, tor doirada o'ylamaslikka olib keladi. Masalan, Bahouddin Naqshband Xalil Ota degan shayxga olti yil xizmat qiladilar. Taqdir taqozosi bilan Xalil Otaga taxtu toj nasib etib, u Sulton Xalilga aylanadi. Bahouddin yana olti yil uning xizmatida bo'ladi. Olti yildan keyin taxtu-toj tanazzulga uchraydi. Bu Bahouddin Naqshband uchun yaxshi saboq bo'ladi va mol-mulk va bu foniyy dunyoga bog'lanishning xatoligini bir umrga anglaydi.

Darhaqiqat, o'z dini va e'tiqodiga me'yoridan ortiq bog'lanish, uni absolyutlashtirish mutaassiblik, fanatizm, aqidaparastlik, fundamentalizm, ekstremizm va hatto terrorizmga olib keladi. O'z irqiga qattiq bog'lanish irqchilik, millatga o'ta bog'lanish millatchilik kabi illatlarga olib kelib, nizo, urush-janjallarga sabab bo'ladi, begunohlar qoni to'kiladi, moddiy va ma'naviy yodgorliklar er bilan yakson bo'ladi. SHuning uchun rizo insonni me'yorga saqlash vositasidir.

Xo'sh, izzitroblar ko'zasi to'lmasligi, rohat-farog'at va tinch osudalikka yashash uchun nima qilish lozim? Avvalo jismu jonimiz, tana va ruhiyatimizdagi bu nomutanosiblik, gunoh va xato yukidan qutulishi lozim. Buning uchun quyidagilarni tavsiya berishi mumkin:

1. YUrak amri va aql-tafakkur bilan qadam bosish lozim.

Bu ishni amalga oshirishda naqshbandiya ta'limotidagi "Hush dar dam" – ya'ni har bir nafas, onda hushyor bo'lish, "Nazar bar qadam" – har bir qo'yayotgan qadamga nazar qilib uni tahlil etish, "Safar dar vatan" – o'z-o'zingni ichki tahlil etib, harakat motivini anglab, ezgu niyat bilan amal etish, "Xilvat dar anjuman" – jamoa ichida riyosiz, xolis Olloh rizoligi uchun harakat qilish, "Vuqufi qalbi" – qalbdan ogohlik, "Vuqufi zamoni" – vaqtdan ogohlik tamoyillarining o'z o'rni bor. Bu tamoyillar mazmun-mohiyatini anglash va ularga rioya etish "izzitroblar ko'zasini" bo'shashiga sokin va xotirjam yashashiga yordam beradi.

2. SHaxs o'zidagi ijobiy tomonini rivojlantirishi lozim.

Abdulxoliq G'ijduvoni asoslagan "Bozgasht" – ya'ni qaytish tamoyili bunga yordam beradi. Qilingan har bir amaldan keyin uni tahlil etmoq kerak. Undagi to'g'ri, maqbul, ijobiy tomonlarga "SHukr" qilib, uni rivojlantirish va salbiy tomonlar uchun "Tavba"

qilib undan qutulish ya'ni muhosaba-hisob-kitob qilib ijobiylikka tomon o'zgarish lozim.

Inson o'z-o'zini tahlil- muhosaba-hisob-kitob qilayotganda, bironi ayblash, boshqalarni gunohkor qilish pozitsiyasidan voz kechib, "Men qaerda xato qildim?", "Nimani noto'g'ri bajardim?" deb, o'z- o'zini anglash, niyat, qalb harakatlarini bilishga tomon borishi lozim. SHunga u dushmaniga ham o'z xatosini anglashga yordam bergani uchun rahmat deydigan bo'ladi. Luqmoni Hakimdan: "Odobni kimdan o'rgandingiz?" deb so'rganlarida, "Odotsizdan" – deb javob beribdilar. YA'ni har bir harakatga ibrat ko'zi bilan qarash insondagi ijobiy tomonni oshishiga yordam beradi va gunohlardan uni poklaydi.

3.Hayotda siz uchun belgilangan vazifalarni bajarmoq. Butun borliq mukammallik bilan yaralgan bo'lib, undagi bir g'isht ham o'z o'rnidan qo'zg'atilsa aks ta'siri bo'ladi. Borliqdagi insonlarning har biriga ham shunday me'yorida aql-idrok, fahm-farosat, kasb-hunar berilganki, u o'ziga belgilangan vazifani bajarsa ishi olg'a boradi, unumli bo'lib yashaydi. Lekin o'z taqdiridan norozilik, o'ziga belgilanmagan vazifaga intilish - nomutanosiblik nizo va janjal, omadsizlikni keltirib chiqaradi. SHuning uchun inson o'z o'rnini bilishi,

o'z mavqeiga mos harakat qilishi lozim.

Qassoriya Hamdun Qassor (884 yilda vafot etgan) tomonidan asoslangan dastlabki tariqatlardan biridir. Hujviriy "Kashf al-mahjub" asarida qassoriya nomi bilan bu tariqatni tilga oladi. Lekin O'rta Osiyoda u malomatiya nomi bilan ma'lum va mashhurdir. SHuning uchun biz ham uni malomatiya sifatida tilga olib tahlil etamiz.

Malomatiyya - tasavvuf zaminida tug'ilib, tasavvufga ham ta'sirini o'tkaza olgan ilk tariqatlardan biridir. "Malomat" arabcha so'z bo'lib, qiynash, qiynamoq mazmunidagi "lavm" o'zagidan paydo bo'lgan kalimadir. Malomatiylik yo'li esa, asosan, nafsni qiynash, o'z nafsiga ranj etkazish, boshqalarning ta'na-malomatlarini quvonch ila qarshilashni aks ettiradi. IX asrda shakllangan bu oqimga Xurosonda yashagan mashhur so'fiy Hamdun Qassor asos solgan. SHuning uchun u qassoriyya deb yuritilgan. Hujviriy bu yo'lni

“maqbul va mo‘‘tabar” bo‘lgan o‘n tariqatning ikkinchisi sifatida tilga olgan.⁷⁸ Ba’zi olimlar malomatiylikni ayrim so‘fiyona aqidalarga qarshi paydo bo‘lgan “fikr va tajriba harakati” o‘laroq ta’riflagan: "Malomatiy - ulug‘likdan, da’vodan, o‘zini ko‘z-ko‘z qilishdan, xalqning olqish va ehtiromini qozonish g‘arazidan kechgan, karomat iddaosidan yiroq, boshqalarni o‘zidan ustun ko‘rgan, xalkdan hech bir tarzda ajralmagan, zikrga, vajdga berilib, baqirib-chaqirish ila o‘zini ko‘rsatishga intilmagan, halol mehnat ila bo‘lgan kishidir”.⁷⁹ Suhravardiyning e’tiroficha, "Haqiqiy malomatiy - tomirlarida ixlos zavqi jo‘shgan, tom ma’nosi ila sidq va sadoqatga erishgan bir kishidir".⁸⁰

Malomatiya – IX asrda Xurosonda Nishopur maktabi doirasida vujudga kelgan ilk so‘fiylik tariqatlaridan birining nomi. Asoschisi Hamdun Qassor ta’limotida Muhosibiy ta’siri seziladi. Malomatiylikni shakllanishida Abu Hafs Amr (Umar) an-Naysaburi al-Haddad (877-881 yillar orasida vafot etgan) va Said al-Xiri al-Vaiz (911 yilda vafot etgan) larning hissasi bor. Tasavvufshunos Sulami (vaf. 1021) yozadiki, malomatiyda Muhosibi, Boyazid Bastomiy va Sahl Tustariy kabi so‘fiylikning Iroq maktabi namoyandalarining ta’siri sezilib turgan. Malomatiya Nishopurda vujudga keldi va G‘arbga Iroq, Suriya, SHarqqa Movarounnahr va Turkistonga tomon yoyildi.⁸¹

Malomatiylar uchun Ollohga munosabatda **sidq** va **xolislik** xosdir. Malomatiylar riyoni juda qoralaganlar. Malomatiylar to‘la Ollohga tayanib tavakkal qilib yashashni qoralab, o‘z mehnati bilan kun kechirish zarur deb hisoblaganlar. Ular kun kechirish uchun zarur miqdorda mehnat qilib, qolgan vaqtlarini ibodat bilan o‘tkazardilar. Qolgan odamlarning ularga nisbatan fikrlari – malomatlariga umuman e’tibor bermasdilar.

Hujviriyy “Kashf ul-maxjub” asarining birinchi bo‘limining 6-bobini malomat tushunchasini tahliliga bag‘ishlangan. U malomatning uch turi bor deb, quyidagilarni ko‘rsatadi:

1. Haq yo‘lidan boruvchilarni malomati;

⁷⁸ Кашф ал-махжуб. 182-бет.

⁷⁹ Гулпинорли А. Туркияда мазхаблар ва тариқатлар. Истамбул, 1969 йил. 246-248-бетлар.

⁸⁰ Сухравардий. Аворифул-маориф. 91 бет.

⁸¹ Қаранг: Акимушкин О. Ал-Маламатия. / Ислам. Энциклопедический словарь. Москва: Наука, 1991. С. 155-156.

2. O‘zini malomat etishni qasd qilganlar malomati;
3. Qonun-qoidalarni tark etuvchi, inkor etuvchilar malomati.⁸²

Uchunchisi xato ekanligini muallif ta’kidlaydi.

Naqshbandiya ta’limoti malomatiya yoki qassoriya nomi bilan ma’lum yo‘lning zohirga emas botinga e’tibor talablarini qabul etgan va rivojlantirgan. Bahouddin Naqshband “Ba zohir bo xalq, ba botin bo Haqq” deb, quyidagilarni ta’kid etgan:

Az darun shav oshnovu, az berun begonavash, Inchunin zebo ravish kam mebuva andar jahon.⁸³

Mazmuni:

Ichkaridan, qalban Haqq bilan oshno bo‘lu, tashqaridan buni bildirma.

Bunday go‘zal ravish dunyoda kam bo‘ladi.

Bu bilan Naqshband malomatiylar kabi chin ixlos ila pok ibodat qilish, riyodan saqlanish lozimligini uqtirganlar.

Hujviriyning tasnifi bo‘yicha, malomatning uch shakli bor: 1. Istiqomatda bo‘lmoq. 2. Qasd. 3. Tark.

Istiqomatda bo‘lmoqni Hujviriyn shunday sharhlaydi "Malomat yo‘liga kirgan, munofiqlik, ikkiyuzlamachilik xushomad ofatidan o‘zini xalos etgan va riyodan saqlangan shaxslar, xalqning qiynoqlaridan qo‘rqmaslar, har hol va shart ichida haq yo‘lidan yururlar, xalqning ularga bergan nom, unvon va laqablari ne bo‘lsa bo‘lsin, ular uchun mutlaqo ahamiyatsizdir".⁸⁴

Malomatiylar qilgan ishlari, erishgan yutuqlariga emas burchga,

o‘z burchlarining nihoyatda og‘irligiga ahamiyat bergan. SHu bois qilgan ishiga, holiga diqqatni tortgan kimsani g‘ofil va amalga oshirgan ishlaridan quvongan yoki mamnunlik sezganlarni riyokor hisoblaganlar. Sulamiyning "Risolai malomatiya" asarida

⁸² Қаранг: Хужвирий. Кашф ал-махжуб. 62-69 бетлар.

⁸³ Рисолаи Ҳазрат Мавлави Жомий. /Наврўзова Г. Нақшбандия – камолот йўли. Т.: Фан, 2007 – 194-бет.

⁸⁴ Кашфул маҳжуб. 64-бет.

malomatiylarning fikr- qarashlari, xos xususiyat va amaliy harakatlari atroflicha talqin etib berilgan. SHu risoladagi so‘z va hukmlarga asoslanib aytiladigan bo‘lsa, malomatiylar uchun eng muhim, eng ahamiyatli narsa - **qalb** va **vaqtdir**.

Malomatiylik badiiy ijodga sezilarli ta’sir o‘tkazgan. SHarqdagi bir talay buyuk shoirlar malomati mashrab va malomati maslak shoirlari bo‘lgan. Xususan, Fuzuliy malomatiylik haqida bunday bayt bitgan:

Kamoli ishq - malomatdadur, xayol etma, Ki, ishq zavq bera olmas malomat ila.

Ibrohim Haqqul Najmiddin Kubroning “Tasavvufiy hayot” asaridagi istilohlar sharhida shunday fikrni bayon etgan: bir necha tariqat, jumladan kubraviylik malomatiylik zaminida vujudga kelgan.⁸⁵

Lekin malomatiylik vaqt o‘tishi bilan asl mohiyatidan yiroqlashib, unga botil unsur va tushunchalar ham aralashgan. U hijriy beshinchi asrdan keyin butunlay botiniylashgan va bu hol sakkizinchi asrga qadar davom etgan.⁸⁶

SHarqshunos olim O.Akimushkin yozadiki, “malomatiylar ta’limoti naqshbandiylarning “Xilvat dar anjuman” tamoyili, xufiya zikrida o‘z izini qoldirgan.”⁸⁷ Biz ham bu olimning fikriga qo‘shilamiz.

“Bahouddin Naqshband Hirotda bo‘lganida Malik Husayn bilan uchrashadi. Malik Husayn u kishidan so‘raydi: "Sizning xulafongizda jahr bilan zikr aytish, xilvat va samo’ bormi?" U kishi javob berdilar: "Yo‘q". YAna so‘raydilar: "Sizning tariqatingizning asosi nima?" Bahouddin buyurdilar: "Anjumanda xilvat, vatanda safar, zohirda xalq bilan va botinda Haqq bilan bo‘lish"⁸⁸.

Bu javob ko‘rsatadiki, buyuk shayx "anjumanda xilvat" orqali bir-biriga muqobil ko‘rinadigan bu tushunchalarning, botiniy yo‘llar bilan uyg‘unlashtirish vositalarini topgan. U o‘z izdoshlariga "anjumanda

⁸⁵ Гулпинорли А. Маломатийлик ва маломатийлар. Истанбул, 1931. 16-бет.

⁸⁶ Қаранг: Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. – Т.: Мовароуннаҳр, 2004. 227-бет.

⁸⁷ Акимушкин О. Ал-Маломатия. Ислам. Энциклопедический словарь. 156-бет.

⁸⁸ Муҳаммад Боқир, Мақомати Ҳазрат Хожа Нақшбанд. - Бухоро: Бухорои шариф, 1326 ҳ. й. 53-54-бетлар.

xilvat" talabi orqali riyosiz faqat tangri rizoligi uchun pok amallar qilishni o'rgatgan va bu bilan insonlar hayotining

Tayfuriya tariqati Abu YAzid yoki Boyazid Tayfur bin Iso Bistamiy izdoshlari nomi bilan yuritiladigan yo'ldir. Bistamiy (875 yil vafot etgan) juda mashhur fors so'fiysidir. Tayfuriya tariqati uning vafotidan keyin tashkil topgan. U Eronning shimoliy-g'arbiy tomonidagi Bistam shahrida tug'ilgani uchun Bistamiy nomi bilan mashhurdir. Bistamiy butun umrini shu shaharda o'tkazdi va shu erda vafot etdi. Tasavvufda uning ustozlari Abu Ali as-Sindiy hisoblanadi. Sindiy arab tilini bilmagan va Bistamiy unga o'rgatgan. Sindiy esa Bistamiyning so'fiylik sirlari bilan oshno etgan.

Bistamiy "Sultonul orifin" yoki Junayd Bag'dodiyning "Farishtalar orasida Jabroil qanday mavqe'da bo'lsa, Boyazid ham bizlar uchun shunday" degan ta'riflarga munosibligi uning naqadar yuksak maqomga etganidan dalolat beradi. Rus olimi O.Akimushkin Boyazid Bistamiy o'zidan keyin biror asar qoldirmagan, lekin 500 betga yaqin

shogirdlari tomonidan yozib olgan o'git va so'zlari saqlangan⁸⁹ deb ta'kidlagan. Hujviriyy "Kashf al-mahjub"da Boyazid Bistamiyning

so'fiylikda mavjud tanlangan o'nta imomning biridir⁹⁰ deydi.

Boyazid Bistamiy ta'limoti sukr yo'lidir. **Sakr va sahv** - sarxushlik va hushyorlik. Tasavvufdagi asosiy tushunchalardan biridir. Ular g'aybat va huzur holining oliy shaklidir. Sakr (yoki sukr) ilohiy ishq mayidan mast bo'lib o'zini unutgan, o'zidan kechgan oshiqning holidir. Sahv esa buning aksi: o'zin unutganning o'ziga kelish, hushyor bo'lish, tamkin holati; g'aybat holining zoil etilishidir.

Qushayriyning ta'kidlashicha, "Qul sakr hoida hol shohidi (ma'naviy bir hol ila huzuri ilohiydadir) bilandir. Sahv hoida esa ilm shohidi (shariat ilmi talablariga ko'ra amal qilguvchi) bilandir". "Kashful mahjub"dagi tasnifga ko'ra, sakr ikki turlidir: 1. Muvaddat (do'stlik) sharobidan tug'ilajak sakr. 2. Muhabbat

⁸⁹ Акимушкин О. Ал-Бистами. /Ислам. Энциклопедический словарь. Москва: Наука, 1991.

42-бет.

⁹⁰ Кашф ал-махжуб. 106-бет.

qadahidan hosil bo'ladigan sakr. "Muvaddat sakri madluldir. Zero, u ne'matni ko'rmakdan yuzaga kelur. Ne'mat berguvchini ko'rgan har bir kishi Uni uningla ko'rur. Bu taqdirda o'zini ko'rmas bo'lur..." deganlar Hujviriy. Ul zot sahvni ham "g'aflat sahvi" va "muhabbat sahvi" deya ikkiga ajratib bunday yozganlar: "G'aflat sahvi Haq bilan qul o'rtasidagi eng katta va eng qalin hijobdur. Muhabbat sahvi eng ochiq kashf erur...".⁹¹

Sakr va sahv orasidagi asosiy farq esa mana bunday: sakr holida inson o'zini tamoman unutadi. U aqlu hushini tark aylagani uchun fano va baqoga doir bilim va tushunchalardan ham forig' bo'ladi. Chunki Haqq qulga jamol sifati bilan tajalliy etgach, u bundan sarxush va sarmast bo'lib "men"likdan yiroqlashadi. Sahv holida esa bunday emas,

inson hamma narsaga aql nigohi bilan qaraydi, o'zligiga doir tushunchalardan ajralmaydi. Faqat bularning barchasiga "fano" ko'zi ila boqadi. Chunki haqiqatda boqiy bo'lgan va boqiy qoladigani yolg'iz Ollohdur. Boshqasi o'tkinchi va yo'qlikka mahkum erur.

Boyazid Bistamiy va ul zotning tarafdorlari sakrni sahvdan yuksak hisoblaganlar. Ularning aqidasi bo'yicha, sahv qul bilan Olloh orasida qalin parda bo'lgan o'sha bashariy sifatlarning mavjudligini ta'minlaydi. Sakr esa bu sifatlarni yo'qotib, ixtiyor, tadbir, tasarruf singari hijoblarni ham o'rtadan ko'tarishga qodirdir. Ayrim so'fiylar sakrni "sultoniy hol"ning eng yuksak kamolga erishuvi deb bilganlar Abdulloh Davalining "Gulzori so'fiya"sida "nafsning voridati g'aybiya sababi ila zavq va sururdan tug'ilgan" sakr - "sakri tabiiy", ishqning g'alabasidan yuzaga kelgan sakr - "sakr ilohiy" deb nomlangan.

Boyazid Bistamiy tasavvufda fano haqidagi ta'limotni ham kiritgan. Naqshbandiya ta'limotida uning g'oyasi rivojlantirilgan. Bahouddin Naqshband fanoni umuman ikki xil: zulmoniy tabiiy vujud fanosi va nuroniy – ruhoniy vujud fanosi, deb yozadi⁹². Bahouddin fanoga xos valoyatning ibtidosi deb shunday ta'rif bergan: CHist me'rochi falak? In nesti! Oshiqonro mazhabi din nesti!
Hech kasro gar nagardad o' f a n o

⁹¹ Кашф ал-махжуб. 187-бет.

⁹² Мақомот. 61-бет.

Nest rah dar borgohi kibriyo!⁹³

Mazmuni:

Falakning me'roji nima? Bu yo'qlik! Oshiqlar mazhabu dini bu yo'qlik!

Kim agar f a n o ga etmasa

Kibriyo borgohiga unga yo'l yo'q!

Junaydiya tariqati asoschisi Junayd Bag'dodiydir. Abulqosim Junayd b.Muhammad al-Kavariri al-Xazzaz Junayd Bag'dodiy (910 yil vafot etgan) – tasavvufdagi hushyorlik – sahv yo'lining asoschisi. U Bag'dodda tug'ilib o'zining hayotini to'la shu shaharda o'tkazdi. YOshligida otasi vafot etib, tog'asi – so'fiy Sari Saqati (867 yil vafot etgan) qo'lida tarbiya topdi. U Horis Muhosibiydan ham ilm o'rgandi. Junayd so'fiylikda muntazam ruhiy poklanish vositasini ko'rardi. Uning fikricha inson uchun o'zini ilohiy quvvat oldidagi ojizligi va unga juda muhtojligining abadiylikini bilish zarur.

Junayd Bag'dodiy quyidagi uch pog'onadan iborat so'fiylik

nazariyasini asoslagan:

1. YAgona real borliq – bu ilohiy borliqdir.

2. Butun borliq shu asosdan boshlangani uchun yana shunga qaytadi. Jam' holati uchun tafriq al-avval deb uni nomlaydi.

3. Jam' holatiga etish uchun fanodan baqo holatiga etish, ya'ni ilohiy holatdan insonlarga yangi sifat bilan qaytish – baqo ba'd al-fana, al-farq as-sani, al-farq at-tabii, jam al-jam – nomlari bilan ataladigan holga etish. Bu holatda insoniyatga ilohiy nur va ma'rifatni tarqatib xizmat qilish.⁹⁴

Demak Junayd Bag'dodiy tasavvufga Boyazid Bistamiy tomonidan kiritilgan fanoni inson kamoloti, yoki baqo holiga etishi uchun bir vosita sifatida qaragan.

⁹³ Мухаммад Порсо. Рисолаи қудсия. Тошбосма. 89-бет.

⁹⁴ Акимушкин О. Ал-Джунайд /Ислам. Энциклопедический словарь. С. 68-69.

Nuriya ilk tasavvufiy tariqatlardan biri bo'lib, uning asoschisi

Abul Hasan Ahmad ibn Muhammad Nuriydir. U 907 yilda vafot etgan.

Hujviriylar Nuriyning so'fiylikka nisbatan o'ziga xos qarashlari borligi va uning izdoshlari – nuriylar ham ko'pligini ta'kid etadi. Nuriy mujohada

– o'z-o'zini boshqarishda juda ustuvor edi. U Junayd Bag'dodiyning do'sti va Sari Saqatiyning shogirdi edi. U juda nozik tasavvufiy iboralarning muallifidir: “Haqiqat boshqalarning istaklariga qarshi bora olish”, “Ollah bilan birlashish, boshqa narsalardan uzoqlashish”, “Ikkita topilmas narsa bizning vaqtda mavjud: Biri ma'rifatli inson, qaysikim unga o'rgatilganlarga amal qiladigan. Ikkinchisi ruhan kamolga etgan va o'zi etgan reallik haqida gapira oladigan.”⁹⁵ So'fiylik odob-arkonida u Junayd Bag'dodiy bilan uyg'un, hamfikrdir.

Nuriy suhbat haqidagi g'oyani kiritib, suhbat asnosida insonlarga munosabatda do'st, o'rtog'i manfaatini o'zidan ustun qo'yardi. Isor – hamsuhbati manfaatini ustun qo'yishni asosiy deb, teng munosabatni noto'g'ri deb qaraydi. U darvishlar uchun suhbat juda zarur deb o'ylagan. Uning fikricha uzlat maqtovg'a munosib emas, chunki har bir kishi do'sti, o'rtog'i manfaatini o'zinikidan ustun qo'yishi lozim. Uning shunday so'zlari saqlangan “Uzlatdan qoch. U shaytonni e'tiborini tortadi. Suhbatga intil – unda Xudoning roziligidir”.

Sahl ibn Abdulloh Tustariy (896 yil vafot etgan) asoslagan sahliya tariqati mujohada va riyozatni inson kamoloti yo'lining asosi deb qabul etgan.

Sahliya tariqati Sahl ibn Abdulloh Tustariyning izdoshlaridir. Bu tariqat ahli uchun Sahl Tustariy mujohadani vazifa sifatida yuklaganlar. Mujohada va riyozatdan maqsad nafsni qarama-qarshiligini sindirishdir.

Mujohada - nafsni vujudiy mashaqqatlar ila qiynash, havo va havasga qat'iy qarshi kurashish. **Riyozat** - mehnat-mashaqqat tortish, ranj chekish. Oz eyish, oz so'zlash, oz uxlash va xilvatga chekinish ila nafsni tarbiyalash. Nafs orzularini yo'qotish.

⁹⁵ Қаранг: Кашф ал-махжуб. 129-131 – бетлар.

Hujviriyy “Kashf al-mahjub” asarida sahliya ta’limoti mohiyatini ochish uchun nafsning haqiqiy tabiati va havoyu-havas ahamiyatini ochib bergan. Uning talqinicha, nafs nimanidir “mohiyati” va “reallik” ma’nosini anglatadi. SHuningdek bu so‘z “ruh”, “muruvvat”, “tana”, “qon” kabi ma’nolarda ham keladi. Barcha so‘fiylar yomonlik manbai nafs ekanligini tan oladilar. Ba’zilar nafs-substansiya-ayn bo‘lib tanada ruh kabi joylashgandir, boshqalar esa nafsni tanaga xos hayot kabi sifat deydilar. Lekin hamma bir ovoz bilan nafs vositasida illatlar hosil bo‘lishni tan oladilar, nafs insonga malomat keltiruvchi narsadir. Nafs tufayli vujudga keladigan illatlar ikki xildir:

1. Ma’siyat – gunoh.

2. Kibr, hasad, ochko‘zlik, jahl, g‘azab, nafrat kabi qonun va sog‘lom fikr inkor etuvchi tubanliklar.

Gunohlardan tavba yo‘li bilan mag‘firat so‘rab qutulish mumkin. Insonni tubanlikka soluvchi illatlardan qutulish uchun riyozat chekish lozim. CHunki gunoh zohiriy tomon va tuban illatlar botin tarafdin. SHuning uchun nafsga qarshi mujohada lozim. Inson o‘z-o‘zini anglab keyin Ollohni bila oladi.

Sahl Tustariy nafsga qarshi mujohadaning quyidagi tamoyillariga to‘xtalgan. Buning uchun nafsga qarshi jihat qilish kurashish lozim. Bu jihatni jihodi akbar deganlar.

Sahl Tustariy nafsga qarshi jihatda ro‘za tutish lozim degan. O‘zi

umr bo‘yi 15 kunda bir ro‘zasini ochgan. Ko‘p so‘fiylar mujohada mushohadaga olib keluvchi sabablardan biri desalar, Sahl Tustariy mujohada bevosita mushohidaning asosiy sababi degan. U talabni maqsadga etishda kuchli ta’siri borligini aytadi. SHu olamda mujohada insonni Olloh bilan yaqinlashuviga yordam berishni Tustariy ta’kidladi. Boshqa so‘fiylar Ollohga yaqinlashish mujohada bilan emas ilohiy fazl, yordam bilan bo‘ladi deganlar.

Hakim Termiziy asoslagan hakimiya tariqati naqshbandiya bilan bog‘langan. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Hasan ibn Bashir diyorumizdan etishib chiqqan zabardast olim, mutafakkir va tariqat peshvolaridan biridir. U kishi Hakim Termiziy nomi bilan

mashhur bo‘lib, Termizda tug‘ilgan va shu erda vafot etgan. Vafot tarixini esa olimlar asosan 235-hijriy qamariy (melodiy 898) va 269-hijriy qamariy (melodiy 909) yil deb ko‘rsatishgan. Hujviri yozadiki, Meni shayxim aytardiki, “Muhammad (Termiziy G.N.) – haqiqiy toza durdir. Unday durni butun olamda tengi yo‘q”.⁹⁶ Tasavvufga valiy tushunchasini kiritdi.

Hakim Termiziyning hayoti haqida mufassal, aniq ma‘lumot beradigan manba yo‘q. Termiziyning o‘z asarlari va boshqa manbalardan u kishining hayot yo‘li haqida ba‘zi tasavvurlarga ega bo‘lamiz. Xususan, uning "Buduvv-ush-sha‘ni Abi Abdulloh Muhammad Ibn Ali al-Hakim Termiziy" nomli kichik bir risolasi orqali muallif hayoti, jumladan, otasidan ilm o‘rganganligi, yoshlik chog‘ida Kufa va Basra orqali Makkaga safar qilganligi, Kufada hadis ta‘limini olganligi, Termizga qaytayotib, yo‘lda Qur‘oni Karimni yodlaganligi haqidagi ma‘lumotga ega bo‘lish mumkin. Lekin bu risoladagi diqqatga molik asosiy masala ilhomning turlari, unga tush va bedorlikda zohir

bo‘lgan ro‘yolar tasviridir"⁹⁷.

SHuningdek, Hakim Termiziy o‘z asarlari orqali Ahmad ibn Osim Antokiyning tasavvufga oid bir asarini zavq bilan o‘qiganligi va holatida o‘zgarishlar bo‘lganligi, tushida hazrat payg‘ambarimizni (Allohdan u zotga salotu salomlar bo‘lsin) ko‘rib fayz va taskin topganligi, unga ilhomlar bo‘lganligi va boshqa voqealardan xabar beradi.

SHuni ham ta‘kidlash kerakki, Hakim Termiziyning haqiqat va ma‘rifatga oid so‘zlarini hamma ham tushunavermagan. SHu tushunmovchiliklar sabab, bir muddat u kishi haqida fitna va ig‘volar paydo bo‘lgan. Ba‘zi olimlar Hakim Termiziyning bir necha yil yurtidan hijrat qilishiga mana shunday fitnalar sabab bo‘lgan deyishadi. "Haq siylagan - siylanar" deganlaridek, xalq oqibat u zotning ulug‘ avliyolardan va Haq yo‘lda sobit ekanlaridan ogoh

⁹⁶ Кашф ал-махжуб. 140-бет.

⁹⁷ Иброҳим Худоёр. Ишқ жайхунининг йўлдоши. Гулистон, 2000 йил. № 5,

bo'lgan, umrlarining oxiriga qadar hurmatlarini bajo keltirishgan. Qabrlari bugungi kunda ham mashhur ziyoratgohdir.

Xatibi Bog'dodiyning yozishicha, Termiziyning otasi - Ali ibn al-Hasan hadis ilmining bilimdon olimlaridan bo'lgan. U arab xalifaligining poytaxti bo'lgan Bog'dodda hadis ilmi to'g'risidagi bahsu munozaralarda faol ishtirok etgan. Hakim Termiziy "Ar-raddu alal-muattila" kitobida ta'kidlashicha, uning onasi va bobosi ham hadis ilmida etuk olimlardan bo'lishgan. Demak, Hakim Termiziy ilm o'chog'i bo'lgan xonadonda dunyoga kelgan va tarbiyalangan. Alloh

kalomiyu hazrat payg'ambarimizning muborak hadislariga asoslangan ilmiy muhit va tarbiya maskani Termiziyning istiqbolini belgilash va tafakkurini shakllantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qilgan.

Ilmiy va e'tiborli tasavvufiy manbalarda bu olim va orif zotning nomi hurmat bilan tilga olinadi. Jumladan, Abu Abdurrahmon Sullamiy (vaf. 1021) "Tabaqotus-sufiya"da u kishidan bir qancha hikmatli va ma'rifatga oid so'zlar naql qilsa⁹⁸, Farididdin Attor (1148/51-1219/21) "Tazkiratul-avliyo"da Hakim Termiziy: "shariat va tariqatda mujtahid", "hadis, rivoyat va xabar bobida ishonchli zot", "riyozat va karomoti ko'p", "xulqi ulug'" kabi sifatlar bilan eslab, "bag'oyat hikmat sohibi" bo'lganligidan "hakimul-avliyo" (valiylar hakimi) deb atalganiga diqqatni qaratadi⁹⁹.

Alisher Navoiy ham "Nasoyimul-mahabbat" tazkirasida, yozadi: "Muhammad bin Hakim Termiziy qaddasallo ruhahu ikkinchi tabaqadindur. Kuniyati Abu Abdullohdur-ulug' mashoyixlardandur. U Abu Turob Naxshabiy, Ahm Xizravayh va ibn Jalollar bilan suhbat qilgan, ko'p hikmatli so'zlari, zohir karomatlari va mashhur asarlari bor. Jumladan, "Xatmul-valoyat", "Nahaj", "Navodirul usul" va boshqalar. Zohir ilmida ham asarlari bor. Bir tafsir yozishga kirishgan, lekin tugatishga umri vafo qilmagan. Uning shogirdi Abu Bakr Varroq Hakim Termiziy har yakshanba Xizr alayhissalom bilan muloqot qilib turganini rivoyat qilgan¹⁰⁰.

Hakim Termiziy nafaqat hadis va shariat ilmlari bilimdoni, balki tasavvuf tariqati asoschisi hamdir. U ahli sunnat val jamoat e'tiqodiga

⁹⁸ Абу Абдурахмон Суллаймий. Табақотус-суфия. Миср, 1406 х. (1974), 217—220-бетлар.

⁹⁹ Фаридиддин Атор. Тазкиратул авлиё. Техрон, 1373 х. 514-523 бетлар.

¹⁰⁰ Алишер Навоий. Насойимул-махаббат. 20 томлик, 17-том, Т. Фан, 2001, 84-бет.

muvoŋiq "hakimiya" tariqatiga asos solgan va muxlislari ko'p bo'lgan.

Hujviriyy (vaf. 1072-1077) "Kashful-mahjub" asarida haq tariqatlardan ettinchisi "hakimiya" ekanligi, uning mansublari Hakim Termiziyning murshid, peshvo deb bilishlarini ta'kidlaydi.

Alisher Navoiyning «Nasoyimul-mahabbat» va "Maqomoti shoh Naqshband" asarlarida keltirilishicha, hazrat Bahouddin Naqshband yigirma ikki yil Hakim Termiziy tariqatiga ergashganlar va u kishining ruhoniyyatidan fayz olganlar.

"Maqomot"da yana naql qilinishicha, jazba tekkan oriflardan biri SHayx Abdulloh Xo'jandiy shunday deydi: "... nogoh Termizga borib qoldim. Xoja Hakim Termiziyning munavvar marqadlariga tavajjuh qildim. Meni uyqu elitdi. Tushimda menga dedilar: "Men Xoja Muhammad Ali Hakim Termiziyman..." YOnlarida nuroniy bir pir bor edi. "Ular Xizr alayhissalomdirlar. Ammo sen hozir o'zingga tashvish berma va iztirobga tushma, sen qidirayotgan narsa o'n ikki yildan so'ng Buxoroda, o'sha davrning qutbi zamoni bo'lgan Xoja Bahouddin Naqshband huzurida hosil bo'ladi", - dedilar¹⁰¹. Demak, Termiziyning ta'limoti naqshbandiyadek hayotbaxsh tariqatga asos bo'lgan va Allohning izni bilan ikki buyuk valiy orasida ruhoniyy aloqa va irtibot bo'lgan.

Hakim Termiziy tafsir, tasavvuf, mashoyix tarixi, hadis, fiqh, kalom, axloq va nafs masalalariga doir bir qancha asarlar yozgan. Ularning soni manbalarda 30 dan 126 gacha kitob va risolalardan iborat, deb qayd etiladi¹⁰².

Filologiya fanlari doktori Abul Husayn Zarrinko'bning

aniqlashicha, Hakim Termiziyning quyidagi asarlari nashr etilgan:

1. "Navodirul-usul fi ma'rifati axborir-rasul", Dimishqiy sharhi, Istanbul, 1293 h.q. (mel.1876 y).
2. "Xatmul-avliyo", Usmon YAhyo nashrga tayyorlagan. Bayrut,

1925y.

¹⁰¹ Қаранг: «Термиз тазкираси». (Мусанниф М. Кенжабек). Тошкент, 2001, 16 – 37 бетлар.

¹⁰² Иброҳим Худоёр. Ишқ Жайхурнинг йўлдоши. Гулистон, 2000. №5.

3. "Risolutu bayonil-farq baynas-sadr val-qalb val-Fuod, val- lubob". Nikelos Hir. Qohira, 1958 y.

4. "Risolutu arshil-muvahhidin", Raul Sdath, Qohira (Misr), 1946

y.

5. "Kitobur-riyoza", "Adabun-nafs". Orberi, Ali Hasa Abdulqodir.

Qohira (Misr), 1946.

6. "Haqiqatul-adliya" Abdulmuhsin al-Husayniy, Iskandariya

(Misr), 1946.

7. "Masoilut-ta'bir", Orberi. Italiyadagi "Mutola'oti sharqiy" jurnali, inglizcha tarjimasi bilan, 1940.

8. "Ar-raddu alar-rofiza val-aqya val-havo". Istanbul, "SHarqiyot majmuasi", 1966.

9. "Risolai Buduvv-ush-sha'n". Karachi, Pokiston. "Mutola'oti islomiy" jurnali 1.

Mazkur kitoblardan tashqari "Ilal-ubudiya", "Al-akyos val mug'tarrin", "Bayon ul-kasb", "Al-maknun va isolatu mokona va mo yakun", "Azobul-qabr", "At-tavhid", "Tari-xul-mashoyix", "Odobul-muridin" kabi asarlar yozganligi ham manbalarda qayd etiladi¹⁰³. Olimlarning aniqlashicha, Hakim Termiziy asarlari Muhiddin ibn

Arabiy, Hujviriy, Subkiy, Zahabiy, Ibn Hajar Asqaloniy, Abdurahmon Jomiy, Ibn Taymiya, Hoji Xalifa, Imom SHa'roniy va boshqa olimlarning ijodiga u yoki bu darajada ta'sir etgan.

Hakim Termiziy o'zidagi ilmu ma'rifatni o'zidan keyingi nasllarga etkazishda ham faol bo'lgan. U ko'plab orif va fozil insonlarni etishtirgan. SHulardan ikkitasini eslash kifoya. Biri "avliyolar muallimi" sifatini olgan Abu Bakr Varroq Termiziy,

¹⁰³ Абдулхусайний Зарринкўб. Жустужў дар тасаввуфи Эрон. Душанбе. «Ирфон», 1992. 43-49 бетлар.

ikkinchisi "qalblar josusi" laqabiga sazovor bo'lgan Hasan ibn Ali Jurjoniyydir. Biroq, Termiziyning hayoti va ijodi bilan bog'liq voqealar, uning ta'limoti, ko'rgan tushlari, karomati va Xizr alayhissalom bilan bo'lgan muloqotlari asosan, Abu Bakr Varroq Termiziy orqali xalq orasida keng tarqalgan. Biz bu orif va ulug' avliyolardan bo'lgan shogirdi haqida ham tazkiralarda e'tiborga molik ma'lumotlarni uchratamiz.

Hakim Termiziy valiy tushunchasini tariqatga kiritganlar. Valiyligni inkor etuvchi ikkita oqim – mo'azzaziyalar va antropomorfistlar mavjud.¹⁰⁴ Mo'azzaziyalar bir musulmonni ikkinchisidan farqini inkor etadi. Antropomorfistlar esa alohida qobiliyatli insonlar avval bo'lganlar, hozir ular yo'q deyilar.

Xarroziya Abu Said Ahmad ibn Isa al-Xarroz yo'lini davom ettirganlar. Bu yo'l xarroziya tariqati nomi bilan tarixga kirgan. Abu Said Ahmad ibn Isa al-Xarroz (890 yil vafot etgan) foniyy va boqiy haqidagi ta'limotni bayon etgan birinchi so'fiydir. SHu ikki tushuncha asosida tariqatga o'z munosabatini asosladi.

Hujviriyy xarroziya yo'lini bayon etib butun mavjud narsalarni

ilmiy jihatdan uchga bo'ladi.

1. Ibtidosi va intihosi bo'lgan mavjudot. Masalan: bu bor bo'lgan

dunyo – u bir vaqt vujudga kelgan va ma'lum vaqt yo'q bo'ladi.

2. Ibtidosi bo'lgan lekin yo'q bo'lmaydigan mavjudlik. Masalan, jannat va do'zax, oxirat va unda yashovchilar.

3. Doimiy bor bo'lgan va bo'ladigan mavjudlik. Bu Ollohning

borlig'i va uning sifatlari.

Holga nisbatan fano va baqo quyidagi mazmunga ega:

Fano - yo'q bo'lish, foniyy bo'lish. Narsa va ashyolarning so'fiy nazaridan barham topishiga fano deyilur. Fanoning tub ma'nosi - qulning yomon axloq va fe'llarni tark qilib, Allohning go'zal sifatlari

¹⁰⁴ Кашф ал-махжуб. 212-бет.

va ilohiy fe'llariga erishishi, bashariy irodadan ilohiy irodaga ko'chishi. Qushayriy fanoni uchga ajratgan:

1. Ilk fano - qulning o'zidan va yomon xulq-atvoridan foniy bo'lishi.

2. Ikkinchi fano - Haqni tomosha aylagan qulning Haq sifatlaridan ham foniy bo'luvi.

3. Uchinchi fano Haqning borlig'ida yo'q bo'lgan qulning o'z fanosini ko'rishdan ham foniylikidir. Fano holidagi oshiq «men»ligini unutishi bilan tavhidga sohib bo'ladi. Tavhidning yuqori darajasi esa yana shudir. Fanofilloh esa inson zot va sifatining Haq zoti va sifatida foniy bo'lishi. Tasavvufda fano fil ishq nazariyasi ham yaratilgan. Bu nazariyaga ko'ra, ko'ngil tasfiyasi va ruhni darajama-daraja yuksaltirish orqali fano fil ishq marhalasini egallaganlar ishq, oshiq va ma'shuq birligiga erisharlar. YA'ni ishq, oshiq va ma'shuq orasida hech qanday farq va ajralish bo'lmas. Bu - ishqning bashariy his-tuyg'ularni ilohiylashtirishi demak.

Baqo - fanoning ziddi, davomiylik. Tasavvufiy istilohda qulning o'zida mavjud narsalardan kechib, Allohga oid haqiqatlar bilan baqoga erishishi. Bashariy irodadan ilohiy, ya'ni eng oliy irodaga yuksalish.

Insonning to'la o'z-o'zini anglashi – bandalik holiga etishi fano va baqodir. Fano odamiyat – bashariyat sifatlarni yo'q bo'lishi, baqo bu xizmatdagi sodiqlikdir.

Naqshbandiya Abu Said Xarroz (890 yil vafot etgan) asoslagan xarrozniya tariqidan fano va baqo tasavvufiy hollarini qabul qilgan.

Hafifiya SHerozdan bo'lgan Abu Abdulloh ibn Hafif (982 yil vafot etgan) izdoshlari yo'lining nomidir. Abu Abdulloh ibn Hafifni Hujviriy o'z davrining imomi edi deb ta'riflaydi. U ibn Ato, SHibliy, Husayn ibn Mansur va Jurayriyni bilgan va Makkada Abu YA'qub Naxrajuriy bilan hamsuhbat bo'lgan. U shohlar avlodidan bo'lsa ham butun dunyoviy narsalardan ko'nglini uzib tajrid holiga etgan edi.

Hafif tavhid haqidagi g'oyaga maxsus e'tibor bergan. U tavhidni insonning o'z bashariy tabiatidan uzilishdadir deydi.

Hafifiya tasavvufda g'aybat va huzur haqidagi ta'limot asosida qurilgan. **G'aybat-huzur** - solikning qalbidagi diniy-ilohiy ma'nolar

ila mashgʻul boʻlib, moddiy olamdan forigʻ qolishi, xalqning ahvolidan bexabarlik, vajd va istigʻroq holi. Gʻaybat holida qul moddiy olam bilan bogʻlaydigan hissiyotlarni tark etib, ilohiy huzurda tajallilarni tomosha aylar ekan, barcha narsani unutadi. Naql qilinishicha, Junayd Bagʻdodiy bir kuni xotini bilan oʻtirar ekan, huzuriga SHibliy kirib kelibdilar. U zotni koʻrgan ayol oʻrnidan turib, yashirinmoqchi boʻlibdi. Eri esa unga:

«SHibliyning sendan mutlaqo xabari yoʻq (u gʻaybat holidadir), joyingda oʻtiraver», debdi. Bir oz fursatdan soʻng Junayd SHibliy bilan shunday gaplashibdiki, natijada SHibliy yigʻlay boshlabdi. Va shunda Junayd xotiniga: «SHibliy oʻziga keldi, gʻaybat holi zoyil boʻldi, endi bekinaver», degan ekan.

Huzur - xalqdan kechib, Haqqa yuz burish. Bunda huzur rohat maʼnosida emas, balki Haqning huzurida boʻlmoq, Alloh tajalliyotiga vosillikni anglatadi. Qushayriyning taʼkidlashicha, «Huzur holi Haq zikrining qul qalbini egallash surati ila yuzaga chiqur.. U zamon qul qalbi bilan ulugʻ Rabbining huzuriga chiqar. Qulning xalqdan gʻaybati nisbatiga qarab Haq bilan boʻlgan huzuri mukammallashur». Gʻaybatga

«huzuri xalq», huzuriga «huzuri Haq» deyilur». Naqshbandiyada Huzur rashhasida oʻz aksini topgan. Naqshbandiya taʼlimotida ham gʻaybat va huzur holatlariga eʼtibor mavjud. Bu taʼlimotdagi yodkard, bozgasht, nigahdosht, yoddosht rashha-hayotbaxsh tamoyillari shunga qaratilgandir. Naqshbandiyada asosiy eʼtibor Ollohdan ogoh va huzur holatida boʻlishga qaratilgan.

Sayyoriylar Abul Abbos Qosim ibn al-Mahdi as-Sayyoriy (h.IV- asr. vafot etgan) yoʻlining davomchilaridir. Sayyoriy Marvdagi ziyoli va obroʻli oila avlodidir. Otasidan katta boylik qoldi. U butun boyliklarni paygʻambarimizni ikki soch tolasiga almashtirib, oʻlayotganda oʻshani ogʻziga olib jon bergan.¹⁰⁵ Qabri ham Marvda boʻlib, katta ziyoratgohdir. U Abu Bakr Vositi bilan hamsuhbat boʻlgan. Hujviriyy yozadiki, sayyoriylar oʻzlarini dastlabki yoʻnalishlarini saqlagan yagona tariqatdir, chunki ular hech vaqt Sayyoriy yoʻliga sodiq boʻlgan ustozsiz qolmagan.

¹⁰⁵ Хужвирий. Кашф ал-махжуб. 156-бет.

Marv va Nasdagi sayyoriylar bir-biri bilan aloqada bo'lganlar va maktublar yozganlar. Hujviriylar bu maktublar juda mazmunli deb

maqtaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Ilk va yirik tariqatlar haqida nimalarni bilasiz?
2. Yirik tariqat vakillaridan kimlarni bilasiz?
3. Markaziy Osiyodagi qanday yirik tariqatlar va ularning vakillarini bilasiz?

Mavzuni chuqurroq o'rganish uchun quyidagi adabiyotlarni o'qib chiqing

1. Ahmad YAssaviy. Hikmatlar. –T.: “O‘zbekiston”, 1993.
2. “Komil inson haqida to‘rt risola” (N.Komilov tarjimasi). –T.: “Ma’naviyat”, 1998.
3. Bertels E.E. Izbirannaya trudy. Sufizm i sufiyskaya literatura. -M.: “Nauka”, 1965. Str. 13-103.
4. Ibn Arabi. Gemmy mudrosti (glavy). Perevod A.V. Smirnova. V.Kn. M.Stepanyans. Filosofskie aspekty sufizma. -M.: “Nauka”, 1987. Str. do-119.
5. Doktor Abdulhusayn Zarrinko‘b. Justujo‘ dar tasavvufi Eron. Ikki jildlik (fors tilida). Tehron, hijriy 1349.

- 6.Komilov N. Tasavvuf. 1-kitob. –T.: “YOzuvchi”, 1997.
- 7.Komilov N. Tasavvuf. 2-kitob. –T.: “O‘zbekiston”, 2000.
- 8.Haqqulov I. Tasavvuf saboqlari. “Buxoro” nashr., 2000.

22-Mavzu: O‘rta Osiyoda kubroviya tariqati

Reja:

- 1.O‘rta Osiyoda Najmiddin Kubro hayoti va uning “Usuli ash’ara” asari.
- 2.Kubroviya tariqatining O‘rta Osiyoga tarqalishi.
- 3.Najmiddin Kubroning mo‘g‘ullar qo‘lida shahid bo‘lishi va Najmiddin Kubro merosining o‘rganilishi

Tasavvuf komilik yo‘li, milliy, ma’naviy meros umuminsoniy qadriyat hamdir. Tasavvuf insonparvarlik g‘oyalarini takrg‘ib etuvchi falsafiy ta’limotlar bilan uzviy bog‘langan. Tasavvuf insonning mohiyati, jamiyatda tutgan, hallolik, mehnat, vijdon, iymon kabi xislatlarni falsafiy tahlil etinshning o‘ziga xos yo‘li bo‘lsa, Najmiddin Kubro yangi yo‘nalishga asos solgan buyuk mutaffakkir alomadir.

Najmiddin Kubro shogirdlarini ezgulikka, ilmga, saxovat va mardlimkka da’vat etgan. Muridlari orasidan SHayx Majdiddin Bag‘dodiy, SHayx Sayfuddin Boxarziy, SHayx Sa‘didin Hamaviy singari musulmon olamiga n6omi ketgan valiy insonlar etishib chiqdilar. Najmiddin Kubro tabiatida donishmandlik, mantiqiy tafakkur va majzublik uyg‘unlashib ketganki, uning so‘fiyona amallari va qarashlarida ham xilma-xil tomonlar ko‘ga tashglanadi. Xonaqohda xilvatnishinlik va chilla o‘tirish ham, botiniy-hafiy zikr, qizg‘in bahs-munozara ham, samo’ majlislari ham bo‘lib turgan. Kubro murid tarbiyasiga alohida e’tibor qaratib, ularning qaysi mazhab va oqimdan

bo'lishidan qat'iy nazar, ma'naviy yuksalishida hamda tariqat ilmini chuqur egallashi uchun ilohiy fayz orqali ta'sir ko'rsatgan.

SHayx Najmiddin Kubro asos solgan tariqatning o'ziga xos jihatlari, uning dunyoqarashida ham, amaliy ishlarida ham ko'zga tashlanadi. Kubro Muhammad s.a.v.ning "O'lmasdan burun o'lingiz" hadisi mohiyatini tariqat yo'lining ixtiyoriyligi va ko'ngililigi bilan bog'laydi. Uning fikricha, dunyo-o'ylash o'rni, ibrat manzili, ishrat saroyi, ko'prik binosi, mo'minlarning ekinzori, qidiruvchilarning bozori, intiluvchilarning savdo do'koni, izlanuvchilarning ulovi, suluk yo'liga kirganlarning ma'shuqasi, soliklarning o'tar joyi, oriflarning axlatxornasi va shaytonlarning o'lkasidir. Dunyo har dlayhza o'zi uchun bir do'st tanlaydi. Har soat birovni o'ldiradi. Uni sevganlar o'ldan ozganlar, unga ishlonganlar o'lim bo'9sag'asida bosh qo'yganlardir. Undan voz kechgan farog'atda yashaydi, unga intilgan faqat u bilan shug'ullanadi, uning bilan savdo qilgan adashadi, unga ko'ngil berga yo'ldan ozadi.

Tasavvuf ta'limotining buyuk siymolaridan yana biri Najmuddin Kubro

(1145-1221) edi. U Xorazmda so'fiylik maktabini ochib, "kubraviya" sulukiga asos soladi. U "Fa-voih al-jamol va favotih al-jalol" ("Jamolining muattarlari va kamolotning egalari"), "Al-usul al-ashara" ("O'nta qonun va qoidalar") nomli qator risola va asarlar yozib, tasavvuf ta'limotini yanada rivojlantiradi. Kubraviya sulukining asosini "tavba", "zuhr" (mol-dunyodan voz kechish), "tavakkul" (Olloh yo'lida), "qanoat", "uzlat", "zikr", "tavajjuh", "sabr", "muroqaba" (kamolot topish) va rido (haqqa etishish) kabi o'nta qonun-qoida ifodalaydi. YAssaviy sulukidan farqli o'laroq, kubraviya ta'limoti tarkidunyochilikni rad etadi. Kamolot yo'lida olib boriladigan mashaqqatli mehnat jarayonida budunyo noz-ne'matlaridan bahramand bo'lishning joizligi g'oyasi ilgari suriladi. Kubraviya ta'limotida xalqqa va Vatanga bo'lgan muhabbat nihoyatda kuchli bo'lib, har qanday og'ir damlarda ham omma bilan birga bo'lish, Vatanni mudofaa qilish va uning mustaqilligi uchun kurashga da'vat etiladi. Bu muqaddas g'oya yo'lida Najmuddin Kubro shaxsan o'zi hayotlik chog'idayoq izdoshlariga jasorat o'rnagini namoyish qiladi. 1221 yilda CHingizxon boshliq mo'g'ul bosqinchilari Xorazmga hujum qilib, Urganch shahrini qamalga olganlarida

Najmuddin Kubro qo'liga qurol olib, o'z shogird va izdoshlarini orqasidan ergashtirib, shahar aholisi bilan bir safda turib, dushmanga qarshi g'azotda qatnashadi. SHahar ichvda bosqinchilar bilan bo'lgan shiddatli jangda bu ulug' shayx o'z suhbatdoshlari bilan birga shaxid bo'ladi. Tasavvuf XIV asrda naqshbandiya ta'limotida yanada rivoj topadi. Unga Bahouddin Naqshband asos solgan. "Naqshband" uning taxallusi bo'lib, asli nomi Muhammad ibn Jaloluddin al-Buxoriydir. U 1318 yilda Buxoro yaqinida Qasri Hinduvon qishlog'ida matolarga naqsh bosuvchi hunarmand oilasida dunyoga keladi. YOshligidan o'qish va ta'lim olish bilan bir qatorda kimxob matoga gul bosishni puxta o'rganib, ota kasbi – naqqoshlikni egallagan, so'ngra o'z kasbida mahoratga erishib, dovrug' qozongan. Ayni zamonda o'z davrining atoqli shayxlari Xoja Muhammad Boboyi Samosiy, Amir Sayyid Kulol va boshqalardan odobi tariqatdan ta'lim oladi.

Najmiddin Kubro tariqat ahlining zaif kishilar oldida toat-ibodatni beza ko'rsatishi, o'z ishiga baho berib, riyo va munofiqlik qilishi, xalq tomondan ko'rsatilgan ixlosni yoqtirib, qo'lni o'ptirishi, o'zining tabarruk sanalishi va ziyorat qilishlarini xush ko'riishi, odamlar olqishini istashi, samo' majlislarida hozir bo'lib, favqulodda hodisalar ko'rsatishga intilishida, xo'ja ko'rsin uchun ro'za tutib, oz ovqatlanishni ko'rsatishi, yolg'ondan yig'lashi, lablar bilan tamshanib, ko'z bilan ishora qilishi, qalbi huzursiz Allohga yolvorishi, yamalgan liboslar kiyishi, tushlar kshrib o'tmish va kelajak haqida hukm yurgizishi, ojiz kishilarni ko'rish bilan toat- ibodatda mubolag'a qilishi, ammo xilvatda (yolg'iz qolganda) ibodatda dangasalik qilishi, majlislarda to'rga o'tib, samo' majlislarida haddan oshishini tanid qilgan. SHayx Najmiddin Kubroning huzuriga Eron, O'rta Osiyo, Mirs, Kavkaz, SHom, Iroqning turli o'lkalaridan muridlar kelib, tarbiya topganlar, shayx ma'rifatidan bahramand bo'lib, uning suhbatida ishtirok etganlar.

Hozirgi kungda Evropa mamlakatlari va boshqa davlatlarda kubroviylik tariqatiga tariqatiga e'tiqod qilayotgan, ushbu ta'limotni o'nganayoitgan, targ'ib qilayotgan ko'pla guruh va ilmiy tashkilotlar ham mavjud. Jumladan, Eronda faoliyat ko'rsatayotgan kubroviylik tariqatining bir tarmog'i bilan ne'matullohiya tariqatini o'rganuvchi xonaqohlar Angliya, Fransiya, Germaniya, Gollandiya, Avstraliya, Rossiya, Aqsh va Pokiston mamlakatlarida mavjud.

Kubroviylik tariqatidan ajralib chiqqan kichik tariqat yoki shaxobchalar quyidagilardir:

1. Firdavsiya tariqati SHayx Najmiddin Kubroning shogirdi Sayfiddin

Boxarziydan bogshlanib, uning nufuzi xalifalaridan biri Badriddin Firdavsiy (vaf.

1300 y) nomi bilan bog'liqdir. Ushbu tariqat Hindistonning Dehli va Bihar viloyatlarida keng tarqalgan.

2. Nuriya tariqati asoschisi Nuriddin Abdurahmon Isfaroiniy (vaf. 1317 y.)

bo'lib, kubroviyaning Bog'doddagi shaxobchasidir.

3. Rukniya tariqati kubroviya tariqatining Xurosondagi shaxobchasi bo'lib, nomi tariqat asoschisi Rukniddin ibn Abulmakorim Ahmad Alouddavla Simnoniy (vaf. 1336 y.) nomidan olingan. U Xuroson tasavvuf olamida buyuk mutasavvif va valiy zot deb ulug'langan.

4. Hamadoniya tariqati Hindistonning Kashmir viloyatida keng tarqalgan. Rukniya tariqatidan ajralib chiqqan ushbu shaxobcha Sayyid Ali SHahobiddin Hamadoni (vaf. 1385 y.) nomi bilan bog'liq bo'lib, hind diyorida islom dinining tariqat orqali keng yoyilishida bu zotning xizmati kattadir.

5. Ig'tishoshiya tariqati asoschisi Ishoq Huttaloni (vaf. 1423 y.) bo'lib, Xurosonda keng tarqalgan.

6. Nurbaxshiya tariqati Ishoq Huttaloni (vaf. 1423 y.)ning shogirdi Muhammad ibn

Abdulloh Nurbaxsh (vaf. 1464 y.) nomi bilan bog'liqdir.

7. Nema'tullohiya tariqati asoschisi Sayid Ne'matulloh Valiy (vaf. 1461 y.) bo'lib, Eronda keng tarqalgan. Mazkur tariqatning g'arb mamlakatlarida ham xonaqohlari mavjud. Tariqatning hozirgi rahbari doktor Javd Nurbaxshdir.

Kubroviylik tariqatining shaxobchalari turlicha bo'shlsa ham, asl maqsad va maslaklari birdir. YUqorida zikr etilgan tariqat

yoʻnalishlari SHayx Najmiddin Kubro tomonidan nazariy asoslangan qoidalarga tayanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Kubroviya tariqati haqida nimalarni bilasiz?
2. Najmiddin Kubro haqida nimalarni bilasiz?
3. Oʻrta Osiyo maʼnaviy hayotida Kubraviylikning ahamiyati nimda?

Mavzuni chuqurroq oʻrganish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Haqqulov I. Tasavvufiy hayot. -Toshkent: Movarounnahr, 2004 .-B. 261
2. Komilov N. Tasavvuf. 1-kitob. –T.: «YOzuvchi», 1997.
3. Komilov N. Tasavvuf. 2-kitob. –T.: «Oʻzbekiston», 2000.
4. Haqqulov I. Tasavvuf saboqlari. «Buxoro» nashr., 2000.

Mustaqil taʼlimni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishni tayyorlash muayyan fanining xususiyatlarini va mustaqil talim uchun ajratilgan soat xajmi hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- Seminar mashgʻulotlariga tayyorgarlik.
- darslik va oʻquv qoʻllanmalari boʻyicha fan boblari va mavzularni oʻrganish;
- taraqatma materiallar boʻyicha maʼruzalar qismini oʻzlashtirish;

– maxsus adabiyotlar bo‘yicha fanlar bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

– talabalarning o‘quv – ilmiy – tadqiqot ishlarini bajarishi bilan bog‘liq bo‘lgan

fanlar bo‘limlari va mavzularini chuqur o‘rganish;

– faol va muammoli o‘qitish uslublaridan foydalanadigan o‘quv mashg‘ulotlari; Mustaqil ishga mo‘ljallangan mavzular ro‘yxati va ularni tayyorlash uchun zarur bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati oldindan talabalarga taqdim etiladi. Talabalar, Ushbu mavzularga mustaqil tayyorlanib, ularni referat, ma’ruza, slayd prezintatsiya, manbalar sharxi kabi shakllarda topshiradilar.

Tavsiya etiladigan mustaqil ish mavzulari:

1. Mustaqillik davrida O‘zbekiston Respublikasida yubileylari nishonlangan

O‘rta Osiyolik allomalar haqida ma’lumot tayyorlash.

2. Imom al-Buxoriy, Ahmad Fag‘oniy va Burhoniddin Marg‘inoniyning

yubileylari tadbiriga oid fotoalbom tayyorlash.

3. “Musulmon Uyg‘onish davrida O‘rta Osiyoda ilm-fan” mavzusida referat yozish.

4. O‘zRFA SHarqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan allomalarimizning asarlari ro‘yhatini tuzish.

5. “ Islom va ilm ” mavzusida ilmiy maqola yozish.

6. “Muso Xorazmiy va Abu Abdulloh Xorazmiylarning dunyo sivilizatsiyasidagi o‘rni haqida” esse yozish.

7. O‘rta Osiyolik allomalar ijodida ilmlar tasnifi mavzusida referat tayyorlash.

8. “A. Mets Musulmon Uyg‘onish davri muammosi bilan shug‘ullangan

sharqshunos olim” mavzusida ilmiy maqola yozish.

9. “F. Rouzentel Qur’onda “ilm” tushunchasini tahlil qilgan olim” mavzusida ilmiy maqola yozish.

10. Qur’oni Karimning o‘zbekcha tarjimalari xususida ma’lumot tayyorlash.

11. At-Termiziyning “Ash–SHamoil an–nabaviya” asari xususida ma’lumotnoma

yoziq.

12. “Ahmad al – Farg‘oniy O‘rta Osiyolik mashhur mutafakkir” mavzusida

ma’ruza tayyorlash.

13. “Abu Nasr Farobiy ulug‘ qomusiy alloma mavzusida ” referat yozish.

14. “Qaffol ash–SHoshiy - Xazrati Imom” mavzusida ilmiy-ommabop maqola tayyorlash.

15. “Abu Mansur al Moturidiy buyuk kalom imomi” mavzusida kichik tadqiqot yaratish.

16. Abu Ali ibn Sino asarlari bibliografiyasini tuzish.

17. “Abu Ali ibn Sino buyuk qomusiy alloma” mavzusida ma’ruza tayyorlash.

18. Abu Rayxon Beruniy asarlari bibliografiyasini tuzish.

19. “Abu Rayxon Beruniy Xorazm Ma’mun akademiyasining yirik olimi”

mavzusida referat yozish.

20. “Abu Mu’in Nasafiy islom islohiyotchisi” mavzusida referat yozish.
21. “Mahmud Zamaxshariy jahon fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa
qo‘shgan allomasi ” mavzusida referat yozish.
22. “Burhonuddin Marg‘inoniy va uning “al – Hidoya” asari” mavzusida ilmiy maqola yozish.
23. Vatanimizdan etishib chiqqan tasavvuf allomalari xaqida ma’lumot bering.
24. ”O‘rta Osiyoda tasavvufning yoyilishi” mavzusida referat tayyorlash .
25. ”O‘rta Osiyoda tasavvufning tushkunlikka uchrashi” haqida ilmiy ma’lumot
tayyorlash.
26. Tasavvufning kelib chiqishi xususida internet materiallari asosida ma’ruza
tayyorlash.
27. Tasavvuf tarixini yoritgan g‘arb olimlari haqida bibliografik ma’lumot to‘plash.
28. Tasavvufning islomiy manbalari xususida ilmiy ma’ruza tayyorlash.
29. Tasavvuf ulug‘larining Qur’on to‘g‘risida aytgan so‘zlarini to‘plash.
30. O‘zbek tasavvufshunos olimlari haqida ma’lumot to‘plash.
31. Axmad YAssaviyning xayot yo‘lini yoritish.

32. Najdimiddin Kubroning vatani uchun qilgan xizmatlari haqida esse yozish.
33. “Bahovuddin Naqshbandiyning tasavvufga qo‘shgan hissasi” mavzusida referat yozish.
34. YAssaviya tariqatning o‘ziga xosligi xususida baxsga tayyorgarlik ko‘rish.
35. Naqshbandiya tariqatining asosiy qoidalarini yozish.
36. Tasavvufda Xoja Ubaydulloh Ahrorning roli mavzusida referat yozish.
37. Aziziddin Nasafiyning komil inson xaqidagi fikrlarini to‘plash.
38. So‘fiyyona adabiyotning asosiy mavzularini tuzish.
39. “Alisher Navoiy ijodida komil inson timsoli” mavzusidagi davra suhbatiga tayyorgarlik.
40. Tasavvufning falsafa va xikmat ilmi bilan bog‘liqliqligi haqida ilmiy ma’lumotnoma yozish.
41. “So‘fiy Olloyorning asarlarining o‘z davri uchun ahamiyati” mavzusida referat tayyorlash.
42. Abdurahmon Jomiyning “Nafohat ul uns” asari xaqida ma’lumot tayyorlash.
43. Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy” asari xaqida ma’lumot tayyorlash.
44. “Najimiddin Kubro asarlarida inson ma’naviyati” mavzusida esse yozish.
45. Farididdin Attorning “Tazkirat ul avliyo” asari xaqida ma’lumot tayyorlash.

46. Hakim at Termiziyning “Buston al ma’rifat” asari xaqida ma’lumot

tayyorlash.

47. Mansur Xalloyning “anal xaq” qoidasini mohiyatini yoriting.

48. “Bugungi kunda mamlakatimizda Tasavvuf allomalariga e’tibor” mavzusida referat tayyorlash.

Izoh: Mustaqil ta’lim mavzulari ajratilgan mavzuga mos holda tanlab belgilanadi.

Dasturning informatsion - metodik ta’minoti

Mazkur fanni o’qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo’llanilishi nazarda tutilgan.

Dasturda ko’rsatilgan mavzular ma’ruza, seminar shaklida olib boriladi. SHuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ish sifatida o’zlashtirish uchun beriladi. Fan zamonaviy pedagogik texnologiyaning qo’yidagi:

- Aqliy xujum;
- Klaster;
- “Bumerang” texnologiyasi;
- “Veer” texnologiyasi
- Muammoli o’qituv texnologiyasi;
- O’yinli o’qitish texnologiyasi;
- Informatsion va telekommunikatsion ta’lim texnologiyasi;

- Inovatsion ta'lim texnologiyasi singari metodlari orqali qo'llaniladi. Xuddi shu kabi slaydlar, multimedia namoyishlarini qo'llash ham nazarda tutiladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni // Lex.uz // 08.02.2017.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Kuch – adolatda. O'zbekiston Respublikasi sudining huquqiy gazetasi. 2018 yil 29 dekabr, №52-53(722). –B.3.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida / Rasmiy nashr/ O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: «Adolat», 2018. –B.25-26.

5. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili» da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 22 yanvar 2018 yil.

6. «Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida»gi Prezident Qarori / «Xalq so'zi» gazetasi. 2018 yil, 15- may.

Mirziyoev SH.M. Tinchlik, ma'rifat va bunyodkorlik yo'lida hamkorlik // «Xalq

so‘zi» gazetasi. 2016 yil, 19 oktyabr.

8. Mirziyoev SH. YANGI O‘ZBEKISTON
STRATEGIYASI-Toshkent:

“O‘zbekiston” , 2021.464 bet.

7. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2017. – B.5.

8. Mirziyoev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2018. – 508.b.

9. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-tom./ «Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, mukaddas dinimizning sofligini asrash - davr talabi» mavzusidagi anjumanda so‘zlangan nutq. 2017 yil 15 iyun. Toshkent. O‘zbekiston, -B.484

10. Mirziyoev SH.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat

Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent:
«O‘zbekiston» NMIU,

2018. – 80 b.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlangan nutqi. // <http://www.press-service.uz/uz/lists/view/>

20. Qur’oni Karim. Abdulaziz Mansur tarjimasini. –T., 2001.

21. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al- Buxoriy. Xadis 1-4 jild. - T., 1997.

22. Xoluq Nurboqiy. Qur’oni Karimning ilmiy mo‘‘jizalari. –T., 2002.

23. Abdurahmonov Abdulhay Saodatga eltuvchi bilim I-II kitob. - T., Movarounnahr, 2003.

24. Hamidov K. Olis – YAqin yulduzlar. – T., 1990.

25. Xayrullaev M. O‘rta Osiyoda ilk uyg‘onish davri madaniyati. – T.: Fan, 1994.
26. “Imom al-Buxoriy va uning dunyo madaniyatida tutgan o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. - Samarqand, 1998.
27. Moziydan taralgan Ziyo. Imom al – Buxoriy. – T., 1998.
28. Qayumov A. Ahmad Farg‘oniy. –T., 1998.
29. Zohidiy A. Turkistonda o‘rta asr arab – musulmon madaniyati. – T., 1990.
30. Hamidov K. Olis – yaqin yulduzlar. –T., 1990.
31. Moziydan taralgan ziyo. Imom al – Buxoriy. – T., 1998.
32. At – Termiziy. Sahihi Termiziy. – T., 1993.
33. Buyuk allomalar 1-2 j. – T., 1998-2000.
34. To‘lqin Hayit. “ Qoffol SHoshiy ”. - T., 2004.
35. SHayx Ismoil Maxdum. Toshkentdagi Usmon Mushafining tarixi. – T., 1995.
36. Muhammadrasul o‘g‘li A. “Qaffol SHoshiy ibrati”, “Hidoyat”, 2004.
37. Ibrohim Mikoil o‘g‘li Veliev. Qoffol SHoshiy. Qisqacha ma’lumotnoma. –T.: Istiqlol, 2005.
38. Abduqahhor Ibrohimov. Ma’mun akademiyasi. – T., 2005.
39. Abu Rayxon Beruniy. Tanlanganlar asarlar. – T.: Fan, 1973.
40. Kormilitsin A. Beruni i kniga. – T., 1993.
41. Beruniy tug‘ilgan kunining 1000- yiligi. – T.: Fan, 1973.

42. Irisov A. Abu Rayhon Beruniyning “ Hindiston ” asari. –T.: Fan, 1965.
43. Irisov A. Abu Ali ibn Sino. Hayoti va idodiy merosi. -T.: Fan, 1980.
44. Qodirov A. O‘rta Osiyoda meditsinaning paydo bo‘lishi. –T., 1990.
45. Sulaymonova F. SHarq va G‘arb. –T., 1997.
46. Komilov N. Tafakkur karvonlari. –T., 1999.
47. Qayumov A. Abu Rayxon Beruniy. Abu Ali ibn Sino. –T., 1987.
48. Abu Ali ibn Sino. – T., 1980.
49. Burhonuddin al- Marg‘inoniy. Hidoya. –T., 2000.
50. Abdulhakim SHar‘iy Jo‘zjoniy. Tasavvuf va inson. –T.: Adolat, 2001.
51. Abul Mu‘in an-Nasafiy. Tavhid qoidalariga muqaddima. T.: Movarounnaxr, 2006.
52. Xidirov A. Abu Rayhon Beruniyning tarixiy asarlari va ularning O‘zbekistonda o‘rganilishi. O‘zMU xabarlari. 2002 y. 3-son.
53. Abu Iyso at-Termiziy. Ash-shamoil an-nabaviya. U.Uvatov tarjimasi. -T.: CHo‘lpon, 1993.
54. Nasiruddin Burxoniddin Rabg‘uziy. 1-2 kitoblar YUusufxon SHokirov tarjimasi.
-T.: YOzuvchi, 1990-1991.
55. Ahmad Ziyovuddin al-Kumushxonaviy Jome’ ul-mutun. M.Kenjabekov tarjimasi. -T.: Movarounnaxr, 2000.
56. Jaloliddin Rumi. Ma’naviy masnaviy. Askar Mahkam tarjimasi. -T., 1999.

57. Alixontura Sogʻuniy. Tarixi Muhammadiya. -T.: Movarounnahr, 1997.
58. N. Komilov. Tasavvuf. 1-kitob. -T., 1996.
59. N. Komilov. Tasavvuf. 2-kitob. -T., 1999.
60. YU. Mahmud Aʼsad Jushon. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. II. Xasan tarjimasi. -T., 1998.
61. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. Nodirxon Xasan tarjimasi. -T., 1999.
62. Ernst Karl. Sufizm. -M., 2002.
63. Farididdun Attor. Ilohiynoma. N. Komilov tarjimasi. -T., 1994.
64. Farididdun Attor. Tazkirat ul-avliyo. M. Kenjabek tarjimasi. -T., 1997.
65. Xolluk Nurbokiy. Qurʼoni Karimning ilmiy mujizalari. Miraziz Aʼzam tarjimasi. T.: Adolat, 1999.
66. Mahmud Asʼad Jushon. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. N. Xasan tarjimasi. -T.: CHulpon 1998.
67. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. N. Xasan tarjimasi. -T.: Istiqlol, 1999.
68. Muhammad Siddik Rushdiy. Avliyolar Sultoni, turonlik valiyalar. Nashrga tayyorlovchi Ikromiddin Ostanaqul Oqqoʻrgʻoniy. -T.: Kamalak, 1995.
69. Mansurov SH. Gʻoyiblar xaylidan yongan chiroqlar. Muallif tuzuvchi Juraev. - T.: Oʻzbekiston, 1994.

70.Xusayn Voiz Koshifiy. Futuvatnomai sultoniyy yoxud juvonmardlik tariqati. N.

Komilov tarjimasi. T.: Abdulla Qodiriy, 1994.

71.Aziziddin Nasafiy. Zubdat ul - Xakoyik. N. Komilov tarjimasi.
- T.: Kamalak, 1995.

72. Jaloliddin Rumiyy. Ichingdagi ichingdadir. Ulug‘bek Abduvaxob tarjimasi.

- T.: YOzuvchi, 1997.

73. Xoji Ismatullox Abdullox. Markaziy Osiyoda islom madaniyati.
-T.: SHarq,

2005.

74. Ma’naviyat yulduzlari. -T., 2001.

75.Imom Abu Xomid Muhammad ibn Muhammad al-G‘azzoliyy. Ihyou ulumidin- din. -T.: Movarounnaxr, 2003.

76. SHayh Muhammad Sodiq Muhammad YUsof. Tasavvuf haqida tasavvur. -T.: Movarounnahr, 2004.

77.Ibrohim Haqqul. Taqdir va tafakkur. -T.: SHarq, 2007.

78. Ibrohim Haqqul. Meros va mohiyat. –T.: Ma’naviyat, 2008.

79.SH.G‘oyibnazarov. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbai. -T.:

O‘zbekiston, 2009.

80.“Ma’naviy tahdidlar va ularga qarshi kurashning ilmiy-mafkuraviy asoslari” mavzusidagi Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi materiallari. -T.: Muharrir nashriyoti, 2010.

81.Imom al-Buxoriy saboqlari ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal. 4/2011.

82.B. Namozov Xoja Muhammad Porsoning

83. Sirojiddinov SH. Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. -T.: Akademnashr, 2011.

84.Tafakkur durdonalari. 111 Vatandosh allomalarimizning hikmatli fikrlari. -T.: YAngi asr avlodi, 2012.

85. Farididdun Attor. Tazkirat-ul-avliyo. –T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2013.

86. SHayh Muhammad Sodiq Muhammad YUsuf. Samarqandning sara ulamolari.

–T.: Xilol-Nashr, 2014.

87. SHayh Muhammad Sodiq Muhammad YUsuf. Mazhablar – birlik ramzi. –T.: Xilol-Nashr, 2014.

88. www.eurasia.org.ru.

89. www.history.ru

Elektron resurslar

90. <http://www.philos.msu.ru/fac/history/>

91. www.museum.ru

Bobir Namozov

SHARQ ALLOMALARINING ILMIY-MA'NAVIY MEROSI

O'quv qo'llanma

<i>Muharrir:</i>	<i>A. Qalandarov</i>
<i>Texnik muharrir:</i>	<i>G. Samiyeva</i>
<i>Musahhih:</i>	<i>Sh. Qahhorov</i>
<i>Sahifalovchi:</i>	<i>M. Bafoyeva</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 02.12.2022. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog'oz. Bosma tobog'i 16,0. Adadi 100. Buyurtma №649.

“Sadridin Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadridin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45